# YO'L HARAKATI QOIDALARIGA

## SURATLI SHARHLAR




YANGI BELGILAR

MOPED VA SKUTERGA HAYDOVCHILIK GUVOHNOMASINI OLISH MAJBUR

AVTO HAMROH

2025

www.avtohamroh.uz

*Q. A. KARIMOVA, A. A. AKILOV*

# YO‘L HARAKATI QOIDALARIGA SURATLI SHARHLAR VA MAVZUGA OID TESTLAR

O‘quv-uslubiy qo‘llanma

*(2024 yil 17 iyulgacha bo‘lgan qo‘shimchalar bilan)*

«Avtohamroh» nashriyoti

UO'K: 656.11.05(075)
KBK: 39.808ya6
K25
Yo'l harakati qoidalariga suratli sharhlar va mavzuga oid testlar: o'quv-uslubiy qo'llanma / nashrga tayyorlovchilar Q. A. Karimova, A. A. Akilov, — Toshkent: «Avtohamroh», 2025. — 240 bet.

ISBN 978-9943-4591-3-7

UO'K: 656.11.05(075)
KBK: 39.808ya6

**Tuzuvchi-mualli lar:**
***Akmal AKILOV,*** *1995 — 2010 yillarda Shvetsariyadagi Xalqaro Yo'l Harakati tashkilotida O'zR IIV muxtor vakili, O'zR IIV Akademiyasi «Yo'l-transport harakati xavfsizligini tashkil etish» kafedrasi boshlig'i, polkovnik*

***Qumrixon KARIMOVA,*** *«Avtohamroh» jurnali Bosh muharriri, filologiya fanlari nomzodi*

**Taqrizchi:**
***Murodbek SHERLIYEV,*** *O'zbekiston Respublikasi IIV JXD YHXX boshqarma boshlig'i o'rinbosari*

*Muharrir:* Qumri Karimova
*Texnik muharrir:* Sunnat Xodjaaxmedov
*Dizayner, sahifalovchi:* Aman Nazrullayev
*Musahhih:* Sunnat Xodjaaxmedov

Nashriyot tasdiqnomasi: X-25333 – 19.03.2024 yil.
Bosishga ruxsat etildi: 12.01.2025 yil.
Shartli bosma tabog'i: 15,5. Nashr tabog'i: 7,9.
Bichimi: 60x90 $^1/_{16}$. Arial garniturasi.
Ofset bosma. Adadi: 10 000 nusxa.
Bahosi shartnoma asosida.

Nashriyot manzili: «Avtohamroh» nashriyoti, 100084,
Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 3-tor Bodomzor ko'chasi, 7-uy.
Tel/Faks: 99-865-54-50,
e-mail: eldor777@mail.ru

Bosmaxona manzili:
«YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE» MChJ
112001, Toshkent vil., Yangiyo'l sh.,
Samarqand ko'ch., 44 uy
Buyurtma № 1-25.

Qo'llanma tinglovchilar, haydovchilar, piyodalar, haydovchilik guvohnomasi olish uchun nomzodlarga va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Ushbu nashrga doir barcha huquqlar himoya qilinadi, suratlar va sharhlar «Avtohamroh» nashriyotiga tegishlidir. Undagi rasmlarni «Avtohamroh» nashriyoti roziligisiz o'zga usulda chop etish va ko'paytirish taqiqlanadi.

ISBN 978-9943-4591-3-7

© «Avtohamroh» nashriyoti, 2025 yil
© Q. A. Karimova va b., 2025 yil

# KIRISH SO'ZI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Hukumatning ayrim qarorlariga avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 429-son Qaror bilan Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan "Yo'l harakati qoidalari"ga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi.

Mazkur qarorda quyidagi asosiy tushuncha va atamalarga yangicha izoh berildi: velosipedchilar uchun tasma, mexanik transport vositasi, moped, mototsikl, piyoda va piyoda va velosiped yo'lkasi. Hamda yangi atamalar kiritildi: elektromototsikl, gibrid avtomobil, skuter, individual harakatlanish vositalari.

Qo'shimcha ravishda 2-bob "Haydovchilarning umumiy vazifalari" $12^1$, $12^2$, $12^3$ moddalari bilan to'ldirildi. U yerda individual harakatlanish vositalarini boshqarish paytida shaxslarga taqiqlangan qoidalar va majburiyatlar ko'rsatilgan.

Shuningdek 1-ilova "Taqiqlovchi belgilar" bobida yangi 3.5.1. "Skuter va mopedlar harakatlanishi taqiqlangan", va 3.34. "Individual harakatlanish vositalarini boshqarish taqiqlangan" belgilar hamda bir qator boshqa belgilarga qo'shimchalar kiritilgan.



3.5.1. 3.34.

4-ilovada Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 4-iyuldagi 191-son qarori bilan tasdiqlangan Avtotransport vositalari konstruksiyasining foydalanish shartlari bo'yicha xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentda belgilangan avtotransport vositalarini tasnifi (klassifikatsiyasi) keltirilgan, shunda yangi "L" toifasi - mototransport vositalari kiritildi. Maksimal konstruktiv tezligi soatiga 50 kilometrdan oshmaydigan, ichki yonuv dvigatelining ish hajmi 50 $cm^3$ gacha bo'lgan yoki elektrodvigatelining nominal maksimal quvvati 4 kilovattdan oshmaydigan ikki, uch g'ildirakli transport vositalari tasnifi berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan 2022-yil 1-maydan kuchga kirgan

# YO‘L HARAKATI QOIDALARI

## 1-BOB. UMUMIY QOIDALAR

**1.** Ushbu Yo‘l harakati qoidalari (keyingi o‘rinlarda — Qoidalar) O‘zbekiston Respublikasi hududida yo‘l harakatining yagona tartibini belgilaydi.

**2.** O‘zbekiston Respublikasi yo‘llarida transport vositalarining o‘ng tomonlama harakatlanish tartibi belgilangan.

**3.** Yo‘l harakati ishtirokchilari O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi Qonunini, ushbu Qoidalarni va ularda keltirilgan svetofor ishoralari, yo‘l belgilari (ushbu Qoidalarga 1-ilova), yo‘l chiziqlarining (ushbu Qoidalarga 2-ilova) talablarini bilishlari, ularga amal qilishlari, shuningdek, ularga berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

**4.** Yo‘l harakati ishtirokchilari yo‘ldagi boshqa harakat ishtirokchilarining harakatlanishiga to‘sqinlik qilmasligi va xavf tug‘dirmasliklari kerak.

Tegishli vakolatga ega bo‘lmagan yuridik va jismoniy shaxslarga yo‘l qoplamasini buzish, o‘zgartirish yoki unga zarar yetkazish, ifloslantirish, yo‘l belgilarini, svetoforlarni, shuningdek, yo‘l harakatini tashkil etishning boshqa texnik vositalarini o‘zboshimchalik bilan olib tashlash, o‘rnatish, to‘sib qo‘yish, shikastlantirish, yo‘llarda harakatlanishga to‘sqinlik qiluvchi qurilma va narsalarni qoldirish, tegishli ruxsatsiz yo‘lning qatnov qismiga to‘siqlar o‘rnatish yoki ularni to‘sib qo‘yish, “sun’iy notekislik” qurilmalarini o‘rnatish taqiqlanadi.

Harakatlanishga to‘sqinlikni yuzaga keltiradigan shaxs uni tezda bartaraf qilish uchun imkoniyati darajasida barcha choralarni ko‘rishi, agar buning iloji bo‘lmasa, mavjud barcha vositalar bilan xavf-xatar haqida yo‘l harakati ishtirokchilarini ogohlantirishi va ichki ishlar organlariga (keyingi o‘rinlarda — IIO) xabar berishi shart.

**5.** Mazkur Qoidalarni buzgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

**6.** Qoidalarda quyidagi asosiy tushuncha va atamalardan foydalaniladi:

**avariya holatini yuzaga keltirish** — yo‘l harakatining boshqa ishtirokchilarini harakat yo‘nalishi yoki tezligini keskin o‘zgartirishga, shuningdek, o‘z xavfsizligini yoxud boshqa fuqarolar xavfsizligini ta’minlash uchun o‘zga choralarni ko‘rishga majbur qilish;

**avtomagistral** — 5.1. yo‘l belgisi bilan belgilangan, har bir yo‘nalishning qatnov qismlari ajratuvchi mintaqa bilan ajratilgan (u bo‘lmaganda, yo‘l to‘siqlari bilan) hamda boshqa yo‘llar, tramvay va temir yo‘llar,



piyoda va velosiped yo‘lkalari bilan bir sathda kesishmaydigan yo‘l;

**avtopoyezd** — ulagich moslamalari bilan ulangan egarli shatakka oluvchi va yarim tirkama yoki yuk avtomobili hamda tirkama (tirkamalar)dan iborat transport vositasi tarkibi;

**ajratuvchi mintaqa** — yo‘lning yonma-yon joylashgan qatnov qismlarini ajratuvchi, transport vositalari harakatlanishi yoki to‘xtashi uchun mo‘ljallanmagan, yo‘l

** Bu yerda yo‘l belgilari raqami 1-ilovaga muvofiq keltirilgan.*

sathidan ko'tarilgan yoki maysazor, ariq, maxsus to'siqlar bilan ajratilgan baland qismi;

**arava** — otga (yoki boshqa hayvonlarga) qo'shib tortiladigan yoki odam mushak kuchi bilan harakatga keltiriladigan dvigatel bilan jihozlanmagan, yuk tashishga mo'ljallangan qurilma;

**asosiy yo'l** — tuproqli yoki shag'alli yo'lga nisbatan qattiq qoplamali (asfalt, sement-betonli va shunga o'xshashlar yotqizilgan), kesishayotgan yoki tutashgan yo'lga nisbatan 2.1, 2.3.1 — 2.3.3 yoki 5.1 yo'l belgilari bilan belgilangan yoxud yondosh hududdan chiqadigan yo'lga nisbatan har qanday yo'l. Ikkinchi darajali yo'lning bevosita chorrahaga tutash qismining qoplamali bo'lishi uni asosiy yo'l bilan teng huquqli qilmaydi;










**aholi punkti** — kirish va chiqish yo'llari 5.22 — 5.25 yo'l belgilari bilan belgilangan hudud;







**bolalar guruhini tashkiliy tashish** — yo'nalishli transport vositalariga daxli bo'lmagan avtobuslarda sakkiz va undan ortiq bolalarning tashkil etilgan tartibda tashilishi;

**velosiped** — kamida ikkita g'ildirakka ega bo'lgan va odatda minib olgan shaxsning muskul kuchi bilan, xususan, tepkilar yoki dastaklar yordamida harakatlantiriladigan transport vositasi (nogironligi bo'lgan shaxslar kajavasidan tashqari). Velosiped nominal (belgilangan) quvvati 0,25 kilovattdan, tezligi soatiga 25 kilometrdan oshmaydigan dvigatelga ega bo'lishi mumkin;

**velosipedchi** — velosipedni boshqaradigan shaxs;

**velosiped yo'lkasi** — alohida yo'l yoki konstruktiv jihatdan qatnov qismi va trotuardan ajratilgan yo'lning tarkibiy qismi bo'lib, tegishli yo'l belgisi bilan belgilanadi;

**velosipedchilar uchun tasma** — yo'lning boshqa qismlaridan yo'l chizig'i bilan ajratilgan, tegishli yo'l belgilari bilan belgilangan yo'l qismi bo'lib, faqat velosi-

ped va individual harakatlanish vositalari harakatlanishi uchun mo'ljallangan;

**gibrid avtomobil** — ichki yonuv dvigateli va (yoki) tashqi elektr manbai orqali zaryadlanuvchi elektr motor yordamida harakatlanuvchi transport vositasi;

**yetarlicha ko'rinmaslik** — yomg'ir, qor yog'ishi, tuman tushishi va shunga o'xshash sharoitlarda, shuningdek, kunning g'ira-shira vaqtida yo'lning ko'rinish masofasi 300 metrdan kam bo'lishi;

**yondosh hudud** — bevosita yo'lga tutashgan va transport vositalari o'tib ketishi uchun mo'ljallanmagan hudud (hovlilar, mahallalar, turar joy dahalari, transport vositasi to'xtab turish joylari, yonilg'i quyish shoxobchalari, korxona va shunga o'xshashlar).

Yondosh hududdan chiqayotgan transport vositalari barcha yo'l harakati ishtirokchilariga yo'l berishi shart;

**imtiyoz** — mo'ljallangan yo'nalishda boshqa yo'l harakati ishtirokchilariga nisbatan oldin harakatlanish huquqi;

**individual harakatlanish vositalari** — dvigatel (dvigatellar) (elektrosamokat, elektr skeytbordlar, segveylar, unitsikllar, monog'ildirak va boshqa shunga o'xshash vositalar) yordamida odamning individual harakatlanishi uchun mo'ljallangan bir yoki bir nechta g'ildiraklari (roliklari) bo'lgan transport vositasi;

**yo'l** — transport vositalari va piyodalar harakatlanishi uchun jihozlangan, moslashtirilgan hamda transport vositalari va piyodalarning harakat xavfsizligini ta'minlashga mo'ljallangan, yo'l obyektlari majmuasini joylashtirish uchun ajratilgan yer uchastkalari hamda yer uchastkalari ustidagi bo'shliq yo'l.



Yo'llar umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llariga (bundan buyon matnda umumiy foydalanishdagi yo'llar deb yuritiladi), tumanlar (shaharlar), shaharchalar, qishloqlar va ovullarning ko'chalariga, xo'jalik yo'llariga, shahar elektr transporti yo'llariga, velosiped va piyodalar yo'lkalariga ajratiladi.

Qishloq joylardan o'tadigan va xo'jaliklarni o'zaro bog'laydigan yo'llar xo'jaliklararo qishloq yo'llaridir;

**yo'lovchi** — transport vositasidagi (haydovchidan tashqari) shaxs, shuningdek, transport vositasiga kirayotgan (unga chiqib o'tirayotgan) yoki transport vositasidan chiqayotgan (undan tushayotgan) shaxs;

**yo'l berish (to'sqinlik qilmaslik)** — yo'l harakati ishtirokchilariga nisbatan imtiyozi bo'lgan boshqa yo'l harakati ishtirokchisining harakat yo'nalishi yoki tezligini o'zgartirishga majbur etishi mumkin bo'lgan hollarda, harakatni davom ettirmasligini yoki boshlamasligini, biror-bir manyovr bajarishi mumkin emasligini bildiruvchi talab;

**yo'l yoqasi** — yo'lning qatnov qismiga u bilan bir sathda bevosita tutashgan, qoplama turi bilan farq qiladigan yoki 1.1 yo'l chizig'i yordamida ajratilgan, ushbu Qoidalarga muvofiq harakatlanish, to'xtash va to'xtab turish uchun mo'ljallangan bo'lagi;

**yo'nalishli transport vositasi** — belgilangan yo'nalishi va bekatlari bo'lgan, yo'lovchi tashish uchun mo'ljallangan umumiy foydalanishdagi transport vositalari (trolleybus, tramvay, avtobus, yo'nalishli taksi);

**yo'l-transport hodisasi** — transport vositasining yo'lda harakatlanish jarayonida va uning ishtirokida sodir bo'lgan, fuqarolar vafot etgan yoki ularning sog'lig'iga zarar yetkazilgan, transport vositalari, inshootlar, yuklar shikastlangan yoxud boshqa moddiy zarar yetkazilgan hodisa;

**yo'l harakati** — yo'l harakatini tashkil etishda yo'llar doirasida transport vositalari va yo'l harakati ishtirokchilari ishtirokida



yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar majmui;

**yo'l harakati ishtirokchisi** — yo'l harakati jarayonida transport vositasining haydovchisi, yo'lovchisi yoki piyoda sifatida bevosita ishtirok etayotgan shaxs;

**yo'l harakatini tashkil etish** — yo'llarda harakatni boshqarish hamda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tashkiliy-huquqiy, tashkiliy-texnika tadbirlar va boshqaruv harakatlari majmui;

**yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalari** — yo'l harakatini tashkil etish uchun mo'ljallangan qurilmalar va inshootlar (yo'l belgilari, harakatlanish polosalari, svetoforlar, miltillovchi mayoqchalar, yo'l chiziqlari, yo'l ustunlari, to'siqlar, tezlikni cheklovchi qurilmalar, shlagbaumlar, xavfsizlik orolchalari, yo'l harakatini avtomatik boshqarish tizimlari (vositalari), shuningdek, boshqa qurilmalar va inshootlar);

**yo'l harakati xavfsizligi** — yo'l harakati ishtirokchilarining yo'l-transport hodisalari va ularning oqibatlaridan himoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo'l harakati holati;

**yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash** — yo'l-transport hodisalarining kelib chiqish sabablarining oldini olishga, ularning og'ir oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan faoliyat;

**ko'rinishi cheklangan joylar** — joylardagi past-balandliklar, burilishlar, o'simliklar, daraxtlar, qurilishlar, inshootlar yoki boshqa obyektlar, shu jumladan, transport vositalari tufayli harakatlanish yo'nalishida yo'l ko'rinishining cheklanishi;

**majburiy to'xtash** — texnik nuqson, tashilayotgan yuk, haydovchi va yo'lovchining holati, yo'ldagi biror to'siq tufayli xavf yuzaga kelganda yoxud ob-havo sharoitiga bog'liq holda transport vositasi harakatini to'xtatish. Haydovchining ushbu xatti-harakati oxirgi zarur chora bo'lib, qoidabuzarlik deb e'tirof etilmaydi;

**mexanik transport vositasi** — dvigatel bilan harakatga keltiriladigan transport vositasi. Bu atama barcha traktor va o'zi yurar moslamalarga ham taalluqlidir;

**moped** — dvigatelining ish hajmi 25 $cm^3$ va undan ortiq, lekin 50 $cm^3$dan oshmaydigan, konstruktiv tezligi soatiga 25 kilometr va undan ortiq, 50 kilometrdan oshmaydigan ikki yoki uch (to'rt) g'ildirakli transport vositasi. Xuddi shunday tavsiflarga ega bo'lgan kvadritsikl (kvadrotsikl), tritsikl hamda yo'lning qatnov qismida harakatlanishga moslashtirilgan boshqa transport vositalari mopedlarga tenglashtiriladi;

**mototsikl** — dvigatelining ish hajmi 50 $cm^3$ va undan oshadigan, konstruktiv tezligi soatiga 50 kilometr va undan oshadigan, yon tirkamasiz yoki yon tirkamali (kajavali) ikki yoxud uch (to'rt) g'ildirakli transport vositasi;

**ogohlantiruvchi ishoralar** — avariya holatlarining oldini olish maqsadida, shuningdek, harakat yo'nalishini o'zgartirishda, to'xtatishda qo'llaniladigan ishoralar;

**piyoda** — transport vositasidan tashqarida bo'lgan va yo'lda biror-bir yumush bilan band bo'lmagan shaxs. Nogironligi bo'lgan shaxslarning dvigatelsiz aravachasida harakatlanayotgan, velosiped, moped, mototsikl, elektromototsikl, skuter, individual harakatlanish vositalari, chana, aravacha va bolalar yoki nogironligi bo'lgan shaxslar aravachasini yetaklagan, shuningdek, harakatlanish uchun rolikli konkilar, dvigatelsiz samokatlar va boshqa shularga o'xshash vositalardan foydalanayotgan shaxslar ham piyodalarga tenglashtiriladi;

**piyoda va velosiped yo'lkasi** — qatnov qismidan ajratilgan, velosipedchilar, individual harakatlanish vositalarini boshqarayotgan shaxslarning va piyodalarning alohida-alohida yoki birgalikda harakatla-

ped va individual harakatlanish vositalari harakatlanishi uchun mo'ljallangan;

**gibrid avtomobil** — ichki yonuv dvigateli va (yoki) tashqi elektr manbai orqali zaryadlanuvchi elektr motor yordamida harakatlanuvchi transport vositasi;

**yetarlicha ko'rinmaslik** — yomg'ir, qor yog'ishi, tuman tushishi va shunga o'xshash sharoitlarda, shuningdek, kunning g'ira-shira vaqtida yo'lning ko'rinish masofasi 300 metrdan kam bo'lishi;

**yondosh hudud** — bevosita yo'lga tutashgan va transport vositalari o'tib ketishi uchun mo'ljallanmagan hudud (hovlilar, mahallalar, turar joy dahalari, transport vositasi to'xtab turish joylari, yonilg'i quyish shoxobchalari, korxona va shunga o'xshashlar).

Yondosh hududdan chiqayotgan transport vositalari barcha yo'l harakati ishtirokchilariga yo'l berishi shart;

**imtiyoz** — mo'ljallangan yo'nalishda boshqa yo'l harakati ishtirokchilariga nisbatan oldin harakatlanish huquqi;

**individual harakatlanish vositalari** — dvigatel (dvigatellar) (elektrosamokat, elektr skeytbordlar, segveylar, unitsikllar, monog'ildirak va boshqa shunga o'xshash vositalar) yordamida odamning individual harakatlanishi uchun mo'ljallangan bir yoki bir nechta g'ildiraklari (roliklari) bo'lgan transport vositasi;

**yo'l** — transport vositalari va piyodalar harakatlanishi uchun jihozlangan, moslashtirilgan hamda transport vositalari va piyodalarning harakat xavfsizligini ta'minlashga mo'ljallangan, yo'l obyektlari majmuasini joylashtirish uchun ajratilgan yer uchastkalari hamda yer uchastkalari ustidagi bo'shliq yo'l.



Yo'llar umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llariga (bundan buyon matnda umumiy foydalanishdagi yo'llar deb yuritiladi), tumanlar (shaharlar), shaharchalar, qishloqlar va ovullarning ko'chalariga, xo'jalik yo'llariga, shahar elektr transporti yo'llariga, velosiped va piyodalar yo'lkalariga ajratiladi.

Qishloq joylardan o'tadigan va xo'jaliklarni o'zaro bog'laydigan yo'llar xo'jaliklararo qishloq yo'llaridir;

**yo'lovchi** — transport vositasidagi (haydovchidan tashqari) shaxs, shuningdek, transport vositasiga kirayotgan (unga chiqib o'tirayotgan) yoki transport vositasidan chiqayotgan (undan tushayotgan) shaxs;

**yo'l berish (to'sqinlik qilmaslik)** — yo'l harakati ishtirokchilariga nisbatan imtiyozi bo'lgan boshqa yo'l harakati ishtirokchisining harakat yo'nalishi yoki tezligini o'zgartirishga majbur etishi mumkin bo'lgan hollarda, harakatni davom ettirmasligini yoki boshlamasligini, biror-bir manyovr bajarishi mumkin emasligini bildiruvchi talab;

**yo'l yoqasi** — yo'lning qatnov qismiga u bilan bir sathda bevosita tutashgan, qoplama turi bilan farq qiladigan yoki 1.1 yo'l chizig'i yordamida ajratilgan, ushbu Qoidalarga muvofiq harakatlanish, to'xtash va to'xtab turish uchun mo'ljallangan bo'lagi;

**yo'nalishli transport vositasi** — belgilangan yo'nalishi va bekatlari bo'lgan, yo'lovchi tashish uchun mo'ljallangan umumiy foydalanishdagi transport vositalari (trolleybus, tramvay, avtobus, yo'nalishli taksi);

**yo'l-transport hodisasi** — transport vositasining yo'lda harakatlanish jarayonida va uning ishtirokida sodir bo'lgan, fuqarolar vafot etgan yoki ularning sog'lig'iga zarar yetkazilgan, transport vositalari, inshootlar, yuklar shikastlangan yoxud boshqa moddiy zarar yetkazilgan hodisa;

**yo'l harakati** — yo'l harakatini tashkil etishda yo'llar doirasida transport vositalari va yo'l harakati ishtirokchilari ishtirokida



yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar majmui;

**yo'l harakati ishtirokchisi** — yo'l harakati jarayonida transport vositasining haydovchisi, yo'lovchisi yoki piyoda sifatida bevosita ishtirok etayotgan shaxs;

**yo'l harakatini tashkil etish** — yo'llarda harakatni boshqarish hamda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tashkiliy-huquqiy, tashkiliy-texnika tadbirlar va boshqaruv harakatlari majmui;

**yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalari** — yo'l harakatini tashkil etish uchun mo'ljallangan qurilmalar va inshootlar (yo'l belgilari, harakatlanish polosalari, svetoforlar, miltillovchi mayoqchalar, yo'l chiziqlari, yo'l ustunlari, to'siqlar, tezlikni cheklovchi qurilmalar, shlagbaumlar, xavfsizlik orolchalari, yo'l harakatini avtomatik boshqarish tizimlari (vositalari), shuningdek, boshqa qurilmalar va inshootlar);

**yo'l harakati xavfsizligi** — yo'l harakati ishtirokchilarining yo'l-transport hodisalari va ularning oqibatlaridan himoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo'l harakati holati;

**yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash** — yo'l-transport hodisalarining kelib chiqish sabablarining oldini olishga, ularning og'ir oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan faoliyat;

**ko'rinishi cheklangan joylar** — joylardagi past-balandliklar, burilishlar, o'simliklar, daraxtlar, qurilishlar, inshootlar yoki boshqa obyektlar, shu jumladan, transport vositalari tufayli harakatlanish yo'nalishida yo'l ko'rinishining cheklanishi;

**majburiy to'xtash** — texnik nuqson, tashilayotgan yuk, haydovchi va yo'lovchining holati, yo'ldagi biror to'siq tufayli xavf yuzaga kelganda yoxud ob-havo sharoitiga bog'liq holda transport vositasi harakatini to'xtatish. Haydovchining ushbu xatti-harakati oxirgi zarur chora bo'lib, qoidabuzarlik deb e'tirof etilmaydi;

**mexanik transport vositasi** — dvigatel bilan harakatga keltiriladigan transport vositasi. Bu atama barcha traktor va o'zi yurar moslamalarga ham taalluqlidir;

**moped** — dvigatelining ish hajmi 25 $cm^3$ va undan ortiq, lekin 50 $cm^3$dan oshmaydigan, konstruktiv tezligi soatiga 25 kilometr va undan ortiq, 50 kilometrdan oshmaydigan ikki yoki uch (to'rt) g'ildirakli transport vositasi. Xuddi shunday tavsiflarga ega bo'lgan kvadritsikl (kvadrotsikl), tritsikl hamda yo'lning qatnov qismida harakatlanishga moslashtirilgan boshqa transport vositalari mopedlarga tenglashtiriladi;

**mototsikl** — dvigatelining ish hajmi 50 $cm^3$ va undan oshadigan, konstruktiv tezligi soatiga 50 kilometr va undan oshadigan, yon tirkamasiz yoki yon tirkamali (kajavali) ikki yoxud uch (to'rt) g'ildirakli transport vositasi;

**ogohlantiruvchi ishoralar** — avariya holatlarining oldini olish maqsadida, shuningdek, harakat yo'nalishini o'zgartirishda, to'xtatishda qo'llaniladigan ishoralar;

**piyoda** — transport vositasidan tashqarida bo'lgan va yo'lda biror-bir yumush bilan band bo'lmagan shaxs. Nogironligi bo'lgan shaxslarning dvigatelsiz aravachasida harakatlanayotgan, velosiped, moped, mototsikl, elektromototsikl, skuter, individual harakatlanish vositalari, chana, aravacha va bolalar yoki nogironligi bo'lgan shaxslar aravachasini yetaklagan, shuningdek, harakatlanish uchun rolikli konkilar, dvigatelsiz samokatlar va boshqa shularga o'xshash vositalardan foydalanayotgan shaxslar ham piyodalarga tenglashtiriladi;

**piyoda va velosiped yo'lkasi** — qatnov qismidan ajratilgan, velosipedchilar, individual harakatlanish vositalarini boshqarayotgan shaxslarning va piyodalarning alohida-alohida yoki birgalikda harakatla-

nishi uchun mo'ljallangan va 4.6.1 — 4.6.6 yo'l belgilari o'rnatilgan yo'lning tarkibiy qismi yoxud alohida yo'l;

**piyodalar yo'lkasi** — piyodalar harakatlanishi uchun qurilgan yoki moslashtirilgan, tegishli yo'l belgisi bilan belgilangan alohida yo'l yoki sun'iy inshoot yuzasi. Transport vositalari harakati taqiqlangan qismi;

**piyodalarning tashkiliy jamlanmasi** — Qoidalarning 16-bandi talablariga muvofiq yo'lda bir yo'nalishda birgalikda harakatlanayotgan odamlar guruhi;

**piyodalar o'tish joyi** — qatnov qismidagi 5.16.1, 5.16.2, 5.48 yo'l belgilari va 1.14.1 — 1.14.4 yoki 1.29.1 — 1.29.3 yo'l chiziqlari bilan belgilangan va piyodalar yo'lni kesib o'tishda harakatlanishlari uchun ajratilgan joy.

Yo'l chiziqlari bo'lmasa, piyodalar o'tish




joyining kengligi 5.16.1 va 5.16.2 yo'l belgilari orasidagi masofa bilan aniqlanadi;

**pulli to'xtab turish joyi** — to'lov asosida foydalaniladigan to'xtab turish joyi;

**reversiv harakatlanish** — qatnov qismining maxsus ajratilgan, 5.35 — 5.37 yo'l belgilari, 1.9 yo'l chizig'i bilan belgilangan va ustida reversiv svetofor o'rnatilgan bo'lagida harakatlanish yo'nalishining qarama-qarshi tomonga o'zgarishi;

**ruxsat etilgan to'liq vazn** — jihozlangan transport vositasining ishlab chiqargan korxona tomonidan belgilangan yuk, haydovchi va yo'lovchilari bilan birgalikdagi eng yuqori vazni (o'lchovi).

Bir tarkibda harakatlanayotgan (tirkama va boshqalar) transport vositalarining ruxsat etilgan to'liq vazniga shu tarkibga kiruvchi transport vositalarining ruxsat etilgan to'liq vaznlari yig'indisi kiradi;

**skuter** — elektrodvigatelining quvvati 0,25 kilovatt va undan ortiq, lekin 4 kilovattdan oshmaydigan, konstruktiv tezligi soatiga 25 kilometrdan ortiq, biroq 50 kilometrdan oshmaydigan ikki yoki uch (to'rt) g'ildirakli transport vositasi. Xuddi shunday tavsiflarga ega bo'lgan kvadritsikl (kvadrotsikl), tritsikl hamda yo'lning qatnov qismida harakatlanishiga moslashtirilgan boshqa transport vositalari skuterlarga tenglashtiriladi;

**sutkaning qorong'i vaqti** — kechki g'ira-shiraning oxiridan tonggi g'ira-shiraning boshlanishigacha bo'lgan oraliqdagi vaqt;

**tartibga soluvchi** — O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmatining (keyingi o'rinlarda — DYHXX), harbiy avtomobil nazorati organlari xodimi, o'z xizmat vazifalarini bajarayotgan, ushbu Qoidalarda ko'zda tutilgan ishoralar yordamida yo'l harakatini tartibga solish vakolatiga ega bo'lgan va uni bevosita amalga oshirayotgan yo'ldan foydalanish xizmati xodimlari, temir yo'l kesishmasi va sol kechuvlaridagi navbatchilar hamda jamoatchilik vakillari. Tartibga soluvchi maxsus kiyim va (yoki) taniqlik belgisi (qo'l bog'ichi, jezl, qizil ishorali yorug'lik qaytargich, qizil chiroq yoki bayroqcha)ga ega bo'lishi shart;

**tashuvchi** — mulk huquqi asosida yoki boshqa qonuniy asoslarda transport vositasiga egalik qiladigan, qonunchilikka muvofiq yo'lovchilarni hamda ularning mol-mulkini tijorat asosida tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan va buning uchun tegishli litsenziyaga ega bo'lgan yoxud ruxsat etish xususiyatiga ega hujjati bo'lgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor (o'zini o'zi band qilgan shaxs);

**temir yo'l kesishmasi** — yo'lning temir yo'llar bilan bir sathda kesishgan joyi;

**tezkor va maxsus xizmatlarning transport vositasi** — tezkor vazifalarni bajarishga mo'ljallangan, ko'k yoki qizil yoxud ko'k va qizil rangli yaltiroq mayoqcha bilan

jihozlangan hamda maxsus rangli bo'yoq sxemalar va yozuvlar bilan belgilangan transport vositasi;

**tirkama** — mexanik transport vositasi tarkibida harakatlanishga mo'ljallangan va dvigatel bilan jihozlanmagan transport vositasi. Ushbu atama yarim tirkama va uzaytiriladigan tirkamalarga ham taalluqlidir;

**transport vositasi** — yo'lovchilarning,



bagajning, yuk bagajining, yuklarning, pochta va kuryerlik jo'natmalarining yoki maxsus ishlarni amalga oshirish uchun uskunalarning yo'llarda harakatlanishi yoki tashilishi uchun mo'ljallangan qurilma;

**transport vositasining egasi** — transport vositasiga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar asosida egalik qiluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

**transport vositalarining tashkiliy jamlanmasi** — oldida ko'k yoki qizil yoxud ko'k va qizil rangli yaltiroq mayoqchasi yoqilgan transport vositasi kuzatib borayotgan, bevosita bir-birining ketidan, bitta harakatlanish bo'lagida, yaqinni yorituvchi faralar chiroqlarini yoqib kelayotgan, uch va undan ortiq mexanik transport vositalari guruhi;

**transport vositalarining to'xtab turish joylari** (bundan buyon matnda to'xtab turish joyi deb yuritiladi) — transport vositalarini vaqtincha yoki doimiy saqlash uchun mo'ljallangan, yo'lning kengaytirilib qatnov qismidan ajratilgan uchastkasi, bino, inshoot (ularning bir qismi), maxsus ochiq maydoncha;

**trotuar** — qatnov qismiga tutashgan yoki undan maysazor, ariq, maxsus to'siqlar bilan ajratilgan va piyodalarning harakatlanishi uchun mo'ljallangan yo'l qismi;

**to'siq** — yo'lning qatnov qismida harakatsiz holda bo'lgan jism (buzilib qolgan transport vositasi, tushib qolgan yuk, yiqilgan daraxt va boshqalar).

Tirbandlik tufayli yoki Qoidalar talabiga binoan ushbu tasmada to'xtagan transport vositasi to'siq hisoblanmaydi;

**to'xtab turish** — transport vositasiga yo'lovchilarni chiqarish yoki tushirish, yuk ortish yoki tushirish bilan bog'liq bo'lmagan hollarda harakatni 10 daqiqadan ko'proq vaqtga atayin to'xtatish;

**to'xtash** — transport vositasi harakatini 10 daqiqagacha bo'lgan muddatga to'xtatish (harakatsiz holatga keltirish);

**foto va video qayd etish** — yo'l harakati qoidalari buzilishini maxsus avtomatlashtirilgan foto va video texnik vositalari, shuningdek, videokuzatuv va tasvirga olish texnika vositalari hamda mobil qurilmalar yordamida qayd etish;

**xavf** — yo'l harakati xavfsizligiga xavf soluvchi har qanday omil;

**xavfli yuk** — o'ziga xos xossalari va xususiyatlari tufayli muayyan omillar mavjud bo'lgan taqdirda tashish, yuk ortish-tushirish ishlari jarayonida tashilayotgan yuklar, texnika vositalari, qurilmalar, bino va inshootlar, boshqa obyektlarning portlashi, yonishi yoki shikastlanishiga, shuningdek odamlar hayoti va sog'lig'iga, atrof-muhitga zarar yetkazilishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan moddalar, materiallar, buyumlar, chiqindilar;

**xavfsizlik orolchasi** — harakatlanish tasmalarini (shu jumladan velosipedchilar tasmalarini) ajratuvchi, konstruksiyasiga ko'ra qatnov qismi ustiga bordyur toshlari bilan ko'tarilgan yoki harakatni tashkil etish texnik vositalari bilan belgilangan qatnov qismidan o'tayotgan piyodalar, talab qilingan holda to'xtab o'tishlari uchun mo'ljallangan yo'l qurilmasi. Ajratuvchi mintaqa oralig'idan o'tkazilgan piyodalar o'tish joyi ham xavfsizlik orolchasi hisoblanadi. Ikki tomonlama harakatlanishli yo'llarda qara-

ma-qarshi yo'nalishlarni ajratuvchi xavfsizlik orolchalarini o'ng tomondan aylanib o'tiladi;

**xorijiy avtotransport vositalari** — xorijiy davlatlarning ro'yxatga olish idoralarida ro'yxatda turgan va O'zbekiston Respublikasi hududiga chet el fuqarolari va O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish, yuklar va yo'lovchilarni xalqaro tashish maqsadlarida vaqtincha olib kiriladigan avtotransport vositalari;

**chorraha** — yo'llarning o'zaro bir sathda kesishadigan, tutashadigan va ayriladigan joyi. Chorraha chegarasi uning markazidan qatnov qismlari oxiridagi qarama-qarshi tomonlarning eng uzoq burilish joylarini tutashtiruvchi tasavvur qilinadigan chiziqlar bilan aniqlanadi.

Yondosh hududlardan chiqish joylari chorraha hisoblanmaydi;



**elektromobil** — tashqi elektr manbaidan quvvatlanib, faqat elektr dvigateli bilan harakatlanadigan transport vositasi;

**elektromototsikl** — elektrodvigatelining quvvati 4 kilovatt va undan oshadigan, konstruktiv tezligi soatiga 50 kilometr va undan oshadigan yon tirkamasiz yoki yon tirkamali (kajavali) ikki yoxud uch (to'rt) g'ildirakli transport vositasi;

**yashil hududlar** — shaharlar va aholi punktlarining rekreatsion maqsaddagi hududlari, shuningdek, yashil ekinlar bilan qoplangan va tabiatni muhofaza qilish funksiyalarini bajaradigan hamda aholining dam olishi uchun foydalaniladigan ularga tutash hududlar.

**o'zib ketish** — transport vositasining bir yo'nalishda transport vositasi tezligidan ortiq tezlikda harakatlanishi;

**qayta tizilish** — dastlabki harakat yo'nalishini saqlagan holda o'z harakatlanish tasmasidan boshqa harakatlanish qatoriga o'tish;

**qatnov qismi** — yo'lning relssiz transport vositalari harakatlanishi uchun mo'ljallangan qismi;

**qatnov qismlari kesishmasi** — yo'llarning qatnov qismlari o'zaro kesishib o'tadigan va tasavvur qilinadigan chiziqlar bilan aniqlangan hudud;

**quvib o'tish** — bir yoki bir nechta transport vositalarini qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanish uchun mo'ljallangan tasmaga chiqib, so'ngra ilgari egallagan qatoriga qaytib o'tish bilan bog'liq bo'lgan o'zib ketish;

**haydovchi** — transport vositasini boshqaruvchi shaxs. Transport vositasini boshqarish o'rgatilayotganda o'rgatuvchi shaxs haydovchi hisoblanadi.

Ot aravani boshqarayotgan hamda hayvonlarni minib harakatlanayotgan shaxslar haydovchiga tenglashtiriladi;

**harakatlanish tasmasi** — avtomobillarning bir qator bo'lib harakatlanishi uchun yetarlicha keng bo'lgan, yo'l chiziqlari bilan belgilangan yoki belgilanmagan yo'l qatnov qismining har qanday bo'ylama tasmasi;

**harakatlanish uchun xavf** — yo'l harakati jarayonidan o'sha yo'nalishda va o'sha tezlikda harakatlanishni davom ettirish yo'l-transport hodisasi sodir bo'lishiga tahdid qiladigan omil;

**haqiqiy vazn** — transport vositasining yuki, haydovchi va yo'lovchilari bilan birgalikdagi vazni.

# 1-bobga oid testlar

**1** **Agar tuproq yo'lda bevosita chorraha oldida to'shamali (qoplama) yo'l qismi bo'lsa, bu uni ahamiyati jihatidan kesib o'tilayotgan yo'l bilan teng qiladimi?**

1. Yo'q.
2. Ha.

**2** **Yo'l harakati qatnashchisi, deb kimlarni atash mumkin?**

1. Yo'l harakati jarayonida transport haydovchisi, yo'lovchisi yoki piyoda tariqasida bevosita ishtirok etayotgan shaxs.
2. Yo'lda bo'lgan va unda ish bajarmayotgan har qanday shaxs.
3. Biror-bir transport vositasini boshqarayotgan shaxs.

**3** **Oraliq masofa deb nimaga aytiladi?**

1. Masofa A.
2. Masofa B.
3. Masofa A va B.




**4** **Yo'nalishli transport vositalariga nimalar kiradi?**

1. Avtobuslar va yo'nalishli taksilar.
2. Tramvaylar va trolleybuslar.
3. Belgilangan yo'nalishlar bo'yicha harakatlanadigan avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va yo'nalishli taksilar.

**5** **«Ruxsat etilgan to'la vazn» nima?**

1. Transport vositasining yuk ko'tarishi.
2. Transport vositasining haqiqiy vazni.
3. Ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan belgilangan, aslahalangan transport vositasining haydovchi, yo'lovchi, yuk bilan birga ruxsat etilgan eng yuqori vazni (miqdori).
4. Transport vositasida tashiladigan yukning ishlab chiqargan korxona yo'l qo'ygan texnik tavsifnomasi sifatida belgilanadigan vazni.

**6** **Quvib o'tish nima?**

1. Egallagan harakatlanish bo'lagidan chiqib, oldinda ketayotgan transport vositasidan o'zib ketish.
2. Qarama-qarshi harakat bo'lagiga chiqish va keyinchalik avval egallangan tasmaga qaytish bilan bog'liq bo'lib, bir yoki bir qancha transport vositalaridan o'zib ketish.
3. Kam tezlik bilan qo'shni qatorda harakatlanayotgan bir yoki bir qancha transport vositalaridan o'zib ketish.

**7** **Yonilg'i quyish joyidan yo'lga chiqish chorraha hisoblanadimi?**

1. Hisoblanmaydi.
2. Hisoblanadi.

**8** **Qaysi yo'l asosiy hisoblanadi?**

1. Tuproqli yo'lga nisbatan qoplamali yo'l yoki tegishli belgilar bilan belgilangan yo'l.
2. Uch tomonlama chorrahada tutashib kelgan yo'lga nisbatan har ikki tomonga davom etuvchi yo'l.
3. Har bir yo'nalishda harakatlanish uchun bir tasmali yo'lga nisbatan ko'p tasmali qatnov qismi bo'lgan yo'l.

**9** **«Yetarlicha ko'rinmaslik» deganda nima tushuniladi?**

1. Oqshomdan tonggacha bo'lgan vaqt.
2. Ko'rinish 150 m dan kam bo'lgan holat.
3. Tuman tushganda, yomg'ir, qor yog'ayotganda va hokazo sharoitlarda, shuningdek, kunning g'ira-shira vaqtida yo'lning ko'rinishi 300 m dan kam bo'lishi.
4. Yomg'ir, qor yog'ishi, oqshom.

**10** **Bu belgidagi ko'k fonda aholi yashaydigan joyning nomi yozilgan qo'shimcha nimani bildiradi?**

1. Bu manzil shu aholi yashaydigan joydan tashqarida joylashganini va u manzilga avtomagistral bo'lmagan, boshqa yo'l orqali borilishni.
2. Ko'rsatilgan aholi manziliga harakatlanish avtomagistral bo'ylab amalga oshiriladi.
3. Ko'rsatilgan manzil mazkur aholi yashaydigan joyda joylashgan.



7. Mexanik transport vositasining haydovchisi quyidagi hujjatlarni yonida olib yurishi va IIO xodimlari talab qilganda ularga tekshirish uchun berishi shart:

tegishli toifadagi transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomasini, uning talonini (eski namunadagi haydovchilik guvohnomasi bo'lsa), haydovchilik guvohnomasi belgilangan tartibda olib qo'yilgan hollarda vaqtincha ruxsatnomani;




vaqtincha ruxsatnoma bilan transport vositasini boshqarishda haydovchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatni;

transport vositasini, mavjud bo'lganda tirkamani ro'yxatdan o'tkazish haqidagi guvohnomani;

transport vositasining egasi bo'lmagan hollarda esa, umumiy egalik huquqini yoki tasarruf etish huquqini beruvchi, egalik qilishga va foydalanishga berilganligini tasdiqlovchi hujjatni, transport vositasi egasining fuqarolik javobgarligini majburiy




sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisida ko'rsatilgan transport vositasi egasining yaqin qarindoshlari (ota-ona, er (xotin), bolalar, aka-ukalar, opa-singillar) bundan mustasno;

transport vositasi egasining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisini (elektron ko'rinishda ham bo'lishi mumkin).

"Nogironligi bo'lgan shaxs" taniqli belgisi o'rnatilgan transport vositasini birinchi yoki ikkinchi guruh nogironligi bo'lgan shaxs boshqarayotganda nogironligini tasdiqlovchi hujjatni;

qonunchilik hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda litsenziya guvohnomasini, yuridik shaxs tomonidan berilgan transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi ishonchnomani yoki yo'l varaqasini, tashilayotgan yuk hujjatlarini;

yuridik shaxslar transport vositalari haydovchilarining, shu jumladan yo'lovchi yoki yuk tashish faoliyatini amalga oshiruvchi haydovchilarning malaka oshirishdan o'tganligi to'g'risidagi sertifikati.

Xorijiy avtotransport vositalari haydovchilari esa qo'shimcha:

"Avtotransport vositasini qaytarib olib chiqish to'g'risidagi majburiyatnoma"ni;

oynalari tusi o'zgartirilgan (qoraytirilgan) yengil avtotransport vositasining majburiy yig'im qabul qilinganligi haqidagi kvitansiyani.

DYHXX xodimlari tomonidan quyidagi hujjatlar planshet orqali tekshiriladi:

avtomototransport vositasidan foydalanish va uni tasarruf etish to'g'risidagi ishonchnoma (notarial tartibda tasdiqlangan bo'lsa);

avtotransport vositasi oynalarining tusini o'zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma;

transport vositasining texnik ko'rikdan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumot.

Mexanik transport vositasi haydovchisining yonida O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari yoxud konsullik muassasalari tomonidan berilgan biometrik pasporti yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasi mavjud bo'lgan taqdirda, uning transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi hujjati, transport vositasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi, shuningdek transport vositasiga egalik qilish, egasi yo'qligida undan foydalanish yoki uni tasarruf etish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar (yuridik shaxs tomonidan berilgan transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi ishonchnoma yoki yo'l varaqasi, tashilayotgan yukning hujjatlar bundan mustasno), transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisi haydovchidan talab etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari yoxud konsullik muassasalari tomonidan berilgan biometrik pasporti yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasi yonida bo'lgan haydovchilarning:

haydovchilik guvohnomasi;

transport vositasini ro'yxatdan o'tkazganlik to'g'risidagi guvohnomasi;

transport vositasiga egalik qilish, egasi yo'qligida undan foydalanish yoki uni tasarruf etish huquqini tasdiqlovchi hujjatlari;

avtotransport vositasi oynalarining tusini o'zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma;

transport vositasining texnik ko'rikdan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotni;

transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisi planshet orqali tekshiriladi (planshetda aniqlash imkoni bo'lmagan hamda favqulodda holatlar bundan mustasno).

**8.** Haydovchi tegishli toifadagi transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lishi shart:

"A" — mototsikllar, elektromototsikllar, mopedlar, skuterlar;

"B" — ruxsat etilgan to'liq vazni 3 500 kilogrammdan oshmaydigan yoki haydovchining o'rindig'idan tashqari o'rindiqlar soni sakkiztadan ortiq bo'lmagan, shuningdek, ular bazasida ishlab chiqarilgan qo'l bilan boshqariladigan avtotransport vositalari, tirkamasining ruxsat etilgan to'liq vazni 750 kilogrammdan ortiq bo'lmagan "B" toifadagi avtotransport vositalari, tirkamasining ruxsat etilgan to'liq vazni 750 kilogrammdan ortiq bo'lgan lekin "B" toifadagi avtotransport vositasining aslahalangan vaznidan ortiq bo'lmagan va avtotransport vositalari tarkibining ruxsat etilgan to'liq vazni 3 500 kilogrammdan ortiq bo'lmagan tirkamali "B" toifadagi avtotransport vositalari;

"C" — ruxsat etilgan to'liq vazni 3 500 kilogrammdan ortiq bo'lgan avtotransport vositalari, tirkamasining ruxsat etilgan to'liq vazni 750 kilogrammdan ortiq bo'lmagan "C" toifadagi avtotransport vositalari;

"D" — yo'lovchi tashishga mo'ljallangan, haydovchi o'rindig'idan tashqari o'rindiqlar soni sakkiztadan ortiq bo'lgan avtotransport vositalari, tirkamasining ruxsat etilgan to'liq vazni 750 kilogrammdan ortiq bo'lmagan "D" toifadagi avtotransport vositalari;

"BE" — tirkamasining ruxsat etilgan to'liq vazni 750 kilogrammdan ortiq yoki tirkamasining ruxsat etilgan to'liq vazni jihozlangan avtotransport vositasining vaznidan ortiq bo'lgan "B" toifadagi avtotransport vositalari, tirkamasining ruxsat etilgan to'liq vazni 750 kilogrammdan ortiq lekin transport vositalari tarkibining ruxsat etilgan to'liq vazni 3 500 kilogrammdan

ortiq bo'lmagan "B" toifadagi avtotransport vositalari;

"CE" — tirkamasining ruxsat etilgan to'liq vazni 750 kilogrammdan ortiq bo'lgan "C" toifadagi avtotransport vositalari;

"DE" — tirkamasining ruxsat etilgan to'liq vazni 750 kilogrammdan ortiq bo'lgan "D" toifadagi avtotransport vositalari hamda bo'g'imli avtobuslar.

Tramvay haydovchisiga faqat tramvay, trolleybus haydovchisiga faqat trolleybus boshqarishga ruxsat etiladi.

Tegishli toifadagi transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomasi, eski namunadagi haydovchilik guvohnomasi bo'lsa uning taloni mavjud bo'lganda, o'ziga tegishli bo'lmagan transport vositasini, uning egasi yonida bo'lganida yoxud avtomototransport vositasidan foydalanish va ularni tasarruf etish to'g'risidagi ishonchnomasi bo'lgan shaxs ishtirokidagina (ularning roziligi bilan) boshqarish mumkin, agar transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisi ushbu transport vositasidan cheklanmagan shaxslarning foydalanilishini hisobga olgan holda tuzilgan yoki transport vositasini boshqarayotgan shaxs sug'urta polisida ko'rsatilgan bo'lsa.

Transport vositasi egasining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisida ko'rsatilgan transport vositasi egasining yaqin qarindoshlari (ota-ona, er (xotin), bolalar, aka-ukalar, opa-singillar) ushbu transport vositasidan mustaqil foydalanishi va boshqarishi mumkin.

---



**Haydovchilik guvohnomasini olish uchun nazariy va amaliy imtihonlarni o'tkazish bo'yicha O'zbekiston Respublikasida birinchi bo'lib xizmat ko'rsatish huquqini qo'lga kiritgan – «YIM» markazlari ochildi. Birinchi Toshkent so'ng Samarqand, Farg'ona, Andijon, Sirdaryo, Jizzax, Namangan va Qarshi kabi shaharlarda ham markazlar ochildi.**

*Batafsil ma'lumot uchun www.yim.uz*

## MILLIY HAYDOVCHILIK GUVOHNOMASINI OLISH UCHUN IMTIHONLAR O'TKAZILADIGAN YANGI IMTIHON MARKAZI

*Imtihon markazi qanday ishlaydi video-yo'riqnoma QR-kodni skanerlang.*

Vazirlar Mahkamasining iyuldagi 429-sonli qarori bilan, endilikda "A" toifali haydovchilik guvohnomasi motosikllar, elektromotosikllar, skuterlar, mopedlarni boshqarishda amal qilishi belgilandi. Bundan avvalroq, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8 iyuldagi 393-son qaroriga muvofiq, 2025-yil 1 mart sanasidan boshlab moped hamda skuterlarni boshqarish uchun tegishli toifadagi haydovchilik guvohnomasi talab qilinishi belgilangan edi.

Yana bir yangilik esa, haydovchilik imtihonlarini topshirish jarayonida transport vositasini boshqarish malakasini tekshirishdan tashqari, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, bemorni to'g'ri transportirovka qilish yuzasidan amaliy imtihonlar qabul qilinishi belgilandi. Bu yo'l-transport hodisasi sodir bo'lganda eng zaruriy ko'nikmalardan bo'lib, haydovchilardan yanada ogohroq bo'lishni talab qiladi.

### Sinov mashqlarining ro'yxati, ularning bajarilishi va ruxsat etilgan harakat tezligi

Avtomatlashtirilgan avtodrom sharoitida topshiriladigan amaliy imtihon sinov mashqlarining bajarilish ketma-ketligi:

a) «A»toifasi uchun:

«Harakatni boshlash (Start)»;

«Ilon izi»;

«Tor yo'lak»;

«Tezlashish-sekinlashish»;

«Gabaritli yarim aylana»;

«Gabaritli koridor»;

«Past tezlikda harakat»;

«Gabaritli sakkiz»;

«Harakatni yakunlash (Finish)».

b) «B», «C», «D» toifalari uchun:

«Harakatni boshlash (Start)»;

«Piyodalar o'tish joyi» (tartibga solinmagan);

«To'xtash va tik balandlikka ko'tarilish (estakada)»;

«90 gradus burchak ostida burilishlar»;

«Harakat tartibga solingan chorraha» (to'g'riga harakatlanish);

«Ilon izi»;

«Harakat tartibga solingan chorraha» (to'g'riga harakatlanish);

«Tor joyda qayrilib olish uchun boksga kirish»;

«Harakat tartibga solingan chorraha» (chapga burilish);

«Temir yo'l kesishmasi» (tartibga solinmagan);

«Tezlashish bo'lagi»;

«Avariya holatda to'xtash»;

«Orqaga harakatlanib parallel to'xtash (parkovka)» «B» toifasi uchun;

«Harakat tartibga solingan chorraha» (o'ngga burilish);

«Orqaga harakatlanib parallel to'xtash (parkovka) «C», «D» toifalari uchun;

«Harakatni yakunlash (Finish)».

c) «BE», «CE», «DE» toifalari uchun:

«Harakatni boshlash (Start)»;

«Gabaritli koridorda orqa tomonga to'g'ri chiziqda harakatlanish»;

«Orqa bortni platformaga qo'yish»;

«Platformadan yo'lga chiqish»;

«Harakatni yakunlash (Finish)».

Avtomatlashtirilgan avtodrom hududida barcha avtomototransport vositalarining maksimal tezlikni 20 km/soat dan oshirmasdan harakatlanishiga yo'l qo'yiladi (belgilangan maksimal tezlikdan oshib ketish avtomototransport vositalari 5 km/soatga teng bo'lgan o'lchagichlarning ruxsat etilgan xatosi hisobga olingan holda amalga oshiriladi), maksimal tezlik 40 km/soat dan oshmasligi kerak bo'lgan «Tezlashish bo'lagi» sinov yo'lagi bundan mustasno.




*Avtodrom mashqlarining video-yo'riqnomasi. QR-kodni skanerlang.*

### Eski haydovchilik guvohnomasini yangisiga almashtirish

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali rasmiylashtirish jarayoni:

1. Ariza beruvchi YAIDXPda ro'yxatdan va/yoki avtorizasiyadan o'tadi va ariza yuboradi;
2. Ariza shakllantirish jarayonida foydalanuvchining ID karta yoki biometrik pasportidagi rasmdan foydalanishga rozilik bildiradi, rasmdan foydalanishdan rad etgan taqdirda yangi rasmga tushishuchun Davlat xizmatlari markazi yoki Yo'l harakati xavfsizligi xizmatining hududiy Ro'yxatdan o'tkazish va imtihon olish bo'linmalariga tashrif buyuradi;
3. Kompyuter yoki mobil telefon yordamida shakllangan yangi haydovchilik guvohnomasiga imzo chekadi;
4. To'lovlarni amalga oshiradi va arizada belgilangan davlat xizmatlari markaziga tashrif buyuradi yoki qo'shimcha to'lov evaziga pochta xizmati orqali 2 ish kunida haydovchilik guvohnomasini arizachi bergan manziliga yetkazib beriladi.

Xizmat narxi, yagona portal orqali topshirilganda miqdori – 262.500 so'm (0.7 BHM).

Video yo'riqnoma QR-kodni skanerlang.

---

## MOPED HAMDA SKUTER HAYDOVCHILARI ENDI HAYDOVCHILIK GUVOHNOMASINI OLISHGA MAJBUR!

*2024 yil 8 iyul, 393-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori*

### Foydalanishda bo'lgan moped va skuterlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida

Dvigatelining ish hajmi 25 $cm^3$ va undan ortiq, lekin 50 $cm^3$dan oshmaydigan, shuningdek, elektr dvigatelining quvvati 0,25 kilovatt va undan ortiq, biroq 4 kilovattdan oshmaydigan, konstruktiv tezligi soatiga 25 kilometr va undan ortiq, lekin 50 kilometrdan oshmaydigan transport vositalari (moped va skuter) uchun alohida ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari joriy etiladi hamda bu turdagi transport vositalari belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkaziladi;

2025-yil 1 martdan boshlab nazarda tutilgan transport vositalarini boshqarish uchun tegishli toifadagi haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lish talab etiladi.



**9.** Konstruksiyasida xavfsizlik kamarlari nazarda tutilgan transport vositasini boshqarayotgan haydovchi va uning old o'rindig'idagi yo'lovchilar harakatni boshlashdan oldin xavfsizlik kamarlarini taqib olishlari shart.

Quyidagi shaxslarga xavfsizlik kamarini taqmaslikka ruxsat beriladi:

avtomobilning orqa o'rindig'idagi 12 yoshgacha bo'lgan bolalar (ushbu Qoidalarning 159-bandiga muvofiq);

o'quv-mashq transport vositasini o'quvchi boshqarayotgan vaqtda avtomototransport vositasini yoki shahar elektr transportini boshqarishni o'rgatuvchi amaliy mashg'ulotlar instruktori;

homilador ayollar, salomatligi xavfsizlik kamari taqish imkonini bermaydigan bemorlar (Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan kasalliklar ro'yxatiga muvofiq va ushbu kasalliklar bilan kasallanganligi bo'yicha tibbiy ma'lumotnoma mavjud bo'lganda);

xizmat vazifasini bajarayotgan xodimga biriktirilgan ko'k yoki qizil yoxud ko'k va qizil rangli yaltiroq mayoqchasi bilan jihozlangan hamda maxsus rangli bo'yoq sxemalar va yozuvlar bilan belgilangan transport vositalari haydovchisi va yo'lovchilari.

Mototsikl, elektromototsikl, moped va skuterda harakatlanayotgan haydovchi hamda yo'lovchilar maxsus motoshlem kiyishlari va uni qadab olishlari shart.

**10.** Respublika hududida harakatlanayotgan xorijiy davlat fuqarosi boshqaruvidagi mexanik transport vositasi haydovchisining yonida yo'l harakati haqidagi Konvensiya talablariga mos keladigan haydovchilik guvohnomasi va transport vositasining (tirkama bo'lsa unga ham) ro'yxatdan o'tganligi haqidagi hujjat, transport vositasida (tirkama bo'lsa unda ham) ro'yxatdan o'tkazish davlat raqam belgisi va u ro'yxatdan o'tgan davlatning taniqlik belgisi bo'lishi shart.

Xalqaro yo'llarda yuklarni tashishni amalga oshirayotgan xorijiy davlat fuqarosi hisoblangan haydovchi tegishli yo'l belgisi bilan maxsus jihozlangan nazorat punktlarida transport sohasini nazorat qilish bo'yicha vakolatli xodimlarning talabiga muvofiq to'xtashi va transport vositasini, shuningdek, ruxsatnomani va xalqaro kelishuvlarda nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni tekshirish uchun ularga berishi shart.

**11.** Transport vositasining haydovchisi quyidagilarga majburdir:

a) yo'lga chiqishdan oldin transport vositasining texnik sozligini, tozaligini va to'liq jihozlanganligini tekshirishi;

b) harakatlanish vaqtida transport vositasining texnik sozligini ta'minlashi;

v) harakatlanishni boshlashdan oldin yo'lovchilar transport vositasida joylarini egallaganligiga, transport vositasining eshiklari yopilganligiga, yo'lovchilar tashish uchun maxsus jihozlangan yuk transport vositalarida yo'lovchilar tashiyotganda Qoidalarning 24-bandi talablari bajarilganligiga ishonch hosil qilishi;

g) harakatlanish jarayonida boshqa yo'l harakati ishtirokchilariga, ayniqsa, piyodalar, bolalar, nogironlar, qariyalar, individual harakatlanish vositalari va velosipedchilarga nisbatan ehtiyotkorlik choralarini ko'rishi;

d) yo'lovchilarni quyidagilar haqida ogohlantirishi shart:

harakatlanayotgan vaqtda avtomobil salonidan tana qismlarini (qo'ldan tashqari) chiqarish taqiqlanganligi;

transport vositasi harakatlanishni boshlashidan oldin xavfsizlik kamarlarini taqishlari (ushbu Qoidalarning 9-bandiga muvofiq), mototsikl, moped va skuterda harakatlanayotganda esa motoshlem kiyishlari va uni qadab olishlari zarurligi;



e) sutkaning qorong'i vaqtida va yetarlicha ko'rinmaydigan sharoitda majburiy to'xtagan transport vositasining haydovchisi ta'mirlash maqsadida yo'lning qatnov qismiga chiqishdan oldin nur qaytargichli maxsus jilet kiyib olishi (yengil va yuk avtomobili, avtobus va g'ildirakli traktorlar haydovchilari);

yo) IIO xodimlarining talabiga ko'ra mastlik holatini aniqlovchi maxsus tekshiruv yoki alkogolli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoxud kuchli ta'sir qiluvchi moddalar ta'sirida yoki o'zgacha tarzda mast holatda ekanligini aniqlash uchun tibbiy tekshiruvdan o'tishi;

j) harakatlanish vaqtida avariya holatini yuzaga keltirmasliklari;

z) quyidagi hollarda foydalanish uchun transport vositasini berishi shart:

IIO, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati organlari xodimlariga qonunchilik hujjatlarida belgilangan xollarda kechiktirib bo'lmaydigan xizmat vazifalarini bajarish uchun, shuningdek, yo'l-transport hodisasi tufayli shikastlangan yoki nosoz transport vositalarini olib ketish (shatakka olish) uchun (faqat yuk avtomobilidan);

yo'lakay yo'nalishda kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam ko'rsatishga ketayotgan tibbiyot xodimlariga hamda zudlik bilan tibbiy yordamga muhtoj bo'lgan fuqarolarni davolash-profilaktika muassasasiga olib borish uchun.

Xorijiy davlatlarning diplomatik, konsullik vakolatxonalariga va boshqa vakolatxonalariga hamda xalqaro tashkilotlarga tegishli transport vositalari, shuningdek yong'in uchirish, konvoy, inkassator xizmatlarining transport vositalaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Transport vositasidan foydalangan shaxs haydovchi talab qilganda yo'l varaqasiga yurilgan vaqtni, bosib o'tilgan masofani, o'z ismi-familiyasi, mansabi, ish joyi nomini, yo'l varaqasi bo'lmagan taqdirda, belgilangan tartibda ma'lumot yoki xabar yozib berishi kerak.

Transport vositalarini tekshirish yoki undan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxslar haydovchining talabiga muvofiq o'z xizmat guvohnomasini ko'rsatishi shart.

Xizmat vaqtida haydovchiga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zarar uning talabiga ko'ra qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tiklab beriladi;

i) qonunchilik hujjatlarida talab qilingan hollarda vazn va hajm parametrlarini o'lchash uchun nazorat joylari (punkt)dan o'tishi.

**12.** Haydovchiga quyidagilar taqiqlanadi:

transport vositasini spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoxud kuchli ta'sir qiluvchi moddalar ta'sirida yoki o'zgacha tarzda mast holatda, sezgirlik va e'tiborni susaytiradigan dori-darmonlar ta'sirida, yo'l harakati xavfsizligiga tahdid soladigan charchoqlik va betoblik holatida boshqarish;

har qanday mastlik holatida, sezgirlik va e'tiborni susaytiradigan dori-darmonlar ta'sirida, yo'l harakati xavfsizligiga tahdid soladigan charchoqlik va betoblik holati-

da bo'lgan, shuningdek, tegishli toifadagi transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomasi bo'lmagan, yo'l varaqasida yoki transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisida ism-familiyasi ko'rsatilmagan (transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha shartnoma ushbu transport vositasidan cheklanmagan shaxslarning foydalanilishini hisobga olgan holda tuzilgan hollardan tashqari) shaxslarga transport vositasini boshqarish uchun topshirish;

tormoz tizimi, rul boshqaruvi ishlamayotgan, ulagich moslamasi (avtopoyezd tarkibida) nosoz bo'lgan, sutkaning qorong'i vaqtida yoki ko'rinish cheklangan vaziyatlarda yonmaydigan fara chiroqlari va orqa gabarit fara chiroqlari, yomg'ir yoki qor yog'ayotgan vaqtda oyna tozalagich ishlamaydigan transport vositasini boshqarish;









tegishli ruxsatsiz transport vositalariga maxsus texnik jihoz (ratsiya, sirena va shu kabilar)lar o'rnatish;

transport vositalarining tashkiliy jamlanmasi, shu jumladan piyodalar jamlanmalari harakatiga xalaqit berish va ular orasiga kirish;



transport vositasini boshqarish paytida telefondan (telefondan quloqchinlar orqali va qo'llarni ishlatmasdan turib so'zlashuvlar olib borish imkoniyatini beradigan boshqa uskunalar orqali foydalanish bundan



mustasno), transport vositasi salonining old qismiga o'rnatilgan tele, videomonitordan tele, videodasturlarni tomosha qilish uchun foydalanish;

aholi punktlarida transport vositalarining magnitofon va ovoz chiqaruvchi boshqa apparaturalarni hamda dvigatel shovqinini belgilangan me'yordan baland ovozda qilib foydalanish.

konstruksiyasida xavfsizlik kamarlari nazarda tutilgan hollarda o'zi tomonidan xavfsizlik kamari taqilmagan, mototsikl, elektromototsikl, moped va skuterda esa motoshlem kiyilmagan va qadab olinmagan holda boshqarish;

avtomobil salonidan o'zining tana qismlarini (qo'ldan tashqari) chiqargan holda harakatlanish;

Harakatlanish vaqtida ushbu Qoidalarga 3-ilovada ko'rsatilgan transport vositalaridan foydalanishni taqiqlovchi shartlar yuzaga kelganda, haydovchi ularni bartaraf etishi, agar buning iloji bo'lmasa, zarur bo'lgan ehtiyot choralarini ko'rgan holda ta'mirlash yoki to'xtab turish joyiga evakuator yoki shatakka olish orqali transport vositasini olib borish choralarini ko'rishi mumkin.

**12¹.** Individual harakatlanish vositalarini boshqaradigan shaxslarga quyidagilar taqiqlanadi:

velosipedchilar uchun tasma yoki piyoda va velosiped yo'lkasi mavjud bo'lganda (ularda harakatlanishining imkoni bo'lmagan holatlar bundan mustasno) yo'lning qatnov qismida, yo'l yoqalarida yoki qatnov qismining chetida harakatlanish;

uzunligi yoki kengligi 0,5 metrdan ortiq tashqariga chiqadigan yoki boshqaruvga xalaqit beradigan yuklarni tashish;

piyodalar o'tish joyida harakatlanishi (individual harakatlanish vositalarini yetaklab o'tish holatlari bundan mustasno);

14 yoshdan kichik shaxslarning boshqarishi (turar joy dahalari, istirohat va hayvonot bog'lari, bolalar maydonchalari, ko'ngilochar joylarda hamda yopiq hududlarda boshqarish bundan mustasno);

spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoxud kuchli ta'sir qiluvchi moddalar ta'sirida yoki o'zgacha tarzda mast holatda, sezgirlik va e'tiborni susaytiradigan dori-darmonlar ta'sirida, yo'l harakati xavfsizligiga tahdid soladigan charchoqlik va betoblik holatida boshqarish;

bir yoki bir nechta individual harakatlanish vositalarini shatakka olish;

tormoz tizimi, rul boshqaruvi, tovushli ishorasi, shuningdek, sutkaning qorong'i vaqtida yoki ko'rinish cheklangan vaziyatlarda nosoz fara chiroqlari yoki fonarlar hamda orqa fara chiroqlari ishlamaydigan yoki nur qaytargichlar bilan jihozlanmagan individual harakatlanish vositalarini boshqarish;

rulni ushlamasdan yoki bir qo'lda ushlab harakatlanish (rul boshqaruvi mavjud bo'lgan individual harakatlanish vositalari uchun);

odam tashish;

telefondan foydalanish.

**12².** Individual harakatlanish vositalarini boshqaradigan shaxslar:

harakat davomida yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya qilishi;

trotuarlardan, piyodalar yo'lkalaridan, piyoda va velosiped yo'lkalaridan soatiga 10 kilometr tezlikdan yuqori bo'lmagan holatda, ular bo'lmaganda esa yo'lning o'ng chetki qismida soatiga 20 kilometr tezlik-

dan yuqori bo'lmagan holatda harakatlanishi;

turar joy dahalaridan chiqish vaqtida boshqa harakat qatnashchilariga yo'l berishi;

qat'iy ravishda harakat yo'nalishi bo'yicha boshqarish kerak.

**12³.** Agar velosipedchilar uchun tasma yoki piyoda va velosiped yo'lkasida individual harakatlanish vositalarini boshqarayotgan shaxsning harakati piyodalarning harakatiga xavf tug'dirsa yoki xalaqit bersa, u individual harakatlanish vositalaridan tushib, individual harakatlanish vositalarini yetaklagan yoki tezlikni piyodalar tezligidan oshmaydigan tezlikka pasaytirgan holda harakatni davom ettirishi kerak.

Individual harakatlanish vositalarini boshqargan shaxslarning harakatlanishi piyodalarning harakatlanishi bilan birlashganda, barcha holatlarda piyodalar ustunlikka (imtiyozga) ega.

Velosipedchilar uchun tasma yoki piyoda va velosiped yo'lkasida individual harakatlanish vositalarida harakatlanayotgan shaxslar boshqa mexanik transport vositalariga nisbatan ustunlikka (imtiyozga) ega.

## 3-BOB. YO'L-TRANSPORT HODISASI SODIR BO'LGANDA HAYDOVCHINING MAJBURIYATLARI



**13.** Yo'l-transport hodisasi sodir bo'lganda unga daxldor haydovchilar quyidagilarni bajarishlari shart:

transport vositasini darhol to'xtatishi, avariya ishoralarini yoqishi va avariya sababli to'xtash belgisini Qoidalarning 51-bandi talablariga muvofiq o'rnatishi, transport vositasini va hodisaga daxldor buyumlarni joyidan qo'zg'atmasligi;

tan jarohati olganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish choralarini ko'rishi, tez tibbiy yordam va favqulodda qutqaruv xizmatlarini chaqirishi, shoshilinch hollarda esa tan jarohati olganlarni yaqin oradagi tibbiyot muassasasiga yo'lakay transport vositasida jo'natishi, buning imkoni bo'lmagan hollarda o'z transport vositasida olib borishi, u yerda o'z ismi-familiyasi, transport vositasining ro'yxatdan o'tkazish davlat raqam belgisi haqida axborot berishi (o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni yoki haydovchilik guvohnomasini va transport vositasining ro'yxatdan o'tganligi to'g'risidagi hujjatni ko'rsatishi) va hodisa ro'y bergan joyga qaytib kelishi;

agar boshqa transport vositalarining harakatlanishiga to'sqinlik qilsa, dastlab transport vositalarining bir-biriga va yo'l tuzilmalari obyektlariga nisbatan joylashgan holatini, hodisaga aloqador buyumlar va izlarni, guvohlar ishtirokida, shuningdek, fotosurat yoki videoyozuv vositalari bilan, turgan o'rnini chizuvchi moslamalar yordamida belgilagan va transport vositasini zarur hollarda aynan shu holatga qayta joylashtirish imkonini beradigan holda qayd etishni amalga oshirishi, ularning yo'qolmasligini va hodisa ro'y bergan joyni aylanib o'tishni tashkil qilishning barcha choralarini ko'rishi, so'ngra qatnov qismini bo'shatishi;

hodisa haqida IIOga xabar berishi, guvohlarning ism-familiyasini va yashash manzilini yozib olib, IIO xodimlarining kelishini kutishi.

14. Haydovchilar transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda yo'l-transport hodisasi to'g'risidagi xabarnomani tuzish bilan bog'liq hollarda, yo'l transport hodisa haqida DYHHX yoki IIO xodimlariga xabar bermasliklari mumkin.



## YO'L-TRANSPORT HODISASI YUZ BERGANDA HAYDOVCHI NIMA QILISHI KERAK?

Yo'l-transport hodisasi natijasida sug'urta holati sodir bo'lganda haydovchilarning harakatlari:

**1.** Avtomobilingizni to'xtatib, avariya ishoralarini yoqing.

**2.** Halokat to'xtash belgisini chiqarib o'rnating.

**3.** Avtomobilni yo'l-transport hodisasi (kelgusida YTH) yuz bergan joydan qo'zg'atmang va chetga olmang, hodisaga aloqasi bor bo'lgan narsa-buyumlar joyini Yo'l-patrul xizmati inspektori kelgunga qadar o'zgartirmang.

**4.** Darhol sug'urta qildirgan kompaniyaga qo'ng'iroq qiling (qarang: sug'urta varaqangizga yozilgan).

**5.** Agar Siz yo'l harakati qoidasini buzganligingizga shubha qilsangiz, ma'muriy ish yuritilishi doirasidagi qidiruv yoki surishtiruv ishlari muddati tugab, ish sudda ko'rilib, tugaguniga qadar YTH uchun bo'lgan aybni zimmangizga olmang.

**6.** YTHni Yo'l harakati qoidalariga muvofiq rasmiylashtiring.

**7.** YTHning boshqa ishtirokchilari bilan YTH to'g'risidagi tuziladigan bayonnomaga qo'shib beriladigan ariza va tushuntirish xatlarini diqqat bilan to'ldiring. Agar Sizda sug'urta bo'yicha ariza-blankasi bo'lmasa, uni sug'urta kompaniyasi ofislaridan olishingiz mumkin. Agarda Siz arizani mustaqil ravishda to'ldira olmagan bo'lsangiz, sug'urta kompaniya ofislariga murojaat qiling, mutaxassislar arizani to'ldirishga yordam beradilar.

**8.** Agarda Siz (sug'urtalanuvchi) bir vaqtning o'zida jabrlanuvchi bo'lsangiz, sug'urta hodisasi bevosita hal qilinadi, ya'ni Siz jabrlanuvchi sifatida majburiy sug'urta shartnomasini tuzgan tegishli sug'urta kompaniyasiga hayotingiz, sog'lig'ingiz va/yoki mulkingizga yetkazilgan zararni qoplash uchun yozma ravishda murojaat qilasiz.

## YO'L-TRANSPORT HODISASIDAN SO'NG NIMA QILISH LOZIM:

**9.** 72 soat ichida (ushbu vaqt sug'urta kompaniyalari uchun har xil) YTH haqidagi arizaning asl nusxasini Sizga qulay bo'lgan uslubda tegishli sug'urta kompaniyasi ofislariga yuboring.

**10.** Ayrim vaziyatlarda shunday hodisa yuz beradiki, sug'urta kompaniyasining mutaxassis xodimlari tomonidan avtomobilingizni ko'zdan kechirish zarur bo'ladi. Shunday holatda kompaniya mutaxassisi Siz bilan qo'shimcha bog'lanadi.

_________________________________ **sug'urta kompaniyasiga**
(sug'urtalovchining to'liq nomlanishi)
____________________________________ **dan**
(Ariza beruvchining to'liq nomi (nomlanishi)

## Yuz bergan voqea to'g'risida
## ARIZA

Ariza beruvchi — jismoniy shaxsning pasporti: seriyasi ________: raqami: ____________,
20__ yil "___" _______da ____________________________________ tomonidan berilgan
Ariza beruvchi — yuridik shaxsning rekvizitlari: STIR______________________________
Xizmat ko'rsatuvchi bankning MFO ______________, h/k ______________________
Majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisi: seriyasi __________ № ____________
20__ yil "___" _________
Ushbu bilan ___________________________________________________________
(markasi, modeli, davlat ro'yxatidan o'tkazish raqami)
transport vositasi bilan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta hodisasi deb e'tirof etish mumkin bo'lgan voqea yuz berganligini ma'lum qilaman.
Voqeaning sabablari va holatlari to'g'risida quyidagilarni ma'lum qilaman:
O'zi bilan sug'urta hodisasi deb e'tirof etish mumkin bo'lgan voqea yuz bergan haydovchi:
____________________________________________________________________________
(haydovchining familiyasi, ismi, otasining ismi)
Voqea sanasi va vaqti: _________________
Voqea joyi manzili: _______________________________________________________
Voqea to'g'risida _________________________ tumanining huquqni muhofaza qilish organlariga ariza berilgan va ______________________________________________
(mansabdor shaxsning unvoni, lavozimi, F.I.O.)
tomonidan yuz bergan voqea to'g'risida 20___ yil "___" _____________da ______-son ________________ tuzilgan.
(hujjatning turi)
Voqeaning holati: __________________________________________________________
____________________________________________________________________________
Voqea bo'yicha xarajatlar qancha summaga baholanadi: ___________________________
____________________________________________________________________________
Ushbu arizaga ilova qilinadi: ______________________________________________
____________________________________________________________________________
Ushbu hodisa bo'yicha men ishonchli va menga ma'lum bo'lgan barcha ma'lumotlarni ma'lum qildim.
Sug'urta qilinuvchining nomidan __________ 20__ yil "___" _______________
(imzo)
M.O'.

Ariza qabul qilindi ________________________________________________________
(sug'urtalovchi mas'ul xodimining lavozimi va familiyasi)

hamda 20__ yil "___" __________da daftarda ______ raqami bilan ro'yxatdan o'tkazildi.

# 4-BOB. PIYODALARNING MAJBURIYATLARI

**15.** Piyodalar trotuarlardan, piyodalar yo'lkalaridan, piyoda va velosiped yo'lkalaridan, ular bo'lmaganda esa yo'l yoqalaridan harakatlanishi kerak. Hajmi katta yuklarni olib ketayotgan piyodalar, shuningdek, nogironlarning dvigatelsiz aravachasida harakatlanayotgan shaxslarning trotuarlar yoki piyodalar yo'lkalaridan harakatlanishi boshqa piyodalarning harakatlanishiga xalaqit berayotgan bo'lsa, ular qatnov qismining chetidan harakatlanishi mumkin.










Trotuarlar, piyodalar yo'lkalari, piyoda va velosiped yo'lkalari yoki yo'l yoqalari bo'lmasa yoxud ulardan harakatlanishning imkoniyati bo'lmagan hollarda, piyodalar velosiped yo'lkasidan yoki qatnov qismining chetidan (ajratuvchi mintaqa bor yo'llarda qatnov qismining tashqi chetidan) bir qator bo'lib harakatlanishlari mumkin.






Qatnov qismi chetida harakatlanayotgan piyodalar transport vositalarining harakatlanishiga qarama-qarshi yo'nalishda yurishlari kerak. Nogi-

ronlarning dvigatelsiz aravachasida harakatlanayotgan, mototsikl, elektromototsikl, moped, skuter, velosiped va individual harakatlanish vositalarini yetaklab ketayotgan shaxslar esa bunday hollarda transport vositalarining harakatlanish yo'nalishi bo'ylab yurishlari kerak.



Piyodalar yo'lkasida, trotuarda, yo'l yoqasida piyodalarning harakatlanishiga xalaqit beradigan qurilma va to'siqlar o'rnatish taqiqlanadi.

**16.** Piyodalarning tashkiliy jamlanmasiga yo'lning qatnov qismida bir qatorda to'rt kishidan ortiq bo'lmasdan, faqat transport vositalarining harakat yo'nalishi bo'ylab o'ng tomondan harakatlanishga ruxsat etiladi.

Jamlanmaning oldi va orqasida chap tomondan qizil bayroqcha, sutkaning qorong'i vaqtida yoki yetarlicha ko'rinmaslik sharoitida esa oldinda oq, orqada qizil rangli chiroq ko'targan kuzatuvchilar bo'lishi shart.





Bolalar guruhini trotuarlar va piyodalar yo'lkalaridangina, ular bo'lmaganda esa yo'l yoqasidan faqat sutkaning yorug' vaqtida va katta yoshdagilar kuzatuvida olib yurishga ruxsat etiladi.



**17.** Piyodalar yo'lning qatnov qismini piyodalar o'tish joylaridan, shuningdek, yer osti va yer usti o'tish joylaridan, ular bo'lmaganda esa chorrahalarda trotuar chiziqlari yoki yo'l yoqasi bo'ylab kesib o'tishlari kerak.





Piyodalarga ko'rinadigan oraliqda o'tish joyi yoki chorraha bo'lmasa, ajratuvchi mintaqasiz va to'siqsiz yo'llardan yo'lning ikki tomoni yaxshi ko'rinadigan joyidan, qatnov qismining chetiga nisbatan to'g'ri burchak ostida kesib o'tish ruxsat etiladi.




**18.** Yo'l harakati tartibga solingan joylarda piyodalar tartibga soluvchining yoki piyodalar svetoforining, ular bo'lmaganda esa transport svetoforining ishoralariga amal qilishlari kerak.





**19.** Tartibga solinmaydigan piyodalar o'tish joylarida, piyodalar yaqinlashayotgan transport vositalarigacha bo'lgan masofani va ularning tezligini chamalab ko'rib, o'tish o'zlari uchun xavfsiz ekanligiga ishonch hosil qilganlaridan so'ng qatnov qismi (tramvay bekati)ga chiqishlari ruxsat etiladi.

Shuningdek, piyodalar yo'lni piyodalar o'tish joylaridan tashqarida kesib o'tishda transport vositalarining harakatlanishiga xalaqit bermasliklari, yaqinlashayotgan transport vositalarining yo'qligiga ishonch hosil qilmasdan turib, ko'rinishni cheklovchi to'xtab turgan transport vositasi yoki boshqa biror to'siq panasidan chiqmasliklari kerak.

Yo'lning qatnov qismida, shuningdek, piyodalar o'tish joylarida harakatlanayotgan piyodalarga telefondan foydalanish, tele, video mahsulotlarni ko'rish, radio-audio mahsulotlarni eshitish, kitob yoki davriy matbuot o'qish, hamda e'tiborni chalg'itadigan boshqa elektron vositalardan foydalanish taqiqlanadi.

Piyodalar to'xtab turgan avtobus va trolleybusning orqa tomonidan, tramvayning esa oldi tomonidan yo'lni kesib o'tishlari shart.

**20.** Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lmasa, yo'lning qatnov qismi (tramvay yo'llari)ga chiqqan piyodalar ushlanib qolmasliklari va to'xtamasliklari kerak. O'tishga ulgurmagan piyodalar xavfsizlik orolchasida, agarda u bo'lmasa qarama-qarshi yo'nalishdagi transport oqimlarini ajratuvchi chiziqda to'xtashlari lozim. Keyingi harakatlanish xavfsiz ekanligiga ishonch hosil qilgandan so'ng va svetofor yoki tartibga soluvchining ishoralarini hisobga olgan holda o'tishni davom etishlari mumkin.

**21.** Tezkor va maxsus xizmatlarning ko'k yoki qizil yoxud ko'k va qizil rangli yalt-yalt etuvchi mayoqchalar va maxsus tovushli ishorasi yoqilgan transport vositalari yaqinlashib kelayotgan bo'lsa, piyodalar qatnov qismidan o'tmasliklari, unda harakatlanayotganlari esa, ushbu transport vositalariga yo'l berishlari va zudlik bilan qatnov qismini bo'shatishlari kerak.



**22.** Yo'nalishli transport vositalarini faqat qatnov qismidan baland joylashgan kutish maydonchalarida, ular bo'lmaganda esa, trotuar yoki yo'l yoqasida kutishlari kerak. Qatnov qismidan baland joylashgan maydonchalar bilan jihozlanmagan bekatlarda yo'nalishli transport vositalari to'liq to'xtagandan so'ng unga chiqish uchun qatnov qismiga chiqishga ruxsat etiladi. Undan tushgandan keyin ushlanib qolmasdan qatnov qismini bo'shatishlari shart.

Qatnov qismi bo'ylab bekatlarga borayotgan yoki undan qaytayotgan piyodalar ushbu Qoidalarning 18–21-bandlari talablariga amal qilishlari kerak.







**23.** Yo‘lovchilar transport vositasiga faqat u to‘liq to‘xtagandan so‘ng trotuar yoki yo‘l yoqasi tomondan chiqishga va tushishga majburdirlar.





Yo‘lovchilarning transport vositalaridan trotuar yoki yo‘l yoqasi tomondan tushishi yoki ularga chiqishining iloji bo‘lmagan hollarda, agar bu harakat xavf tug‘dirmasa yoki boshqa yo‘l harakati ishtirokchilariga xalaqit bermasa, yo‘lning qatnov qismi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Mazkur Qoidalarning 9-bandiga muvofiq xavfsizlik kamarlari bilan jihozlangan transport vositalarida harakatlanishdan oldin ularni taqib olish, mototsikl, elektromototsikl, moped yoki skuterlarda harakatlanishidan oldin esa motoshlemni qadab olishi shart.

**24.** Yo‘lovchilarga:

transport vositasi harakatlanayotgan vaqtda haydovchini boshqarishdan chalg‘itish (unga xalaqit berish);



harakatlanayotgan bortli yuk avtomobillarida tik turish, bortlarda yoki undan yuqoridagi yuk ustida o‘tirish;



transport vositasi harakatlanayotgan vaqtda uning eshiklarini ochish;



transport vositasi harakatlanayotgan vaqtda salondan tana qismlarini (qo‘ldan tashqari) chiqarish taqiqlanadi.

Bu talablarning bajarilishini haydovchi nazorat qilishi kerak.

# 6-BOB. MAXSUS TRANSPORT VOSITALARINING IMTIYOZLARI

**25.** Tezkor va maxsus xizmatlarning ko‘k yoki qizil yoxud ko‘k va qizil rangli yalt-yalt etuvchi mayoqchalar yoqilgan transport vositalarining haydovchilari kechiktirib bo‘lmaydigan xizmat vazifalarini bajarayotib, harakatlanish xavfsizligini ta’minlash sharti bilan ushbu Qoidalarning 7-bobi (tartibga soluvchining ishoralaridan tashqari), 9 — 16, 19-20 va 22 boblari, 1 va 2-ilovalari talablaridan chetga chiqishlari mumkin.



Yo‘l harakatining boshqa ishtirokchilariga nisbatan imtiyozga ega bo‘lishi uchun tezkor va maxsus xizmatlarning transport vositalarida, tezkor va maxsus xizmatlarning ko‘k yoki qizil yoxud ko‘k va qizil rangli yalt-yalt etuvchi mayoqchalar va maxsus tovushli ishora yoqilgan bo‘lishi shart. Ular o‘zlariga yo‘l berilayotganligiga ishonch hosil qilganlaridan so‘nggina imtiyozdan foydalanishlari mumkin.

Ushbu imtiyozdan tezkor va maxsus xizmatlarning ko‘k yoki qizil yoxud ko‘k va qizil rangli yalt-yalt etuv-











chi mayoqchalar va maxsus tovushli ishorasi yoqilgan transport vositalari tomonidan kuzatib kelinayotgan transport vositalarining haydovchilari ham foydalanadilar.

Kuzatib kelinayotgan transport vositalarida yaqinni yorituvchi fara chiroqlari yoqilgan bo'lishi shart.









**26.** Haydovchilar tezkor va maxsus xizmatlarning ko'k yoki qizil yoxud ko'k va qizil rangli yalt-yalt etuvchi mayoqchalar va maxsus tovushli ishorasi yoqilgan holda yaqinlashayotgan transport vositalariga, shuningdek ularning kuzatuvidagi, yaqinni yorituvchi fara chiroqlari yoqilgan transport vositasi (transport vositalari)ga yo'l berishlari shart.

Mazkur turdagi transport vositalarini quvib o'tish taqiqlanadi.

**27.** Tezkor va maxsus xizmatlarning ko'k yoki qizil yoxud ko'k va qizil rangli yalt-yalt etuvchi mayoqchasini yoqib to'xtab turgan transport vositasiga yaqinlashayotgan haydovchilar zarur bo'lgan hollarda harakatlanish tezligini darhol to'xtash imkoniyatini beradigan darajada kamaytirishlari shart.

**28.** Zarg'aldoq yoki sariq rangli yalt-yalt etuvchi mayoqchalar transport vositalarida quyidagi hollarda yoqilgan bo'lishi kerak:

yo'lda qurilish, ta'mirlash yoki tozalash ishlari olib borilayotganda, shu-






ningdek, shikastlangan, nosoz transport vositalarini ortishda, tashishda;

yo'l harakatida qatnashayotgan, gabarit o'lchamlari ushbu Qoidalarning 164-bandida belgilangandan ortiq bo'lgan, shuningdek, og'ir vazn va katta hajmli hamda xavfli yuklarni tashiyotgan transport vositalarini kuzatib borishda;

portlovchi, tez alangalanadigan, radioaktiv moddalarni va zaharli darajasi o'ta yuqori bo'lgan moddalarni tashishda;

umumiy foydalanishdagi transport vositasi yo'llarida velosipedchilarning tashkiliy jamlanmasini kuzatib borishda.

Yoqilgan zarg'aldoq va (yoki) sariq rangli mayoqcha harakatlanishda imtiyoz bermaydi va yo'l harakatining boshqa ishtirokchilarini faqat xavf haqida ogohlantiradi.

**29.** Zarg'aldoq yoki sariq rangli yalt-yalt etuvchi mayoqchalari yoqilgan transport vositalarining haydovchilari yo'l qurilishi, ta'mirlanishi va tozalanishi jarayonida hamda texnik shikastlangan, nosoz bo'lgan, shuningdek, qonunchilikda ko'zda tutilgan hollarda boshqa transport vositalarini ortishda, tashishda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sharti bilan ushbu Qoidalarning yo'l belgilari (2.2, 2.4 — 2.6, 3.11 — 3.14, 3.17.2, 3.20 yo'l belgilaridan tashqari), yo'l chiziqlari hamda 67 — 71 va 121-bandlari talablaridan chetga chiqishlari mumkin.









Yo'l harakatida qatnashayotgan, gabarit o'lchamlari ushbu Qoidalarning 164-bandida belgilangandan ortiq bo'lgan, og'ir vazn va katta hajmli yuk tashiyotgan transport vositalarining hamda ularni kuzatib kelayotgan zarg'aldoq yoki sariq rangli yalt-yalt etuvchi mayoqchalari yoqilgan transport vositalarining haydovchilari harakat xavfsizligini ta'minlash sharti bilan yo'l chiziqlari talablaridan chetga chiqishlari mumkin.

# 2 – 6-boblarga oid testlar

**1** **Ro'paradan kelayotgan avtomobil haydovchisi qanday yo'l tutishi kerak?**

1. Yo'l yoqasida to'xtashi.
2. Yalt-yalt etuvchi chiroq mayoqchasi yoqilgan avtomobilga xalaqit bermasdan harakatni davom ettirishi.



**2** **Haydovchi yo'l-transport hodisasida shikastlangan transport vositasini shatakka olish uchun yuk avtomobilini IIO xodimi ixtiyoriga qanday holda berishi kerak?**

1. Faqat shu holdaki, agar shatakka olish yo'l-yo'lakay yo'nalishda amalga oshirilsa.
2. Har qanday holda.
3. Haydovchining istagi bo'yicha.

**3** **Harakatni boshlashdan avval shaharlararo avtobus haydovchilari nima qilishlari kerak?**

1. Yo'lovchilarga halokat bo'lganda chiqish joylaridan foydalanish haqida tushuntirishi.
2. Yo'lovchilarga avtobusdan chiqish, undan tushish va unga joylashish tartibi haqida tushuntirishi.
3. Yo'lovchilarga harakatlanish vaqtida salon ichida yurishlari taqiqlanishi haqida tushuntirishi.

**4** **Ko'k avtomobil chorrahani kesib o'tadi:**

1. Birinchi bo'lib, ayni bir vaqtda qizil bilan.
2. Ikkinchi bo'lib, ayni vaqtda qizil bilan.
3. Uchinchi bo'lib, ayni vaqtda qizil bilan.



**5** **Haydovchi oq hassa bilan ishora berayotgan ko'zi ojiz piyodalarni o'tkazib yuborishi kerakmi?**

1. Barcha hollarda o'tkazib yuborishi kerak, shu jumladan, piyodalar o'tish joylaridan tashqarida ham.
2. Tartibga solinadigan piyodalar o'tish joyida o'tkazib yuborishi kerak.
3. Tartibga solinmagan piyodalar o'tish joyida o'tkazib yuborishi kerak.
4. Har qanday piyodalar o'tish joyida o'tkazib yuborishi kerak.

**6** **Qora avtomobil chorrahani kesib o'tadi:**

1. Birinchi bo'lib.
2. Ikkinchi bo'lib.
3. Oxirgi bo'lib.



**7** **Ko'k avtomobil chorrahani kesib o'tadi:**

1. Birinchi bo'lib.
2. Ikkinchi bo'lib.
3. Uchinchi bo'lib.
4. To'rtinchi bo'lib.
5. Oxirgi bo'lib.



**8** **«Falokat» yorug'lik ishoralari yoqilishi kerak:**

1. To'xtash taqiqlangan joylarda majburiy to'xtaganda.
2. Yo'l-transport hodisasi ro'y berganda.
3. Yo'lning yoritilmagan qismlarida to'xtaganda va to'xtab turganda yoki ko'rinish etarli bo'lmagan sharoitda gabarit yoki to'xtab turish chiroqlari nosoz bo'lganda.
4. Barcha sanab o'tilgan hollarda.

**9** **Agar yo'l-transport hodisasi natijasida hech kim jabrlanmasa, moddiy zarar esa ahamiyatsiz bo'lsa, haydovchilarning o'zlari hodisa ro'y bergan joyni tark etib, DYHXXning eng yaqin yoki IIO idorasiga hodisani qayd qilish uchun kela oladilarmi?**

1. Kela olmaydilar.
2. Kela oladilar.
3. Hodisa chizmasini taxminiy tuzib va uni imzolab kela oladilar.

**10** **Yuk avtomobili haydovchisi rasmda ko'rsatilgan holatda maxsus tovush ishorasini eshitib yoki miltillovchi ishorani ko'rib nima qilishi kerak?**

1. Qatnov qismidagi o'z bo'lagi bo'ylab harakatni davom ettirishi kerak.
2. Haydovchi maxsus tovushli ishoralarini yoqqan holda yaqinlashib kelayotgan transport vositalariga yo'l berish, zarur bo'lgan hollarda ularning to'siqsiz o'tib ketishlari uchun yo'lning o'ng tomoniga o'tib to'xtashi shart.



# 7-BOB. SVETOFOR VA TARTIBGA SOLUVCHINING ISHORALARI

## TRANSPORT SVETOFORLARI




**30.** Svetoforlarda yashil, sariq, qizil va oq rangli yorug'lik ishoralari qo'llaniladi.

Svetofor ishoralari vazifasiga qarab doirasimon, ko'rsatkich (ko'rsatkichlar), piyoda yoki velosiped tasviri tushirilgan ko'rinishda va X-simon bo'lishi mumkin.

Doirasimon ishorali svetoforlarda yashil ishoralar bilan bir sathda joylashgan ishoralar yashil ko'rsatkich (ko'rsatkichlar) ko'rinishidagi bitta yoki ikkita qo'shimcha tarmoq bo'lishi mumkin.

**31.** Svetoforning doirasimon ishoralari quyidagi ma'noni bildiradi:

yashil ishora harakatlanishga ruxsat beradi;

miltillovchi yashil ishora ham harakatlanishga ruxsat beradi va uning ta'sir



vaqti tugayotganligi hamda ko'p o'tmay taqiqlovchi ishora yonishi haqida axborot beradi.

yashil ishora o'chishiga soniyalarda qancha vaqt qolganligi haqida axborot berish uchun raqamli tablo qo'llanilishi mumkin;



sariq ishora harakatlanishni taqiqlaydi (Qoidalarning 42-bandida ko'zda tutilgan holatlardan tashqari) va ishoralar almashuvi haqida ogohlantiradi;

miltillovchi sariq ishora ehtiyotkorlik choralarini ko'rgan holda harakatlanishga ruxsat beradi va tartibga solinmagan

chorraha yoki piyodalar o'tish joyi borligidan xabardor qiladi, xavf-xatar haqida ogohlantiradi;

qizil ishora, shuningdek, miltillovchi qizil ishora harakatlanishni taqiqlaydi;



qizil va sariq ishoralarning bir vaqtda yonishi harakatlanishni taqiqlaydi va ko'p o'tmay yashil ishora yonishi haqida axborot beradi.

**32.** Yo'naltirgich ko'rinishidagi qizil, sariq va yashil rangli svetofor ishoralari ham doirasimon shaklidagi svetofor ishoralari bilan bir xil ma'noga ega bo'ladi. Ular faqat ko'rsatilgan yo'nalishga ta'sir etadi.



Agar tegishli yo'l belgisi bilan qayrilib olish taqiqlanmagan bo'lsa, chapga burilishga ruxsat beruvchi yo'naltirgich qayrilib olishga ham ruxsat beradi. Qo'shimcha tarmoqdagi yashil yo'naltirgich ham xuddi shu ma'noni bildiradi.

Svetoforning qo'shimcha tarmoqdagi ishora o'chirilgan bo'lsa, shu tarmoq tartibga solayotgan yo'nalishda harakatlanish taqiqlanganligini bildiradi.

**33.** Svetoforning asosiy yashil ishorasiga yo'naltirgich (yo'naltirgichlar)ning shakli tushirilgan bo'lsa, u haydovchilarga svetoforning qo'shimcha tarmog'i borligi haqida axborot beradi va asosiy yashil ishora yonganda harakatlanishga ruxsat berilgan yo'nalishlarni ko'rsatadi.



**34.** Agar svetofor ishorasi piyoda tasviri ko'rinishida bo'lsa, u faqat piyodalarga, velosiped tasviri ko'rinishida bo'lsa, velosipedchilar va individual harakatlanish vositalarini boshqargan shaxslar harakatlanishiga ta'sir qiladi. Bunda yashil ishora piyodalar yoki velosipedchilar va individual harakatlanish vositalarini boshqargan shaxslarning harakatlanishiga ruxsat beradi, qizil ishora ularning harakatlanishini taqiqlaydi.



**35.** Qatnov qismidagi harakatlanish yo'nalishi qarama-qarshi tomonga o'zgarishi mumkin bo'lgan tasmalarida transport vositalarining harakatlanishini tartibga solish uchun X-simon qizil ishorali va pastga yo'nalgan ko'rsatkich ko'rinishidagi yashil ishorali reversiv svetoforlar qo'llaniladi. Bu ishoralar qaysi tasma ustiga o'rnatilgan bo'lsa, unda

harakatlanishni taqiqlaydi yoki harakatlanishga ruxsat beradi.

Ikki tomoni 1.9 yo'l chizig'i bilan belgilangan tasma ustiga o'rnatilgan va ishoralari o'chirilgan reversiv svetofor shu tasmaga kirishni taqiqlaydi.






**36.** Tramvaylarning hamda maxsus ajratilgan tasma bo'ylab harakatlanayotgan boshqa yo'nalishli transport vositalarining harakatlanishini tartibga solish uchun "T" harfi ko'rinishida joylashgan to'rtta doirasimon oq rang ishorali svetoforlar qo'llanilishi mumkin.

Yuqoridagi bir yoki bir nechta va pastki ishora bir vaqtning o'zida yonganda, harakatlanishga ruxsat etiladi. Ulardan chapdagisi chapga, o'ngdagisi o'ngga, o'rtadagisi to'g'riga yurishga ruxsat beradi. Pastdagi ishora o'chirilib, yuqoridagi uchta ishora bir vaqtda yonsa, harakatlanish taqiqlanadi.

**37.** Temir yo'l kesishmalarida o'rnatilgan doirasimon oq rangli miltillovchi ishora transport vositalarining kesishma orqali harakatlanishiga ruxsat beradi.









Svetoforning miltillovchi oq va qizil ishoralari o'chirilgan bo'lib, ko'rinish chegarasida temir yo'l kesishmasiga yaqinlashib kelayotgan poyezd (lokomotiv,

drezina) bo'lmasa harakatlanishga ruxsat etadi.

Temir yo'l kesishmalarida svetoforning qizil miltillovchi ishorasi bilan bir vaqtda yo'l harakati ishtirokchilarining kesishma orqali harakatlanishi taqiqlanganligi to'g'risida qo'shimcha axborot sifatida tovushli ishora ham berilishi mumkin.




**38.** Tartibga soluvchining ishoralari quyidagi ma'noni bildiradi:

Qo'llari yon tomonga uzatilganda yoki tushirilganda:



chap va o'ng yon tomonidan tramvayga to'g'riga, relssiz transport vositalariga to'g'riga va o'ngga harakatlanishga, piyodalarga qatnov qismini kesib o'tishga ruxsat beriladi;

old va orqa tomonidan barcha transport vositalari va piyodalarning harakatlanishi taqiqlanadi.

O'ng qo'li oldinga uzatilganda:

chap yonidan tramvayga chapga, relssiz transport vositalariga barcha yo'nalishlarda;



oldi tomonidan barcha transport vositalariga faqat o'ngga harakatlanishga ruxsat beriladi;

orqa tomonidan va o'ng yonidan barcha transport vositalarining harakatlanishi taqiqlanadi;

piyodalarga tartibga soluvchining orqa tomonida qatnov qismini kesib o'tishga ruxsat etiladi.

Qo'lini yuqoriga ko'targanda:



ushbu Qoidalarning 42-bandida ko'rsatilganidan boshqa hollarda transport vositalari va piyodalarning barcha yo'nalishlarda harakatlanishi taqiqlanadi;

tartibga soluvchi haydovchi va piyodalarga tushunarli bo'lgan boshqa ishoralarni ham berishi mumkin. Ishoralar yaxshi ko'rinishi uchun tartibga soluvchi jezl yoki yorug'lik qaytaradigan qizil rangli moslamalarni qo'llashi mumkin. Shuningdek, tartibga soluvchi o'z faoliyatini maxsus moslama (tumba) ustida turib olib borishi mumkin.

**39.** Harakatni tartibga soluvchi yoki IIO xodimi o'z xizmat vazifalarini bajarayotganda, qo'l ishorasi yoki ovoz kuchaytirgich yordamida haydovchidan

transport vositasini to'xtatishni talab qilishi mumkin. Bunda transport vositasining haydovchisi ko'rsatilgan joyda to'xtashi shart.

**40.** Yo'l harakati ishtirokchilarining e'tiborini jalb etish uchun hushtak bilan qo'shimcha ishora beriladi.

**41.** Svetofor (reversivdan tashqari) ning yoki tartibga soluvchining taqiqlovchi ishorasida haydovchilar transport vositalarini to'xtash chizig'i (5.33 yo'l belgisi) oldida (bunda transport vositasining eng oldingi nuqtasi to'xtash chizig'i ustiga chiqib ketmasligi kerak), bunday chiziq bo'lmaganda esa:




chorrahada qatnov qismi bilan kesishgan joyida, piyodalarga (ushbu Qoidalarning 102-bandini hisobga olgan holda) xalaqit bermasdan;





temir yo'l kesishmasi oldida ushbu Qoidalarning 119-bandiga muvofiq;

boshqa joylarda svetofor yoki tartibga soluvchining oldida, harakatlanishiga ruxsat berilgan transport vositalari va piyodalarga xalaqit bermagan holda to'xtashi kerak.

**42.** Svetoforning yashil ishorasidan keyin sariq ishora yonganda yoki tartibga soluvchining qo'li yuqoriga ko'tarilganda, Qoidalarning 41-bandida nazarda tutilgan joylarda keskin tormoz bermasdan to'xtashga ulgura olmaydigan haydovchilarga harakatlanishni davom ettirishga ruxsat etiladi.

Ushbu ishoralar berilganda, qatnov qismida bo'lgan piyodalar uni bo'shatishlari, agar buning iloji bo'lmasa, qarama-qarshi yo'nalishlardagi transport oqimlarini ajratuvchi chiziqda to'xtashlari kerak.

**43.** Tartibga soluvchining ishoralari va ko'rsatmalari svetofor ishoralari, yo'l belgilari va chiziqlari talablariga zid bo'lgan hollarda haydovchi, velosipedchi, individual harakatlanish vositasini boshqargan shaxs va piyodalar tartibga soluvchining ishoralari va ko'rsatmalariga amal qilishlari kerak.

Svetofor ishoralari imtiyoz belgilari talablariga zid bo'lgan hollarda haydovchilar svetofor ishoralariga amal qilishlari kerak.

Agar svetoforning ishoralari ishlamayotgan bo'lsa, haydovchi boshqa (ko'ndalang) yo'nalishdagi svetofor ishoralari ishlamayotganligiga ishonch hosil qilganidan so'nggina harakat xavfsizligini ta'minlagan holda harakatni davom ettirishi lozim.



## 7-bobga oid testlar

**1** **Qaysi transport vositasining haydovchisi chorrahadan birinchi bo'lib o'tadi?**

1. Avtomobil va avtobus haydovchisi.
2. Tramvay haydovchisi.



**2** **Qaysi transport vositasining haydovchisi yo'l berishi kerak?**

1. Avtomobil haydovchisi.
2. Tramvay haydovchisi.



**3** **Transport vositalari chorrahadan quyidagi tartibda o'tadilar:**

1. Tramvay va avtobus, yengil avtomobil.
2. Tramvay, yengil avtomobil, avtobus.
3. Yengil avtomobil, tramvay va avtobus.



**4** **Ko'k avtomobil chorrahadan nechanchi bo'lib o'tadi?**

1. Birinchi.
2. Ikkinchi.



**5** **Qaysi transport vositasining haydovchisi yo'l berishi kerak?**

1. Motosikl haydovchisi.
2. Avtomobil haydovchisi.



**6** **Ushbu sharoitda avtobusning chorrahaga kirishiga ruxsat beriladimi?**

1. Ruxsat beriladi.
2. Taqiqlanadi.
3. Agar avtobus belgilangan yo'nalish bo'yicha harakatlanayotgan bo'lsa, ruxsat etiladi.



**7** **Ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha qaysi transport vositalariga harakatlanishga ruxsat beriladi?**

1. Avtomobil haydovchisiga.
2. Avtomobil va motosikl haydovchisiga.
3. Tramvay va avtomobil haydovchisiga.



**8** **Ushbu svetofor harakatlanishni tartibga solish uchun qo'llanadi:**

1. Qatnov qismining butun kengligi bo'yicha.
2. Qatnov qismidagi harakatlanish yo'nalishi qarama-qarshi tomonga o'zgaradigan tasmalar bo'yicha.
3. Faqat belgilangan yo'nalishdagi transport vositalari uchun mo'ljallangan tasma bo'yicha.



**9** **Svetoforning taqiqlovchi ishorasida va shlagbaum ochiq bo'lganda haydovchi nima qilishi kerak?**

1. Yaqinlashib kelayotgan poyezd yo'qligiga shaxsan ishonch hosil qilishi va kesishmadan o'tishi kerak.
2. Shlagbaumning holatiga asoslangan holda kesishmadan o'tishi kerak.
3. Shlagbaumgacha 10 metrdan yaqin bo'lmagan masofada to'xtashi lozim.
4. To'xtash chizig'i oldida, agar ular yo'q bo'lsa, shlagbaumgacha 5 metrdan yaqin bo'lmagan masofada to'xtashi zarur.

**10** **Avtomobil qaysi yo'nalishlarda harakatlanishi mumkin?**

1. Faqat o'ngga.
2. To'xtash va svetoforning yashil chirog'ini kutish.
3. Faqat to'g'riga.
4. Barcha yo'nalishlar bo'yicha.



# 8-BOB. OGOHLANTIRUVCHI VA AVARIYA (XAVF-XATAR) ISHORALARI

**44.** Quyidagilar ogohlantiruvchi ishoralar hisoblanadi:

burilishni ko'rsatadigan miltillovchi chiroq yoki qo'l bilan beriladigan ishoralar;

to'xtash fara chirog'i;

tovushli ishoralar;

fara chiroqlarining yoqib o'chirilishi;

sutkaning yorug' vaqtida yaqinni yorituvchi fara chiroqlarini yoqilishi.

**45.** Haydovchi harakatlanishni boshlashdan, qayta tizilishdan, burilish (qayrilib olish)dan va to'xtashdan oldin tegishli yo'nalishni ko'rsatuvchi yorug'lik ishoralarini yoqishi, ular bo'lmaganda yoki ishlamaganda qo'l bilan ishoralar berishi shart.

Chapga burilish (qayrilib olish)ni bildiruvchi ishoraga chap qo'lni yonga uzatish yoki o'ng qo'lni tirsakdan to'g'ri burchak ostida bukib, yuqoriga ko'tarish mos keladi.

O'ngga burilish (qayrilib olish)ni bildiruvchi ishoraga o'ng qo'lni yonga uzatish yoki chap qo'lni tirsakdan to'g'ri burchak ostida bukib, yuqoriga ko'tarish mos keladi.

To'xtash ishorasi chap yoki o'ng qo'lni yuqoriga ko'tarib beriladi.

**46.** Burilish ko'rsatkichi yoki qo'l bilan berilayotgan ishora manyovrni bajarishdan oldinroq berilishi va uni tugallagach, darhol to'xtatilishi kerak (qo'l bilan berilayotgan ishorani manyovrni bevosita bajarishdan oldin tugallash mumkin).



Beriladigan ishoralar yo'l harakatining boshqa ishtirokchilarini chalg'itmasligi kerak.

Ogohlantiruvchi ishora berish haydovchiga oldin o'tish huquqini bermaydi va uni zaruriy ehtiyot choralarini ko'rish mas'uliyatidan ozod etmaydi.

**47.** Haydovchi harakat yo'nalishini o'zgartirish haqidagi ogohlantiruvchi ishorani berishdan oldin orqadan kelayotgan, uni quvib o'tishni yoki o'zib ketishni boshlagan va boshqa harakat ishtirokchilariga xalaqit bermayotganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

**48.** Tovushli ishoralar faqat quyidagi hollarda qo'llanilishi mumkin:

aholi punktlaridan tashqarida boshqa haydovchilarni quvib o'tish haqida ogohlantirish uchun;

zarur bo'lgan hollarda yo'l-transport hodisasining oldini olish uchun.




Yuqorida ko'rsatilgan hollardan tashqari tovushli ishoralardan foydalanish taqiqlanadi.

**49.** Quvib o'tish haqida tovushli ishora o'rniga yoki u bilan birga fara chiroqlarini yoqib-o'chirib, ogohlantirish ishorasini ham berish mumkin.



50. Burilishni ko‘rsatuvchi barcha yorug‘lik ishoralarining bir vaqtda miltillashi avariya (xavf-xatar) ishorasi hisoblanadi.



Avariya ishorasi quyidagi hollarda yoqilishi kerak:

yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lganda;

to‘xtash taqiqlangan joylarda majburiy to‘xtaganda;



fara chiroqlari yorug‘ligi haydovchining ko‘zini qamashtirganda;

shatakka olishda (shatakka olingan mexanik transport vositasida);

“Bolalarni tashish” taniqlik belgilariga ega bo‘lgan transport vositasiga bolalar chiqayotganda va undan tushayotganda.



Transport vositasi xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan boshqa hollarda ham haydovchi yo‘l harakati ishtirokchilarini ogohlantirish maqsadida avariya ishorasini yoqishi kerak.

51. Transport vositasi to‘satdan to‘xtab qolganda, zudlik bilan avariya yorug‘lik ishorasini yoqish, agar u ishlamasa, avariya sababli to‘xtash belgisini darhol o‘rnatish kerak. Avariya sababli to‘xtash belgisi quyidagi hollarda qo‘llaniladi:



yo'l-transport hodisasi sodir bo'lganda;

to'xtash taqiqlangan joylarda va ko'rinishi cheklangan joylarda majburiy to'xtaganda;

Ushbu belgi boshqa haydovchilarni xavfli vaziyat haqida o'z vaqtida ogohlantirish imkonini beradigan masofada o'rnatilishi kerak. Bu masofa aholi punktlarida transport vositasidan 15 metr, aholi punktlaridan tashqaridagi joylarda esa 30 metrdan kam bo'lmasligi kerak.

**52.** Shatakka olingan mexanik transport vositasida avariya yorug'lik ishoralari bo'lmasa yoki ular ishlamasa, uning orqa qismiga avariya sababli to'xtash belgisi o'rnatilishi kerak.







## 8-bobga oid testlar

**1 Haydovchi harakatlanishni boshlashdan oldin qanday amallarni bajarishi kerak?**

1. Transport vositasining sozligini va to'la jihozlanganligini tekshirishi.
2. Harakatlanish boshlanishi xavfsiz bo'lishiga va harakatning boshqa ishtirokchilariga xalaqit bermasligiga ishonch hosil qilishi kerak.
3. Tegishli yo'nalishdagi burilishning yorug'lik ko'rsatkichi bilan ishora berishi.
4. Sanab o'tilgan hamma harakatlarni bajarishi.

**2 Kunning qorong'i vaqtida sun'iy yoritilmagan yo'llarda yoki yetarlicha ko'rinmaslik sharoitida yonmaydigan orqa gabarit chiroqlari bilan to'xtab turish yoki ta'mirlash joyiga borishga ruxsat beriladimi?**

1. Alohida ehtiyotkorlik bilan borishga ruxsat beriladi.
2. Taqiqlanadi.

**3 Qaysi holda qoidalar ogohlantirish ishorasini berishni talab qilmaydi?**

1. Qatnov qismining chekkasida to'xtash oldidan.
2. «Xavfli burilish» belgisi bilan belgilangan yo'lning egri burilish joyi oldidan.
3. Qo'shni harakat bo'lagiga o'tish oldidan.

**4 Kunduzgi vaqtda yaqinni yorituvchi fara chirog'ini yoqish ogohlantirish ishorasi bo'ladimi?**

1. Bo'ladi.
2. Bo'lmaydi.

**5 Qaysi ishoralar ogohlantiruvchi hisoblanadi?**

1. Burilishni ko'rsatadigan miltillovchi chiroq yoki qo'l bilan beriladigan ishoralar.
2. Tovushli ishoralar.
3. Fara chiroqlarining o'chib-yoqilishi va kunduzgi vaqtda yaqinni yorituvchi fara chirog'ining yoqilishi.
4. Sanab o'tilgan barcha ishoralar.

**6 Ogohlantirish ishorasini berish haydovchiga birinchi harakatlanish huquqini beradimi?**

1. Bermaydi.
2. Manyovrni tugatish vaqtida beradi.
3. Manyovrni boshlash vaqtida beradi.
4. Hamma hollarda beradi.

| | |
|---|---|
| **7** **Haydovchi aholi yashaydigan joydan tashqaridagi yo'lda quvib o'tilayotgan haydovchining e'tiborini jalb etish uchun faralar chiroqlarini o'chirib-yoqish va tovush ishorasi berishni qo'llab to'g'ri qildimi?**<br>1. Noto'g'ri.<br>2. To'g'ri. | **8** **Quvib o'tishda faralarning uzoqni yorituvchi chiroqlaridan ogohlantiruvchi ishora sifatida foydalanish mumkinmi?**<br>1. Hamma holda mumkin.<br>2. Mumkin, agar bu boshqa haydovchilarning ko'zini qamashtirmasa, shu jumladan, orqani ko'rish ko'zgusi orqali ham.<br>3. Mumkin emas.<br>4. Aholi yashaydigan joylardan tashqaridagi yo'llarda mumkin. |
| **9** **Haydovchi manyovrni bajarishda burilish ko'rsatkichlari bilan yorug'lik ishorasini har doim berishi kerakmi?**<br>1. Har doim berishi kerak.<br>2. Kerak emas, agar harakatlanishning boshqa qatnashchilarini chalg'itishi mumkin bo'lsa.<br>3. Kerak, zaruriy ehtiyot choralarini ko'rgan holda. | **10** **Kunning qorong'i vaqtida yo'lning yoritilgan qismida harakatlanayotgan mexanik transport vositasida qaysi chiroqlar yoqilgan bo'lishi kerak?**<br>1. Faralarning yaqinni yorituvchi chiroqlari.<br>2. Faralarning uzoqni yorituvchi chiroqlari yoki gabarit chiroqlar.<br>3. Faralarning yaqinni yorituvchi chiroqlari (tumanga qarshi faralar) yoki gabarit chiroqlar. |

## 9-BOB. HARAKATLANISHNI BOSHLASH, MANYOVR QILISH

**53.** Haydovchi harakatlanishni boshlash, manyovr qilish (qayta tizilish, burilish, qayrilib olish, quvib o'tish va aylanib o'tish) va to'xtashdan oldin bajarilayotgan manyovr boshqa yo'l harakati ishtirokchilarini harakatlanishiga xavf tug'dirmasligi kerak.

**54.** Haydovchi yondosh hududdan yo'lga chiqayotganda unda harakatlanayotgan piyodalar va transport vositalariga, shuningdek, yo'ldan chiqishda harakatlanish yo'nalishini kesib o'tayotgan piyodalar va velosipedchilarga yo'l berishi kerak.






**55.** Haydovchi qayta tizilishda harakatlanish yo'nalishini o'zgartirmasdan harakatlanayotgan yo'lakay transport vositalariga yo'l berishi kerak.

Bir yo'nalishda harakatlanayotgan transport vositalari bir vaqtda qayta tizilayotganda, haydovchi o'ng tomondagi transport vositasiga yo'l berishi kerak.





**56.** Aylanma harakatlanish tashkil qilingan chorrahalarga kirish uchun burilishdan boshqa barcha hollarda, haydovchi o'ngga, chapga burilishi yoki qayrilib olishdan oldinroq shu yo'nalishda harakatlanishi uchun mo'ljallangan qatnov qismining eng chetki holatni egallashi shart.



Agar 5.8.1 yoki 5.8.2 yo'l belgilari yoxud 1.18 yo'l chizig'i bilan boshqa harakatlanish tartibi o'rnatilmagan bo'lsa, qatnov qismining o'rtasida u bilan bir sathda joylashgan bir yo'nalishdagi tramvay izidan chapga burilish va qayrilib olishga ruxsat etiladi. Biroq, bu tramvay harakatiga xalaqit bermasligi kerak.





**57.** Burilishni shunday amalga oshirish kerakki, bunda qatnov qismlarining kesishmasidan chiqayotgan transport vositasi qarama-qarshi yo'nalishdagi harakatlanish tomoniga o'tib ketmasligi kerak.

O'ngga burilishda transport vositasi iloji boricha qatnov qismining o'ng chetiga yaqinroqda harakatlanishi kerak.



**58.** Agar transport vositasi o'zining gabaritlari (eng katta tashqi o'lchamlari) yoki boshqa sabablarga ko'ra (eng chekka tasmalardagi tirbandliklar bundan mustasno) Qoidalarning 56-bandi talablariga muvofiq burilishni bajara olmasa, harakat xavfsizligini ta'minlagan holda, boshqa transport vositalariga xalaqit bermasdan, talablardan chetga chiqishiga yo'l qo'yiladi.



**59.** Relssiz transport vositasining haydovchisi chorrahadan tashqarida



chapga burilish yoki qayrilib olishda qarama-qarshi yo'nalishdan harakatlanayotgan transport vositalariga va bir yo'nalishdagi tramvayga yo'l berishi shart.

Chorrahadan tashqarida qayrilib olishda, agar qatnov qismining kengligi manyovrni chetki chap holatdan bajarish uchun yetarli bo'lmasa, uni qatnov qismining o'ng chetidan (o'ng yo'l yoqasidan) amalga oshirishga yo'l qo'yiladi.



Bu holda haydovchi shu yo'nalishdagi va qarama-qarshi yo'nalishdagi transport vositalariga yo'l berishi shart.

**60.** Transport vositalarining harakatlanish yo'nalishlari kesishganda va o'tish navbati Qoidalarda nazarda tutilmagan hollarda, haydovchi o'ng tomondan yaqinlashayotgan transport vositasiga yo'l berishi kerak.




**61.** Sekinlashish bo'lagi bor bo'lgan yo'lda burilmoqchi bo'lgan haydovchi o'z vaqtida ushbu tasmaga qayta tizilishi va tezlikni faqat unda kamaytirishi kerak.





Yo'lga chiqish joyida tezlashish bo'lagi bo'lsa, haydovchi unda harakatlanishi va qo'shni tasmada harakatlanayotgan transport vositalariga yo'l berib, transport oqimiga qo'shilishi kerak.



**62.** Quyidagi joylarda qayrilib olish taqiqlanadi:



piyodalarning o'tish joylarida;
tunnellarda;



ko'priklar, yo'l o'tkazgichlar, estakadalar va ularning ostida (tegishli yo'l belgilari bilan bunday manyovrni bajarish ruxsat berilgan yo'l qismlari bundan mustasno);






temir yo'l kesishmalarida;
yo'lning ko'rinishi biror-bir yo'nalishda 100 metrdan kam bo'lgan joylarda.

**63.** Transport vositasini orqaga harakatlantirishda haydovchi yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashi va yo'l harakatining boshqa ishtirokchilariga xalaqit bermasligi shart. Zarurat tug'ilganda haydovchi boshqa shaxslarning yordamidan foydalanishi kerak.



Orqaga harakatlanish chorrahalarda va ushbu Qoidalarning 62-bandiga muvofiq qayrilib olish mumkin bo'lmagan joylarda taqiqlanadi.



## 9-bobga oid testlar

**1** **Qayrilish taqiqlanadi:**

1. Chorrahaga 15 metrdan yaqinroqda.
2. Tartibga solinmaydigan chorrahalarda, agar kesib o'tilayotgan yo'lda bir tomonlama harakatlanish tashkil etilgan bo'lsa.
3. Piyodalar o'tish joylarida.
4. Hamma sanab o'tilgan hollarda.

**2** **Harakatda imtiyozga ega bo'ladi:**

1. Ko'k avtomobil, chunki qizil avtomobil harakatlanish bo'lagini chapga o'zgartiradi.
2. Qizil avtomobil, chunki o'zaro qayta tizilishda u o'ng tomonda bo'ladi.
3. Ko'k avtomobil, chunki o'zaro qayta saflanishda u chap tomonda bo'ladi.



**3** **Burilishda harakat qilganda avtopoyezdning tirkamasi siljiydimi?**

1. Burilish markazidan boshqa tomonga siljiydi.
2. Siljimaydi.
3. Burilish markaziga siljiydi.

**4** **Yengil avtomobil haydovchilarining qaysi biri aholi yashaydigan joylarda harakatlanish qoidalarini buzyapti?**

1. Faqat «B» avtomobil haydovchisi.
2. Ikkalasi ham buzmoqda.
3. Ikkalasi ham buzmayapti.




**5** **Chorrahada qaysi yo'nalishlarda harakat qilishga ruxsat etiladi?**

1. Faqat «G» va «E».
2. A, B, G, D.
3. B, V, G, D.




**6** **Yuk avtomobillarining avtomagistrallarda ikkinchi tasmadan nariroqda harakatlanishga ruxsat etiladimi?**

1. Ruxsat etiladi, ruxsat etilgan to'la vazni 3,5 t dan oshib ketmasa.
2. Ruxsat etiladi, ruxsat etilgan to'la vazni 3,5 t dan ortiq bo'lsa.
3. Taqiqlanadi.

**7** **Qaysi transport vositasining haydovchisi harakatlanishda imtiyozga ega?**

1. Avtomobil haydovchisi.
2. Tramvay haydovchisi.



**8** **Siz uchta bo'lagi bo'lgan ikki tomonlama harakatli yo'l bo'ylab ketyapsiz. O'rta tasmaga o'tishga qanday holda ruxsat etiladi?**

1. Faqat quvib o'tish uchun.
2. Faqat aylanib o'tish uchun.
3. Faqat chapga burilish yoki orqaga burilish uchun.
4. Barcha sanab o'tilgan hollarda.

**9** **Qaysi joylarda orqa bilan harakatlanish taqiqlanadi?**

1. Bir tomonlama harakatli yo'llarda.
2. Ko'priklarda, osma yo'llarda, estakadalarda va ularning ostida.
3. Tog'li yo'llarda.
4. Avtomagistrallarda.
5. Barcha sanab o'tilgan joylarda.

**10** **Ikki tomonlama harakatli yo'lda uchta tasma bor, siz unga burilishingiz zarur. Siz ushbu manyovrni qaysi tasmadan amalga oshirasiz?**

1. O'ng tasmadan.
2. O'rta tasmadan.
3. O'ng yoki o'rta tasmadan.
4. O'rta tasmadan, lekin faqat o'ng tasma band bo'lgan vaqtda.

# 10-BOB. YO'LNING QATNOV QISMIDA TRANSPORT VOSITALARINING JOYLASHUVI

**64.** Relssiz transport vositalari harakatlanadigan tasmalar soni chiziqlar va (yoki) 5.8.1, 5.8.2, 5.8.7, 5.8.8 yo'l belgilari bilan belgilanadi. Bunday chiziqlar yoki yo'l belgilari bo'lmasa,






haydovchilar harakatlanish tasmalari sonini, qatnov qismining kengligini, transport vositalari orasidagi zarur yonlama oraliq masofani va ularning gabarit o'lchamlarini hisobga olgan holda o'zlari aniqlaydilar. Bunda harakatlanish ikki tomonlama bo'lgan yo'l qatnov qismining chap tomondagi yarmi, qatnov qismining joylardagi kengayishlari (sekinlashish va tezlashish tasmalari, balandlikka ko'tarilishdagi qo'shimcha tasmalar, yo'nalishli transport vositalarining to'xtash joylaridagi kengayishlar)ni hisobga olmagan holda, qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanish uchun mo'ljallangan deb hisoblanadi.

Tramvay yo'li, ajratuvchi tasma, uzluksiz 1.1, 1.3 yo'l chiziqlar yoki uzuq-uzuq tomoni chapda joylashgan 1.11 yo'l chizig'i bilan ajratilgan yo'llarda qarama-qarshi yo'nalishga chiqish taqiqlanadi.

**65.** To'rt va undan ortiq tasmali, harakat ikki tomonlama bo'lgan yo'llarda qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanish uchun mo'ljallangan tasmalarga chiqish taqiqlanadi.




**66.** Harakat ikki tomonlama bo'lgan va chiziqlar bilan belgilangan (1.9 yo'l chizig'i bilan belgilanganidan tashqari) uchta tasmali yo'llarda, ikki yo'nalishda harakatlanish uchun mo'ljallangan o'rta qatorga faqat quvib o'tish, aylanib o'tish, chapga burilish va qayrilib olish uchungina chiqishga ruxsat etiladi. Qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanish uchun mo'ljallangan chetki chap qatorni egallash taqiqlanadi.

**67.** Aholi punktlaridan tashqaridagi yo'llarda hamda aholi punktlarida ayrim





turdagi transport vositalari uchun ushbu Qoidalarda belgilangandan yuqori tezlikda harakatlanish ruxsat etilgan yo‘l qismlarida haydovchilar transport vositalarini mumkin qadar qatnov qismining o‘ng chetiga yaqinroq olib harakatlanishlari kerak. O‘ng tasmalar bo‘sh bo‘lganda chap tasmalarni egallash taqiqlanadi.

Aholi punktlarida ushbu bandning birinchi xatboshi va ushbu Qoidalarning 69, 123 va 161-bandlaridagi talablarni hisobga olgan holda, haydovchilar o‘zlariga qulay bo‘lgan harakatlanish bo‘lagidan foydalanishlari mumkin. Harakatlanish serqatnovligi sababli boshqa tasmalar band bo‘lganda harakatlanish qatorini faqat o‘ngga yoki chapga burilish, qayrilib olish, to‘xtash yoki to‘siqni aylanib o‘tish uchun o‘zgartirishga ruxsat etiladi.




Biroq, bir yo‘nalishdagi uch va undan ortiq tasmali har qanday yo‘lda chetki chap qatorni harakat serqatnovligi sababli boshqa bo‘laklar band bo‘lgan hollarda, shuningdek, quvib o‘tish, chapga burilish yoki qayrilib olishga, yuk avtomobillariga faqat chapga burilish yoki qayrilib olish uchun chetki chap qatorni egallashga ruxsat etiladi.

Boshqa hollarda yuk avtomobillariga yo‘lning chetki chap qatorida harakatlanish taqiqlanadi.






Harakat bir tomonlama bo‘lgan yo‘lning chap bo‘lagida to‘xtash va to‘xtab turish ushbu Qoidalarning 88-bandiga muvofiq amalga oshiriladi.



**68.** Tezligini soatiga 40 kilometrdan oshirishi mumkin bo‘lmagan yoki texnik sabablarga ko‘ra tezligini bundan oshira olmaydigan transport vositalari aylanib o‘tish, quvib o‘tish, chapga burilish

yoki qayrilib olish uchun qayta tizilishdan yoki ruxsat etilgan hollarda yo'lning chap tomonida to'xtashdan boshqa hollarda faqat chetki o'ng qatorida harakatlanishlari kerak.



**69.** Bir yo'nalishdagi qatnov qismining chap tomonida u bilan bir sathda joylashgan tramvay yo'lidan, shu yo'nalishdagi boshqa tasmalar band bo'lganda harakatlanishga, shuningdek, aylanib o'tishga, chapga burilish va qayrilib olishga ushbu Qoidalarning 56-bandini hisobga olgan holda ruxsat etiladi. Biroq bu tramvayga xalaqit bermasligi kerak. Qarama-qarshi yo'nalishdagi tramvay yo'lidan harakatlanish taqiqlanadi.



Agar chorrahadan oldin 5.8.1 yoki 5.8.2 yo'l belgilari o'rnatilgan bo'lsa, chorrahadan o'tishda tramvay yo'llaridan harakatlanish taqiqlanadi.

**70.** Agar qatnov qismi yo'l chiziqlari bilan tasmalarga ajratilgan bo'lsa, transport vositalarining harakatlanishi qat'iy ravishda belgilangan tasmalarda amalga oshirilishi kerak. Faqat qayta tizilishda uzuq-uzuq chiziqlarni bosib o'tishga ruxsat etiladi.

**71.** Reversiv harakatlanishli yo'lga burilishda haydovchi transport vositasini shunday boshqarishi kerakki, bunda transport vositasi qatnov qismlari ke-



sishmasidan chiqishda chetki o'ng qatorni egallashi kerak. Shu yo'nalishdagi boshqa tasmalardan ham harakatlanish ruxsat etilganiga ishonch hosil qilingandan keyingina haydovchiga qayta tizilishga ruxsat etiladi.




**72.** Qoidalarning 88, 166-bandlarida ko'zda tutilganlardan boshqa hollarda transport vositalarining ajratuvchi mintaqalar, yo'l yoqalari, trotuarlar, piyodalar yo'lkalarida, velosiped yo'lkalari, velosipedchilar uchun tasmalar, piyodalar va velosipedchilarning birga va yashil hudud maydonlarida mexanik transport vositalarining harakatlanishi taqiqlanadi.

Bu joylarda yo'ldan foydalanish va kommunal xizmat mashinalarining harakatlanishiga, shuningdek, bevosita yo'l yoqalari, trotuarlar yoki piyodalar yo'lkalari oldida joylashgan savdo shoxobchalari, korxonalar va boshqa inshootlarga yuk olib kirish uchun boshqa imkoniyati

bo'lmagan transport vositalariga yaqin yo'ldan kirishga ruxsat etiladi. Bunda harakatlanish xavfsizligi ta'minlangan bo'lishi shart.



**73.** Haydovchi o'zidan oldinda harakatlanayotgan transport vositasi keskin tormoz berganda, to'qnashib ketmaslik kafolatini beradigan darajadagi oraliq masofani, shuningdek, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlaydigan yonlama oraliq masofani saqlashi kerak.



**74.** Aholi yashash joylaridan tashqaridagi ikki tomonlama harakat tashkil etilgan ikki tasmali yo'llarda tezligini soatiga 50 kilometrdan oshirishi mumkin bo'lmagan, shuningdek, uzunligi 7 metrdan ortiq bo'lgan transport vositalarining (transport vositalarining tarkibi) haydovchilari o'zi va oldida harakatlanayotgan transport vositasi orasida, ularni quvib o'tayotgan transport vositalari oldin egallagan qatoriga bemalol qayta tizilishi uchun imkon beradigan masofani saqlashlari kerak.




Quvib o'tish taqiqlangan yo'llarda, shuningdek, transport vositalarining tashkiliy jamlanmasi tarkibida va serqatnov bo'lgan yo'llarda harakatlanayotganda ushbu talabga amal qilinmaydi.

**75.** Agar biror to'siq sababli qarama-qarshi yo'nalishlarda harakatlanish qiyin bo'lsa, to'siq o'z tomonida bo'lgan haydovchi yo'l berishi kerak.



**76.** Agar yo'l belgilari va chiziqlari boshqa yo'nalishni ko'rsatmagan bo'lsa, haydovchilar ajratuvchi bo'lagi bo'lmagan ikki tomonlama harakat tashkil etilgan yo'llardagi xavfsizlik orolchalari, ustunchalar va yo'l inshooti qismlari (ko'prik, yo'l o'tkazgich ustunlari va shunga o'xshashlar)ni o'ng tomondan aylanib o'tishlari kerak.

*Agar to'siq oldida imtiyoz belgilari bo'lsa, haydovchi ushbu belgilar talabiga bo'ysunadi.*

*To'siq oldida tik nishablik va balandlik belgilari o'rnatilgan joylarda esa pastga harakatlanayotgan haydovchi yo'l berishi kerak.*



# 10-bobga oid testlar

**1** **Mazkur svetoforning qizil yoritgichida harakat taqiqlanadi:**

1. Faqat bir qatorda.
2. Qatnov qismining barcha kengligi bo'ylab.
3. Quvib o'tish bilan.
4. Svetofor qaysi tasma ustiga joylashtirilgan bo'lsa, o'sha tasma bo'yicha.



**2** **Yo'lning bu qismida quvib o'tishga ruxsat etiladimi?**

1. Ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.



**3** **Harakat tezligini tanlashda haydovchiga taqiqlanadi:**

1. Ushbu qoidalarga muvofiq ravishda transport vositasiga o'rnatilgan taniqli belgida ko'rsatilgan tezlikdan oshirish.
2. Keskin tormoz berish, agar bu harakatlanish xavfsizligini ta'minlash uchun talab qilinmasa.
3. Ikkala sanab o'tilgan harakat taqiqlanadi.

**4** **Harakat ikki tomonlama bo'lgan, uch tasmali yo'lda Siz o'ngga burilishingiz zarur. Ushbu manyovrni Siz qaysi tasmadan amalga oshirasiz?**

1. O'ng tasmadan.
2. O'rta tasmadan.
3. O'ng yoki o'rta tasmadan.
4. O'rta tasmadan, lekin faqat o'ng tasma band bo'lganda.

**5** **Chorrahada aylanma harakatlanish tashkil qilingan. Siz yaqinlashib kelayotgan chorrahaning qatnov qismi ikkita harakat bo'lagiga ega. Chorrahaga kirishda burilish uchun Siz qaysi tasmani egallashingiz lozim?**

1. O'ng tasmani.
2. Chap tasmani.
3. O'ng yoki chap tasmani.

**6** **Belgilangan yo'nalish bo'ylab ketayotgan avtobus haydovchisi ushbu sharoitda yo'l berishi kerakmi?**

1. Kerak.
2. Kerak emas.
3. Kerak emas, chunki u to'g'riga ketyapti.



**7** **Qaysi yo'nalishda harakatlanishga ruxsat etiladi?**

1. Faqat chapga.
2. To'g'riga va o'ngga.
3. Faqat o'ngga.
4. Faqat to'g'riga.



**8** **Qaysi yo'nalishda harakatlanish taqiqlanadi?**

1. O'ngga birinchi yo'lga.
2. O'ngga ikkinchi yo'lga.
3. O'ngga birinchi va ikkinchi yo'llarga.



**9** **Avtomobillarga qaysi yo'nalishda harakatlanishga ruxsat beriladi?**

1. Qizil avtomobilga to'g'riga, ko'k avtomobilga to'g'riga va chapga.
2. Qizil va ko'k avtomobilga to'g'riga.
3. Qizil avtomobilga to'g'riga, ko'kiga chapga.



**10** **Yuk avtomobilining qaysi yo'nalishda harakatlanishiga ruxsat etiladi?**

1. Faqat o'ngga.
2. O'ngga, chapga va orqa yo'nalishga.
3. Faqat chapga.



# 11-BOB. HARAKATLANISH TEZLIGI

**77.** Haydovchi harakatlanishning serqatnovligini, transport vositasining va yukning xususiyati hamda holatini, yo'l va ob-havo sharoitini, shuningdek, harakatlanish yo'nalishidagi ko'rinishni hisobga olib transport vositasini belgilangan tezlikdan oshirmagan holda xavfsizlikni ta'minlovchi tezlik bilan boshqarishi kerak.

Tezlik haydovchiga ushbu Qoidalar talablarini bajarish uchun transport vositasining harakatlanishini doimiy nazorat qilib borish imkoniyatini berishi kerak.

Haydovchi transport vositasini boshqarish paytida aniqlay olishi mumkin bo'lgan xavf yuzaga kelsa, u transport vositasining tezligini to'liq to'xtashni ta'minlaydigan darajada kamaytirishi yoki to'siqni boshqa harakat ishtirokchilari uchun xavf tug'dirmagan holda aylanib o'tish choralarini ko'rishi kerak.

**78.** Aholi punktlarida transport vositalarining tezligini soatiga 70 kilometrdan, tegishli yo'l belgilari o'rnatilgan maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yetmasdan va o'tib ketib 300 metrdan kam masofada soatiga 30 kilometrdan, turar joy dahalari va yondosh hududlarda (uy-joy binolari orasidagi yer uchastkasida) esa soatiga 20 kilometrdan oshirmasdan harakatlanishga ruxsat etiladi.

Nukus va Toshkent shaharlarida, viloyatlar va tumanlarning markazlarida, shuningdek shaharlar hududlarida transport vositalarining tezligini soatiga 60 kilometrdan oshirmasdan harakatlanishga ruxsat etiladi.

**79.** Aholi punktlaridan tashqarida:

yengil avtomobillarga va ruxsat etilgan to'liq vazni 3,5 tonnadan oshmaydigan yuk avtomobillariga tezlikni soatiga 100 kilometrdan oshirmasdan;




shaharlararo qatnaydigan avtobuslarga va mikroavtobuslarga tezlikni soatiga 90 kilometrdan oshirmasdan;




boshqa avtobuslar, tirkamali yengil avtomobillar, mototsikllar, elektromototsikllar ruxsat etilgan to'liq vazni 3,5 tonnadan ortiq bo'lgan yuk avtomobillariga tezlikni soatiga 80 kilometrdan oshirmasdan;

tirkamali yuk avtomobillariga tezlikni soatiga 70 kilometrdan oshirmasdan harakatlanish ruxsat etiladi.

**80.** Har qanday yo'llarda:

yukxonasida odam tashiyotgan yuk avtomobillariga tezlikni soatiga 60 kilometrdan oshirmasdan;

bolalar guruhini tashkiliy tashiyotgan transport vositalariga tezlikni soatiga 60 kilometrdan oshirmasdan;













mexanik transport vositalarini shatakka olgan transport vositalariga tezlikni soatiga 50 kilometrdan oshirmasdan;

xavfli, og'ir vaznli va katta o'lchamli yuklarni tashiyotgan, tashkiliy jamlanmada harakatlanayotgan transport vositalariga DYHXX bilan kelishilgan tezlikdan oshirmasdan harakatlanishga ruxsat etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklari DYHXX bilan kelishilgan holda, yo'l sharoitlari yuqori va kichik tezlikda xavfsiz harakatlanishni ta'minlaydigan hollarda, yo'llarning ayrim qismlari yoki harakatlanish tasmalarida harakatlanish tezligini oshirishga yoki kamaytirishga (tegishli yo'l belgilari o'rnatib) ruxsat beradi.

**81.** Haydovchiga quyidagilar taqiqlanadi:

tezlikni mazkur transport vositasining texnik tavsifnomasida ko'rsatilgan eng yuqori tezlikdan oshirish;

tezlikni transport vositasiga o'rnatilgan "Tezligi cheklangan" taniqlik belgisida ko'rsatilganidan oshirish;

zaruriyat bo'lmaganda juda past tezlikda harakatlanib, boshqa transport vositalariga xalaqit berish;

yo'l-transport hodisasining oldini olish zarurati bo'lmaganda, keskin tormoz berish.

# TRANSPORT VOSITALARINING HARAKATLANISH TEZLIGI

| Transport vositalarining turlari | Aholi punktlariga kirishda oʻrnatiladigan yoʻl belgilari: | | Aholi punktlaridan tashqarida: |
|---|---|---|---|
| | QARSHI | Chimboy | QARSHI (ustidan chizilgan) |
| Ruxsat etilgan maksimal ogʻirligi 3,5 tonnadan koʻp boʻlmagan yengil va yuk avtomobillari   | 70 / 60 | 100 | 100 |
| Shaharlararo avtobus va mikroavtobuslar   | 70 / 60 | 90 | 90 |
| Ruxsat etilgan maksimal ogʻirligi 3,5 tonnadan koʻp boʻlgan yengil pritsepli, yuk avtomobillari, motosikllar va avtobuslar  | 70 / 60 | 80 | 80 |
| Pritsepli yuk avtomobillari  | 70 / 60 | 70 | 70 |
| Kuzovida odamlar tashishga moʻljallangan yuk avtomobillari  | 60 | 60 | 60 |
| Bolalar guruhini tashkiliy tashiyotgan transport vositalari  | 60 | 60 | 60 |
| Mexanik transport vositalarini shatakka olgan transport vositalari  | 50 | 50 | 50 |
| Turar joy dahalari va yondosh hududlar  | 20 | 20 | 20 |

# O'ZBEKISTONNING BARCHA SHAHARLARIDA TEZLIKNI 60 KM/SOATGACHA PASAYTIRISH BELGILANDI




O'zbekistonning yo'l harakati qoidalariga o'zgartirishlar kiritildi, unga ko'ra, mamlakatning barcha shaharlarida harakat tezligi soatiga 60 km/soatdan oshmasligi kerak. Ilgari bu ko'rsatkich soatiga 70 km edi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 3 apreldagi qarori bilan Yo'l harakati qoidalariga shaharlarda transport vositalarining ruxsat etilgan maksimal tezligiga oid o'zgartirishlar kiritildi.

Endi Yo'l harakati qoidalarining 78-bandi ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etiladi:

«Nukus va Toshkent shaharlarida, viloyatlar va tumanlaming markazlarida, shuningdek shaharlar hududlarida transport vositalarining tezligini soatiga 60 kilometrdan oshirmasdan harakatlanishga ruxsat etiladi».

Xuddi shu bandning birinchi xatboshisi avvalgi tahrirda saqlanib qoldi:

«Aholi punktlarida transport vositalarining tezligini soatiga 70 kilometrdan, tegishli yo'l belgilari o'rnatilgan maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga yetmasdan va o'tib ketib 300 metrdan kam masofada soatiga 30 kilometrdan, turar joy dahalari va yondosh hududlarda (uy-joy binolari orasidagi yer uchastkasida) esa soatiga 20 kilometrdan oshirmasdan harakatlanishga ruxsat etiladi».

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 975-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomda, ko'chma fotoradar va mobil komplekslardan foydalanganda, YPX xodimi moslamaning ko'rsatkichlari bilan harakat tezligini oshirib, qoidalarni buzgan haydovchini tanishtirishi, uning talabi bilan moslamaning sertifikati (nusxasi)ni ko'rsatishi lozimligi, shuningdek mazkur talabga rioya etilmagan holda, rasmiylashtirilgan bayonnomalar yuridik kuchga ega bo'lmasligi va huquqiy oqibatlar keltirib chiqarmasligi qayd etilgan.

Bundan ko'rinadiki «Uchoyoq» yoki avtomobilga o'rnatilgan radarlarda tezlik uchun jarima olgan fuqaro, agar YPX xodimi uni to'xtatmagan va harakat tezligi ko'rsatkichi bilan tanishtirmagan bo'lsa, jarimani sud orqali bekor qilish huquqiga ega. Bunda ma'muriy ishlari bo'yicha jarimani sud orqali bekor qilish, ushbu maqolada va Oliy sudning 2023 yilgi 1-son axborotnomasi 22-betida ko'rsatilgan holatni arizada eslatib o'tish mumkin.

## 11-bobga oid testlar

**1** **Mazkur sharoitda shatakka olish qanday yuqori tezlik bilan amalga oshirilishi mumkin?**

1. 30 km/s.
2. 50 km/s.
3. 70 km/s.
4. 80 km/s.




**2** **Haydovchi harakat tezligini tanlashda nimani hisobga olishi kerak?**

1. Harakatning serqatnovligini, transport vositasi va yukning xususiyati va holatini.
2. Yo'l va ob-havo sharoitini.
3. Barcha sanab o'tilgan omillarni.

**3** **Qaysi transport vositasining haydovchisiga belgida ko'rsatilgan tezlik bilan harakatlanishga ruxsat berilgan?**

1. Har ikki haydovchiga.
2. Faqat mikroavtobus haydovchisiga.
3. Har ikkisiga taqiqlangan.




**4** **Agar barcha transport vositalari 80 km/soat tezlik bilan harakat qilsa, haydovchilardan qay biri qoidalarning talablarini buzadi?**

1. Motosikl va yuk avtomobilining haydovchilari.
2. Motosikl va yengil avtomobilning haydovchilari.
3. Hamma haydovchilar.
4. Motosikl haydovchisi.
5. Hech kim buzmaydi.




**5** **Avtomobilning taniqlik belgisi bo'lganda yo'lning mazkur qismida qanday yuqori tezlik bilan harakatlanishga ruxsat etiladi?**

1. 70 km/s.
2. 90 km/s.
3. 100 km/s.




**6** **Bunday yo'l belgisi o'rnatilgan yo'l qismlarida motosikllarga qanday yuqori tezlik bilan harakatlanishga ruxsat etiladi?**

1. 60 km/s.
2. 70 km/s.
3. 80 km/s.
4. 90 km/s.
5. 100 km/s.




**7** **Shunday yo'l belgisi bilan belgilangan yo'l qismlarida shaharlararo bo'lmagan avtobuslarning qanday yuqori tezlik bilan harakatlanishiga ruxsat etiladi?**

1. 50 km/s.
2. 60 km/s.
3. 70 km/s.
4. 80 km/s.
5. 90 km/s.




**8** **Avtopoyezdni shu vaziyatda, agar u 40 km/s dan kam tezlik bilan harakat qilayotgan bo'lsa, quvib o'tishga ruxsat etiladimi?**

1. Taqiqlanadi.
2. Ruxsat etiladi.



**9** **Aholi yashaydigan joylardan tashqarida yuk avtomobil yukxonasida odamlarni tashishda qanday eng yuqori tezlikda harakatlanishga ruxsat etiladi?**

1. 40 km/s.
2. 50 km/s.
3. 60 km/s.
4. 70 km/s.
5. 80 km/s.

**10** **Bunday yo'l belgisi bilan belgilangan yo'l qismlarida ruxsat etilgan to'la vazni 3,5 t dan ortiq bo'lgan yuk avtomobillarining qanday yuqori tezlik bilan harakatlanishiga ruxsat etiladi?**

1. 60 km/s.
2. 90 km/s.
3. 80 km/s.
4. 70 km/s.
5. 100 km/s.



# 12-BOB. QUVIB O'TISH

**82.** Quvib o'tishni boshlashdan oldin haydovchi chapga burilishni bildiruvchi ishorasini yoqib:

o'zi o'tmoqchi bo'lgan harakatlanish bo'lagi quvib o'tish uchun yetarlicha masofada bo'sh ekanligiga, quvib o'tish jarayonida harakatlanishga xavf tug'dirmasligiga va boshqa harakat ishtirokchilariga xalaqit bermasligiga;





shu tasmada orqada harakatlanayotgan transport vositasi quvib o'tishni boshlamaganligiga;



oldinda harakatlanayotgan transport vositasi quvib o'tish, chapga burilish (qayta tizilish) ishorasini bermayotganligiga;



quvib o'tishni tugallayotganda quvib o'tilayotgan transport vositasiga xalaqit bermasdan ilgari egallagan qatorga qaytib o'ta olishiga ishonch hosil qilishi shart.





**83.** Bir yo'nalishda harakatlanayotgan relssiz transport vositalarini har ikki tomonidan o'zib ketishga ruxsat beriladi. Biroq chapga burilish ishorasini berib, burilishga kirishgan transport vositasini o'zib ketish o'ng tomondan amalga oshiriladi.





**84.** Quvib o'tilayotgan transport vositasining haydovchisiga harakatlanish tezligini oshirish yoki boshqa xatti-harakatlar bilan quvib o'tishga to'sqinlik qilish taqiqlanadi.



**85.** Quvib o'tishni tugallagandan so'ng haydovchi ilgari egallagan harakatlanish yo'nalishiga qaytishi shart.

**86.** Quvib o'tish quyidagi hollarda taqiqlanadi:

tartibga solingan chorrahalarda;



tartibga solinmaydigan chorrahalarda asosiy hisoblanmaydigan yo'llarda harakatlanishda;



ko'priklarda, yo'l o'tkazgichlarda, estakadalarda va ularning ostida;

piyodalar o'tish joylarida;



temir yo'l kesishmalarida va ulargacha 100 metrdan kam masofa qolganda;



quvib yoki aylanib o'tayotgan transport vositalarini;






tepalikning oxirida va yo'lning ko'rinishi cheklangan joylarida;

3.20 va 3.22 yo'l belgilari ta'sir oralig'ida.

**87.** Aholi punktlaridan tashqaridagi yo'llarda sekin harakatlanadigan, katta hajmli yoki katta hajmli yuk tashiyotgan transport vositasini quvib o'tish qiyin bo'lgan hollarda uning haydovchisi ushbu transport vositasini iloji boricha yo'lning o'ng tomoniga olishi, zarur bo'lganda esa orqasida to'planib qolgan transport vositalarini o'tkazib yuborish uchun to'xtashi kerak.




## 12-bobga oid testlar

**1** **Bu yerda quvib o'tishga ruxsat etiladimi?**



1. Ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.
3. Aholi yashaydigan joylardan tashqaridagi yo'llarda ruxsat etiladi.
4. Faqat aholi yashaydigan joylardan tashqaridagi yo'llarda taqiqlanadi.

**2** **Avtopoyezdni shu vaziyatda, agar u 40 km/s dan kam tezlik bilan harakat qilayotgan bo'lsa, quvib o'tishga ruxsat etiladimi?**

1. Taqiqlanadi.
2. Ruxsat etiladi.



**3** **Avtomobil haydovchisi uni boshqa transport vositalari quvib o'tayotganda qanday harakat qilishi kerak?**

1. Harakat bo'lagini o'zgartirmay, o'ng burilish ishorasini berishi.
2. Harakat tezligini oshirish yoki boshqa xatti-harakatlar bilan quvib o'tishga to'sqinlik qilmasligi.
3. Harakat tezligini kamaytirishi, tovush ishora berishi.

**4** **Bu joyda quvib o'tishga ruxsat etilganmi?**

1. Quvib o'tilayotgan transport vositasi 40 km/s dan kam tezlik bilan harakatlanganda ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.
3. Agar quvib o'tish temir yo'l kesishmasigacha tugasa, ruxsat etiladi.



**5** **Siz quvib o'tish uchun chiqdingiz va bexosdan ro'paradan kelayotgan avtobusni ko'rib qoldingiz. Agar Siz quvib o'tishni tugallay olishingizga ishonchingiz bo'lmasa, Siz:**

1. Tovush xabarini berib va faralarni yoqib quvib o'tishni uni tugallaguncha davom ettirishingiz kerak.
2. Tezlikni asta ko'paytirishingiz va quvib o'tishni tezroq tugallashingiz kerak.
3. Tezlikni kamaytirishingiz va avval egallagan bo'lagingizga qaytishingiz kerak.

**6** **Ko'k avtomobilning haydovchisiga quvib o'tishga ruxsat etiladimi?**

1. Ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.
3. Ruxsat etiladi, agar qizil avtomobil 40 km/soatdan kam tezlik bilan harakatlanayotgan bo'lsa.



**7** **Mazkur vaziyatda qizil avtomobilning haydovchisiga quvib o‘tishni bajarishga ruxsat etiladimi?**

1. Ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.
3. Quvib o‘tilayotgan transport vositasining tezligi 40 km/s dan kam bo‘lganda ruxsat etiladi.



**8** **Ko‘k avtomobilning haydovchisi qanday yo‘l tutishi kerak?**

1. Sariq avtomobilga u orqadan kelayotgani uchun yo‘l bermay, mo‘ljallangan yo‘nalishda chorrahani kesib o‘tishi.
2. Qarama-qarshi harakat bo‘lagiga darhol qayta tizilishi.
3. Tezlikni kamaytirishi, sariq avtomobilga quvib o‘tishni tugallashiga imkon berishi, so‘ng esa chapga burilishi.



**9** **Harakat tezligi 40 km/s dan oshmaydigan transport vositasiga qatnov qismining chap bo‘lagiga chiqishga qachon ruxsat etiladi?**

1. Quvib o‘tishda, o‘zib ketishda yoki aylanib o‘tishda.
2. Burilish yoki qayrilish oldidan qayta tizilishda.
3. Barcha sanab o‘tilgan hollarda.
4. Barcha sanab o‘tilgan hollarda, shuningdek, agar bir yo‘nalishda harakatlanish uchun uchta va undan ortiq tasma bo‘lganda.

**10** **Mazkur vaziyatda quvib o‘tishga ruxsat etilganmi?**

1. 40 km/soatdan kam tezlik bilan harakatlanayotgan faqat yakka transport vositalariga ruxsat etilgan.
2. Taqiqlangan.
3. Hamma hollarda ruxsat etilgan.



## 13-BOB. TO‘XTASH VA TO‘XTAB TURISH

**88.** Transport vositalariga yo‘lning o‘ng tomonida yo‘l yoqasida, u bo‘lmaganda esa qatnov qismining chetida va Qoidalarning 89-bandida ko‘rsatilgan hollarda trotuarda to‘xtash va to‘xtab turishga ruxsat etiladi.





Aholi punktlarida o‘rtada tramvay yo‘li bo‘lmagan, har yo‘nalishda bittadan tasmasi bo‘lgan, shuningdek bir tomonlama harakat tashkil etilgan yo‘llarda yo‘lning chap tomonida to‘xtash va to‘xtab turishga ruxsat etiladi.




Ruxsat etilgan to‘liq vazni 3,5 tonnadan ko‘p bo‘lgan yuk transport vositalari bir tomonlama harakatli yo‘llarning chap tomonida faqat yuk ortish va tushirish uchun to‘xtashlari mumkin.

**89.** Transport vositalarini yo‘lning qatnov qismida bir qator qilib, qatnov qismi chetiga yo‘l harakatining boshqa ishtirokchilariga xalaqit bermaslik sharti bilan faqat parallel ravishda, kajavasi bo‘lmagan ikki g‘ildirakli transport vosi-



talarini ikki qator qilib qo'yishga ruxsat etiladi.

Qatnov qismining ayrim kengaytirilib qatnov qismidan ajratilgan joylarida yo'l harakatining boshqa ishtirokchilariga xalaqit bermaslik sharti bilan boshqacha tartibda qo'yishga ham ruxsat etiladi.



Qatnov qismiga chegaradosh trotuar chetida faqat yengil avtomobillar, mototsikllar, elektromototsikllar, mopedlar, skuterlar, velosipedlar va individual harakatlanish vositalariga to'xtab turishga 5.15 yo'l belgisi bilan birga 7.6.2, 7.6.3, 7.6.6 — 7.6.9 qo'shimcha axborot belgilaridan biri o'rnatilgan joylarda ruxsat etiladi.

**90.** Aholi punktlaridan tashqarida tunab qolish, dam olish yoki boshqa maqsadlarda uzoq vaqt to'xtab turishga




faqat buning uchun ko'zda tutilgan maydonchalarda yoki yo'ldan tashqarida ruxsat etiladi.

**91.** Quyidagilarda to'xtash taqiqlanadi:

tramvay yo'llarida, shuningdek, bevosita ularga yaqinroqda tramvaylar harakatlanishiga xalaqit beradigan hollarda;



temir yo'l kesishmalarida;

tunnellarda;

bir yo'nalishda harakatlanish uchun uchtadan kam tasmaga ega bo'lgan ko'prik, yo'l o'tkazgich va estakadalarning ustida;

ko'prik, yo'l o'tkazgich va estkadalarning ostida (tegishli yo'l belgilari bilan to'xtab turish ruxsat berilgan yo'l qismlari bundan mustasno);









boshqa transport vositalarining harakatlanishiga to'sqinlik qilgan holda yo'lning qatnov qismlarida;

to'xtagan transport vositasi bilan bo'ylama sidirg'a chiziq (qatnov qismining chetini belgilovchi chiziqdan tashqari), ajratuvchi mintaqa yoki qatnov qismining qarama-qarshi cheti orasidagi masofa 3 metrdan kam bo'lgan joylarda;






piyodalar o'tish joylarida va ulardan oldin 10 metrdan kam masofa qolganda;




velosiped yo'lkasi bilan kesishuvda va ulardan oldin 10 metrdan kam masofa qolganda;

velosipedchilar uchun tasmada (odam tushirish va odam mindirish bundan mustasno);

qatnov qismida ko'rinish masofasi 100 metrdan kam bo'lgan yo'l do'ngliklari yaqinida va xavfli burilishlarda;




qatnov qismi kesishmalarida va kesishayotgan qatnov qismi chetiga 30 metrdan kam masofada (uch tomonlama kesishadigan chorrahalarda yondan tutashgan yo'lning sidirg'a chiziq yoki ajratuvchi mintaqa bilan ajratilgan qarama-qarshi tomoni bundan mustasno);

bekat maydonchalarida, yo‘nalishli transport vositalari to‘xtash joylarida, jumladan, 1.17 chizig‘i bilan belgilangan, ular bo‘lmaganda esa yo‘nalishli transport vositalari to‘xtash joyi belgilari va bekatdan harakatlanish yo‘nalishi bo‘ylab (yetmasdan va o‘tib ketib) 15 metrdan kam masofada (yo‘nalishli transport vositalari harakatiga xalaqit bermasa yo‘lovchilarni chiqarish yoki tushirish uchun to‘xtash bundan mustasno);












transport vositasi svetofor ishoralari, yo‘l belgilarini boshqa haydovchilardan to‘sib qo‘yadigan, boshqa transport vo-




sitalarining harakatlanishiga (kirish va chiqishiga) imkon qoldirmaydigan yoki piyodalarning harakatiga xalaqit beradigan joylarda;

transport vositalarining qayrilib olish joylarida va unga 30 metr yetmasdan yoki o‘tib;






3.27 yo‘l belgisi yoki 1.4 yo‘l chizig‘i ta’siri oralig‘ida.




5.15 va 7.17 yo'l belgilari yoki 1.24 yo'l chizig'ining birgalikdagi ta'siri oralig'ida, nogironligi bo'lgan shaxslar tomonidan boshqariladigan transport vositalari bundan mustasno.

**92.** Quyidagilarda to'xtab turish taqiqlanadi:

to'xtash taqiqlangan joylarda;

aholi punktlaridan tashqarida 2.1 yo'l belgisi bilan belgilangan yo'llarning qatnov qismida;




temir yo'l kesishmalarining (har ikkala tomonida) 50 metr yaqinida;




3.27 — 3.30 yo'l belgilari yoki 1.4, 1.10 yo'l chiziqlari ta'siri oralig'ida;

5.15 va 7.17 yo'l belgilari yoki 1.24 yo'l chizig'ining birgalikdagi ta'siri oralig'ida, nogironligi bo'lgan shaxslar tomonidan boshqariladigan transport vositalari bundan mustasno.

**93.** To'xtash taqiqlangan joylarda majburiy to'xtaganda, haydovchi transport vositasini yo'lning chetiga olib chiqish va ushbu joydan olib ketishning barcha choralarini ko'rishi shart.



**94.** Agar yo'l harakatining boshqa ishtirokchilariga xalaqit beradigan bo'lsa yoki xavf tug'dirsa, transport vositasining eshiklarini ochish taqiqlanadi.



**95.** Transport vositasining o'z-o'zidan harakatlanib ketishini yoki o'zi yo'qligida undan foydalanishni istisno qiladigan zarur ehtiyot choralarini ko'rgandan keyingina haydovchi o'z joyini tashlab ketishi yoki transport vositasini qoldirishi mumkin.

# 13-bobga oid testlar

**1** **To'xtash qoidasini buzgan hamma haydovchilar qaysi javobda ko'rsatilgan?**

1. Qizil avtomobil va motosiklning haydovchilari.
2. Ko'k avtomobilning haydovchisi.
3. Motosiklning haydovchisi.
4. Barcha transport vositalarining haydovchilari.



**2** **Quyidagi qaysi suratda haydovchi avtomobilni qoidaga xilof ravishda to'xtash joyiga qo'ygan?**

1. Faqat chapdagi.
2. Chap va o'rtadagi.
3. Barchasida.



**3** **Qaysi avtomobil to'xtab turishga to'g'ri qo'yilgan?**

1. Qizil.
2. Har ikkisi noto'g'ri qo'yilgan.
3. Har ikkisi to'g'ri qo'yilgan.



**4** **Bu yerda avtomobilning to'xtashiga ruxsat berilganmi?**

1. Taqiqlangan, chunki uzuq-uzuq yotiq chizig'i bilan to'xtab turgan avtomobil orasidagi masofa 3 metrdan kam.
2. Oyning juft kunlarida taqiqlangan.
3. Ruxsat berilgan.



**5** **Transport vositalarining temir yo'l kesishmasiga qancha masofa yaqinroqda to'xtab turishlari taqiqlanadi?**

1. 300 m.
2. 150 m.
3. 100 m.
4. 50 m.
5. 25 m.

**6** **Yo'lovchilarni tushirish uchun qaysi transport vositalarining haydovchilari to'g'ri to'xtadilar?**

1. Yengil avtomobil haydovchisi.
2. Motosikl haydovchisi.
3. Avtobus haydovchisi.
4. Hamma haydovchilar.



**7** **Qaysi avtomobilning haydovchisiga to'xtashga ruxsat etilgan?**

1. Yengil avtomobilning haydovchisiga.
2. Yuk avtomobilining haydovchisiga.
3. Har ikki haydovchiga.
4. Yuk avtomobilining haydovchisi uchun, agar bir tomonga harakatlanishga 3 yoki undan ortiq yo'nalishli yo'l bo'lsa.



**8** **Bu joyda to'xtashga ruxsat etilganmi?**

1. Ruxsat etilgan.
2. Taqiqlangan.



**9** **Aholi yashaydigan joylardan tashqarida transport vositalarining uzoq to'xtab turishi (dam olish, tunash va hokazo)ga qayerda ruxsat etiladi?**

1. Yo'l chetida.
2. To'xtab turish maydonchalarida yoki yo'ldan tashqarida.
3. Yo'l qatnov qismining o'ng tomonida, biroq u boshqa transport vositalarining harakatlanishiga to'sqinlik qilmasligi kerak.
4. Yo'lning chap tomonida, biroq harakat xavfsizligi choralariga rioya qilgan holda.

**10** **Quyidagi belgi tagidagi qo'shimcha axborot belgisi haydovchiga nima haqida xabar beradi?**

1. To'xtab turish paytida yurgizgichni o'chirish taqiqlanadi.
2. To'xtab turish faqat yurgizgich ishlamayotganda mumkin.



**96.** Chapga yoki o'ngga burilayotgan haydovchi kesishayotgan yo'lning qatnov qismidan o'tayotgan piyoda(lar)ga, shuningdek velosiped yo'lkasidan yo'lni kesib o'tayotgan velosipedchi(lar)ga va individual harakatlanish vositalarini boshqarayotgan shaxs(lar)ga yo'l berishi kerak.



**97.** Haydovchi tirbandlik tufayli majburiy to'xtab, ko'ndalang yo'nalishdagi transport vositalarining harakatlanishiga to'sqinlik tug'diradigan bo'lsa, chorrahaga kirishi, agar to'xtash chizig'i yoki 5.33 yo'l belgisidan o'tib bo'lgan haydovchiga esa qatnov qismlari kesishmasiga kirishi taqiqlanadi.




**98.** Harakatlanish navbati svetofor yoki tartibga soluvchining ishoralari bilan boshqariladigan chorraha — tartibga solingan chorraha hisoblanadi.






Miltillovchi sariq ishora yonib-o'chayotgan, svetoforlar ishlamayotgan yoki tartibga soluvchi bo'lmagan chorraha — tartibga solinmagan chorraha hisoblanadi. Haydovchilar tartibga solinmagan chorrahalardan o'tish qoidalariga hamda chorrahada o'rnatilgan imtiyoz belgilariga amal qilishlari shart.




Aylanma harakatlanish chorrahasida harakatlanayotgan transport vositalari aylanaga kirib kelayotgan transport vositalariga nisbatan ustunlikka (imtiyozga) ega.



**99.** Svetoforning ruxsat etuvchi ishorasida chapga burilayotgan yoki qayrilib olayotgan relssiz transport vositasining haydovchisi qarama-qarshi tomondan to'g'riga harakatlanayotgan va o'ngga burilayotgan transport vositalariga yo'l berishi shart. Tramvay haydovchilari ham ushbu Qoidaga amal qilishlari kerak.



**100.** Svetoforning taqiqlovchi qizil yoki sariq ishorasi bilan bir vaqtda yongan qo'shimcha tarmoqning ko'rsatkichli yashil ishorasi yo'nalishida harakatlanayotgan haydovchi boshqa yo'nalishlardan harakatlanayotgan transport vositalariga yo'l berishi kerak.



# 15-BOB. TARTIBGA SOLINGAN CHORRAHALAR

**101.** Agar svetofor yoki tartibga soluvchining ishoralari tramvay va relssiz



transport vositalariga bir vaqtda harakatlanishga ruxsat bersa, harakatlanish yo'nalishidan qat'i nazar, tramvay oldin o'tish huquqiga ega bo'ladi.

Svetoforning qizil yoki sariq ishorasi bilan bir vaqtda yongan qo'shimcha tarmog'ining yo'naltirgichli yashil ishorasi yo'nalishida harakatlanayotgan tramvay boshqa yo'nalishlarda harakatlanayotgan transport vositalariga yo'l berishi kerak.



**102.** Svetoforning ruxsat etuvchi ishorasida chorrahaga kirgan haydovchi undan chiqishda svetofor ishoralaridan qat'iy nazar, mo'ljallangan yo'nalishda harakatlanishni davom ettirishi kerak.

Biroq chorrahada haydovchining harakatlanish yo'lida joylashgan svetoforlar oldida to'xtash chiziqlari (yoki 5.33 yo'l belgisi) bo'lsa, u har bir svetofor ishoralariga amal qilishi shart.







**103.** Svetoforning ruxsat etuvchi ishorasi yonganda haydovchi chorraha orqali harakatlanishni tugallayotgan transport vositalari va qatnov qismidan tegishli yo'nalishda o'tishni tugallayotgan piyoda(lar)ga yo'l berishi shart.



## 16-BOB. TARTIBGA SOLINMAGAN CHORRAHALAR

**104.** Teng ahamiyatga ega bo'lmagan yo'llar kesishgan chorrahada ikkinchi darajali yo'ldan harakatlanayotgan transport vositasining haydovchisi asosiy yo'ldan yaqinlashayotgan transport vositalariga ularning keyingi harakatlanish yo'nalishidan qat'iy nazar, yo'l berishi kerak.





Bunday chorrahalarda tramvay harakatlanish yo'nalishidan qat'iy nazar, teng ahamiyatli yo'lda bir yo'nalishda yoki qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanayotgan relssiz transport vositalariga nisbatan imtiyozga ega.

**105.** Teng ahamiyatga ega bo'lgan yo'llar kesishgan chorrahada relssiz transport vositasining haydovchisi o'ngdan yaqinlashayotgan transport vositalariga yo'l berishi shart. Bu qoidaga tramvay haydovchilari ham o'zaro amal qilishlari kerak.





Bunday chorrahalarda keyingi harakat yo'nalishidan qat'iy nazar, tramvay relssiz transport vositalariga nisbatan oldin o'tish huquqiga ega bo'ladi.



**106.** Asosiy yo'lning yo'nalishi chorrahada o'zgarganda, asosiy yo'lda harakatlanayotgan haydovchilar o'zaro teng ahamiyatli yo'llar chorrahasidan o'tish qoidasiga amal qilishlari kerak.

Ikkinchi darajali yo'llarda harakatlanayotgan haydovchilar ham o'zaro shu qoidaga amal qilishlari kerak.




**107.** Chapga burilishda yoki qayrilib olishda relssiz transport vositasining haydovchisi teng ahamiyatli yo'ldan qarama-qarshi yo'nalishdan to'g'riga yoki o'ngga harakatlanayotgan transport vositalariga yo'l berishi shart. Bu qoidaga tramvay haydovchilari ham o'zaro amal qilishlari kerak.



**108.** Agar haydovchi o'zi harakatlanayotgan yo'lning qoplamasi bor-yo'qligini aniqlay olmasa (qorong'i vaqt, loy, qor va boshqalar) va imtiyoz belgilari bo'lmasa, unda u o'zini ikkinchi darajali yo'lda deb hisoblashi kerak.

# 14–16-boblarga oid testlar

**1** **Chorrahadan oxirgi bo‘lib o‘tadi:**
1. Ko'k avtomobil.
2. Sariq avtomobil.
3. Yashil avtomobil.
4. Qizil avtomobil.



**2** **Chorrahadan birinchi bo‘lib o‘tadi:**
1. Yashil avtomobil.
2. Ko'k avtomobil.
3. Qizil avtomobil.
4. Sariq avtomobil.



**3** **Transport vositalari chorrahani quyidagi tartibda kesib o‘tadi:**
1. Mototsikl, avtomobil, tramvay.
2. Tramvay, avtomobil, mototsikl.
3. Tramvay, mototsikl, avtomobil.



**4** **Sariq avtobusning haydovchisiga chorrahaga chiqishga ruxsat etiladimi?**
1. Ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.
3. Agar avtobus belgilangan yo'nalish bo'yicha yursa, ruxsat etiladi.



**5** **Qaysi avtomobil chorrahadan oxirgi bo‘lib o‘tadi?**
1. Ko‘k.
2. Qizil.
3. Yashil.



**6** **Transport vositalari chorrahani quyidagi tartibda kesib o‘tadilar:**
1. Ko‘k, yashil, qizil avtomobillar.
2. Ko‘k, qizil avtomobilni o'tkazib yuboradi, so'ng esa burilishni tugallaydi; yashil avtomobil.
3. Qizil, ko‘k, yashil avtomobillar.
4. Yashil, qizil, ko‘k avtomobillar.



**7** **Chorrahani ikkinchi bo‘lib kesib o‘tadi:**
1. Qizil avtomobil.
2. Ko‘k avtomobil.
3. Yashil avtomobil.



**8** **Chorrahani oxirgi bo‘lib kesib o‘tadi:**
1. Yashil avtomobil.
2. Ko'k avtomobil.
3. Qizil avtomobil.



**9** **Chorrahani birinchi bo‘lib kesib o‘tadi:**
1. Qizil avtomobil.
2. Yashil avtomobil.
3. Ko‘k avtomobil.



**10** **Qaysi transport vositasining haydovchisi yo‘l berishi kerak?**
1. Avtobus haydovchisi.
2. Mototsikl haydovchisi.



# 17-BOB. PIYODALARNING O'TISH JOYLARI VA YO'NALISHLI TRANSPORT VOSITALARINING BEKATLARI

**109.** Tartibga solinmagan piyodalar o'tish joyiga yaqinlashayotgan transport vositasining haydovchisi qatnov qismining shu yo'nalishini kesib o'tayotgan piyoda(lar)ni o'tkazib yuborish uchun tezligini kamaytirishi yoki to'xtashi shart.



**110.** Agar tartibga solinmagan piyodalar o'tish joyi oldida transport vositasi harakatini sekinlashtirsa yoki to'xtasa, qo'shni tasmalarda harakatlanayotgan boshqa haydovchilar bu transport vositasi oldida piyoda(lar) yo'qligiga ishonch hosil qilganlaridan so'nggina harakatlanishni davom ettirishlari mumkin.

**111.** Tartibga solingan piyodalar o'tish joylarida haydovchilar svetoforning ruxsat



etuvchi ishorasi yongan taqdirda ham piyoda(lar)ga qatnov qismini shu yo'nalishda kesib o'tishni tugallashiga imkon berishlari kerak.

**112.** Piyodalar o'tish joylaridan keyin paydo bo'lgan tirbandlik tufayli haydovchi



piyodalar o'tish joyida to'xtashga majbur bo'ladigan bo'lsa, piyodalar o'tish joyiga kirish taqiqlanadi.




**113.** Barcha hollarda, shu jumladan, piyodalar o'tish joylaridan tashqarida ham haydovchi oq hassa bilan ishora berayotgan ko'zi ojiz piyoda(lar)ni o'tkazib yuborishi kerak.





**114.** Agar yo'lovchilarni tushirish yoki chiqarish qatnov qismida yoki unda joylashgan maydonchada amalga oshirilayotgan bo'lsa, haydovchi bekatda to'xtagan yo'nalishli transport vositasi eshiklari tomon borayotgan yoki undan kelayotgan piyoda(lar)ga yo'l berishi kerak.

**115.** "Bolalar guruhini tashish" taniqlik belgisi o'rnatilgan, avariya ishorasi yoqilgan transport vositasi to'xtaganda, unga yaqinlashayotgan haydovchi harakat tezligini kamaytirishi, zarur bo'lsa, to'xtashi va bolalarni o'tkazib yuborishi shart.

# 17-bobga oid testlar

**1** **Ko'rsatilgan vaziyatda haydovchi qanday yo'l tutishi kerak?**

1. Piyodalarga mazkur yo'nalishning qatnov qismidan butunlay o'tib olishlariga imkon berishi.
2. Yo'l-transport falokati oldini olish uchun tovush ishora berishi va asosiy yo'lda bo'lgani sababli piyodalarga yo'l bermay o'tish joyidan o'tishi.



**2** **Agar piyodalar o'tish joyida tirbandlik vujudga kelib, haydovchini piyodalar o'tish joyida to'xtashga majbur qilsa, haydovchi nima qilishga majbur?**

1. To'xtashga va piyodalar o'tish joyiga o'tmaslikka, chunki bu piyodalarning harakati uchun to'sqinlik qiladi.
2. Piyodalar o'tish joyi oldidan 15 m berida to'xtashga.
3. Oldinda turgan transport vositasidan zarur masofa saqlangan holda piyodalar o'tish joyida to'xtashga.
4. Piyodalar o'tish joyi oldidan 5 m berida to'xtashga.

**3** **Bunday vaziyatda haydovchi nima qilishi kerak?**

1. Oldindan yaqin fara chiroqlarini yoqib va uzluksiz tovush ishorasini berib, eng kam tezlik bilan turgan transport vositasini aylanib o'tishi.
2. Qatnov qismidan o'tayotgan bolalarga yo'l berishi.
3. Bu yo'l qismidan o'tishi kerak, chunki bolalar qatnov qismini piyodalar o'tish joyidan kesib o'tmayaptilar.



**4** **Ko'rsatilgan vaziyatda o'ngga burilar ekan, haydovchi qanday yo'l tutishi kerak?**

1. Ustunlik huquqidan foydalanib, tovushli xabar berishi va belgilangan yo'nalishda harakatni davom ettirishi.
2. Harakat tezligini pasaytirishi va alohida ehtiyotkorlik bilan yo'lda davom etishi.
3. Qatnov qismidan o'tuvchi piyodalarni o'tkazib yuborishi.



**5** **Suratdagi tasvirlangan holatda haydovchi nima qilishi lozim?**

1. Tezlikni zarur bo'lganda darhol to'xtash imkonini beradigan darajagacha pasaytirib harakatni davom ettirishi.
2. To'xtash va tramvay eshiklari yopilgandan keyin harakatlanishni boshlashi.
3. Bekatda (yo'l o'rtasida) turgan bir xil yo'nalishdagi tramvayga borayotgan yoki undan kelayotgan piyodalarga yo'l berishi.



**6** **Haydovchi oq hassa bilan ishora berayotgan ko'zi ojiz piyodalarni o'tkazib yuborishi kerakmi?**

1. Barcha hollarda o'tkazib yuborishi kerak, shu jumladan, piyodalar o'tish joylaridan tashqarida ham.
2. Tartibga solinadigan piyodalar o'tish joyida o'tkazib yuborishi kerak.
3. Tartibga solinmagan piyodalar o'tish joyida o'tkazib yuborishi kerak.
4. Har qanday piyodalar o'tish joyida o'tkazib yuborishi kerak.

**7** **Tushirish maydonchasidan harakat-lanish uchun foydalanishga ruxsat etiladimi?**

1. Ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.
3. To'xtash joyida tramvay bo'lmaganda ruxsat etiladi.



**8** **Qizil avtomobilning haydovchisiga shu vaziyatda piyodalar o'tish joyi orqali harakatlanishni davom ettirishga ruxsat etiladimi?**

1. Ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.



**9** **Haydovchilardan qaysi biri to'xtashga majbur?**

1. Yengil avtomobil haydovchisi.
2. Avtobus haydovchisi.
3. Har ikki haydovchi.



**10** **Yo'lovchilarni tushirish uchun qaysi transport vositalarining haydovchilari to'g'ri to'xtadilar?**

1. Yengil avtomobil haydovchisi.
2. Motosikl haydovchisi.
3. Avtobus haydovchisi.
4. Hamma haydovchilar.



# 18-BOB. TEMIR YO‘L KESISHMALARI ORQALI HARAKATLANISH

**116.** Transport vositalarining haydovchilari temir yo'llarni faqat temir yo'l kesishmalari orqali poyezd (lokomotiv, drezina) larga yo'l berib kesib o‘tishlari lozim.



**117.** Temir yo‘l kesishmasiga yaqinlashib uni kesib o‘tmoqchi bo‘lgan haydovchi kesishma navbatchisining ko‘rsatmalariga, svetoforlar ishoralariga, yo‘l belgilariga, yo‘l chiziqlariga, shlagbaum holatiga amal qilishi va yaqinlashayotgan poyezd (lokomotiv, drezina) yo‘qligiga ishonch hosil qilish shart.

**118.** Quyidagi hollarda temir yo‘l kesishmasiga kirish taqiqlanadi:

svetofor ishorasidan qat’i nazar, shlagbaum yopiq turgan yoki yopila boshlagan holatda, kesishmani to‘suvchi qurilma ko‘tarilib turgan yoki ko‘tarila boshlagan holatda;



shlagbaumning holatidan va bor-yo‘qligidan qat’iy nazar svetoforning taqiqlovchi ishorasida;

kesishma navbatchisining taqiqlovchi ishorasida (navbatchi haydovchiga oldi



yoki orqasi bilan turib jezlni, qizil chiroq yoki bayroqchani yuqoriga ko‘tarib tursa yoki qo‘llarini yonga uzatsa);



agar kesishmadan keyin, haydovchini kesishmada to‘xtashga majbur qiladigan tirbandlik paydo bo‘lsa;



agar ko‘rinish chegarasidagi masofada kesishmaga poyezd (lokomotiv, drezina) yaqinlashayotgan bo‘lsa.

Bundan tashqari:

kesishma oldida turgan transport vositalarini qarama-qarshi harakatlanish bo‘lagiga chiqib aylanib o‘tish;



shlagbaumni o‘zboshimchalik bilan ochish;

transport holatiga keltirilmagan qishloq xo‘jaligi, yo‘l qurilishi, qurilish va boshqa mashina hamda mexanizmlarni kesishma orqali olib o‘tish;

temir yo‘l distansiyasi boshlig‘ining ruxsatisiz tezligi soatiga 8 kilometrdan kam bo‘lgan transport vositalarining harakatlanishi taqiqlanadi.

**119.** Kesishma orqali harakatlanish taqiqlangan hollarda haydovchi to'xtash chizig'i, 2.5 yo'l belgisi yoki svetofor oldida, ular bo'lmaganda shlagbaumga kamida 5 metr, shlagbaum bo'lmaganda esa birinchi temir yo'l iziga kamida 10 metr qolganda to'xtashi kerak.




**120.** Temir yo'l kesishmasida majburan to'xtab qolgan transport vositasining haydovchisi darhol odamlarni tushirish va kesishmani bo'shatish choralarini ko'rishi;

Shu bilan bir vaqtda haydovchi:

imkoniyati bo'lganda, yaqinlashib kelayotgan poyezd mashinistiga to'xtash ishorasini berish qoidasini tushuntirib, ikki kishini temir yo'l yoqasi bo'ylab ikkala tomonga 1000 metr masofaga (agar bir kishi bo'lsa — uni yo'l yaxshi ko'rinmaydigan tomonga) yuborishi;

transport vositasi yonida qolishi va umumiy xatar ishorasini berishi;

poyezd ko'ringanda to'xtash ishorasini berib, u kelayotgan tomonga yugurishi kerak.

To'xtash ishorasi qo'lni (kunduzi yorqin mato parchasi yoki aniq ko'rinadigan biror narsa bilan, tunda esa mash'ala yoki chiroq bilan) gir aylantirish orqali beriladi.

Bitta uzun va uchta qisqa tovushli ishoralar umumiy xatar ishorasi hisoblanadi.






# 18-bobga oid testlar

**1** **Navbat bilan yalt-yalt etib turuvchi ikkita qizil yoritgichlar quyidagi ma'noga ega:**

1. Harakatni taqiqlaydi.
2. Boshqa haydovchilarga qatnov qismiga maxsus transport vositalarining o'tganini xabar qiladi.
3. Alohida ehtiyotkorlik bilan harakatlanishga ruxsat etadi.



**2** **Shlagbaumni o'zboshimchalik bilan ochish yoki aylanib o'tishga ruxsat beriladimi?**

1. Ruxsat etiladi, faqat svetofor o'chgan bo'lsa.
2. Taqiqlanadi.

**3** **Temir yo'l kesishmasi oldida to'xtagandan keyin harakatni boshlashdan oldin haydovchi:**

1. Harakat xavfsizligini ta'minlovchi tezlik bilan kesishma orqali harakatni boshlashi kerak.
2. Birinchi uzatmada kesishmadan o'tishi kerak.
3. Yaqinlashib kelayotgan poyezdning yo'qligiga ishonch hosil qilishi kerak.

**4** **Navbatchining haydovchiga qaratilgan holati temir yo'l kesishmasi orqali harakatlanishni taqiqlovchi ishora hisoblanadi:**

1. Haydovchiga chap yoki o'ng yelkasini o'girib, tayoqchani (qizil bayroqni) boshidan yuqori ko'tarib turish.
2. Ko'kragini yoki orqasini o'girib, tayoqchani (qizil bayroqni) boshidan yuqori ko'tarib turishi yoki qo'llarini yoniga ko'tarib cho'zib turishi.
3. Istalgan yelkasi yoki ko'kragini o'girib, tayoqchani (qizil bayroqni) boshidan yuqori ko'tarib turishi.

**5** **Bu joyda quvib o'tishga ruxsat etilganmi?**

1. Quvib o'tilayotgan transport vositasi 40 km/s dan kam tezlik bilan harakatlanganda ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.
3. Agar quvib o'tish temir yo'l kesishmachigacha tugasa, ruxsat etiladi.



**6** **Bu yo'l belgisi bildiradi:**

1. Shlagbaum bilan jihozlanmagan bir izli temir yo'l kesishmasini.
2. Shlagbaum bilan jihozlangan bir izli temir yo'l kesishmasini.
3. Shlagbaum bilan jihozlanmagan ikki va undan ko'p izli temir yo'l kesishmasini.



**7** **Transport vositalarining temir yo'l kesishmasiga qancha masofa yaqinroqda to'xtab turishlari taqiqlanadi?**

1. 300 m.
2. 150 m.
3. 100 m.
4. 50 m.
5. 25 m.

**8** **Mazkur vaziyatda quvib o'tishga ruxsat etilganmi?**

1. 40 km/soatdan kam tezlik bilan harakatlanayotgan faqat yakka transport vositalariga ruxsat etilgan.
2. Taqiqlangan.
3. Hamma hollarda ruxsat etilgan.



**9** **Zanjirli bo'lgan qishloq xo'jalik, yo'l qurilishi va mexanik transport vositalariga temir yo'l kesishmasidan o'tish uchun ruxsat etiladimi?**

1. Agar temir yo'l boshlig'ining ruxsati bo'lsa, ruxsat etiladi.
2. Mexanik transport vositalariga yuklab olib o'tishga ruxsat etiladi.
3. Taqiqlanadi.

**10** **Sekin yuradigan transport vositalarining temir yo'l kesishmasi orqali harakatlanishiga faqat temir yo'l boshlig'ining ruxsati bilan harakat tezligi quyidagidan kam bo'lganda yo'l qo'yiladi:**

1. 3 km/s.
2. 5 km/s.
3. 8 km/s.
4. 10 km/s.
5. 30 km/s.

# 19-BOB. AVTOMAGISTRALLARDA HARAKATLANISH

**121.** Avtomagistrallarda quyidagilar taqiqlanadi:

piyodalar, uy hayvonlari, ot-aravalar, velosipedlar, individual harakatlanish vositalari, skuterlar, mopedlar, traktorlar va o'ziyurar uskunalar, texnik tavsifnomasiga yoki holatiga ko'ra tezligi soatiga 40 kilometrdan kam bo'lgan transport vositalarining harakatlanishi;

yuk avtomobillariga yo'lning chetki chap qatorida harakatlanishi;

5.15 yoki 6.11 yo'l belgilari bilan belgilangan maxsus to'xtab turish maydonchalaridan boshqa joylarda to'xtash;

ajratuvchi bo'lakning texnologik uzilish joylariga kirish va ularda qayrilib olish;

orqaga harakatlanish;

transport vositasini o'rganish uchun boshqarish.

**122.** Haydovchi qatnov qismida majburiy to'xtaganda, transport vositasini ushbu Qoidalarning 8-bobi talablariga muvofiq belgilashi va bunday holatlar uchun mo'ljallangan tasmaga (qatnov qismining chetini bildiruvchi chiziqdan o'ngroqda) olib chiqishning barcha choralarini ko'rishi kerak.








## 19-bobga oid testlar

**1** **Avtomagistralda shatakka olishga ruxsat beriladimi?**

1. 50 km/s tezlik bilan ruxsat etilgan.
2. Taqiqlanadi.
3. Faqat qisman ortish usuli bilan yoki qattiq tirkagich bilan ruxsat beriladi.
4. Egiluvchan tirkagich bilan ruxsat beriladi.
5. Istalgan usulda ruxsat etilgan.

**2** **Avtomagistralda ajratuvchi tasmaning uzilishlariga kirishga ruxsat etiladimi?**

1. Ruxsat etiladi.
2. Faqat orqaga burilish uchun ruxsat etiladi, to'la vazni 3,5 t dan ortiq bo'lgan yuk avtomobillarining haydovchilari bundan mustasno.
3. Taqiqlanadi.
4. Belgilangan yo'nalishdagi transport vositalariga ruxsat etiladi.

**3** **Avtomagistrallarda transport vositalarini atayin to'xtatish qaysi joylarda ruxsat etilgan?**

1. Yo'lning qatnov qismining chetki o'ng bo'lagida.
2. Yo'lning 100 m dan ko'proq qismi ko'rinadigan va harakat bo'lagi soni to'rttadan ortiq bo'lgan joylarda.
3. To'xtab turish uchun «To'xtab turish joyi» yoki «Dam olish joyi» belgilari bilan belgilangan maxsus maydonchalarda.

**4** **Transport vositalarining tezligi texnik tavsifnomasiga yoki holatiga ko'ra 40 km/s dan kam bo'lganda avtomagistral bo'ylab harakatlanishga ruxsat etiladimi?**

1. Ikkinchi tasmadan nariga o'tmaganda ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.
3. Agar «Eng kam tezlik» belgisi o'rnatilmagan bo'lsa, ruxsat etiladi.

**5** **Avtomagistrallarda to'xtashga ruxsat etilganmi?**

1. Taqiqlangan.
2. Avtomagistral yaxshi ko'rinadigan joylarda ruxsat etiladi.
3. Agar bir yo'nalishda harakatlanish uchun uchta tasma bo'lsa, ruxsat etiladi.
4. To'xtab turish «To'xtab turish joyi» yoki «Dam olish joyi» belgisi qo'yilgan maxsus maydonchalarda ruxsat etiladi.

**6** **Avtomagistralda boshqarishni o'rganish:**

1. 70 km/s dan ortmagan tezlik bilan ruxsat berilgan.
2. Haydashni o'rgatuvchi yo'riqchi bilan bo'lgan o'rganuvchida yetarli boshqarish malakasi bo'lganda 60 km/soatdan ortiq bo'lmagan tezlikka ruxsat etilgan.
3. Taqiqlangan.
4. Agar o'rganilayotgan mexanik transport vositasida taniqli belgilari qayd etilgan bo'lsa, ruxsat etilgan.

**7** **Avtomagistralda taqiqlanadi:**

1. Qayrilib olish va ajratuvchi tasmaning texnologik uzilish joylariga kirish.
2. Orqaga harakatlanish.
3. «To'xtab turish joyi» yoki «Dam olish joyi» belgilari bo'lgan maxsus maydonchalardan tashqari joyda to'xtash.
4. Yuqoridagi barcha holatlar.

**8** **Avtomagistralda qatnov qismining chetini bildiruvchi sidirg'a oq chiziqni bosib o'tishga ruxsat etiladimi?**

1. Ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.
3. Agar avtomagistralda harakatlanish serqatnov bo'lsa, taqiqlanadi.



**9** **Ruxsat etilgan to'la vazni 3,5 t dan kam bo'lgan yuk avtomobilining haydovchisiga avtomagistrallarda nima taqiqlangan?**

1. Ikkinchi tasmadan nariroqda harakatlanish, orqaga yoki chapga burilish uchun qayta tizilishidan tashqari.
2. Orqa bilan harakatlanish.
3. Mexanik transport vositalarini shatakka olish.
4. Barcha sanab o'tilgan harakatlar.

**10** **Bu belgi bilan belgilangan yo'l qismlarida ajratuvchi tasmaning uzilish joyida qayrilishga ruxsat etiladimi?**



1. Ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.
3. Faqat to'la vazni 3,5 tonnagacha bo'lgan transport vositalariga ruxsat etiladi.

# 20-BOB. TURAR JOY DAHALARIDA HARAKATLANISH

**123.** Turar joy dahalari (kirish va chiqish 5.38 va 5.39 yo'l belgilari bilan belgilangan hududlar)da piyodalarga trotuarlar hamda qatnov qismida harakatlanishga ruxsat etiladi. Bunda piyodalar imtiyozga ega bo'ladilar, biroq ular transport vositalarining harakatlanishiga asossiz xalaqit bermasliklari kerak.

**124.** Turar joy dahalarida quyidagilar taqiqlanadi:

mexanik transport vositalarini boshqarishni o'rgatish;

dvigateli ishlab turgan holda to'xtab turish;

ruxsat etilgan to'liq vazni 3,5 tonnadan ortiq bo'lgan yuk avtomobillarining maxsus ajratilgan, yo'l belgilari va (yoki) yo'l chiziqlari bilan belgilangan joylardan tashqarida to'xtab turishi.

**125.** Turar joy dahalarida haydovchilar piyodalar xavfsizligini, shuningdek, ushbu hududdagi inshoot, qurilma va o'simliklarning shikastlanmasligini ta'minlashi zarur.

**126.** Turar joy dahalaridan chiqishda haydovchilar yo'l harakatining boshqa ishtirokchilariga yo'l berishlari kerak.

**127.** Ushbu bob talablari dahalar va hovli hududlariga (uy-joy binolari orasidagi yer uchastkasiga) ham tegishlidir.







# 21-BOB. TIK BALANDLIK VA NISHABLIKLARDA HARAKATLANISH

**128.** Agar yo'lning 1.13 va 1.14 yo'l belgilari bilan belgilangan qiyaliklarda, qarama-qarshi yo'nalishlarda harakatlanishni qiyinlashtiradigan to'siq bo'lsa, nishablikka harakatlanayotgan transport vositasining haydovchisi yo'l berishi kerak.

**129.** Tik nishablikda, dovonda va 1.13 yo'l belgisi o'rnatilgan yo'l qismida tormoz tizimi ishlamay qolgan transport vositasini to'xtatish uchun haydovchi uni 5.40 yo'l belgisi bilan belgilangan avariyali holatlarga mo'ljallangan yo'lga yo'naltirish kerak.

**130.** Yo'lning 1.13 yo'l belgisi bilan belgilangan qismida uzatma va ilashish mexanizmi (sseplenie) ajratilgan holatda harakatlanish taqiqlanadi.






## 20-bobga oid testlar

**1** **Rulda o'rganuvchi bo'lsa, qaysi tomonga harakatlanishga ruxsat beriladi?**

1. Hamma tomonga.
2. Faqat o'ngga.
3. O'ngga, chapga va qayrilishga.



**2** **Mazkur belgi bilan belgilangan hududda qanday cheklanishlar kiritilgan?**

1. Harakat tezligi 5 km/s dan oshmasligi kerakligini bildiradi.
2. Transport vositalarini boshqarishni o'rgatish.
3. Kirib, chiqib ketish harakati taqiqlanadi.
4. Yengil avtomobillarning tunda to'xtab turishini taqiqlaydi.



**3** **Quyidagi holatda haydovchi piyodalarga yo'l berishi lozimmi?**

1. Ha.
2. Yo'q.



**4** **Yengil avtomobil haydovchisi yo'l berishi kerakmi?**

1. Ha.
2. Yo'q.



## 21-bobga oid testlar

**1** **Agar tegishli belgilar bilan belgilangan qiyaliklarda yuzma-yuz kelayotgan transportlarning o'tib ketishi qiyin bo'lsa, yo'l berish zarur:**

1. Pastlik tomon harakatlanayotgan transport vositasiga.
2. Belgilangan yo'nalishdagi transport vositasiga.
3. Balandlikka harakatlanayotgan transport vositasiga.







**2** **Bu joyda quvib o'tishga ruxsat etiladimi?**

1. Ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.
3. Aholi yashaydigan joylardan tashqaridagi yo'llarda ruxsat etiladi.
4. Faqat aholi yashaydigan joylardan tashqaridagi yo'llarda taqiqlanadi.



**3** **Motosikl haydovchisi qoidani buzyaptimi?**

1. Ha.
2. Yo'q.



**4** **Qaysi transport vositasining haydovchisi yo'l berishi kerak?**

1. Yuk avtomobili haydovchisi.
2. Yengil avtomobil haydovchisi.



# 22-BOB. YO‘NALISHLI TRANSPORT VOSITALARINING IMTIYOZLARI

**131.** Tramvay yo‘llari chorrahadan tashqarida qatnov qismini kesib o‘tadigan joylarda tramvay relssiz transport vositalariga nisbatan imtiyozga ega bo‘ladi (depodan chiqish joylari bundan mustasno).






**132.** Yo‘nalishli transport vositalarining harakatlanishi uchun 5.9, 5.10.1 — 5.10.3 yo‘l belgilari bilan ajratilgan tasmada boshqa transport vositalarining harakatlanishi va to‘xtashi taqiqlanadi.

Agar 5.9 yo‘l belgisi bilan belgilangan tasma qatnov qismining boshqa tasmalardan uzuq-uzuq chiziq bilan ajratilgan bo‘lsa, burilmoqchi bo‘layotgan transport vositalari bu tasmaga qayta tizilishlari kerak.

Shuningdek, bunday joylarda yo‘nalishli transport vositalarining harakatiga xalaqit bermaslik sharti bilan yo‘lga chiqish, qatnov qismining chetki o‘ng tomonida yo‘lovchilarni chiqarish va tushirish uchun bu bo‘lakka o‘tishga ruxsat etiladi.







**133.** Haydovchilar aholi punktlarida bekatdan harakatlanishni boshlayotgan avtobus va trolleybuslarga yo‘l berishlari kerak. O‘z navbatida avtobus va trolleybus haydovchilari o‘zlariga yo‘l berilganligiga ishonch hosil qilganliklaridan keyingina harakatlanishni boshlashlari mumkin.

Yo‘nalishli transport vositalariga bekatlardan tashqari joylarda yo‘lovchi olish va tushirish taqiqlanadi (yo‘nalishli taksilar bundan mustasno).






## 22-bobga oid testlar

**1** **O'ngga burilganda shu belgi bilan belgilangan tasmaga o'tishga ruxsat etiladimi?**

1. Ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.
3. Agar tasma qolgan harakat qismidan yotiq sidirg'a chiziq bilan ajratilmagan bo'lsa, ruxsat etiladi.



**2** **Agar yo'l boshlanishida ushbu belgi turgan bo'lsa, qatnov qismining chap chetidagi tasmaga o'tish mumkinmi?**

1. Chapga burilish uchun mumkin.
2. Quvib o'tish uchun mumkin, agar ro'paradan harakatlanish bo'lmasa va tasma qatnov qismining qolgan bo'lagidan uzuq-uzuq chiziq bilan ajratilgan bo'lsa.
3. Hech qanday holatda mumkin emas.



**3** **Ko'rsatilgan sharoitda qaysi tasmadan o'ngga burilish kerak?**

1. Faqat ikkinchi tasmadan.
2. Faqat «A» chizig'i bilan belgilangan o'ng chekkadagi tasmadan.




**4** **Belgilangan yo'nalish bo'ylab ketayotgan avtobus haydovchisi ushbu sharoitda yo'l berishi kerakmi?**

1. Kerak.
2. Kerak emas.
3. Kerak emas, chunki u to'g'riga ketyapti.



**5** **Belgilangan yo'nalish bo'yicha harakat qilayotgan yo'nalishli transport vositalarining haydovchilari piyodalar o'tish joyidan tashqarida oq tayoq bilan ishora berayotgan ko'zi ojizlarni o'tkazib yuborishl[illegible]mi?**

1. Ham[illegible]zib yuborishlari ke[illegible]
2. C[illegible]k emas.

**6** **Belgilangan yo'nalishdagi transport vositalariga kiradi:**

1. Avtobuslar va yo'nalishli taksilar.
2. Tramvaylar va trolleybuslar.
3. Belgilangan yo'nalishlar bo'yicha harakatlanadigan avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va yo'nalishli taksilar.

**7** [illegible] chiziq bilan [illegible]ilangan bo'lsa, [illegible]bo'ylab [illegible] harakatlansa, ruxsat etiladi.



**8** **Yo'lovchilarni tushirish uchun bu belgi o'rnatilgan tasmada to'xtashga ruxsat etiladimi?**

1. Agar tasma qatnov qismining o'ng chetida joylashgan va u yotiq uzluksiz chiziq bilan qatnov qismidan ajratilmagan bo'lsa, ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.
3. Ruxsat etiladi.



**9** **Rasmda ko'rsatilgan holatda yo'lovchilarni tushirish uchun to'xtashga ruxsat beriladimi?**

1. Ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.



**10** **Qatnov qismining o'ng bo'lagi bo'ylab harakatlanishga qaysi transport vositasiga ruxsat etilgan?**

1. Barcha mexanik transport vositalariga.
2. Belgilangan yo'nalishdagi transport vositalariga va taksilarga.
3. Faqat velosipedlarga.
4. Faqat belgilangan yo'nalishdagi transport vositalariga.

# 23-BOB. TASHQI YORITISH ASBOBLARIDAN FOYDALANISH

**134.** Sutkaning qorong'i vaqtida va yetarlicha ko'rinmaydigan sharoitda, shuningdek yo'lning yoritilganligidan qat'i nazar, tunnellarda harakatlanayotgan transport vositasida quyidagi yoritish asboblari yoqilgan bo'lishi kerak:

barcha mexanik transport vositalarida — uzoqni yoki yaqinni yorituvchi fara chiroqlari;

velosipedlarda — fara yoki chiroqlar (agar mavjud bo'lsa);

tirkamalarda va shatakka olingan mexanik transport vositalarida — gabarit fara chiroqlari.

**135.** Quyidagi hollarda uzoqni yorituvchi fara chiroqlari o'rniga yaqinni yorituvchi fara chiroqlari yoqilishi kerak:

yo'l yoritilgan bo'lsa;

qarama-qarshi yo'nalishdagi transport vositasiga kamida 150 metr masofa qolganda, shuningdek, qarama-qarshi yo'nalishdagi transport vositasining haydovchisi fara chiroqlarini vaqti-vaqti bilan o'chirib-yoqib bunga zarurat borligini bildirgan hollarda undan ham ko'proq masofada;




qarama-qarshi va bir yo'nalishdagi transport vositalari haydovchilarining ko'zini qamashtirishi mumkin bo'lgan boshqa barcha holatlarda.

Ko'zi qamashgan haydovchi avariya ishoralarini yoqishi, harakatlanish bo'lagini o'zgartirmasdan tezlikni kamaytirishi va to'xtashi kerak.



**136.** Sutkaning qorong'i vaqtida yo'lning yoritilmagan qismida, shuningdek, yetarlicha ko'rinmaydigan sharoitda to'xtagan yoki to'xtab turgan transport vositasida gabarit fara chiroqlari yoqilgan bo'lishi kerak.



Yetarlicha ko'rinmaydigan sharoitda gabarit chiroqlariga qo'shimcha ravishda yaqinni yorituvchi fara chiroqlari, tumanga qarshi fara chiroqlari va tumanga qarshi orqa fara chiroqlari yoqilishi mumkin.



**137.** Quyidagi hollarda tumanga qarshi fara chiroqlaridan foydalanish mumkin:

yetarlicha ko'rinmaydigan sharoitda alohida, shuningdek, uzoqni yorituvchi yoki yaqinni yorituvchi fara chiroqlari bilan;

sutkaning qorong'i vaqtida yo'lning yoritilmagan qismlarida uzoqni yoki

yaqinni yorituvchi fara chiroqlari bilan birga;

ushbu Qoidalarning 138-bandida ko'zda tutilgan holatlarda yaqinni yorituvchi fara chiroqlari o'rniga.

**138.** Sutkaning yorug' vaqtida quyidagi hollarda yaqinni yorituvchi fara chiroqlari yoqilishi kerak:

transport vositalari tashkiliy jamlanma safida harakatlanayotganda;

yo'lovchilarni tashiyotgan avtobuslar va yo'nalishli transport vositalarida;

bolalar guruhini tashkiliy tashishda;

xavfli, katta o'lchamli va og'ir vaznli yuklarni tashishda;

mexanik transport vositalarini shatakka olishda (shatakka olib ketayotgan transport vositasida);

kuchli yog'ingarchilik (yomg'ir, qor) sharoitida;

mototsikl, elektromototsikl, skuter va mopedlarda.



**139.** Konstruksiyasida projektor-fara chiroqlari va izlovchi-fara chiroqlari bo'lgan transport vositalaridan quyidagi hollarda foydalanish mumkin:

aholi punktlaridan tashqarida;

qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanayotgan transport vositalari bo'lmaganda.



Aholi punktlarida esa bunday fara chiroqlaridan foydalanishga faqat ushbu Qoidalarning 25 va 28-bandlarida ko'zda tutilgan transport vositalari haydovchilariga ruxsat etiladi.

**140.** Tumanga qarshi orqa fara chiroqlarini faqat yetarlicha ko'rinmaydigan sharoitda qo'llash mumkin. Tumanga qarshi orqa fara chiroqlarini to'xtash fara chiroqlari (stop-signal)ga ulash taqiqlanadi.




**141.** "Avtopoyezd" taniqlik belgisi avtopoyezd harakatlanayotganda, shuningdek, sutkaning qorong'i vaqtida va yetarlicha ko'rinmaydigan sharoitda yo'lda to'xtash va to'xtab turish paytida ham yoqib qo'yilishi kerak.





# 23-bobga oid testlar

**1** **Kunning qorong‘i vaqtida sun’iy yoritilmagan yo‘llarda yoki yetarlicha ko‘rinmaslik sharoitida yonmaydigan orqa gabarit chiroqlari bilan to‘xtab turish yoki ta’mirlash joyiga borishga ruxsat beriladimi?**

1. Alohida ehtiyotkorlik bilan borishga ruxsat beriladi.
2. Taqiqlanadi.

**2** **Quvib o‘tishda uzoqni yorituvchi chiroqlardan ogohlantiruvchi ishora sifatida foydalanish mumkinmi?**

1. Hamma holda mumkin.
2. Mumkin, agar bu boshqa haydovchilarning ko‘zini qamashtirmasa, shu jumladan, orqani ko‘rish ko‘zgusi orqali ham.
3. Mumkin emas.
4. Aholi yashaydigan joylardan tashqaridagi yo‘llarda mumkin.

**3** **Quvib o‘tishda uzoqni yorituvchi chiroqlardan ogohlantiruvchi ishora sifatida foydalanish mumkinmi?**

1. Hamma holda mumkin.
2. Mumkin, agar bu boshqa haydovchilarning ko‘zini qamashtirmasa, shu jumladan, orqani ko‘rish ko‘zgusi orqali ham.
3. Mumkin emas.
4. Aholi yashaydigan joylardan tashqaridagi yo‘llarda mumkin.

**4** **Kunning qorong‘i vaqtida yo‘lning yoritilgan qismida harakatlanayotgan mexanik transport vositasida qaysi chiroqlar yoqilgan bo‘lishi kerak?**

1. Yaqinni yorituvchi chiroqlar.
2. Uzoqni yorituvchi chiroqlar yoki gabarit chiroqlar.
3. Yaqinni yorituvchi chiroqlar (tumanga qarshi faralar) yoki gabarit chiroqlar.

**5** **Qaysi javobda shatakka olingan transport vositasidagi yoritish asboblarini yoqishning to‘g‘ri holati ko‘rsatilgan?**

1. Kunning qorong‘i vaqtida yoki tuman bo‘lgan sharoitda yaqinni yorituvchi chiroqlar.
2. Falokat yorug‘lik ishoralari, u buzuq bo‘lganda yoki bo‘lmagan hollarda uning orqa tomoniga falokat sababli to‘xtash belgisi o‘rnatilishi kerak.
3. Aholi yashaydigan joyda gabarit chiroqlari.
4. Aholi yashayotgan joydan tashqaridagi yo‘llarda istalgan yoritish chiroqlarini.

**6** **Kunning qorong‘i vaqtida yo‘lning yoritilmagan qismlarida harakatlanayotganda mexanik transport vositasining qaysi chiroqlari yoqilgan bo‘lishi kerak?**

1. Yaqinni yoki uzoqni yorituvchi chiroqlar.
2. Faqat yaqinni yorituvchi chiroqlar.
3. Faqat uzoqni yorituvchi chiroqlar.

**7** **Shatakka olingan mexanik transport vositasida qanaqa tashqi yoritish chiroqlari yoqilgan bo‘lishi kerak?**

1. Kunning qorong‘i vaqtida gabarit chiroqlari.
2. Yaqinni yorituvchi chiroqlar.
3. Falokat yorug‘lik ishoralari.

**8** **Yo‘lning yoritilmagan qismlarida qorong‘i vaqtda to‘xtaganda gabarit chiroqlari buzuq bo‘lsa:**

1. Yaqinni yorituvchi chiroqlarni yoqish.
2. O‘ngroqqa olish va yaqinni yorituvchi chiroqni yoqish zarur.
3. Transport vositasini yo‘ldan tashqariga chiqarish, agar buning iloji bo‘lmasa, mazkur qoidalar talablariga binoan uni belgilash lozim.

**9** **Orqa tomondagi tumanga qarshi chiroqlar qo‘llanishi mumkin:**

1. Kunning qorong‘i vaqtida safda harakatlanishda.
2. Tunnellarda harakatlanishda.
3. Faqat yetarlicha ko‘rinmaydigan sharoitlarda.
4. Kunning qorong‘i vaqtida yuk tushirishda.
5. Barcha sanab o‘tilgan hollarda.

**10** **Transport vositalari sun’iy yoritilgan tunnelda harakatlanayotganda qanday yoritish asboblari yoqilishi kerak?**

1. Uzoqni yorituvchi chiroqlar.
2. Yaqinni yorituvchi chiroqlar.
3. Majburiy to‘xtash yoritgichi.
4. Yoritish asboblari yoqilmaydi.

# 24-BOB. MEXANIK TRANSPORT VOSITALARINI SHATAKKA OLISH

**142.** Qattiq yoki egiluvchan ulagich bilan shatakka olish shatakka olingan transport vositasining rul boshqaruvida haydovchi bo'lgandagina amalga oshirilishi kerak. To'g'ri chiziq bo'ylab harakatlanganda qattiq ulagichning konstruksiyasi shatakka olingan transport vositasini shatakka olgan transport vositasining izidan harakatlanishini ta'minlaydigan hollar bundan mustasno.

**143.** Qattiq yoki egiluvchan ulagich bilan shatakka olingan avtobusda, trolleybusda va yuk avtomobili yukxonasida odam tashish qisman ortish yo'li bilan shatakka olishda esa shatakka olingan transport vositasining kabinasida va yukxonasida, shuningdek shatakka olgan transport vositasining yukxonasida odamlar bo'lishi taqiqlanadi.









**144.** Egiluvchan ulagich bilan shatakka olishda shatakka olgan va shatakka olingan transport vositalari o'rtasidagi masofa 4–6 metr oralig'ida bo'lishi, qattiq ulagich bilan shatakka olishda esa 4 metrdan ko'p bo'lmasligi kerak.

Egiluvchan ulagich ushbu Qoidalarning 177-bandi talablariga muvofiq belgilanishi kerak.







**145.** Shatakka olish quyidagi holatlarda taqiqlanadi:

rul boshqaruvi ishlamayotgan transport vositalarini (qisman ortish usuli bilan shatakka olish bundan mustasno);

ikki va undan ko'p transport vositalarini;





shatakka olingan va shatakka olgan transport vositalarining ulagich bilan birga umumiy uzunligi 20 metrdan ortiq bo'lsa;

ishchi tormoz tizimi ishlamayotgan transport vositasining haqiqiy vazni shatakka olgan transport vositasining haqiqiy vaznining yarmidan ortiq bo'lsa (haqiqiy vazni kam bo'lgan bunday transport vositasini faqat qattiq ulagich bilan yoki qisman ortish usuli bilan shatakka olishga yo'l qo'yiladi);




ikki g'ildirakli mototsikl, elektromototsikl, moped, skuter va individual harakatlanish vositalari bilan, shuningdek, bunday mototsikl, elektromototsikl, moped, skuter va individual harakatlanish vositalarini;



yo'l yaxmalak, sirpanchiq bo'lgan hollarda egiluvchan ulagichda.





## 24-bobga oid testlar

**1** **Boshqaruv qurilmasi nosoz mexanik transport vositasi shatakka olinishi kerak:**

1. Qisman ortish usuli bilan.
2. Qattiq ulagich bilan.
3. Uni qisman ortish yoki qattiq ulagichda ulash usuli bilan.
4. Agar shatakka oluvchining haqiqiy vazni shatakka olinayotganning haqiqiy vaznidan ikki marta ko'p bo'lsa, qattiq ulagichda.

**2** **Aholi yashaydigan joylardan tashqarida tirkamali yengil avtomobil haydovchisiga eng katta tezlikni soatiga necha kilometrdan oshirmasdan harakatlanishga ruxsat etiladi?**

1. 50 km/soat.
2. 70 km/soat.
3. 80 km/soat.
4. 90 km/soat.
5. 100 km/soat.

**3** **Egiluvchan yoki qattiq ulagichda shatakka olingan mexanik transport vositasida odamlar tashishga ruxsat etiladimi?**

1. Avtobus va trolleybusda ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.
3. Yuk va yengil avtomobillarda ruxsat etiladi.
4. Yuk avtomobili kabinasida va yengil avtomobilda ruxsat etiladi.

**4** **Mazkur sharoitda shatakka olish qanday yuqori tezlik bilan amalga oshirilishi mumkin?**

1. 30 km/soat.
2. 50 km/soat.
3. 70 km/soat.
4. 80 km/soat.




**5** **Shatakka olish qanday hollarda taqiqlangan?**

1. Toyg'oqchilikda qattiq ulagichda.
2. Toyg'oqchilikda egiluvchan ulagichda.
3. Yon kajavali mototsikllar bilan.

**6** **Mototsikllarni shatakka olishga ruxsat etiladimi?**

1. Yon kajavali mototsikllarga ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.
3. Tekis joylarda ruxsat etiladi.
4. Yon kajavasi bo'lmagan mototsikllarga ruxsat etiladi.

**7** **Shatakka olingan yengil avtomobilda yo'lovchilarni tashish mumkinmi?**

1. Egiluvchan va qattiq ulagichda ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.

**8** **Mexanik transport vositasi shatakka olinganda egiluvchan ulagich qanday belgilanishi kerak?**

1. Qizil va oq rangli chiziqlar tushirilgan, yorug'lik qaytaradigan yuzali, bayroqchalar yoki taxtachalar bilan.
2. Transport vositasi orqasiga mustahkamlangan falokat to'xtash belgisi bilan belgilanishi kerak.
3. Transport vositasi oldi tomoni oq rangli, orqasi qizil rangli fonarlar bilan belgilanishi kerak.

**9** **Tormoz tizimi ishlamayotgan transport vositasini shatakka olish mumkinmi?**

1. Agar shatakka olingan transport vositasining haqiqiy vazni shatakka olinuvchi transport vaznidan ikki barobar ortiq bo'lsa, qattiq ulagich bilan.
2. Faqat qattiq ulagichda.
3. Agar shatakka olingan transport vositasida haydovchi bo'lsa har qanday usul bilan.
4. Faqat unga qisman ortish usuli bilan.

**10** **Qoidalarga ko'ra shatakka olish vaqtida bir-biriga ulangan transport vositalari tarkibining qanday umumiy uzunligiga yo'l qo'yiladi?**

1. 20 m.
2. 21 m.
3. 22 m.
4. 23 m.
5. 24 m.

# 25-BOB. TRANSPORT VOSITALARINI BOSHQARISHNI O‘RGATISH

**146.** Transport vositalarini boshqarishni dastlabki o‘rgatishga yopiq maydonchalarda yoki avtodromlarda o‘tkazilishi kerak.

**147.** Yo‘llarda transport vositalarini boshqarishni o‘rgatish faqat amaliy boshqaruvni o‘rgatuvchi ishtirokida dastlabki boshqaruv ko‘nikmalariga ega bo‘lgan o‘rganuvchiga ruxsat etiladi. O‘rganuvchi Qoidalar talablarini bilishi va ularga amal qilishi shart.

**148.** Transport vositasini boshqarishni o‘rgatayotgan vaqtda amaliy boshqaruv o‘rgatuvchisida transport vositasini boshqarishni o‘rgatish huquqini beruvchi hujjat, shuningdek, tegishli toifadagi transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomasi bo‘lishi shart.

**149.** Transport vositasini boshqarish huquqiga ega bo‘lishi uchun o‘rganuvchi o‘quv muddati yakunida:

“A” toifasi uchun — 16 yoshga;

“B” va “C” toifalari uchun — 18 yoshga;

“BE” va “CE” toifalari uchun — 19 yoshga;

“D” va “DE” toifalari hamda tramvay va trolleybuslar uchun 21 yoshga to‘lgan bo‘lishi kerak.

**150.** Boshqarishni o‘rgatish uchun mo‘ljallangan mexanik transport vositalari “Boshqarishni o‘rgatish transport vositasi” taniqlik belgisi va o‘rgatuvchi uchun ulagich (sseepleniye) va tormozning qo‘shimcha tepkilari, orqani ko‘rsa-



tuvchi ko‘zgu hamda ushbu transport vositalarining harakat yo‘nalishini nazorat qilish imkonini beradigan GPS qurilmalari bilan jihozlanishi kerak.

**151.** Boshqarishni o‘rgatish yo‘nalishlari ushbu Qoidalarning 183-bandiga muvofiq DYHXX bilan kelishilishi shart. Boshqa yo‘llarda boshqarishni o‘rgatish taqiqlanadi.



## 25-bobga oid testlar

**1** **Kim o'quv yurtlarida haydashni o'rgatish huquqiga ega?**
1. Haydashni o'rgatish huquqini beruvchi hujjatlari bo'lgan haydashni o'rgatuvchi yo'riqchi.
2. Tajribali haydovchi.
3. 3 yillik ishlagan davri bo'lgan haydovchi.
4. 5 yil haydovchilik davriga ega bo'lgan 1- va 2-toifa haydovchilar.

**2** **Mazkur belgi bilan belgilangan hududda qanday cheklanishlar kiritilgan?**



1. Harakat tezligi 5 km/s dan oshmasligi kerakligini bildiradi.
2. Transport vositalarini boshqarishni o'rgatish.
3. Kirib, chiqib ketish harakati taqiqlanadi.
4. Yengil avtomobillarning tunda to'xtab turishini taqiqlaydi.

**3** **Boshqarishni o'rgatishdagi transport vositasi qanday jihozlangan bo'lishi kerak?**
1. Qoidalarning talablariga muvofiq taniqlik belgilari bilan.
2. Ulovchi va tormozning qo'shimcha tepkilari bilan.
3. O'rgatuvchi uchun orqani ko'rsatuvchi ko'zgu bilan.
4. Sanab o'tilgan barcha jihozlar va belgilar bilan.

**4** **Qoida bo'yicha necha yoshdan boshlab yengil avtomobilni boshqarishga ruxsat beriladi?**
1. 14 yoshdan.
2. 16 yoshdan.
3. 18 yoshdan.

**5** **Rulda o'rganuvchi bo'lsa, qaysi tomonga harakatlanishga ruxsat beriladi?**
1. Hamma tomonga.
2. Faqat o'ngga.
3. O'ngga, chapga va qayrilish.




**6** **Avtomagistralda boshqarishni o'rganish:**
1. 70 km/s dan ortmagan tezlik bilan ruxsat berilgan.
2. Haydashni o'rgatuvchi yo'riqchi bilan o'rganuvchida yetarli boshqarish malakasi bo'lsagina 60 km/soatdan ortiq bo'lmagan tezlikka ruxsat etilgan.
3. Taqiqlangan.
4. Agar o'rganilayotgan mexanik transport vositasida taniqlik belgilari qayd etilgan bo'lsa, ruxsat etilgan.

**7** **Agar transport vositasining tuzilishida ko'zda tutilgan orqani ko'rsatadigan ko'zgular bo'lmasa, avtomobildan foydalanishga ruxsat etiladimi?**
1. Agar orqa oyna pardalar bilan berkitilmagan bo'lsa ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.
3. Loaqal bitta ko'zgu bo'lsa ruxsat etiladi.

**8** **Haydashni o'rgatuvchiga xavfsizlik kamarini taqmaslikka ruxsat etiladimi?**
1. Agar transport vositasini o'rganuvchi haydayotgan bo'lsa ruxsat etiladi.
2. Har qanday holatda ham ruxsat etiladi.
3. Taqiqlanadi.

**9** **Qaysi yoshda mototsiklda yakka tartibda harakatlanishni o'rgatishga ruxsat etiladi?**
1. 12 yoshdan.
2. 14 yoshdan.
3. 16 yoshdan.
4. 18 yoshdan.

**10** **O'quv mashqlari vaqtida o'quvchilar xavfsizlik kamarini taqishlari shartmi?**
1. Shart.
2. Shart emas.
3. Agar bu avtomobilni boshqarishni qiyinlashtirsa shart emas.
4. Agar o'rgatuvchi ruxsat bersa shart emas.

# 26-BOB. ODAM TASHISH

**152.** Odam tashish uchun mo'ljallangan yuk avtomobilining yukxonasida odam tashish "C" toifadagi transport vositalarini boshqarish huquqiga ega bo'lgan (odamlar soni kabinadagi yo'lovchilarni ham qo'shib hisoblaganda 8 nafardan ortiq bo'lmasa) va shu toifadagi transport vositasini kamida 3 yil davomida boshqargan haydovchilar tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Yuk transport vositalarining yukxonasida tashiladigan odamlar soni kabinadagi yo'lovchilarni ham qo'shib hisoblaganda 8 nafardan ortiq bo'lganda, haydovchi mazkur bandning birinchi xatboshida belgilangan talablarga qo'shimcha "D" toifadagi transport vositalarini boshqarish huquqiga ham ega bo'lishi kerak.




Harbiy haydovchilarning yuk avtomobillarida odam tashishiga ruxsat berish O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**153.** Odam tashish uchun mo'ljallangan yuk avtomobili yukxonasining borti 1,3 metrdan kam bo'lmasligi shart. Bunda yukxonaning pastki qismidan 0,3–0,5 metr balandlikda mahkamlangan o'rindiqlar jihozlangan bo'lishi kerak.

**154.** Odam tashish uchun moslashtirilmagan yuk avtomobillarining yukxonasida faqat yukni olish uchun borayotgan yoki uni kuzatib borayotgan shaxslarning bo'lishiga yo'l qo'yiladi, bunda ular bort sathidan pastda o'tirish uchun o'rindiqlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.



**155.** Shaharlararo, sayyohlik, ekskursiya yoki tog'li yo'nalishlarda va bolalar guruhini tashkiliy ravishda tashish Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-maydagi 424-son qarori hamda 2003-yil 4-noyabrdagi 482-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida avtobuslarda yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlashga doir talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

**156.** Bolalar guruhini tashkiliy tashishda avtobus (mikroavtobus)da katta yoshli kuzatib boruvchi(lar) bo'lishi shart.

Bunday avtobus (mikroavtobus)larning oldi va orqa tomoniga "Bolalar guruhini tashish" taniqlik belgisi o'rnatilishi kerak.



**157.** Harakatni boshlashdan oldin haydovchi yo'lovchilarga xavfsizlik choralari, avtomobilga chiqish, undan tushish va unga joylashish tartibi haqida tushuncha berishi kerak.

Haydovchi harakatni boshlashdan oldin yo'lovchilarni xavfsiz tashish sharoiti ta'minlanganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

**158.** Haydovchi transport vositasi to'liq to'xtagandan keyin yo'lovchilarning chiqishi va tushishida ularning xavfsizligini ta'minlashi kerak. Eshiklar yopilgandan so'ng harakatlanishni boshlashi va to'liq to'xtamaguncha ularni ochmasligi shart.

**159.** Odamlarni tashish quyidagi hollarda taqiqlanadi:

bolalarni yuk avtomobillarining yukxonasida;

transport vositasining kabinasidan tashqarida (odam tashish uchun mo'ljallangan bortli yuk yoki furgon-yuk xonali avtomobillar bundan mustasno);

Traktorlar va boshqa o'ziyurar uskunalar, yuk tashiladigan tirkamalar, tirkama-uycha, yuk mototsikllari, elektromototsikllar, mopedlar va skuterlar yukxonasida;



Mototsikllar, elektromototsikllar, mopedlar va skuterlarning konstruksiyasida ko'zda tutilgan joylardan tashqarida;

12 yoshga to'lmagan bolalarni mototsikl, elektromototsikl, moped va skuterning orqa o'rindig'ida, shuningdek, bolalarni ushlab turuvchi maxsus qurilma o'rnatilmagan transport vositasining old o'rindig'ida;

odam soni transport vositasining texnik tavsifnomasida ko'zda tutilgan miqdordan ortiq bo'lganda.

Bunda transport vositasining haqiqiy vazni uni ishlab chiqargan korxona belgilagan ruxsat etilgan vazndan oshmasligi kerak.







## 26-bobga oid testlar

| | |
|---|---|
| **1** **Odamlarni tashishga moslashtirilmagan yuk avtomobili yukxonasida odam tashishga ruxsat etiladimi?**<br>1. Taqiqlanadi.<br>2. Avtomagistrallar o'tmagan yo'llarda ruxsat etiladi.<br>3. Faqat yukni kuzatib boruvchi shaxslarga shu shart bilanki, ular bortlaridan pastda joylashgan o'tiradigan joy bilan ta'minlangan bo'lsalar, ruxsat etiladi. | **2** **12 yoshga yetmagan bolalarni yuk avtomobili kabinasida tashishga ruxsat etiladimi?**<br>1. Ruxsat etiladi.<br>2. Faqat katta yoshdagi yo'lovchi hamrohligida ruxsat etiladi.<br>3. Taqiqlanadi. |
| **3** **Yuk avtomobili yukxonasida bolalarni tashishda qanday talablar qo'yiladi?**<br>1. Kamida ikki nafar katta yoshli kuzatib boruvchi bo'lishi kerak.<br>2. Bunday transport vositalarining oldi va orqasida bolalar tasviri bo'lgan sariq rangli kvadrat taniqlik belgisi o'rnatilishi kerak.<br>3. Yukxona devori pol sathidan kamida 1 m ko'tarilgan bo'lishi kerak.<br>4. Yuk avtomobili yukxonasida bolalarni tashish taqiqlangan. | **4** **Yuk avtomobilining yukxonasida 8 nafardan ko'p odamlarni tashish uchun qaysi haydovchilarga ruxsat beriladi?**<br>1. «S» toifadagi transport vositasini boshqarish huquqi guvohnomasi bo'lib, shu avtomobilda 3 yillik ish tajribasiga ega bo'lgan haydovchilarga.<br>2. «D» va «S» toifadagi transport vositalarini boshqarish huquqiga ega bo'lgan va shu toifadagi transport vositalaridan birini 3 yildan ortiq boshqargan haydovchilar tomonidan amalga oshirilishi kerak. |
| **5** **Yengil avtomobillarning oldingi o'rindig'ida bolalarni tashishga ruxsat etiladimi?**<br>1. 7 yoshdan kichik bo'lmagan bolalarni tashishga ruxsat etiladi.<br>2. 12 yoshdan kichik bo'lmagan bolalarni tashishga ruxsat etiladi.<br>3. Katta yoshli yo'lovchi bo'lganda yoshidan qat'i nazar ruxsat etiladi. | **6** **Avtomobilni qisman shatakka olishda yo'lovchilar qayerga joylashishlari kerak?**<br>1. Ikkala avtomobilning kabinalarida.<br>2. Shatakka olayotgan avtomobil kabinasida.<br>3. Shatakka olinayotgan avtomobil kabinasida.<br>4. Shatakka olayotgan avtomobil kuzovida. |
| **7** **Bolalar o'rindig'isiz yengil avtomobillarining old o'rindig'ida bolalarni necha yoshdan olib yurish mumkin?**<br>1. 8 yosh.<br>2. 10 yosh.<br>3. 12 yosh.<br>4. 14 yosh.<br>5. 16 yosh. | **8** **12 yoshgacha bo'lgan bolalarni yengil avtomobilning old o'rindig'ida olib yurishga ruxsat etiladimi?**<br>1. Ruxsat etiladi.<br>2. Faqat maxsus bolalar o'rindig'ida ruxsat etiladi.<br>3. Taqiqlanadi. |

## 27-BOB. YUK TASHISH

**160.** Tashilayotgan yukning vazni va o'qlarga tushadigan og'irlik miqdorining taqsimlanishi qonunchilik hujjatlarida belgilangan va ishlab chiqargan korxona tomonidan ushbu transport vositasi uchun belgilangan miqdordan oshmasligi kerak.

**161.** Haydovchi harakatni boshlashdan oldin yukning to'g'ri joylashganligiga va mahkamlanganligiga ishonch hosil qilishi, harakatlanish vaqtida esa, yukning tushib ketmasligini va harakatlanishga xalaqit bermasligini ta'minlash maqsadida uning holatini kuzatib borishi kerak.

**162.** Quyidagi shartlarga amal qilinganda yuk tashishga yo'l qo'yiladi:

agar yuk haydovchiga tevarak-atrof ko'rinishini cheklamasa;

transport vositasini boshqarishni qiyinlashtirmasa va muvozanatini buzmasa;

tashqi yoritish asboblari, gabarit fara chiroqlarini va yorug'lik qaytargichlarini, ro'yxatdan o'tkazilganlik davlat raqam belgilari va taniqlik belgilarni, shuningdek, qo'l bilan beriladigan ishoralarni ko'rishini to'smasa;

sochiluvchan (qadoqlanmagan) qurilish materiallari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, sanoat va oziq-ovqat tovarlarini, qurilish va maishiy chiqindilarni, shuningdek, boshqa to'kiladigan (issiq asfalt, yirik gabaritli va og'ir yuklardan tashqari) yuklarni N, O3 va O4 toifadagi bortli va o'zi ag'daruvchi avtotransport vositalarida majburiy tartibda amaldagi standartlar asosida brezent (zichligi 660 g/m² dan kam bo'lmagan) yoki polivinilxlorid qoplamali (zichligi 900 g/m² dan kam bo'lmagan) materiallardan tayyorlangan tent bilan bort sathidan oshirmasdan va bortga mustahkam qotirilib, yuza qismi to'liq yopilgan bo'lsa. Bunda tent bortni har tomondan 200±50 mm dan kam bo'lmagan holda yopishi va mahkamlovchi moslamalar bilan qotirilishi lozim;

avtotransport vositalarining ochiq yuk tashish platformalarida, issiq asfalt, yirik gabaritli va og'ir yuklardan tashqari, qurilish materiallari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, sanoat va oziq-ovqat tovarlarini, shuningdek, to'kiladigan boshqa yuklarni tashishda yuk majburiy tartibda brezent yoki boshqa qalin material bilan yopilgan bo'lsa;

shovqin solmasa, chang ko'tarmasa, yo'lni va atrof muhitni iflos qilmasa;

yengil avtomobilning tom qismiga o'rnatilgan yukxonasidagi yukning balandligi 1 metrdan (maxsus moslamalar bilan mustahkamlangan holda velosipedlar va individual harakatlanish vositalarini tashish bundan mustasno) va uzunligi avtomobilning gabaritidan 0,5 metrdan oshmasa.

Agar yukning joylashuvi va holati qayd etilgan talablarga javob bermasa, haydovchi yuqorida sanab o'tilgan qoidalar buzilishini bartaraf etish choralarini ko'rishi, buning iloji bo'lmasa, keyingi harakatlanishni to'xtatishi shart.

**163.** Transport vositasining gabaritlaridan oldi yoki orqa tomonga 1 metrdan, yon tomonga gabaritning chetki qismidan 0,4 metrdan ortiq chiqib turgan yuk "Katta o'lchamli yuk" taniqlik belgisi bilan belgilanishi, sutkaning qorong'i vaqtida va yetarlicha ko'rinmaydigan sharoitda esa bunga qo'shimcha ravishda oldi oq rangli chiroq yoki yorug'lik qaytargich, orqasi esa qizil rangli chiroq yoki yorug'lik qaytargich bilan belgilanishi kerak.







**164.** Katta hajmli va og'ir vaznli hamda xavfli yuklarni tashishda gabarit o'lchamlari yukli yoki yuksiz holda eni bo'yicha 2,55 (refrijeratorlar va izotermik kuzovlar uchun — 2,6) metrdan va balandligi yo'l sathidan 4 metrdan, uzunligi yakka avtotransport vositasi uchun —

12 metrdan, yarim tirkamali va tirkamali avtopoyezd uchun — 20 metrdan ortiq bo'lgan yoki yuki transport vositasining oldi va orqa nuqtasidan 2 metrdan ortiq chiqib turgan transport vositalarining harakatlanishi DYHXX bilan kelishilishi shart.

Avtobus va mikroavtobuslar tomiga yuk tashish uchun moslamalar o'rnatish, hamda belgilanmagan joylarda yuk tashish taqiqlanadi.

Transport vositasida xalqaro yuk tashish transport vositalariga qo'yiladigan talablarga va O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari hamda qonunchilik hujjatlarini hisobga olgan holda belgilangan tashish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

## 27-bobga oid testlar

**1** **Yuk transport vositasiga shunday joylashtirilishi kerakki, u:**
1. Yukxona devorlaridan baland chiqmasligi kerak.
2. Shovqin hosil qilmasligi, chang ko'tarmasligi va atrof-muhitni iflos qilmasligi kerak.
3. Transport vositasining orqa o'lchamidan 0,8 m dan ortiq chiqib turmasligi kerak.

**2** **Yuk tashish taqiqlanadi, agar:**
1. Yuk enining chekka nuqtasi oldingi yoki orqa gabarit chiroqning tashqi chekkasidan 0,4 m dan ortiq chiqib tursa.
2. Yuk transport vositasining gabaritlaridan 1 m dan ortiq chiqib tursa.
3. Tashilayotgan yuk vazni shu transport vositasi uchun ishlab chiqargan korxona belgilagan kattalikdan ortiq bo'lsa.
4. Barcha aytilgan hollarda.

**3** **Yuk transport vositasining o'lchamlaridan chiqib tursa, kunning qorong'i vaqtida va yetarlicha ko'rinmaydigan sharoitda qanday belgilanadi?**
1. Ishora taxtachalari yoki bayroqchalar (diagonal bo'yicha navbatma-navbat tortilgan qizil va oq yo'lli) bilan.
2. Oldiga oq, orqasiga qizil, yon tomoni zarg'aldoq rang yorug'lik qaytargich moslamalar yoki fonarlar bilan.
3. Orqasiga qizil, oldiga oq bayroqchalar bilan.

**4** **«Ruxsat etilgan to'la vazn» nima?**
1. Transport vositasining yuk ko'tarishi.
2. Transport vositasining haqiqiy vazni.
3. Ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan belgilangan, aslahalangan transport vositasining haydovchi, yo'lovchi, yuk bilan birga ruxsat etilgan eng yuqori vazni (miqdori).
4. Transport vositasida tashiladigan yukning ishlab chiqargan korxona yo'l qo'ygan texnik tavsifnomasi sifatida belgilanadigan vazni.

**5** **Kunduzgi vaqtda transportning old yoki orqa tomoniga 1 metrdan ortiq chiqib turgan yuk qanday belgilanadi?**
1. Diagonali bo'yicha qizil va oq almashuvchi chiziqlar bo'lgan taxtalar yoki bayroqchalar bilan.
2. Qizil bayroqchalar bilan.
3. Oq bayroqchalar bilan.

**6** **Tashilayotgan yuk DYHX xizmatining ruxsatisiz transport vositasi o'lchamlarining orqa nuqtasidan eng katta miqdorda qanday chiqib turishi mumkin?**
1. 1,0 m.
2. 1,5 m.
3. 2,0 m.
4. 2,5 m.
5. 4,0 m.

**7** **Davlat YHX xizmatining ruxsatisiz transport vositasining yuk bilan yoki yuksiz qanday yuqori o'lcham bilan harakatlanishiga yo'l qo'yiladi?**
1. 5,0 m.
2. 4,5 m.
3. 4,0 m.
4. 2,5 m.
5. 3,8 m.

**8** **Sutkaning yorug' paytida orqa yoki old gabaritlari 1,0 m ga turtib chiqqan transport vositalarida yuk ortilganligi qanday bildiriladi?**
1. Diagonal bo'yicha o'rnatilgan qalqoncha va bayroqchalar bilan.
2. Qizil bayroqchalar bilan.
3. Oq bayroqchalar bilan.

# 28-BOB. VELOSIPED, MOPED VA ARAVALAR HARAKATLANISHIGA, SHUNINGDEK, HAYVONLARNI HAYDAB O'TISHGA DOIR QO'SHIMCHA TALABLAR

**165.** Yo'lda velosiped, individual harakatlanish vositalarini va aravani boshqarish, miniladigan yoki yuk ortiladigan hayvonlarni haydab o'tish 14 yoshdan kichik bo'lmagan, moped va skuterni boshqarish esa 16 yoshdan kichik bo'lmagan shaxslarga ruxsat etiladi.




**166.** Velosipedlar, individual harakatlanish vositalari, mopedlar, aravalar, miniladigan yoki yuk ortiladigan hayvonlarning yo'lning chetki o'ng bo'lagida imkoni boricha o'ng tomonidan bir qator bo'lib harakatlanishiga yo'l qo'yiladi. Agar piyodalarga xalaqit bermasa, yo'l yoqasidan harakatlanishga ham ruxsat etiladi.

Yo'lning qatnov qismida harakatlanishda velosipedchilar, individual harakatlanish vositalari, aravalar jamlanmasi, miniladigan yoki yuk ortiladigan hayvonlar guruhlari va haydab ketilayotgan hayvonlar to'dasi yo'l harakati xavfsizligini ta'minlaydigan hamda ularni quvib o'tishni osonlashtiradigan guruhlarga bo'linishi kerak.

**167.** Velosiped individual harakatlanish vositalari tovushli ishora moslamasi bilan jihozlangan va tormoz tizimi soz bo'lishi zarur. Sutkaning qorong'i vaqtda va yetarlicha ko'rinmaydigan sharoitda harakatlanish uchun velosipedning old tomoniga oq rangli nur qaytargich yoki chiroq, orqa tomoniga qizil rangli nur qaytargich yoki chiroq, yon tomonlariga esa, zarg'aldoq yoki qizil rangli nur qaytargich o'rnatilishi kerak.

Individual harakatlanish vositalari old tomonidan fara chiroqlari va orqa tomonida ogohlantirish chiroqlari yoki nur qaytargichlar bilan jihozlangan bo'lishi shart.

Velosiped yo'lkasi bo'lmagan holda yo'lning qatnov qismida harakatlanayotgan velosipedchilar sutkaning qorong'i vaqtida va yetarlicha ko'rinmaydigan sharoitda nur qaytargichli kamzulda yoki nur qaytaruvchi elementli parchalari bo'lgan ustki kiyimda bo'lishi shart.

Ushbu nur qaytaruvchi elementli parchalar boshqa haydovchilar tomonidan ko'rinishi ta'minlanishi kerak.

**168.** Velosipedchilar va individual harakatlanish vositalarini boshqarayotgan shaxslarga quyidagilar taqiqlanadi:

rulni ushlamasdan yoki bir qo'lda ushlab harakatlanish (manyovrdan oldin ishoralar berish bundan mustasno);

odam tashish (ishonchli oyoq qo'ygich bilan jihozlangan velosipeddagi qo'shimcha o'rindiqda 7 yoshgacha bo'lgan bolani tashish bundan mustasno);



gabaritidan bo'yiga va eniga 0,5 metrdan ortiq chiqib turgan yoki boshqarishga xalaqit beradigan yuklarni tashish;

velosiped yo'lkasi bo'lgan holda yo'lning qatnov qismida harakatlanish;

tramvay harakatlanadigan yo'llarda va shu yo'nalishda harakatlanish uchun bo'lagi bittadan ko'p bo'lgan yo'llarda chapga burilish yoki qayrilib olish;

yo'lning qatnov qismidan, shu jumladan, piyodalar o'tish joyidan velosipedlarni va individual harakatlanish vositalarini boshqarib kesib o'tish (velosiped yo'laklarida harakatlanish bundan mustasno).

Velosipedlarni va individual harakatlanish vositalarini shatakka olish, shuningdek, ulardan shatakka olishda foydalanish taqiqlanadi (velosipedga mo'ljallangan tirkamalarni shatakka olish bundan mustasno).

**169.** Chorrahadan tashqaridagi tartibga solinmagan velosiped yo'lkasi bilan yo'l kesishmasida velosiped va individual harakatlanish vositalari yo'lda harakatlanayotgan boshqa transport vositalariga yo'l berishlari kerak.




Velosiped yo'lkasi va piyodalar yo'lkasi (trotuar) o'zaro kesishgan holatlarda velosiped va individual harakatlanish vositasi piyodaga yo'l berishi kerak.

**170.** Ot-aravalarda ularni to'xtatib turadigan moslama va orqaga tisarilib ketishga yo'l qo'ymaydigan tirgaklar bo'lishi kerak.

Qorong'i vaqtda va yetarlicha ko'rinmaydigan sharoitda harakatlanganda ot-aravaning old tomoniga oq rangli chiroq yoki ikkita nur qaytargich, orqa tomoniga esa qizil rangli chiroq yoki ikkita nur qaytargich o'rnatilishi kerak.

Yondosh hududdan yoki ikkinchi darajali yo'ldan ko'rinishi cheklangan joylarda yo'lga chiqayotgan arava haydovchisi hayvonlarning jilovini qo'yib yubormasligi kerak.

**171.** Hayvonlarni yo'lda, asosan sutkaning yorug' vaqtida haydab borilishi kerak. Podachilar hayvonlarni mumkin qadar yo'lning yo'l yoqasida olib yurishlari kerak.

**172.** Hayvonlarni temir yo'l kesishmalari orqali haydab o'tishda podachilar sonini hisobga olgan holda hayvonlar podasi xavf-xatarsiz haydab o'tilishi ta'minlanadigan to'dalarga bo'linishi kerak.

**173.** Aravani boshqarayotgan, miniladigan yoki yuk ortiladigan hayvonlarni, podani haydab ketayotgan shaxslarga quyidagilar taqiqlanadi:

yo'llarda hayvonlarni nazoratsiz qoldirish;

podani temir yo'ldan va yo'lda maxsus ajratilmagan joylardan, shuningdek ruxsat etilgan joylarda esa sutkaning qorong'i vaqtida va yetarlicha ko'rinmaydigan sharoitda haydab o'tish;

boshqa yo'llar bo'lganda hayvonlarni mukammal qoplamali yo'llarda haydab borish;

ko'kalamzorlashtirilgan joylarda (yo'l, yo'l yoqasi, ajratuvchi mintaqa va boshqalar) hayvonlarni boqish va bog'lab qo'yish.

# 29-BOB. MANSABDOR SHAXSLARNING VA FUQAROLARNING YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH, TRANSPORT VOSITALARINI YO'LGA CHIQARISH, RAQAM VA TANIQLI BELGILARINI O'RNATISH BO'YICHA MAJBURIYATLARI

**174.** Yo'l harakatida ishtirok etadigan transport vositalarining texnik holati va jihozlari O'zbekiston Respublikasining "Yo'l harakati to'g'risida"gi Qonuni, shuningdek, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Transport vositalarini DYHXXda ro'yxatdan o'tkazish hamda egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi kerak.

Tashuvchi yo'lovchilarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga yetkazilgan zararning o'rnini qoplash uchun o'z fuqarolik javobgarligini sug'urtalashi shart.

**175.** Mexanik transport vositalarining (tramvaylardan, trolleybuslardan tashqari) va tirkamalarning ko'zda tutilgan joylarida tegishli namunadagi ro'yxatdan o'tkazish davlat raqam belgilari o'rnatilgan bo'lishi shart.

Yuk avtomobillari, tirkamalar (yengil avtomobillar tirkamalaridan tashqari) va avtobuslar (mikroavtobuslardan tashqari) kuzovining orqa devoriga uning davlat raqam belgisi va harflari yozilishi kerak. Raqamning balandligi 300 millimetr, kengligi 120 millimetr, chizig'ining yo'g'onligi 30 millimetrdan kam bo'lmasligi, harflar balandligi esa raqam o'lchamlarining 2/3 qismiga teng bo'lishi kerak.

Tramvaylarga va trolleybuslarga tegishli tashkilot tomonidan ro'yxatga olingan raqamlar yoziladi.

**176.** Transport vositalariga taniqlik belgilari o'rnatilishi kerak:

**"Avtopoyezd"** — yuk avtomobillari va g'ildirakli traktor (1,4 tonna va undan yuqori)larda tirkama bo'lganda, shuningdek tutashtirilgan avtobus va trolleybus kabinalari tomining old qismi o'rtasiga bir qator qilib 150 dan 300 millimetrgacha oraliqda ko'ndalang joylashgan uchta zarg'aldoq rangli chiroq yoki ichidan yoritiladigan, tomonlarining har biri 250 millimetr bo'lgan sariq rangli uchburchak shaklidagi belgi;



**"Turumlangan"** (tishli, shipli) — turumlangan shinali mexanik transport vositalarining orqasida — ichiga qora rangda "T" harfi tushirilgan, qizil hoshiyali, oq rangli uchi yuqoriga yo'naltirilgan teng tomonli uchburchak ko'rinishida. Uchburchakning tomonlari 200 millimetrdan kam bo'lmasligi, hoshiyasining kengligi uchburchak tomonining 1/10 qismiga teng bo'lishi kerak;




**"Bolalar guruhini tashish"** — bolalar guruhini tashkiliy tashishda, transport vositasining old va orqa tomonlariga qizil hoshiyali, ichiga 1.21 yo'l belgisidagi bolalar timsolining tasviri tushirilgan, sariq rangdagi, tomonlari teng bo'lgan to'rtburchak (kvadrat) ko'rinishidagi belgi. To'rtburchakning tomonlari 250 — 300 millimetrgacha, hoshiyaning kengligi to'rtburchak tomonining 1/10 qismiga teng bo'lishi kerak;



**"Kar haydovchi"** — kar-soqov yoki kar haydovchi boshqarayotgan transport vositasining old va orqa tomonlarida — ichiga uchi pastga yo'nalgan hayoliy teng tomonli uchburchakning burchaklari bo'yicha diametri 40 millimetr bo'lgan uchta qora doira tushirilgan, diametri 160 millimetrni tashkil etadigan sariq rangli doira ko'rinishida;



**“Boshqarishni o‘rgatish uchun mo‘ljallangan mexanik transport vositasi”** — boshqarishni o‘rgatishda foydalaniladigan transport vositalarining old va orqa tomonlarida — ichiga qora rangda **“O‘”** harfi tushirilgan, tomonlari 200 millimetrdan 300 millimetrgacha bo‘lgan qizil hoshiyali, oq rangli, uchi yuqoriga yo‘nalgan teng tomonli uchburchak ko‘rinishida. Belgi hoshiyasining kengligi uchburchak tomonining 1/10 qismiga teng bo‘lishi kerak;




**“Tezlik cheklangan”** — bolalar guruhini tashkiliy tashishni amalga oshirayotgan, og‘ir vaznli, xavfli va katta o‘lchamli yuklarni tashiyotgan, shuningdek, transport vositasining texnik tavsifnomasida ko‘rsatilgan eng yuqori tezligi Qoidalarning 78, 79 va 80-bandlarida belgilangan tezlikdan kam bo‘lgan hollarda, mexanik transport vositalari kuzovi orqa devorining chap tomoniga 3.24 — “Yuqori tezlik cheklangan” yo‘l belgisining kichraytirilgan, rangli tasviri tushirilgan ko‘rinishidagi belgi. Belgining diametri 160 millimetrdan kam bo‘lmasligi, hoshiyasining kengligi belgi diametrining 1/10 qismiga teng bo‘lishi kerak;




**“Xavfli yuk”** — xavfli yukni tashiyotgan transport vositasining old va orqa tomoniga o‘rnatilgan o‘lchami 690 x 300 millimetr, o‘ng qismi 400 x 300 millimetr bo‘lgan zarg‘aldoq rangli, chap qismi esa yukning xavfli xususiyatini bildirib turgan belgilar tushirilgan qora hoshiyali (kengligi 15 millimetr) oq rangdagi to‘rtburchak shaklidagi belgi (ushbu Qoidalarga 4-ilova);



**“Katta o‘lchamli yuk”** — ichiga kengligi 50 millimetrli, diagonal bo‘yicha navbatma-navbat qizil va oq rangli chiziqlar tushirilgan, yorug‘lik qaytaradigan yuzali, o‘lchami 400 x 400 millimetrli to‘rtburchak shaklidagi belgi;



**“Uzun o‘lchamli transport vositasi”** — yukli va yuksiz uzunligi 20 metrdan oshadigan transport vositasining, ikki yoki undan ko‘proq tirkamali avtopoyezdlarning orqasida — kengligi 40 millimetr bo‘lgan qizil hoshiyali, o‘lchami 1200x200 millimetr bo‘lgan, sariq rangli, nur qaytaruvchi to‘rtburchak shaklidagi belgi.



Ko‘rsatilgan o‘lchamli belgini joylashtirishning imkoniyati bo‘lmasa, bir xil ikkita 600x200 millimetr o‘lchamdagi belgini transport vositasining o‘qiga simmetrik ravishda o‘rnatishga yo‘l qo‘yiladi;

**“Avariya sababli to‘xtash”** — davlat standarti talablari asosidagi uchburchak shaklidagi belgi;



Haydovchining xohishiga ko‘ra taniqlik belgilari o‘rnatilgan bo‘lishi mumkin:

**“Shifokor”** — shifokor-haydovchilar boshqarayotgan transport vositalarining old va orqa tomonlarida — tomonlari 140 millimetr bo‘lgan, ko‘k rangli, ichida diametri 125 millimetrli oq doiraga balandligi 90 millimetr, chizig‘ining kengligi 25 millimetr bo‘lgan qizil xoch tushirilgan kvadrat ko‘rinishidagi belgi;



**“Nogironligi bo‘lgan shaxs”** — birinchi yoki ikkinchi guruh nogironligi bo‘lgan shaxs boshqarayotgan, shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslarni yoki nogironligi bo‘lgan bolalarni tashiyotgan transport vositalarining old va orqa tomonlarida — barcha tomonlari 150 millimetrdan bo‘lgan va ichiga 7.17 yo‘l belgisining qora rangli timsoli tushirilgan sariq rangli kvadrat ko‘rinishidagi belgi;



**“Haydovchilikni endi boshlagan”** — “Haydovchilik malakasi yetarli bo‘lmagan” haydovchilik staji 2 yildan

kam bo'lgan haydovchilar boshqarayotgan mexanik transport vositalarining (traktorlar, o'ziyurar mashinalar mototsikl, elektromototsikllar, mopedlar va skuterlardan tashqari) orqasida — ichiga qora rangli 110 millimetr balandlikdagi "!" belgisining tasviri tushirilgan, sariq rangli, tomonlari 150 millimetr bo'lgan kvadrat ko'rinishidagi belgi.




Ushbu bandda nazarda tutilgan taniqlik belgilardan boshqa taniqlik belgilarini o'rnatish, shuningdek, transport vositasining kuzovi va oynalariga turli xil yozuvlar kiritish taqiqlanadi, transport vositasining kuzoviga reklama maqsadlarida belgilangan tartibda yozuvlar kiritish bundan mustasno.

**177.** Mexanik transport vositalarini shatakka olishda egiluvchan ulagichni ko'rsatadigan ogohlantiruvchi, o'lchami 200x200 millimetr bo'lgan, diagonali bo'yicha ketma-ket joylashgan, kengligi 50 millimetrli qizil va oq rangli enli chiziqlar tushirilgan, yorug'lik qaytaradigan yuzali bayroqchalar yoki kvadrat ko'rinishidagi belgi o'rnatilishi kerak.

Egiluvchan ulagichga kamida ikkita taniqli belgisi o'rnatiladi.

**178.** Qattiq ulagichli qurilmaning konstruksiyasi texnik tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning talablariga mos bo'lishi kerak.

**179.** Quyidagi hollarda transport vositalaridan foydalanish taqiqlanadi:

avtomobillar, avtobuslar, avtopoyezdlar, tirkamalar, mototsikllar, elektromototsikllar, mopedlar, skuterlar, velosipedlar, individual harakatlanish vositalari, traktorlar va boshqa o'ziyurar mashinalarning texnik holati va jihozlanishi transport vositalaridan foydalanishni taqiqlaydigan nosozliklar va shartlar ro'yxatining talablariga (3-ilovaga muvofiq) javob bermasa;

trolleybuslarda va tramvaylarda tegishli texnik foydalanish qoidalarida ko'zda tutilgan nosozliklardan birortasi bo'lsa;

transport vositalari belgilangan tartibda davlat texnik ko'rigidan o'tmagan bo'lsa;

tegishli ruxsatsiz qayta jihozlangan bo'lsa (avtomototransport vositalarini qayta jihozlash uchun ruxsatnoma talab etilgan hollarda);

transport vositalari DYHXX ruxsatisiz yalt-yalt etuvchi chiroq-mayoqcha va (yoki) maxsus tovushli ishora bilan jihozlangan, kuzovining yon yuzalariga DYHXX bilan kelishilmasdan rangli bo'yoq chizmalar, qiya oq chiziqlar tortilgan, ko'zda tutilgan joylarga tegishli davlat raqam belgilari o'rnatilmagan, agregat va qismlarining raqamlari yoki tegishli namunadagi ro'yxatdan o'tkazish davlat raqam belgilari ko'rinmaydigan, qalbakilashtirilgan, o'zgartirilgan bo'lsa;

kuzovining yon yuzalariga yo'nalishsiz taksining rangli rasmlar chizmasiga va (yoki) tomida taksi chirog'iga ega bo'lgan transport vositalaridan, agar bunday transport vositasining haydovchisida belgilangan tartibda berilgan yo'lovchilar tashishni amalga oshirish bo'yicha ruxsatnoma bo'lmasa;

sariq yoki zarg'aldoq rangli chiroq-mayoqcha bilan jihozlangan, DYHXXda qayd etilmagan transport vositalaridan (katta o'lchamli yuklarni, portlovchi, oson alangalanadigan, radioaktiv va yuqori darajali xavfga ega bo'lgan moddalarni tashiyotgan transport vositalaridan tashqari).

**180.** Transport vositalarining texnik holatiga va ulardan foydalanishga javobgar bo'lgan mansabdor va boshqa shaxslarga quyidagilar taqiqlanadi:

texnik nosoz, tegishli ruxsatsiz qayta jihozlangan, belgilangan tartibda ro'yxatdan va davlat texnik ko'rigidan o'tkazilmagan yoki tegishli hujjatlarsiz transport vositalarini yo'lga chiqarish;

mastlik (giyohvandlik moddalar, alkogol va boshqalar) holatida yoki sezgirlik va e'tiborni susaytiradigan dori-darmonlar ta'sirida, yo'l harakati xavfsizligiga

tahdid soladigan charchoqlik yoki betoblik holatida, shuningdek tegishli toifadagi transport vositalarini boshqarish huquqi bo'lmagan, belgilangan muddatda tibbiy ko'rikdan o'tmagan shaxslarni transport vositasini boshqarishga qo'yish;

zanjirli traktorlarni va boshqa o'ziyurar uskunalarni harakatlanish uchun asfalt yoki sement-beton qoplamali yo'llarga chiqarish.

**181.** Yo'llar, temir yo'l kesishmalari va boshqa yo'l inshootlarining holatiga javobgar bo'lgan mansabdor va boshqa shaxslar:

yo'llar, temir yo'l kesishmalari va boshqa yo'l inshootlarini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq harakatlanish uchun xavfsiz holatda saqlashga;

ommaviy axborot vositalari yordamida yo'l harakatiga kiritilgan cheklovlar va o'zgartirishlar haqida yo'l harakati ishtirokchilarini xabardor qilishga;

yo'l harakatiga xalaqit beradigan har qanday to'sqinlik vujudga kelsa, ularni o'z vaqtida bartaraf etish, yo'lning ayrim qismlarida ulardan foydalanish yo'l harakati xavfsizligiga tahdid soladigan hollarda harakatni cheklash yoki taqiqlash choralarini ko'rishga majbur.

**182.** Yo'llarda ta'mirlash ishlarini bajarishga javobgar bo'lgan mansabdor va boshqa shaxslar ishlar olib borilayotgan joylarda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga majbur. Bunday joylar, shuningdek, yo'ldan tashqariga olib chiqish imkoniyati bo'lmagan ish bajarmayotgan yo'l mashinalari, qurilish materiallari, qurilma va shunga o'xshashlar tegishli yo'l belgilari, yo'naltiruvchi va to'suvchi moslamalar bilan, sutkaning qorong'i vaqtida va yetarlicha ko'rinmaydigan sharoitda esa qo'shimcha qizil yoki sariq chiroqli ishoralar bilan belgilanishi kerak.

Ta'mirlash ishlari tugagandan so'ng transport vositalari va piyodalarning xavfsiz harakatlanishi ta'minlangan bo'lishi kerak.

**183.** Qonunchilik hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda tegishli mansabdor va boshqa shaxslar tomonidan DYHXX bilan belgilangan tartibda quyidagilar kelishilishi shart:

shaharlarda va avtomobil yo'llarida yo'l harakatini tashkil etishni loyihalash, yo'l harakatini tashkil etishning texnik vositalari bilan jihozlash va qayta jihozlash;

ushbu Qoidalarning 164-bandida keltirilgan transport vositalarining harakatlanishi;

ro'yxatdan o'tkazilgan transport vositalari kontruksiyasiga yo'l harakati xavfsizligi ta'minlanishiga ta'sir qiladigan o'zgartirishlar kiritish;

yo'nalishli transport vositalari yo'nalishlari va bekatlarining joylashishi;

yo'llarda ommaviy sport va boshqa tadbirlarni o'tkazish;

transport vositalarini qayta jihozlash, ularga maxsus yorug'lik va tovush ishoralarini o'rnatish, transport vositalari kuzovi yuzalariga rangli rasmlar, yozuvlar va sxemalar, qiya oq chiziqlar tortish;

ta'mirlash ishlari olib boriladigan yo'l uchastkalarida harakatni tashkil etish chizmasi;

yo'llarni, temir yo'llar kesishmalarini, shuningdek, avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalarini va yo'llar bo'ylab hamda yo'l bo'yi hududlarida joylashgan boshqa inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish hamda kapital ta'mirlash loyihalarini yo'l harakatini tashkil etishga oid qism bo'yicha;

yo'l va uning hududlarida har qanday obyektlarning loyihalarini;

boshqarishni o'rgatish ruxsat etilgan yo'llar ro'yxati va chizmasi;

harakat xavfsizligi bo'yicha mutaxassislarni, avtomototransport vositalari yoki shahar elektr transporti vositalarini boshqarishni o'rgatish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar instruktori va haydovchilarni tayyorlash dasturlari;

tezlikning belgilangan me'yordan oshirilishi yoki kamaytirilishi yuzasidan qarorlarni;

yo'llarda sun'iy notekislik va shlagbaumni o'rnatish.

Baland piyodalar o'tish joylarini tashkil etish.

**184.** Zarg'aldoq yoki sariq rangli miltillovchi chiroq-mayoqcha quyidagilarga o'rnatiladi:

yo'lda qurilish, ta'mirlash yoki tozalash ishlarini, shikastlangan, nosoz transport vositalarini ortish va tashish ishlarini bajarayotgan transport vositalariga;

katta hajmli, og'ir vaznli va xavfli yuklarni tashishni amalga oshirayotgan transport vositalariga;

katta hajmli, og'ir vaznli va xavfli yuklarni tashishni amalga oshirayotgan transport vositalarini kuzatib borayotgan transport vositalariga;

umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida mashq qilish tadbirlarini o'tkazishda velosipedchilarning tashkiliy guruhlarini kuzatib borishni amalga oshirayotgan transport vositalariga.

**185.** Ko'k yoki qizil yoxud ko'k va qizil rangli yalt-yalt etuvchi mayoqchalar tezkor va maxsus xizmatlarning transport vositalari tomiga, ustiga, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sharti bilan old yoki orqa tomoniga ham o'rnatilishi mumkin.

Mahkamlash usullari transport vositasi har xil sharoitlarda harakatlanganda ham o'rnatilgan chiroq-mayoqchalarning mustahkamligini ta'minlashi kerak.

**186.** Transport vositalarining barcha rangdagi chiroq-mayoqcha va maxsus tovushli ishoralar bilan jihozlanganligi haqidagi ma'lumotlar avtomototransport vositasini ro'yxatdan o'tkazish haqidagi guvohnomada ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

## 28-bobga oid testlar

**1** **Qaysi hollarda velosipedlarda qatnov qismining o'ng chekkasidan chiqishga yo'l qo'yiladi?**

1. Yuk ortib ketayotganda.
2. Ruxsat etilgan hollarda chapga burilish yoki orqaga qaytish uchun.
3. Ikkala sanab o'tilgan hollarda.

**2** **Velosipedlarda trotuarda harakatlanishga ruxsat etiladimi?**

1. Ruxsat etiladi.
2. Piyodalar bo'lmaganda ruxsat etiladi.
3. Taqiqlanadi.

**3** **Velosiped yo'lkasi yo'l bilan kesishgan joylarda velosiped va moped haydovchilari qanday hollarda transport vositalariga yo'l berishlari kerak?**

1. Chorrahadan tashqarida tartibga solinmagan kesishmada barcha hollarda.
2. Transport vositasi o'ngdan yaqinlashib kelganda.
3. Ko'rsatilgan joyda velosiped va moped haydovchilari imtiyozga egadirlar.

**4** **Qaysi belgi «Velosiped yo'lkasi bilan kesishuv»ni bildiradi?**




**5** **Bu yotiq chiziq nimani bildiradi?**

1. Piyodalar o'tish joyini.
2. Velosiped yo'lkasi qatnov qismini kesib o'tadigan joyni.
3. Mol haydaladigan joyni.



**6** **Trotuar yoki piyodalar yo'lkasi bo'lmaganda piyodalar velosiped yo'lkasi bo'ylab harakat qila oladilarmi?**

1. Qila oladilar.
2. Agar velosipedlarning harakatlanishini qiyinlashtirmasa, qila oladilar.
3. Qila olmaydilar.

## 29-bobga oid testlar

**1** **Bu belgilarning ta'sir oralig'ida qaysi avtomobil uchun to'xtashga ruxsat beriladi?**

1. Qizilga.
2. Ikkala avtomobilga.
3. Hech qaysisiga.
4. «Nogiron» taniqli belgisi bo'lgan sariq avtomobilga.



**2** **Bunday taniqlik belgisi bilan belgilanadigan transport vositasi:**

1. Og'ir vaznli va yirik o'lchamli yuklarni tashuvchi.
2. Uzunligi yuk bilan yoki yuksiz 20 metrdan ortiq bo'lgan transport vositasi.
3. Furgon yukxonasida odamlarni tashuvchi.




**3** **Tashiladigan yuk vaznini va o'qlar bo'yicha tushadigan og'irlikni taqsimlashni kim tartibga solib turadi?**

1. DYHXX.
2. Avtoxo'jalik ma'muriyati.
3. Mazkur transport vositasini tayyorlovchi korxona.

**4** **Avtomobillar shunday taniqlik belgilari bilan belgilanadi:**

1. Xavfli yuklar tashiyotgan.
2. Nogironlar boshqarayotgan.
3. Kar-soqov yoki kar haydovchilar boshqarayotgan.
4. Uch yilgacha haydovchilik ish davriga ega bo'lgan haydovchilar boshqarayotgan.



**5** **Transport vositalari shunday taniqlik belgilari bilan belgilanadi:**

1. Kar-soqov yoki kar haydovchilar boshqarayotgan.
2. Nogiron boshqarayotgan.
3. Xavfli yuklar tashiyotgan.



**6** **Transport vositasi shunday taniqlik belgisi bilan belgilanadi:**

1. Nogiron boshqarayotgan.
2. Og'ir vaznli va yirik o'lchamda yuk tashiyotgan.
3. Xavfli yuklar tashiyotgan.
4. Kar-soqov yoki kar haydovchilar boshqarayotgan.



**7** **Ko'rsatilgan belgilardan qay biri avtopoyezdni bildirish uchun o'rnatiladi?**

1. Chap belgi.
2. O'ng belgi.
3. Har ikki belgi.



**8** **Bunday vazlyatda haydovchi nima qilishi kerak?**

1. Oldindan yaqinni yorituvchi chiroqlarni yoqib va uzluksiz tovush ishorasini berib, eng kam tezlik bilan turgan transport vositasini aylanib o'tishi.
2. Qatnov qismidan o'tayotgan bolalarga yo'l berishi.
3. Bu yo'l qismidan o'tishi kerak, chunki bolalar qatnov qismini piyodalar o'tish joyidan kesib o'tmayaptilar.



**9** **Mazkur taniqlik belgisi nimani bildiradi?**

1. Oldinda qatnov qismi notekis bo'lgan yo'l qismini.
2. Oldinda shu yo'nalishda harakatlanish uchun uch tasmali yo'l qismini.
3. Turumlangan shina o'rnatilgan transport vositasini.



**10** **Avtomobilga o'rnatilgan bu taniqlik belgisi nimani bildiradi?**

1. Avtomobil shifokor-haydovchiga tegishli ekanini.
2. Avtomobilning haydovchi-nogironga tegishli ekanini.
3. Avtomobilning uyda tibbiy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallanganini.



# AVTOTRANSPORT VOSITALARINI DIAGNOSTIKA QILISH BO'YICHA ZAMONAVIY MARKAZ ISHGA TUSHDI



Toshkent shahri Mirobod tumani Fayzobod mahallasida joylashgan Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasining ro'yxatdan o'tkazish va imtihon olish bo'limi yangi uslubda ishlovchi zamonaviy diagnostika markazi yaratildi.

Bu yerda transport vositalariga davlat raqam belgisi biriktirish va qayd etish guvohnomasini topshirish jarayoni turli byurokratik to'siqlar va ovoragarchilikdan xoli qilingan, inson omili minimal darajaga tushirilgan. Avval avtomototransport vositasini ro'yxatdan o'tkazish jarayoni olti-yetti bosqichda amalga oshirilgan bo'lsa, hozirda bosqichlar soni uchtaga qisqardi.



Vazirlar Mahkamasining 17 iyuldagi 429-sonli qarori bilan, 1 dekabrdan boshlab avtomototransport vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ularga davlat raqami belgilarini berish bilan bog'liq murojaatlarni qabul qilish tartibi o'zgardi. Endilikda bunday murojaatlarni O'zbekiston Respublikasi IIV JXD YHXX mobil ilovasi yoki rasmiy veb-sayti, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali yuborish va jarayondagi to'lovlarni elektron tarzda amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari, joriy yilning 1 avgustidan boshlab, transport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari YHXXning Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimidagi "Davlat raqami belgilari" modulida avtomatik tarzda tasodifiy, ya'ni random tarzda tanlash yo'li bilan beriladi.

Tez tibbiy yordam avtomobillari hamda elektromototsikllar, mopedlar hamda skuterlar uchun ikki qatorli davlat raqami belgilari namunalari, shuningdek, yurtimizda shaxsiy, xizmat ishlari, o'qish yoki turizm maqsadida doimiy yashaydigan yoki vaqtincha istiqomat qiladigan xorijiy davlatlar fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga tegishli mototsikl va elektromototsikllarga "HH" seriyali, moped va skuterlarga esa "HHH" seriyali davlat raqami belgilari berilishi ko'zda tutilgan.

## TRANSPORT VOSITALARINING RAQAM VA TANIQLIK BELGILARI

Endilikda tez tibbiy yordam avtomobillariga STY seriyali ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari beriladi. Davlat raqami belgilarida hudud kodi ko'rsatiladigan joy foni oq bo'lsa avtomobil turi standart bo'ladi, hudud kodi foni yashil rangda bo'lsa, avtomobil elektromobil yoki gibrid turdaligi anglashiladi.

Avtomototransport vositalariga va ularning tirkamalariga beriladigan ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari:

**I tip** — ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari yuridik shaxslarning avtomobillariga beriladi.

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni oq rangda, chetki qismi, raqam va harflari qora rangda. Chap tomonda hududning kodi, o'ng tomonda O'zbekiston Respublikasi bayrog'i va «UZ» harflari.




**I$^1$ tip** — «DAV» seriyali ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining shaxsan biriktirilgan va navbatchi xizmat avtomobillariga beriladi (mudofaa, ichki ishlar, bojxona, favqulodda vaziyatlar organlarining avtomobillari hamda II tipdagi ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami beriladigan avtomobillar bundan mustasno).

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni oq rangda, chetki qismi, raqami va harflari qora rangda. Chap tomonda hududning kodi, o'ng tomonda O'zbekiston Respublikasi bayrog'i va «UZ» harflari.




**I$^2$ tip** — STY seriyali ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari tez tibbiy yordam avtomobillariga beriladi.

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni oq rangda, chetki qismi, raqami va harflari qora rangda. Chap tomonda hududning kodi, o'ng tomonda O'zbekiston Respublikasi bayrog'i va «UZ» harflari.




**Ie tip** — ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari yuridik shaxslarning elektromobillariga va gibrid avtomobillariga (8703 60, 8703 70 TIF TN kodli) beriladi.

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni oq rangda, chetki qismi, raqam va harflari qora rangda. Chap tomonda hududning kodi qora rangda va uning foni yashil rangda, o'ng tomonda O'zbekiston Respublikasi bayrog'i va «UZ» harflari.




**Ie$^2$ tip** — «STY» seriyali ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari tez tibbiy yordam elektromobillariga va gibrid avtomobillarga beriladi.

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni oq rangda, chetki qismi, raqami va harflari qora rangda. Chap tomonda hududning kodi qora rangda va uning foni yashil rangda, o'ng




tomonda O'zbekiston Respublikasi bayrog'i va «UZ» harflari.

**II tip** — ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari oliy davlat organlari, boshqaruv organlari va vazirliklarning avtomobillariga beriladi.

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni oq rangda, chetki qismi, raqami va harflari qora rangda. Chap tomonda O'zbekiston Respublikasi bayrog'i.




**III tip** — ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari jismoniy shaxslarning avtomobillariga beriladi.

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni oq rangda, chetki qismi, raqami va harflari qora rangda. Chap tomonda hududning kodi, o'ng tomonda O'zbekiston Respublikasi bayrog'i va «UZ» harflari.




**IIIE tip** — ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari jismoniy shaxslarning elektromobillariga va gibrid avtomobillariga (8703 60, 8703 70 TIF TN kodli) beriladi.

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni oq rangda, chetki qismi, raqam va harflari qora rangda. Chap




tomonda hududning kodi qora rangda va uning foni yashil rangda, o'ng tomonda O'zbekiston Respublikasi bayrog'i va «UZ» harflari.

**IV tip** — «CMD» seriyali ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining xati asosida diplomatik vakolatxonalar rahbarlarining bitta xizmat avtotransport vositasiga beriladi.




**V tip** — «D» seriyali ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari Tashqi ishlar vazirligining xati asosida:

— diplomatik va konsullik muassasalari boshliqlari (Favqulodda va Muxtor Elchi, Vakil, Bosh konsul) va ular oila a'zolarining shaxsiy avtotransport vositalariga;

— diplomatik vakolatxonalar diplomatik agentlari va ular oila a'zolarining xizmat va shaxsiy avtotransport vositalariga beriladi.

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni yashil rangda, chetki qismi, raqami va harflari oq rangda.

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni yashil rangda, chetki qismi, raqami va harflari oq rangda.




**VI tip** — «UN» seriyali ro'yxatdan o'tkazish davlat raqam belgilari Tashqi ishlar vazirligining xati asosida:

BMT vakolatxonalari va BMT ixtisoslashtirilgan tashkilotlari boshliqlarining va Tashqi ishlar vazirligi akkreditasiyasi asosida ular oila a'zolarining shaxsiy avtotransport vositalariga;

BMT vakolatxonalari va BMT ixtisoslashtirilgan tashkilotlari xodimlarining xizmat va shaxsiy avtotransport vositalariga hamda Tashqi ishlar vazirligi akkreditasiyasi asosida ular oila a'zolarining shaxsiy avtotransport vositalariga beriladi.




Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni ko'k rangda, chetki qismi, raqami va harflari oq rangda.

**VII tip** — «T» seriyali ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari Tashqi ishlar vazirligining xati asosida:

diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari ma'muriy-texnik tarkibi xodimlarining xizmat va shaxsiy avtotransport vositalariga hamda Tashqi ishlar vazirligi akkreditasiyasi asosida ular oila a'zolarining shaxsiy avtotransport vositalariga;

Tashqi ishlar vazirligi akkreditasiyasi asosida diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari xizmat ko'rsatuvchi xodimlari va uy xizmatchilarining xizmat avtotransport vositalariga;

BMT yoki O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzurida akkreditasiya qilingan boshqa vakolatxonalar tomonidan amalga oshirilayotgan yirik muruvvat loyihalari va texnik ko'maklashish dasturlarining avtotransport vositalariga;

ushbu loyihalarning Tashqi ishlar vazirligi huzurida akkreditasiya qilingan xodimlari shaxsiy ehtiyojidagi avtotransport vositalariga;

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzurida akkreditasiya qilingan xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari, xorijiy davlatlar hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, savdo vakolatxonalari boshliqlari hamda Tashqi ishlar vazirligi akkreditasiyasi asosida ular oila a'zolarining shaxsiy ehtiyojidagi avtotransport vositalariga;

Tashqi ishlar vazirligi huzurida akkreditasiya qilingan xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari, xorijiy davlatlar hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, savdo vakolatxonalari xodimlarining xizmat va shaxsiy ehtiyojidagi avtotransport vositalariga hamda ular oila a'zolarining shaxsiy avtotransport vositalariga;

Tashqi ishlar vazirligi huzurida akkreditasiya qilingan faxriy konsulliklar xodimlarining shaxsiy ehtiyojidagi avtotransport vositalariga beriladi.

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni yashil rangda, chetki qismi, raqami va harflari oq rangda.




**VIII tip** — «X» seriyali ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari Tashqi ishlar vazirligining xati asosida:

konsullik muassasalari;

faxriy konsulliklar;

xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari;

hukumatlararo va xorijiy davlatlar hukumat tashkilotlari vakolatxonalari;

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzurida akkreditasiya qilingan savdo vakolatxonalari rahbarlarining bitta xizmat avtotransport vositasiga beriladi.

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni yashil rangda, chetki qismi, raqami va harflari oq rangda.

**IX tip** — «M» seriyali ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari Tashqi ishlar vazirligining xati asosida:



muxbirlik punktlari (byurolar, ofislar) avtotransport vositalariga;

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzurida doimiy ravishda akkreditasiya qilingan, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan xorijiy muxbirlar avtotransport vositalariga;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilgan vakolatxonalar hamda xalqaro va xorijiy hukumatga qarashli bo'lmagan tashkilotlar filiallari rahbarlari va xodimlarining xizmat ehtiyojidagi avtotransport vositalariga;

akkreditasiya qilingan va O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatuvchi xorijiy firmalar, banklarning xizmat ehtiyojidagi avtotransport vositalariga beriladi.

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni yashil rangda, chetki qismi, raqami va harflari oq rangda.

**X tip** — «N» seriyali ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari O'zbekiston Respublikasida shaxsiy, xizmat ishlari bo'yicha, o'qish yoki turizm maqsadi-




da doimiy yashaydigan yoki vaqtincha bo'ladigan xorijiy fuqarolarga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga tegishli bo'lgan yoki ular tomonidan ijaraga olingan transport vositalariga beriladi.

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni sariq rangda, chetki qismi, raqami va harflari qora rangda.




**XI tip** — mototsikllar uchun ikki qatorli ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari.

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni oq rangda, chetki qismi, raqami va harflari qora rangda. O'ng burchagining yuqori tomonida hududning kodi, quyi tomonida O'zbekiston Respublikasi bayrog'i va «UZ» harflari.

Raqamli bitta belgi beriladi (orqa tomonda mahkamlash uchun).

**XIE tip** — elektromototsikl uchun ikki qatorli ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari.




Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni oq rangda, chetki qismi, raqami va harflari qora rangda. O'ng burchagining yuqori tomonida hududning kodi qora rangda va uning foni yashil rangda, quyi tomonida O'zbekiston Respublikasi bayrog'i va «UZ» harflari.

Raqamli bitta belgi beriladi (orqa tomonda mahkamlash uchun).

**XIE[1] tip** — skuterlar uchun ikki qatorli ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari.




Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni oq rangda, chetki qismi, raqami va harflari qora rangda. O'ng burchagining yuqori tomonida hududning kodi qora rangda va uning foni yashil rangda, quyi tomonida O'zbekis-

ton Respublikasi bayrog'i va «UZ» harflari.

Raqamli bitta belgi beriladi (orqa tomonda mahkamlash uchun).

**XI$^1$ tip** — mopedlar uchun ikki qatorli ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari.




Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni oq rangda, chetki qismi, raqami va harflari qora rangda. O'ng burchagining yuqori tomonida hududning kodi, quyi tomonida O'zbekiston Respublikasi bayrog'i va «UZ» harflari.

Raqamli bitta belgi beriladi (orqa tomonda mahkamlash uchun).

**XI$^2$ tip** — «NN» seriyali ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari O'zbekiston Respublikasida shaxsiy,




xizmat ishlari bo'yicha, o'qish yoki turizm maqsadida doimiy yashaydigan yoki vaqtincha bo'ladigan xorijiy fuqarolarga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga tegishli bo'lgan mototsikl va elektromototsikllarga beriladi.

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni sariq rangda, chetki qismi, raqami va harflari qora rangda.

Raqamli bitta belgi beriladi (orqa tomonda mahkamlash uchun).




**XI$^3$ tip** — «NNN» seriyali ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari O'zbekiston Respublikasida shaxsiy, xizmat ishlari bo'yicha, o'qish yoki turizm maqsadida doimiy yashaydigan yoki vaqtincha bo'ladigan xorijiy fuqarolarga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga tegishli bo'lgan moped va skuterlarga beriladi.

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni sariq rangda, chetki qismi, raqami va harflari qora rangda.

Raqamli bitta belgi beriladi (orqa tomonda mahkamlash uchun).




**XII tip** – yuk va yengil avtomobillarga tirkamalar va yarim tirkamalar uchun ikki qatorli ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari.

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni oq rangda, chetki qismi, raqami va harflari qora rangda. O'ng tomonda quyi burchakda hududning kodi, O'zbekiston Respublikasi bayrog'i va «UZ» harflari.

Raqamli bitta belgi beriladi (orqa tomonda mahkamlash uchun).



**XIII tip** – yo'l harakatida qatnashishga vaqtincha qo'yilgan transport vositalari uchun ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari (tranzit uchun, qog'ozda yozilgan bir martalik belgi).

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni oq rangda, chetki qismi, raqami va harflari qora rangda. O'ng tomonda hududning kodi.

Avtomobillar uchun ikkita ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami beriladi (orqa va old tomonda mahkamlash uchun).




**XIIIA tip** – yo'l harakatida qatnashishga vaqtincha qo'yilgan tirkamalar, mototransport uchun ikki qatorli ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari (tranzit uchun, qog'ozda yozilgan bir martalik belgi).

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni oq rangda, chetki qismi, raqami va harflari qora rangda. O'ng tomonda quyida hududning kodi.

Tirkamalar va mototsikllar uchun bitta ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari beriladi (orqa tomonda mahkamlash uchun).




**IA tip** – ikki qatorli ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari orqa tomonga mahkamlash uchun yuridik shaxslarning mahkamlash joyi I tipdagi ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami gabaritlariga muvofiq bo'lmagan yengil avtomobillariga beriladi.

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni oq rangda, chetki qismi, raqami va harflari qora rangda. O'ng tomonda quyida hududning kodi, O'zbekiston Respublikasi bayrog'i va «UZ» harflari.




**IA$^1$ tip** — «DAV» seriyali ikki qatorli ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari orqa tomonga mahkamlash uchun davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining mahkamlash joyi I1 tipdagi ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami gabaritlariga muvofiq bo'lmagan shaxsan biriktirilgan va navbatchi xizmat avtomobillariga beriladi.

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining foni oq rangda, chetki qismi, raqami va harflari qora rangda. O'ng tomonda quyida hududning kodi, O'zbekiston Respublikasi bayrog'i va «UZ» harflari.




**IAE tip** — ikki qatorli ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari orqa tomonga yoki old va orqa tomonga mahkamlash uchun yuridik shaxslarning mahkamlash joyi Ie tipdagi ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami gabaritlariga muvofiq bo'lmagan yengil elektromobillariga va gibrid avtomobillariga (8703 60, 8703 70 TIF TN kodli) beriladi.

Ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami belgilarining foni oq rangda, chetki qismi, raqami va harflari qora rangda. O‘ng tomonda quyida hududning kodi qora rangda va uning foni yashil rangda, O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i va «UZ» harflari.




**IIA tip** — ikki qatorli ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami belgilari orqa tomonga mahkamlash uchun oliy davlat organlari, boshqaruv organlari va vazirliklar (yuridik shaxslar)ning mahkamlash joyi II tipdagi ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami gabaritlariga muvofiq bo‘lmagan avtomobillariga beriladi.

Ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami belgilarining foni oq rangda, chetki qismi, raqami va harflari qora rangda. O‘ng tomonda quyida O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i.




**IIIA tip** – ikki qatorli ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami belgilari yuk avtomobillari va avtobuslarga, shuningdek jismoniy shaxslarning mahkamlash joyi III tipdagi ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami gabaritlariga muvofiq bo‘lmagan yengil avtomobillariga orqa tomonga mahkamlash uchun beriladi.

Ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami belgilarining foni oq rangda, chetki qismi, raqami va harflari qora rangda. O‘ng tomonda quyida hududning kodi, O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i va «UZ» harflari.




**IIIAE tip** — ikki qatorli ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami belgilari elektr yurgizgichli yuk avtomobillar va avtobuslarga, shuningdek jismoniy shaxslarning mahkamlash joyi III tipdagi ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami gabaritlariga muvofiq bo‘lmagan yengil elektromobillariga va gibrid avtomobillariga (8703 60, 8703 70 TIF TN kodli) orqa tomonga yoki old va orqa tomonga mahkamlash uchun beriladi.

Ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami belgilarining foni oq rangda, chetki qismi, raqami va harflari qora rangda. O‘ng tomonda quyida hududning kodi qora rangda va uning foni yashil rangda, O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i va «UZ» harflari.




**IVA tip** — «CMD» seriyali ikki qatorli maxsus ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami belgilari diplomatik vakolatxonalar rahbarlarining mahkamlash joyi IV tipdagi ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami gabaritlariga muvofiq bo‘lmagan bitta xizmat avtotransport vositasiga orqa tomonga mahkamlash uchun beriladi.




**VA tip** – «D» seriyali orqa tomonga mahkamlanadigan ikki qatorli ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari:

diplomatik va konsullik muassasalar boshliqlari (Favqulodda Muxtor Elchi, Vakil, Bosh konsul) va ular oila a'zolarining mahkamlash joyi V tipdagi ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami gabaritlariga muvofiq bo'lmagan shaxsiy avtotransport vositalariga;

diplomatik vakolatxonalarning diplomatik agentlari va ular oila a'zolarining mahkamlash joyi V tipdagi ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami gabaritlariga muvofiq bo'lmagan xizmat va shaxsiy avtotransport vositalariga beriladi.




**VIA tip** – «UN» seriyali orqa tomonga mahkamlanadigan ikki qatorli ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari BMT vakolatxonalarining mahkamlash joyi VI tipdagi ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami gabaritlariga muvofiq bo'lmagan avtomobillariga beriladi.




**VIIA tip** – «T» seriyali orqa tomonga mahkamlanadigan ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari VII tipda ko'rsatilgan, mahkamlash joyi VII tipdagi ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami gabaritlariga muvofiq bo'lmagan avtomototransport vositalariga beriladi.




**VIIIA tip** – «X» seriyali orqa tomonga mahkamlanadigan ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari VIII tipda ko'rsatilgan, mahkamlash joyi VIII tipdagi ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami gabaritlariga muvofiq bo'lmagan avtomototransport vositalariga beriladi.




**IXA tip** – «M» seriyali orqa tomonga mahkamlanadigan ikki qatorli ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari mahkamlash joyi IX tipdagi ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami gabaritlariga muvofiq bo'lmagan avtomobillarga beriladi.



**XA tip** – «N» seriyali orqa tomonga mahkamlanadigan ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari X tipda ko'rsatilgan, mahkamlash joyi X tipdagi ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami gabaritlariga muvofiq bo'lmagan avtomototransport vositalariga beriladi.




**Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarida qo'llanadigan raqamlar va lotin alifbosi harflarining namunalari**

1234567
890
ABCDEFG
HIJKLMNO
PQRSTUV
WXYZ

| Hududlar | Kod raqamlari |
|---|---|
| Toshkent shahri | 01 — 09 |
| Toshkent viloyati | 10 — 19 |
| Sirdaryo viloyati | 20 — 24 |
| Jizzax viloyati | 25 — 29 |
| Samarqand viloyati | 30 — 39 |
| Farg'ona viloyati | 40 — 49 |
| Namangan viloyati | 50 — 59 |
| Andijon viloyati | 60 — 69 |
| Qashqadaryo viloyati | 70 — 74 |
| Surxondaryo viloyati | 75 — 79 |
| Buxoro viloyati | 80 — 84 |
| Navoiy viloyati | 85 — 89 |
| Xorazm viloyati | 90 — 94 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 95 — 99 |

# OGOHLANTIRUVCHI BELGILAR



1.1 Shlagbaumli temir yo'l kesishmasi

1.2 Shlagbaumsiz temir yo'l kesishmasi

1.3.1 Bir izli temir yo'l

1.3.2 Ko'p izli temir yo'l

1.4.1 1.4.2 1.4.3 1.4.4 1.4.5 1.4.6 Temir yo'l kesishmasiga yaqinlashuv



1.5 Tramvay yo'li bilan kesishuv

1.6 Teng ahamiyatli yo'llar kesishuvi

1.7 Aylanma harakatlanish bilan kesishuv

1.8 Svetofor tartibga soladi

1.9 Ko'tarma ko'prik

1.10 Sohilga chiqish

1.11.1 Xavfli burilish




1.11.2 Xavfli burilish

1.12.1 Xavfli burilishlar

1.12.2 Xavfli burilishlar

1.13 Tik nishablik

1.14 Tik balandlik

1.15 Sirpanchiq yo'l

1.16 Notekis yo'l



1.17 Tosh otilishi xavfi

1.18.1 Yo'lning torayishi

1.18.2 1.18.3 Yo'lning torayishi

1.19 Ikki tomonlama harakatlanish

1.20 Piyodalar o'tish joyi

1.21 Bolalar



1.22 Velosiped yo'lkasi bilan kesishuv

1.23 Ta'mirlash ishlari

1.24 Mol haydab o'tish

1.25.1 Yovvoyi hayvonlar

1.25.2 Pastlab uchuvchi qushlar

1.25.3 Kemiruvchi va sudralib yuruvchi hayvonlar

1.26 Toshlar tushishi



1.27 Yonlama shamol

1.28 Pastlab uchuvchi samolyotlar

1.29 Tunnel

1.30 Boshqa xavf-xatarlar

1.31 Sun'iy yo'l notekisligi

1.32 Tirbandlik

1.33 Qatnov qismi kesishmasi hududi




1.31.1 Burilishning yo'nalishi




1.31.2 Burilishning yo'nalishi



1.31.3 Burilishning yo'nalishi



1.34 Diqqat, boshqariladigan to'siq



1.35 Piyodalarning yo'l yoqasidan yurishi mumkin bo'lgan hudud

# IMTIYOZ BELGILARI



2.1
Asosiy yo'l



2.2
Asosiy yo'lning oxiri



2.3.1
Ikkinchi darajali yo'l bilan kesishuv



2.3.2
Ikkinchi darajali yo'l bilan tutashuv



2.3.3
Ikkinchi darajali yo'l bilan tutashuv



2.4
Yo'l bering!




2.5
To'xtamasdan harakatlanish taqiqlangan



2.6
Ro'para harakatlanishning ustunligi



2.7
Ro'paradagi harakatlanishga nisbatan imtiyoz

# TAQIQLOVCHI BELGILAR



3.1
Kirish taqiqlangan



3.2
Harakatlanish taqiqlangan



3.3
Mexanik transport vositalarining harakatlanishi taqiqlangan




3.4
Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan



3.5
Mototsikllar harakatlanishi taqiqlangan



3.5.1
Skuter va mopedlar harakatlanishi taqiqlangan



3.6
Traktorlar harakatlanishi taqiqlangan



3.7
Tirkama bilan harakatlanish taqiqlangan



3.8
Ot-arava harakatlanishi taqiqlangan



3.9
Velosipedda harakatlanish taqiqlangan



3.10
Piyodalarning harakatlanishi taqiqlangan




3.11
Vazn cheklangan




3.12
O'qqa tushadigan og'irlik cheklangan




3.13
Cheklangan balandlik




3.14
Cheklangan kenglik




3.15
Cheklangan uzunlik




3.16
Eng kam oraliq




3.17.1
Bojxona




3.17.2
Xavf-xatar




3.17.3
Nazorat joyi



3.18.1
O'ngga burilish taqiqlangan



3.18.2
Chapga burilish taqiqlangan



3.19
Qayrilish taqiqlangan



3.20
Quvib o'tish taqiqlangan



3.21
Quvib o'tish taqiqlangan hududning oxiri



3.22
Yuk avtomobillarida quvib o'tish taqiqlangan



3.23
Yuk avtomobillarida quvib o'tish taqiqlangan hududning oxiri




3.24
Yuqori tezlik cheklangan




3.25
Yuqori tezlik cheklangan hududning oxiri



3.26
Tovush moslamalaridan foydalanish taqiqlangan



3.27
To'xtash taqiqlangan



3.28
To'xtab turish taqiqlangan



3.29
Oyning toq kunlarida to'xtab turish taqiqlangan



3.30
Oyning juft kunlarida to'xtab turish taqiqlangan



3.31
Barcha cheklovlarning oxiri



3.32
Xavfli yuk tashiyotgan transport vositasining harakatlanishi taqiqlangan



3.33
Portlovchi va tez alangalanuvchi yukni tashiyotgan transport vositasining harakati taqiqlangan



3.34
Individual harakatlanish vositalarini boshqarish taqiqlangan

# BUYURUVCHI BELGILAR



4.1.1
Harakatlanish to'g'riga



4.1.2
Harakatlanish o'ngga



4.1.3
Harakatlanish chapga



4.1.4
Harakatlanish to'g'riga yoki o'ngga



4.1.5
Harakatlanish to'g'riga yoki chapga



4.1.6
Harakatlanish o'ngga yoki chapga



4.2.1
To'siqni chapdan aylanib o'tish



4.2.2
To'siqni o'ngdan aylanib o'tish



4.2.3
To'siqni o'ngdan yoki chapdan aylanib o'tish



4.3
Aylanma harakatlanish



4.4
Yengil avtomobillar harakati



4.5
Velosiped yo'lkasi



4.6
Piyodalar yo'lkasi



4.6.1
Piyodalar va velosipedchilar-ning birgalikdagi harakati tashkil etilgan yo'lak



4.6.2
Piyodalar va velosipedchilarning birgalikdagi harakati tashkil etilgan yo'lakning oxiri



4.6.3
Piyodalar va velosipedchilarning harakati alohida tashkil etilgan yo'lak



4.6.4
Piyodalar va velosipedchilarning harakati alohida tashkil etilgan yo'lakning oxiri



4.6.5
Piyodalar va velosipedchilarning harakati alohida tashkil etilgan yo'lak



4.6.6
Piyodalar va velosipedchilarning harakati alohida tashkil etilgan yo'lakning oxiri




4.7
Eng kam tezlik



4.8
Eng kam tezlik belgilangan yo'lning oxiri



4.9.1



4.9.2



4.9.3

Xavfli yuk tashiyotgan transport vositalarining harakat yo'nalishi

# SERVIS BELGILARI




6.1 Tibbiy yordam ko'rsatish joyi; 6.2 Shifoxona; 6.3.1 Avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchasi; 6.3.2 Avtomobillarga ko'p tarmoqli yonilg'i quyish shoxobchasi; 6.3.3 Elektromobillarni quvvatlash shoxobchasi; 6.4 Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish joyi; 6.5 Avtomobillarni yuvish joyi




6.6 Telefon; 6.7 Oshxona; 6.8 Ichimlik suvi; 6.9 Mehmonxona yoki motel; 6.10 Kemping; 6.11 Dam olish joyi; 6.12 YPX maskani; 6.13 Avtotashuvchilarning nazorat punkti




6.14 Hojatxona; 6.15 Chiqindi tashlash joyi; 6.16 Cho'milish havzasi; 6.17 Ichki ishlar bo'limi; 6.18 Radio aloqasi; 6.19 Jome' masjidi; 6.20 Cherkov; 6.21 Ibodatxona




6.22 Temir yo'l vokzali; 6.23 Aeroport; 6.24 Bozor; 6.25 Turistik axborot markazi; 6.26 Qo'riqxona; 6.27 Manzarali joy; 6.28 Me'morchilik yodgorligi

# QO'SHIMCHA AXBOROT BELGILARI




7.1.1, 7.1.2, 7.1.3, 7.1.4 Ob'ektgacha bo'lgan masofa

7.2.1, 7.2.2, 7.2.3, 7.2.4, 7.2.5, 7.2.6 Ta'sir oralig'i



7.3.1, 7.3.2, 7.3.3 Ta'sir yo'nalishlari

7.4.1, 7.4.2, 7.4.3, 7.4.4, 7.4.5, 7.4.6 Transport vositasining turi




7.4.7, 7.4.8, 7.4.9 Transport vositasining turi

7.5.1 Shanba, yakshanba va bayram

7.5.2 Ish kunlari

7.5.3 Hafta kunlari

7.5.4, 7.5.5, 7.5.6, 7.5.7 Amal qilish vaqti



7.6.1 7.6.2 7.6.3 7.6.4
Transport vositasini to‘xtab turish joyiga qo‘yish usuli

7.6.5 7.6.6 7.6.7 7.6.8 7.6.9
Transport vositasini to‘xtab turish joyiga qo‘yish usuli




7.7 Dvigatelni ishlatmasdan to‘xtab turish joyi

7.8 Pullik xizmat ko‘rsatish joyi

7.9 To‘xtab turish muddati cheklangan

7.10 Avtomobillarni ko‘rikdan o‘tkazish

7.11 Ruxsat etilgan to‘la vazni cheklangan

7.12 Xavfli yo‘l yoqasi

7.13 Asosiy yo‘lning yo‘nalishi



7.13 Asosiy yo‘lning yo‘nalishi

7.14 Harakatlanish tasmasi

7.15 Ko‘zi ojiz piyodalar

7.16 Nam qoplama

7.17 Nogironligi bo‘lgan shaxs

7.18 Nogironligi bo‘lgan shaxs mustasno

7.19 Foto va video qayd etish



7.20 Xavfli yuk toifasi

7.21 Evakuator ishlamoqda




7.25 Faqat xizmat avtomobillari uchun



7.22.1 7.22.2 7.22.3
Тўсиқ



7.23 Navbat bilan o‘tish




7.24 Transport vositasining davlat raqami



7.26 Sun’iy notekislik

# TRANSPORT VOSITALARINING TANIQLIK BELGILARI




Avtopoyezd

Turumlangan

Boshqarishni o‘rgatish uchun mo‘ljallangan mexanik transport vositasi

Kar haydovchi

Bolalar guruhini tashish

Nogironligi bo‘lgan shaxs

Shifokor




Xavfli yuk

Tezlik cheklangan

Katta o‘lchamli yuk

Avariya sababli to‘xtash

Uzun o‘lchamli transport vositasi

Haydovchilikni endi boshlagan Haydovchilik malakasi yetarli bo‘lmagan

# VAQTINCHALIK YO‘L BELGILAR




1.8, 1.15, 1.16, 1.31, 1.17, 1.18.1–1.18.3, 1.21, 1.30, 2.6, 2.7, 3.1, 3.2, 3.11–3.16, 3.18.1–3.25

# YOTIQ CHIZIQLAR







# TIK CHIZIQLAR






# YO'L BELGILARI

## 1. OGOHLANTIRUVCHI BELGILAR

Ogohlantiruvchi belgilar haydovchilarga xavfli yo'l qismiga yaqinlashayotganligi haqida axborot berib, unda harakatlanishda sharoitga qarab tegishli chora ko'rishni talab qiladi.

*Ogohlantiruvchi belgilarning asosi oq, hoshiyasi qizil rangda bo'lgan teng tomonli uchburchak shaklidan iborat.*

*Bu yo'l belgilari haydovchi chora ko'rishi talab qilinadigan xavfli qismlarga aholi yashaydigan joylarda 50–100 metr **(B)**, aholi yashamaydigan joylarda 150–300 metr **(A)** masofa qolganda o'rnatiladi.*

*Aholi yashamaydigan joylarda bu guruhdagi belgilarning olisroq masofada o'rnatilishi transport vositalarining tezligi bilan izohlanadi (shahardan tashqaridagi tezlik shahardagidan birmuncha yuqori bo'ladi). Haydovchi yo'l belgisi o'rnatilgan joydan xavfli qism boshlanadigan joygacha tezlikni pasaytirib ulgurishi lozim. Yo'l sharoiti qanchalik murakkab va jiddiy bo'lsa, shunchalik ko'p ogohlantiruvchi belgilar o'rnatiladi.*

**1.1. «Shlagbaumli temir yo'l kesishmasi».**

**1.2. «Shlagbaumsiz temir yo'l kesishmasi».**


1.1 1.2

Bu belgilar temir yo'l kesishmalari oldida o'rnatilib, birinchi belgi o'rnatilgan kesishma shlagbaum, temir yo'l simofori bilan jihozlangan bo'lib, harakatlanishni temir yo'l nazoratchisi nazorat qiladi. Ikkinchi belgi o'rnatilgan kesishma nazoratchisiz bo'lib, temir yo'lni xavfsizlikni ta'minlagan holda kesib o'tish haydovchining o'ziga havola etiladi.







**1.3.1. «Bir izli temir yo'l».**

**1.3.2. «Ko'p izli temir yo'l».**


1.3.1 1.3.2

Bu belgilar bevosita shlagbaumsiz temir yo'l kesishmasi oldida o'rnatiladi. 1.3.2 belgisida birinchi izdan tashqari ikkinchi va undan keyingi izlardan ham poyezd yo'qligiga ishonch hosil qilgan holda kesishmadan o'tish mumkin.

**1.4.1–1.4.6. «Temir yo'l kesishmasiga yaqinlashuv».**





1.4.1 1.4.2 1.4.3 1.4.4 1.4.5 1.4.6



Bu belgilar aholi yashamaydigan joylarda o‘rnatilib, haydovchini temir yo‘l kesishmasiga yaqinlashayotganligi haqida qo‘shimcha ravishda ogohlantiradi. 1.4.1 – 1.4.3 belgilari yo‘lning o‘ng tomoniga, 1.4.4 – 1.4.6 belgilari yo‘lning chap tomoniga o‘rnatiladi.



1.5

**1.5. «Tramvay yo‘li bilan kesishuv».**

Yo‘lning burilishi yoki undagi do‘nglik tufayli yo‘lni kesib o‘tadigan tramvay izi ko‘rinmasa (chorrahadan tashqari), unday joylarga ushbu yo‘l belgisi o‘rnatiladi. Kesishmada tramvay imtiyozga ega bo‘ladi.





1.6

**1.6. «Teng ahamiyatli yo‘llar kesishuvi».**

Bu belgi, usti qanday qoplama (asfalt, beton, tosh) bo‘lishidan qat’i nazar, teng ahamiyatli yo‘llar kesishgan joylar oldida o‘rnatilib, imtiyoz o‘ng tomondan kelayotgan transport vositasiga beriladi.





1.7

**1.7. «Aylanma harakatlanish bilan kesishuv».**

Aylanma harakatlanish joriy etilgan maydon yo‘l sharoiti (burilish, do‘nglik) tufayli harakatlanish xavfsizligini ta’minlovchi masofadan ko‘rinmasa, u holda o‘sha xavfsizlikni ta’minlovchi masofada 1.7 yo‘l belgisi o‘rnatiladi. Ko‘rish masofasi yetarli bo‘lsa, 1.7 yo‘l belgisini o‘rnatish shart emas, chunki aylanma harakatlanish joriy etilgan maydon oldida buyuruvchi 4.3 yo‘l belgisi o‘rnatiladi.




**1.8. «Svetofor bilan tartibga solish».**



1.8

Harakatlanishni svetofor tartibga soladigan chorraha va piyodalar o‘tish joyi yo‘l sharoiti tufayli harakatlanish xavfsizligini ta’minlovchi masofadan ko‘rinmasa, u holda o‘sha xavfsizlikni ta’minlovchi masofada 1.8 yo‘l belgisi o‘rnatiladi. Svetofor xavfsizlikni ta’minlovchi masofadan ko‘rinsa, 1.8 yo‘l belgisi o‘rnatilmaydi.



**1.9. «Ko‘tarma ko‘prik».**



1.9

Bu belgi ko‘tarma ko‘prik yoki solda kesib o‘tish joylari oldida o‘rnatilib, yo‘lning ko‘prik yoki sol oldida uzilib qolishi mumkinligi haqida ogohlantiradi.



### 1.10. «Sohilga chiqish».



1.10

Bu belgi daryo yoki suv havzasi qirg'oqlariga chiqishda o'rnatilib, haydovchidan tezlikni kamaytirish va e'tiborni oshirishni talab qiladi. Haydovchining ehtiyotsizligi ushbu yo'l belgisida ko'rsatilgan holga olib kelishi mumkin.




### 1.11.1, 1.11.2. «Xavfli burilish».

1.11.1 – o'ngga, 1.11.2 – chapga.



1.11.1



1.11.2

Bu belgilar kichik radiusli burilish yoki ko'rinishi chegaralangan burilishlar oldida o'rnatilib, xavfli burilish o'ng yoki chap tomonda ekanligi haqida ogohlantiradi. Transport vositalarini bunday burilishlarda yuqori tezlikda haydash ularning ro'paradagi tasmalarga chiqib ketishiga yoki ag'anab ketishiga olib kelishi mumkin.





### 1.12.1, 1.12.2. «Xavfli burilishlar».

1.12.1 – birinchi burilish o'ngga, 1.12.2 – birinchi burilish chapga.



1.12.1



1.12.2

Bu belgilar yo'lning ikki qismli kichik radiusli yoki ko'rinishi cheklangan burilish joyi yaqinida o'rnatiladi. Kichik radiusli yoki cheklangan burilish ikki qismdan ko'p bo'lsa, 1.12.1, 1.12.2 yo'l belgilari 7.2.1 – «Ta'sir oralig'i» qo'shimcha axborot belgisi bilan qo'llaniladi. Haydovchi yo'lning bunday qismlaridan tezlikni kamaytirib, ehtiyot choralarini ko'rib o'tishi kerak.





### 1.13. «Tik nishablik».




1.13

Bu belgi pastlik, nishablik oldida o'rnatilib, ichidagi raqam nishablikning 100 m uzunlikka to'g'ri keladigan pasayishini foiz hisobida ko'rsatadi. Pastlik cho'zilib ketgan bo'lsa, u holda ushbu belgi 7.2.1 – «Ta'sir oralig'i» qo'shimcha axborot belgisi bilan qo'llaniladi. Nishablik tomon harakatlanayotgan haydovchi yo'lning tor qismlarida ro'paradan tepalik tomon harakatlanayotgan haydovchiga yo'l berishi lozim.



**1.14. «Tik balandlik».**




1.14

Bu belgi tik balandliklar oldida o'rnatiladi va haydovchini transport vositasining dinamik xususiyatlari, yukli yoki yuksizligiga qarab, kerakli uzatmaga ulash, balandlikka to'xtamasdan chiqish kerakligidan ogohlantiradi. Aks holda avtomobil to'xtab qolib, o'z og'irligi bilan orqaga ketishi mumkin. Nishablik va balandlik ketma-ket keladigan bo'lsa, yuqoridagi belgilar 50–100 m masofada emas, balki bevosita nishablik va balandlik oldida o'rnatiladi.



**1.15. «Sirpanchiq yo'l».**



1.15

Yo'lning ustki o'tish qismi ma'lum sabablarga ko'ra (loy, qavatma-qavat ho'l barglar, muzlaganlik oqibatida) sirpanchiq bo'lib qolsa, bunday qism oldida 1.15 yo'l belgisi o'rnatiladi. Haydovchi yo'lning bunday qismlarida tezlikni kamaytirishi, keskin to'xtamasligi, keskin burilmasligi lozim, aks holda transport vositasi sirpanib ketadi va uni boshqarish qiyin kechib, boshqaruvdan chiqib ketadi.



**1.16. «Notekis yo'l».**



1.16

Yo'lning to'lqinsimon bo'rtma joylari, ko'prik ulamalarining notekis qismlari oldida ushbu yo'l belgisi o'rnatiladi va transport vositasining tezligi keskin oshirilsa yoki u keskin to'xtatilsa, turg'unlikni yo'qotib, ag'anib ketishi mumkinligi haqida ogohlantiradi.



**1.17. «Tosh otilishi xavfi».**



1.17

Mukammal qoplamali yo'l qismida transport vositasi g'ildiragi ostidan shag'al, tosh va shunga o'xshashlarning otilib chiqish ehtimoli.

Bu belgi yo'lning ta'mirlash ishlari olib borilayotgan joylarida g'ildirak bilan bosilgan tosh, shag'al va shunga o'xshash narsalarning otilib chiqish ehtimoli borligidan ogohlantiradi. Yo'lning bunday qismlarida haydovchi tezlikni kamaytirib, oraliq masofani tosh otilish xavfsizligi mavjud masofagacha uzaytirishi lozim.




**1.18.1, 1.18.2, 1.18.3. «Yo'lning torayishi».**

Yo'lning torayish qismlari oldida (torayadigan tomondan):

1.18.1 – ikki tomonlama torayish;

1.18.2 – o'ngga torayish.

1.18.3 – chapga torayish yo'l belgilari o'rnatiladi.



1.18.1



1.18.2



1.18.3

## 1.29. «Tunnel».



1.29

Qayrilish, burilish yoki boshqa to'siqlar orqali tunnelga kiraverishda uning peshtoqi ko'rinishi cheklangan yoki sun'iy ravishda yoritilmagan bo'lsa, oldida «Tunnel» yo'l belgisi o'rnatiladi.



## 1.30. «Boshqa xavf-xatarlar».



1.30

Yo'lning ogohlantiruvchi belgilarida ko'zda tutilmagan xavf-xatarlar bo'lgan yo'l qismi (tez-tez tuman bo'lib turadigan joylar, jarliklar, tutun bo'lib, yo'lning ko'rinishi cheklangan qismlari) oldida «Boshqa xavf-xatarlar» yo'l belgisi o'rnatiladi.




## 1.31. «Sun'iy yo'l notekisligi».



1.31

Yo'lning sun'iy notekislik o'rnatilgan qismiga yaqinlashayotganligi to'g'risida ogohlantiradi. Transport vositasining harakatlanish tezligini majburiy tarzda kamaytirish uchun qo'llaniladi.



## 1.31.1, 1.31.2. «Burilishning yo'nalishi».

Yo'lning xavfli burilish qismlariga «Burilishning yo'nalishi» belgisi o'rnatiladi. Bu belgilar uch xil bo'lib,



1.31.1



1.31.2





burilishning o'ngga, chapga va bir vaqtning o'zida o'ng va chapga yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

## 1.31.3. «Burilish yo'nalishlari».

«T» simon chorrahada yoki yo'l ayrilishlarida harakatlanish yo'nalishini, yo'lning ta'mirlanayotgan qismini aylanib o'tish yo'nalishini bildiradi.



1.31.3





**1.32. «Tirbandlik».**


1.32

Ushbu yo‘l belgisi vaqtinchalik yoki tasviri o‘zgaradigan holatda tirbandlik hosil bo‘lgan yo‘l yoki chorrahaga kirish oldidan yo‘lni yoki chorrahani aylanib o‘tish imkoniyati bo‘lgan joyga o‘rnatiladi.



**1.33. “Qatnov qismi kesishmasi hududi”.**


1.33

1. 30 yotiq chizig‘i bilan belgilangan chorrahaga yaqinlashayotganligini anglatib, oldinda tirbandlik yuzaga kelganligi tufayli majburiy to‘xtab, ko‘ndalang yo‘nalishdagi transport vositalarining harakatlanishiga to‘sqinlik tug‘diradigan bo‘lsa, chorrahaga kirish, agar to‘xtash chizig‘i yoki 5.33 yo‘l belgisidan o‘tib bo‘lgan haydovchiga esa qatnov qismlari kesishmasiga kirishni taqiqlanishini bildiradi.



**1.34. “Diqqat, boshqariladigan to‘siq”.** Ushbu yo‘l belgisi boshqariladigan to‘suvchi qurilmasiga yetmasdan o‘rnatiladi va transport vositalari haydovchilarini oldinda to‘suvchi qurilma borligi haqida ogohlantiradi.


1.34



**1.35 “Piyodalarning yo‘l yoqasidan yurishi mumkin bo‘lgan hudud”.**


1.35

1.1, 1.2, 1.5–1.32 ogohlantiruvchi belgilari aholi punktlarida xavfli joydan 50 – 100 metr, aholi punktlaridan tashqarida esa 150 – 300 metr oldin o‘rnatiladi. Zaruriyat bo‘lganda, bu belgilar 7.1.1 qo‘shimcha axborot belgisida ko‘rsatilgan boshqa masofada ham o‘rnatilishi mumkin.

Agar nishablik va balandlik ketma-ket keladigan bo‘lsa, 1.13 va 1.14 belgilari bevosita nishablik va balandlik oldiga o‘rnatilishi mumkin.

Aholi punktlaridan tashqarida 1.1, 1.2, 1.9, 1.10, 1.21 va 1.23 belgilari takrorlanadi. Ikkinchi belgi yo‘lning xavfli qismi boshlanishiga kamida 50 metr qolganda o‘rnatiladi.

Agar qatnov qismida qisqa muddatli yo‘l ishlari olib borilayotgan bo‘lsa, 1.23 belgisi ish bajarilayotgan joyga 10–15 metr masofa yetmasdan (7.1.1 qo‘shimcha axborot belgisisiz) o‘rnatilishi mumkin.

1.3, 1.3.1 va 1.3.2 belgilari bevosita temir yo‘l kesishmalari oldida, eng yaqin relsdan 20 metrdan kam bo‘lmagan masofada o‘rnatiladi.

# 1-ilova,
# 1-mavzuga oid testlar

**1** **Bu yo'l belgisi bildiradi:**

1. Yo'lning trotuar yoki piyodalar yo'lkasi bo'lgan qismini.
2. Yo'lning piyodalar o'tish joyi bo'lgan qismini.



**2** **Bu yo'l belgisi ogohlantiradi:**

1. Bir izli temir yo'l kesishmasining yaqinligi haqida.
2. Shlagbaum bilan jihozlanmagan bir izli temir yo'l kesishmasi borligidan.
3. Shlagbaum bilan jihozlanmagan ikki izli temir yo'l kesishmasi borligidan.



**3** **Bu belgilar aholi yashaydigan joylarda xavfli yo'l qismi boshlanishidan qancha masofa oldin o'rnatiladi?**

1. 15 – 25 m.
2. 25 – 50 m.
3. 50 – 100 m.
4. 100 – 130 m.
5. 150 – 300 m.



**4** **Qaysi belgi T-simon chorrahada harakatlanish yo'nalishini ko'rsatadi?**




**5** **Qaysi belgi teng ahamiyatli yo'llar chorrahasiga yaqinlashib kelayotganlik haqida ogohlantiradi?**




**6** **Bu yerda quvib o'tishga ruxsat beriladimi?**

1. Ruxsat beriladi.
2. Taqiqlanadi.



**7** **Qizil avtomobil:**

1. Ko'k avtomobilga nisbatan ustunlikka ega, chunki asosiy yo'ldan ketyapti.
2. Ko'k avtomobilga nisbatan ustunlikka ega, chunki aylanma harakatli yo'ldan ketyapti.
3. Chorrahaga o'ng tomondan yaqinlashib kelgan ko'k avtomobilga yo'l berishi kerak.



**8** **Ko'rsatilgan holatda quvib o'tishga ruxsat beriladimi?**

1. Ruxsat beriladi.
2. Taqiqlanadi.
3. Agar quvib o'tilayotgan transport vositasining tezligi 40 km/s dan kam bo'lsa, ruxsat beriladi.



**9** **Quyidagi qaysi belgilar ogohlantiruvchidir?**

1. Ikkinchidan boshqa barchasi.
2. Uchinchidan boshqa barchasi.
3. Hammasi.




**10** **Aholi yashaydigan joylardan tashqarida qaysi belgilar takrorlanadi?**



# 2. IMTIYOZ BELGILARI

Imtiyoz belgilari chorrahalarda, yo'lning qatnov qismlari kesishgan joylarda, shuningdek, yo'lning tor qismida yo'l harakati qatnashchilarining harakatlanish navbatini belgilash uchun qo'llaniladi.

**2.1. «Asosiy yo'l».**



2.1

Harakatlanish tartibga solinmagan chorrahalarda ikkinchi darajali yo'lda harakatlanayotgan transport vositasidan oldin o'tish huquqini beradi. Belgi yo'lning boshlanishida o'rnatilib, har bir chorraha oldida takrorlanishi mumkin. Asosiy yo'l bilan kesishadigan ko'ndalang yo'llarda chorraha oldida «Yo'l bering» yoki «To'xtamasdan harakatlanish taqiqlangan» belgilari o'rnatiladi. Agar chorrahada asosiy yo'l o'z yo'nalishini o'zgartirsa, u holda ushbu belgi ostiga qo'shimcha 7.13– «Asosiy yo'lning yo'nalishi» belgisi o'rnatiladi.




**2.2. «Asosiy yo'lning oxiri».**



2.2

Asosiy yo'l imtiyozli belgisi «Yo'l bering» belgisi o'rnatilgan joyda tugaydi.

**2.3.1. «Ikkinchi darajali yo'l bilan kesishuv».**



2.3.1

Bu belgi asosiy yo'lda o'rnatilib, haydovchiga harakatlanish tartibga solinmagan chorrahada imtiyoz beradi. Aholi punktlarida chorrahadan 50 – 100 m va aholi punktlaridan tashqarida 150–300 m masofada o'rnatiladi.




**2.3.2, 2.3.3. «Ikkinchi darajali yo'l bilan tutashuv».**

2.3.2 – Tutashuv o'ngdan,

2.3.3 – Tutashuv chapdan.



2.3.2






2.3.3



Bu belgi asosiy yo'lda o'rnatiladi va 2.3.1 belgisi kabi tartibga solinmagan chorrahalarda haydovchiga imtiyoz beradi.

**2.4. «Yo'l bering».**


2.4

Bu belgi haydovchi kesib o'tayotgan yo'lidagi transport vositasiga yo'l berishi kerakligini bildiradi. Aholi punktlaridan tashqarida belgi qaytarilishi mumkin. Asosiy yo'lda transport vositalari bo'lmasa, ikkinchi darajali yo'ldan kelayotgan haydovchi chorrahadan to'xtamasdan o'tib ketishi mumkin.

Haydovchi kesib o'tilayotgan yo'ldan, 7.13 qo'shimcha belgisi bo'lganda esa asosiy yo'ldan kelayotgan transport vositasiga yo'l berishi kerak.




**2.5. «To'xtamasdan harakatlanish taqiqlangan».**



2.5

To'xtash chizig'i oldida, agar u bo'lmasa, kesib o'tiladigan qatnov qismining chetida to'xtamasdan harakatlanish taqiqlanadi. Haydovchi kesib o'tilayotgan yo'ldan, 7.13 qo'shimcha-axborot belgisi bo'lganda esa asosiy yo'ldan harakatlanayotgan transport vositalariga yo'l berishi kerak.

Asosiy yo'lning yo'nalishidan qat'i nazar, belgi haydovchiga tartibga solinmagan chorrahaga to'xtamasdan kirib kelishini taqiqlaydi. Haydovchi to'xtash chizig'i oldida, agar u bo'lmasa, kesib o'tiladigan qatnov qismining chetida to'xtab o'tadi.

Belgi temir yo'l kesishmasi yoki karantin maskanidan oldin o'rnatilgan bo'lsa, haydovchi to'xtash chizig'i oldida, u bo'lmasa, belgi oldida to'xtashi kerak. Bu belgi sakkiz qirrali bo'lib, uni shakl orqali ajratish ham mumkin.

**2.6. «Ro'paradan harakatlanishning ustunligi».**


2.6

Yo'lning tor qismlarida (ko'prik, tunnel va boshqa joylar) qarama-qarshi keluvchi transport vositalari bir vaqtda o'ta olmaydigan holatlarda, ro'paradan kelayotgan transport vositasiga yo'l berish kerak. Qarama-qarshi harakatlanishni qiyinlashtiradigan hollarda yo'lning tor qismiga kirish taqiqlanadi.




**2.7. «Ro'paradagi harakatlanishga nisbatan imtiyoz».**


2.7

Bu belgi qarama-qarshi keluvchi transport vositalari bir vaqtning o'zida o'ta olmaydigan yo'l qismlarida ro'paradan kelayotgan transport vositasidan oldin o'tish huquqini beradi.



# 2-mavzuga oid testlar

**1** **Qaysi belgi ro‘parada harakatlanishning ustunligini bildiradi?**




**2** **Ko‘k avtomobil chorrahadan nechanchi bo‘lib o‘tadi?**

1. Birinchi.
2. Ikkinchi.



**3** **Qaysi transport vositasining haydovchisi oldin harakatlanish huquqiga ega?**

1. Yuk avtomobili haydovchisi.
2. Avtobus haydovchisi.



**4** **Transport vositalari chorrahadan quyidagi tartibda o‘tadilar:**

1. Motosikl, tramvay va avtomobil.
2. Tramvay, motosikl, avtomobil.
3. Tramvay va avtomobil, motosikl.



**5** **Transport vositalari chorrahadan quyidagi tartibda o‘tadilar:**

1. Qizil avtomobil; tramvay; yashil; ko‘k avtomobil.
2. Tramvay; qizil; ko‘k; yashil avtomobil.
3. Tramvay; qizil; yashil; ko‘k avtomobil.



**6** **Chorrahadan ikkinchi bo‘lib o‘tadi:**

1. Tramvay.
2. Qizil avtomobil.
3. Ko‘k avtomobil.



**7** **Bu belgi nimani bildiradi?**

1. Ro‘paradan kelayotgan transport vositalariga nisbatan birinchi o‘tish huquqini beradi.
2. Haydovchi ro‘paradan harakatlanayotgan transport vositasiga yo‘l berishi kerak.
3. Bir tomonlama harakatli yo‘l qismining tamom bo‘lganini bildiradi.



**8** **Chorrahadan uchinchi bo‘lib o‘tadi:**

1. Yashil avtomobil.
2. Qizil avtomobil.
3. Ko‘k avtomobil.
4. Sariq avtomobil.




**9** **Qaysi belgi kesib o‘tilayotgan yo‘ldan harakatlanayotgan transport vositalariga yo‘l berishni yuklaydi?**




**10** **Avtomobillar chorrahadan quyidagi tartibda o‘tadilar:**

1. Ko‘k, yashil, qizil.
2. Ko‘k yashil bilan bir vaqtda, qizil.
3. Yashil, qizil ko‘k bilan bir vaqtda.



# 3. TAQIQLOVCHI BELGILAR

Taqiqlovchi belgilarning asosiy foni oq (3.27, 3.28, 3.29, 3.30 lardan tashqari), hoshiyasi qizil (3.21, 3.23, 3.25, 3.31 lardan tashqari) doiradan iborat bo'lib, harakatlanishni ma'lum darajada cheklaydi yoki umuman taqiqlaydi.

Ularning ta'sir kuchi o'rnatilgan joydan boshlab birinchi chorrahagacha, chorraha bo'lmaganda aholi punktining oxirigacha davom etadi. Ba'zi belgilar o'sha joyning o'zigagina taalluqli bo'ladi.

Taqiqlovchi belgilar yo'l harakatiga ma'lum cheklanishlar kiritish yoki ularni bekor qilish uchun qo'llaniladi.

**3.1. «Kirish taqiqlangan».**

Transport vositalarining bir tomonlama harakatlanishini joriy etishda yo'lning bir tarafiga ushbu belgi o'rnatiladi. Barcha transport vositalarining (yo'nalishli transport vositalari bundan mustasno) kirishi taqiqlanadi.



3.1






**3.2. «Harakatlanish taqiqlangan».**

Dam olish uylari, sanatoriya, kasalxona va umum foydalanadigan hovlilarga kiraverishda transport vositalari harakatini cheklash maqsadida ushbu yo'l belgisi o'rnatiladi. Bu belgining yo'nalishli transport vositalari, nogironlar haydaydigan motokajava, avtomobil, belgi ta'sir oralig'ida yashovchi yoki ishlovchi yoxud ularga va korxonalarga xizmat qiluvchi transport vositalariga daxli yo'q. Bunday hollarda transport vositalari belgilangan joyga yaqin chorrahadan kirib yoki chiqib ketishlari kerak. Bu yerda ikkita taqiqlovchi belgidan birining (3.1) talabi ustun bo'ladi.



3.2



**3.3. «Mexanik transport vositalarining harakatlanishi taqiqlangan».**

Bu belgi barcha turdagi mexanik transport vositalarining harakatlanishini taqiqlab, ot-arava, velosipedchilar harakatiga daxl qilmaydi. Bu belgi ham avvalgi (3.2) belgiga o'xshab ta'sir oralig'ida yashovchi va ishlovchilarga, shuningdek, yo'nalishli transport vositalariga ta'sir etmaydi.



3.3



**3.4. «Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan».**




3.4

Belgida cheklangan vazn ko'rsatilmagan bo'lsa, bu belgi to'la vazni 3,5 tonnadan yuqori bo'lgan barcha yuk avtomobillarining, barcha traktorlarning, o'ziyurar mashina va mexanizmlarning harakatlanishini taqiqlaydi. Bu belgi 3.2 belgisiga o'xshab ta'sir oralig'ida yashovchi va ishlovchilarga daxldor emas, shuningdek, bortlariga qiya oq chiziq tortilgan yoki odamlarni tashiyotgan yuk avtomobillarining harakatlanishini taqiqlamaydi.






**3.5. «Mototsikl va elektromototsikllar harakatlanishi taqiqlangan».**

Bu belgining avtomobil, avtobus, velosiped, moped, ot-arava harakatiga, 3.2 belgisiga o'xshab ta'sir oralig'ida yashovchi va ishlovchilarga daxli yo'q.



3.5



**3.5.1. «Skuter va mopedlar harakatlanishi taqiqlangan»;**



3.5.1.

**3.6. «Traktorlar harakatlanishi taqiqlangan».**



3.6

Yo'llardagi transport vositalarining tezligini oshirish maqsadida barcha turdagi traktorlar, o'ziyurar mashina va mexanizmlarning harakatlanishi taqiqlanadi. Bu belgi ham 3.2 belgisiga o'xshab ta'sir oralig'ida yashovchi va ishlovchilarga daxldor emas.



**3.7. «Tirkama bilan harakatlanish taqiqlangan».**

Bu belgi avtopoyezdlarning harakatlanishi va manyovr qilishi qiyin bo'lgan tor ko'chalar oldida o'rnatilib, tirkamali, yarim tirkamali avtomobil va traktorlarning hamda barcha turdagi transport vositalarining shatakka olib harakatlanishini taqiqlaydi. Belgining tirkamali yengil avtomobilga hamda ta'sir oralig'ida yashovchilar va ishlovchilarga daxli yo'q.



3.7




**3.8. «Ot-arava harakatlanishi taqiqlangan».**

Mexanik transport vositalarining harakatini yengillashtirish maqsadida ba'zi yo'llarda ot-arava, ot-chana,



3.8

bug'u-chana harakati taqiqlanadi. Bu belgi ham 3.2 belgisiga o'xshab ta'sir oralig'ida yashovchi va ishlovchilarga daxldor emas.

Ot-arava (chana), otliqlar, yuk ortilgan hayvonlarning harakatlanishi, shuningdek, mol (poda) haydab o'tish taqiqlanadi.



**3.9. «Velosipedda harakatlanish taqiqlangan».**

Serqatnov yo'llarda umumfoydalanadigan transport vositalarining (avtobus, trolleybus) bekatda to'xtashiga, bekatdan qo'zg'alishiga velosipedchilar xalal bermasligi uchun ko'rsatilgan belgiga asosan, velosipedchilar va mopedchilarning harakatlanishi taqiqlanadi.



3.9



**3.10. «Piyodalarning harakatlanishi taqiqlangan».**



3.10

Yo'l xizmatchilari va ta'mirlovchi ishchilarga belgining daxli yo'q. Bu belgi metro stansiyalarida (ekskalatordan tushib-chiqish, bir stansiyadan ikkinchisiga o'tish joylarida) bir tomonlama harakatni joriy etish uchun ham ishlatiladi.



**3.11. «Vazn cheklangan».**

Ko'tarish qobiliyati cheklangan ko'prik va estakadalarda haqiqiy vaznlar yig'indisi ko'prik oldida o'rnatilgan belgida ko'rsatilganidan yuqori bo'lgan yuk avtomobillarining, yarim tirkamali yuk avtomobillarining harakatlanishini taqiqlaydi.




3.11







**3.12. «O'qqa tushadigan og'irlik cheklangan».**




3.12

Qoplamasi yupqa bo'lgan avtomobil yo'llariga og'ir yuk mashinalari zarar yetkazmasligi uchun bitta o'qqa tushadigan og'irlik yo'l belgisida ko'rsatilganidan yuqori bo'lsa, bunday avtomobillarning harakatlanishi taqiqlanadi. Shuni eslatib o'tish kerakki, Qoidaga ko'ra yengil avtomobillarda og'irlik ikki o'qqa teng ravishda taqsimlanadi. Ikki o'qli yuk avtomobillarida oldingi o'qqa 1/3, orqa o'qqa 2/3 og'irlik tushadi. Uch o'qli avtomobillarda og'irlik uchala o'qqa teng tarqaladi.




**3.13. «Cheklangan balandlik».**

Balandligi chegaralangan temir yo'l kesishmalari, tunnellar, ko'prik va estakadalar ostidan o'tuvchi yo'llarda baland yoki yuki baland bo'lgan yuk avtomobillari ko'rsatilgan inshootlarga zarar yetkazmasligi uchun ushbu belgi bilan ularning harakatlanishi taqiqlanadi. Belgi bo'lmagan taqdirda, yo'l harakati qoidasiga ko'ra, balandlik 4 m bilan cheklanadi.



3.13

Gabarit balandligi (yuk bilan yoki yuksiz) belgida ko'rsatilgandan ortiq bo'lgan transport vositalarining harakatlanishi taqiqlanadi.




**3.14. «Cheklangan kenglik».**

Eniga tor bo'lgan tunnel, ko'prik va estakadalar oldida ushbu belgi o'rnatilib, belgida ko'rsatilganidan enli yuk avtomobilining (yoki uzun avtomobilning) inshootlarga zarar yetkazmasligi uchun ularning harakatini taqiqlaydi.



3.14




**3.15. «Cheklangan uzunlik».**

Ko'p burilishli uzun tor ko'chalarda uzun yuk avtomobillari tiqilib qolmasligi, harakat ishtirokchilariga xalaqit bermasligi uchun ko'chaning bunday qismi oldida ushbu belgi o'rnatiladi, u uzun yuk avtomobillari harakatlanishini taqiqlaydi.



3.15




**3.16. «Eng kam oraliq».**

Ushbu belgi muzliklar, sirpanchiq yo'llar, tog'li yo'llar, ko'tarish qobiliyati cheklangan uzun ko'priklar oldida o'rnatilib, eng kam oraliq masofani chegaralaydi.



3.16



**3.17.1. «Bojxona».**

Ushbu belgi davlat tili va ingliz tilida yozilib, bojxonada kerakli hujjatlarni rasmiylashtirish uchun to'xtab o'tishni talab qiladi.



3.17.1



**3.17.2. «Xavf-xatar».**



3.17.2

Ko'p talofatli yo'l fojiasi yoki falokat yuz berganda (qor ko'chishi, yo'lni suv bosishi, ko'prikni suv olib ketishi kabi) shu yo'l qismlarida o'rnatilib, falokatni bartaraf etuvchi xizmatchilarning avtomobillaridan tashqari, barcha avtomobillar harakatini taqiqlaydi.



**3.17.3. "Nazorat joyi".**



3.17.3

Transport vositalarining tekshirib o'tkazilishi majburiy bo'lgan vaqtincha yoki doimiy nazorat punktlarida o'rnatiladi.

Ushbu yo'l belgisi 2.5 yo'l belgisi bilan birga o'rnatilishi mumkin.

**3.18.1. «O'ngga burilish taqiqlangan».**


3.18.1

Bu belgi yo'l kesishmasi oldida o'rnatilib, aynan shu kesishmaga ta'sir etadi. Yo'nalishli transport vositalariga buning daxli yo'q.



**3.18.2. «Chapga burilish taqiqlangan».**


3.18.2

«Chapga burilish taqiqlangan» belgisi o'rnatilgan joydan orqaga qayrilish taqiqlanmagan.



**3.19. «Qayrilish taqiqlangan».**


3.19

Bu belgi jamoat transportidan tashqari barcha transport vositalarining orqaga qayrilishini taqiqlaydi. Belgi o'rnatilgan joydan chapga burilish taqiqlanmagan.



**3.20. «Quvib o'tish taqiqlangan».**


3.20

Burilish yoki do'nglik tufayli ko'rinishi cheklangan serqatnov yo'llarda, tor ko'chalarda harakat xavfsizligini ta'minlashda ushbu belgi o'rnatilib, barcha turdagi transport vositalariga quvib o'tishni taqiqlaydi. Bu belgi soatiga 40 km dan kam tezlikda, yakka tartibda kelayotgan transport vositalarini quvib o'tishga ruxsat etadi. 3.20 belgisi yaqinlashayotgan birinchi





kesishmaga (chorrahaga) yoki «quvib o'tish taqiqlangan hududning oxiri» belgisi o'rnatilgan joygacha ta'sir etadi.

**3.21. «Quvib o'tish taqiqlangan hududning oxiri».**


3.21

**3.22. «Yuk avtomobillarida quvib o'tish taqiqlangan».**

Bu belgi to'la vazni 3,5 tonnadan yuqori bo'lgan yuk avtomobillari va soatiga 40 km dan kam tezlikda, yakka tartibda kelayotgan transport vositalaridan boshqa transport vositalarini quvib o'tishni taqiqlaydi. Bu belgi yaqinlashayotgan birinchi kesishmagacha yoki «Yuk avtomobillarida quvib o'tish taqiqlangan hududning oxiri» belgisi o'rnatilgan joygacha ta'sir etadi.


3.22





**3.23. «Yuk avtomobillarida quvib o'tish taqiqlangan hududning oxiri».**


3.23



**3.24. «Yuqori tezlik cheklangan».**

Yo'llarning xavfli qismlarida harakat xavfsizligini ta'minlash uchun ushbu belgi o'rnatilib, barcha turdagi transport vositalarining yuqori tezligini cheklaydi. Bu belgi yaqinlashayotgan birinchi kesishmagacha yoki «Yuqori tezlik cheklangan hududning oxiri» belgisi o'rnatilgan joygacha ta'sir etadi.



3.24




**3.25. «Yuqori tezlik cheklangan hududning oxiri».**



3.25



**3.26. «Tovush moslamalaridan foydalanish taqiqlangan».**

Dam olish uylari, kasalxonalar, sanatoriylar, bolalar dam olish oromgohlari oldida ortiqcha shovqin solinmasligi uchun o'rnatiladi, barcha turdagi transport vositalarining tovush moslamalaridan foydalanishlarini taqiqlaydi.


3.26



Yo'l-transport hodisasining oldini olish maqsadida istisno tariqasida tovush moslamasidan foydalanish (tovush ishorasi berish) mumkin.

**3.27. «To'xtash taqiqlangan».**



3.27

Serqatnov yo'lning tor qismlarida transport vositalarining uzluksiz harakatini yuqori darajada ta'minlash uchun ushbu belgi o'rnatilib, yo'nalishli transport vositalaridan boshqa barcha transport vositalarining to'xtashini taqiqlaydi. Ushbu belgi yo'nalishli transport vositalariga ta'sir etmaydi.



**3.28. «To'xtab turish taqiqlangan».**



3.28

Yo'lning yetarli darajada keng bo'lmagan qismlariga ushbu belgi o'rnatilib, barcha transport vositalarining o'n daqiqadan ortiq turishini taqiqlaydi (taksometri ishlab turgan taksi avtomobili, nogiron haydovchilarga tegishli avtomobil va motokajava, yuk ortilayotgan yoki tushirilayotgan avtomobillar bundan mustasno).







**3.29. «Oyning toq kunlarida to'xtab turish taqiqlangan».**



3.29




**3.30. «Oyning juft kunlarida to'xtab turish taqiqlangan».**



3.30

Yo'llarning o'ng va chap chekkalarini navbatma-navbat mexanizmlarda supurib tozalab olish va shu kabi ishlarni amalga oshirish maqsadida ushbu belgilardan foydalaniladi. Bu belgilarning talabi 3.28 belgisi talabi bilan bir xil.




**3.31. «Barcha cheklovlarning oxiri».**



3.31

Bu belgi barcha cheklovlarning oxiri deb nomlansa-da,




amalda 3.16, 3.20, 3.22, 3.24, 3.26–3.30 belgilarining ta'sir doirasini kesishmadan avvalroq tugatish uchun ishlatiladi.

**3.32. «Xavfli yuk tashiyotgan transport vositasining harakati taqiqlangan».**


3.32.




**3.33. «Portlovchi va tez alangalanuvchi yukni tashiyotgan transport vositasining harakati taqiqlangan».**


3.33.




**3.34. «Individual harakatlanish vositalarini boshqarish taqiqlangan»;**


3.34.

3.1–3.3, 3.18.1, 3.18.2, 3.19, 3.27 belgilari 3.2–3.8 belgilari ta'sir oralig'ida joylashgan korxonalarga



xizmat ko'rsatuvchi transport vositalariga, shuningdek, ushbu belgilar ta'sir oralig'ida yashovchi yoki ishlovchi fuqarolarga xizmat qiluvchi yoki ularga tegishli bo'lgan transport vositalariga ta'sir qilmaydi. Bunday hollarda transport vositalari belgilangan joyga yaqin chorrahadan kirib yoki chiqib ketishlari kerak.




3.27 belgisi yo'nalishsiz yengil taksilarga yo'lovchilarni tushurish-chiqarish (yuklarni ortish-tushurish) vaqtida ta'sir qilmaydi;

Ushbu Qoidalarning 176-bandiga binoan «Nogiron» tanish belgisi bilan belgilangan avtomobillar, mototsikllar, elektromototsikllar, mopedlar va skuterlarni boshqarayotgan nogiron haydovchilar 3.2, 3.3 va 3.28 belgilari talablaridan chetga chiqishlari mumkin. 7.18 belgi bo'lganda 3.27 belgisining ta'sir doirasida to'xtashga ruxsat etiladi.

3.28 – 3.30 belgilarining taksometri ishlab turgan taksilarga taalluqli emas.

3.18.1 va 3.18.2 belgilari qatnov qismlarining qaysi kesishmasi oldiga o'rnatilsa, shu kesishmaga tatbiq etiladi.

3.16, 3.20, 3.22, 3.24, 3.26 — 3.30 belgilarining ta'siri belgi o'rnatilgan joydan keyingi eng yaqin chorrahagacha, ular bo'lmaganda — aholi punktining oxirigacha ta'siri qiladi.







Yondosh hududlardan yo'lga chiqish joylarida yoki yo'lning dala, o'rmon yo'llari va boshqa doimiy harakatlanish, o'tib ketish uchun mo'ljallanmagan yo'llar bilan kesishgan (tutashgan) joylarida, ularning oldida tegishli belgilar o'rnatilmagan bo'lsa, bu belgilarning ta'siri yo'qolmaydi.







Aholi punktlariga yetmasdan o'rnatilgan 3.24 belgisining ta'siri 5.22 belgisigacha kuchini saqlaydi.

Belgilarning ta'sir doirasi aniqlashtirilishi mumkin:




3.16 va 3.26 belgilari uchun 7.2.1 qo'shimcha axborot belgisi bilan;

3.20, 3.22, 3.24 belgilari 3.21, 3.23, 3.25 belgilari va 7.2.1 qo'shimcha axborot belgisi orqali;

3.24 belgisining ta'sir oralig'i undan keyin boshqa eng yuqori harakatlanish tezligi ko'rsatilgan 3.24 belgisini o'rnatish bilan;




3.27 – 3.30 belgilarining amal qilish oralig'i oxiriga 3.27 – 3.30 belgilari 7.2.3 qo'shimcha axborot belgisi bilan birga takror o'rnatiladi yoki 7.2.2 qo'shimcha axborot belgisi bilan qo'llaniladi.




3.27 belgisi 1.4 yotiq chizig'i bilan birgalikda, 3.28 belgisi esa 1.10 yotiq chizig'i bilan birgalikda qo'llanishi mumkin, bunda belgilarning ta'sir hududi yo'l chizig'i uzunligi bilan aniqlanadi.




3.10, 3.27 – 3.30 belgilari yo'lning qaysi tomonida o'rnatilgan bo'lsa, ularning ta'siri faqat o'sha tomonga amal qilinadi.

## 3-mavzuga oid testlar

**1** **Bu belgi o‘rnatilgan yo‘lda kajavali mototsiklni shatakka olishga ruxsat etiladimi?**

1. Tirkamasi bittadan ortiq bo‘lmagan mototsiklga ruxsat etiladi.
2. Faqat qattiq tirkagichda ruxsat etiladi.
3. Taqiqlanadi.
4. Toyg‘oqchilikda taqiqlanadi.



**2** **Yuk avtomobilining qaysi yo‘nalishda harakatlanishiga ruxsat etiladi?**

1. Faqat o‘ngga.
2. O'ngga, chapga va orqa yo'nalishga.
3. Faqat chapga.



**3** **Qaysi transport vositalarining haydovchilari to‘xtab turish qoidasini buzdilar?**

1. Yengil avtomobilning haydovchisi.
2. Yuk avtomobilining haydovchisi.
3. Har ikki haydovchi.



**4** **Ushbu belgi sanab o‘tilgan yuk avtomobillarining qaysilariga harakatni davom ettirishni taqiqlamaydi?**

1. Yuk ko‘tarish 3,5 t dan ortiq bo'lgan avtomobillarga.
2. Ruxsat etilgan to'la vazni 3,5 t dan ortiq bo'lgan avtomobillarga.
3. Xavfli yuk tashiyotgan avtomobillarga.
4. Yukxonasiga qiya oq chiziq tortilgan yuk avtomobillariga.



**5** **Qaysi transport vositasining haydovchisi to‘xtab turish qoidasini buzdi?**

1. Ko'k avtomobilning haydovchisi.
2. Qizil avtomobilning haydovchisi.
3. Har ikki haydovchi buzdi.
4. Har ikki haydovchi ham buzmadi.



**6** **Qaysi avtomobil to‘xtash qoidasini buzdi?**

1. Yashil avtomobil.
2. Har ikkisi buzdi.
3. Har ikkisi ham buzmadi.



**7** **Ko‘rsatilgan belgilardan qay biri ilgari kiritilgan barcha cheklashlarni bekor qiladi?**




**8** **Bu belgida qaysi yuk avtomobili harakatni davom ettirishi mumkin?**

1. 8 tonnagacha yuk ortgan avtomobil.
2. 8 tonna yuk ko'tarish qobiliyatiga ega bo'lgan bo‘sh avtomobil.
3. Ruxsat etilgan to'la vazni 8 t dan ortiq bo'lmagan avtomobil.




**9** **To‘xtash qoidasini buzgan hamma haydovchilar qaysi javobda ko‘rsatilgan?**

1. Qizil avtomobil va motosiklning haydovchilari.
2. Ko'k avtomobilning haydovchisi.
3. Mototsiklning haydovchisi.
4. Barcha transport vositalarining haydovchilari.



**10** **Qaysi belgida to‘xtash shart?**



# 4. BUYURUVCHI BELGILAR

Transport vositalariga ko'rsatilgan yo'nalishda yoki faqat ma'lum yo'nalishlarda harakatlanishlari lozimligini buyuradi.

Buyuruvchi belgilar, asosan, havo rang, belgisi oq, ko'rinishi doira shaklida bo'lib, transport vositalarini muayyan tartib bo'yicha harakatlanishini talab etadi.

Buyuruvchi belgilar yo'lning muayyan tartib bo'yicha harakatlanish lozim bo'lgan qismlari oldida o'rnatiladi.

Bu belgilarning ta'siri qatnov qismlarining qaysi kesishmasi oldida o'rnatilsa, shu kesishmaga tatbiq etiladi.

**4.1.1. «Harakatlanish to'g'riga».**

Bu belgi yo'lning boshiga o'rnatilsa, ta'siri shu yo'l davomidagi birinchi kesishmagacha amal qiladi.



Bu belgi yo'l bo'ylab o'ng tomonda joylashgan hovlilarga burilishni taqiqlamaydi.




**4.1.2. «Harakatlanish o'ngga».**



**4.1.3. «Harakatlanish chapga».**



**4.1.4. «Harakatlanish to'g'riga yoki o'ngga».**



**4.1.5. «Harakatlanish to'g'riga yoki chapga».**



**4.1.6. «Harakatlanish o'ngga yoki chapga».**



Faqat yo'naltirgichlar ko'rsatgan tomonga harakatlanishga ruxsat etiladi. Chapga burilishga ruxsat etuvchi belgida qayrilishga ham ruxsat etiladi. (Muayyan kesishmada talab etilgan harakat yo'nalishiga tegishli yo'naltirgichning shakli tushirilgan 4.1.1– 4.1.6 belgilarini qo'llash mumkin.)

4.1.1 – 4.1.6 belgilarining yo'nalishli transport vositalariga daxli yo'q.




4.1.1 – 4.1.6 belgilarining ta'siri qatnov qismining qaysi kesishmasi oldiga o'rnatilsa, shu kesishmaga tatbiq etiladi.







4.1.1 belgisi yo'l boshlanishiga o'rnatilsa, unga yaqin chorrahagacha amal qilinadi. Belgi o'ng tomonda joylashgan hovli va yo'lga tutash boshqa hududlarga burilishni taqiqlamaydi.



**4.2.1. «To'siqni chapdan aylanib o'tish».**

**4.2.2. «To'siqni o'ngdan aylanib o'tish».** Faqat ko'rsatkich ko'rsatgan tomondan aylanib o'tish ruxsat etiladi.

**4.2.3. «To'siqni o'ngdan yoki chapdan aylanib o'tish».**

Har tomonidan aylanib o'tish ruxsat etiladi.




Yo'ldagi xavfsizlik maydonchalarining ajratish tasmalarini, ustunlarni, ta'mirlash ishlari bo'layotgan qismlarni aylanib o'tishda ushbu belgilar o'rnatilib, qaysi tarafdan aylanib o'tish lozimligi ko'rsatiladi.







**4.3. «Aylanma harakatlanish».**



4.3

Bu belgi maydonlar oldida o'rnatilib, maydon o'rtasi tekis bo'lsa ham, uni to'g'ri kesib o'tmasdan, soat strelkasiga




teskari aylanib o'tish kerakligini ko'rsatadi.



4.4

**4.4. «Yengil avtomobillar harakati».**

Bu belgida yengil avtomobil ifodalangan bo'lsa ham, belgi yengil avtomobillardan tashqari barcha turdagi avtobuslar, mototsikllar, mopedlar, skuterlar va to'la vazni 3,5 tonnadan kam bo'lgan yuk avtomobillarining harakatlanishiga ruxsat etib, to'la vazni 3,5 tonnadan yuqori bo'lgan yuk avtomobillari va traktorlar harakatlanishini taqiqlaydi (belgi ta'siri oralig'ida yashovchi barcha turdagi transport vositalari egalari va ishlovchilar bundan mustasno).





Belgining ta'sir oralig'ida yashovchi va ishlovchi fuqarolarga tegishli, ularga va korxonalarga xizmat ko'rsatuvchi transport vositalariga bu belgi tatbiq etilmaydi.

Bunday hollarda transport vositalari belgilangan joyga eng yaqin chorrahadan kirib yoki chiqib ketishlari kerak.

**4.5. «Velosiped yo'lkasi».**



4.5

Faqat velosiped va individual harakatlanish vositalarida harakatlanishga ruxsat etilishini bildiradi. Trotuar yoki piyodalar yo'lkasi bo'lmasa, velosiped yo'lkasidan piyodalar ham yurishlari mumkin.



**4.6. «Piyodalar yo'lkasi».**



4.6

Bu belgi faqat piyodalarning yurishiga ruxsat etadi. Ba'zan bu belgi (3.10 belgi bilan birga) metro stansiyalari oralig'ida piyodalarning bir taraflama harakatini joriy etish uchun ham ishlatiladi.



**4.6.1. «Piyodalar, velosipedchilar va individual harakatlanish vositalarining birgalikdagi harakati tashkil etilgan yo'lak».**



**4.6.2. «Piyodalar, velosipedchilar va individual harakatlanish vositalarining birgalikdagi harakati tashkil etilgan yo'lakning oxiri».**



**4.6.3. «Piyodalar, velosipedchilar va individual harakatlanish vositalarining harakati alohida tashkil etilgan yo'lak».**



1.1, 1.25 va 1.26 yotiq yo'l chizig'i yordamida, konstruktiv tarzda yoxud boshqa usulda piyodalar va velosipedchilarning harakati ajratilgan piyodalar va velosipedchilar yo'lagi.

**4.6.4. «Piyodalar, velosipedchilar va individual harakatlanish vositalarining harakati alohida tashkil etilgan yo'lakning oxiri».**



**4.6.5. «Piyodalar, velosipedchilar va individual harakatlanish vositalarining harakati alohida tashkil etilgan yo'lak».**



1.1, 1.25 va 1.26 yotiq yo'l chizig'i yordamida, konstruktiv tarzda yoxud boshqa usulda Piyodalar, velosipedchilar va individual harakatlanish vositalarining harakati ajratilgan piyodalar va velosipedchilar yo'lagi.

**4.6.6. «Piyodalar, velosipedchilar va individual harakatlanish vositalarining harakati alohida tashkil etilgan yo'lakning oxiri».**



**4.7. «Eng kam tezlik».** Faqat belgida ko'rsatilgan yoki undan yuqori tezlikda (km/soat) harakatlanishga ruxsat etilishini bildiradi.




4.7



**4.8. «Eng kam tezlik belgilangan yo'lning oxiri».**



4.8

**4.9.1, 4.9.2 va 4.9.3 «Xavfli yuk tashiyotgan transport vositalarining harakat yo'nalishi».** «Xavfli yuk» tanish belgisi bilan jihozlangan transport vositalarining harakatiga yo'l belgisida ko'rsatilgan yo'nalishlarda ruxsat beriladi: 4.9.1 — to'g'riga, 4.9.2 — chapga, 4.9.3 — o'ngga»;



4.9.1.



4.9.2.



4.9.3.

# 4-mavzuga oid testlar

**1** **Yo'naltirgichlarning qaysilari bo'ylab harakatlanishga ruxsat etiladi?**

1. Faqat A yo'nalish bo'ylab.
2. Faqat B yo'nalish bo'ylab.
3. Faqat V yo'nalish bo'ylab.
4. Faqat A va G yo'nalishlari bo'ylab.
5. Faqat G yo'nalish bo'ylab.




**2** **Qaysi yo'nalishlarda harakatlanishga ruxsat etilgan?**

1. Faqat B.
2. Faqat A.
3. A va B.
4. A, B, C va G.
5. A, B va V.




**3** **Ushbu sharoitda avtobusning chorrahaga kirishiga ruxsat beriladimi?**

1. Ruxsat beriladi.
2. Taqiqlanadi.
3. Agar avtobus belgilangan yo'nalish bo'yicha harakatlanayotgan bo'lsa, ruxsat etiladi.



**4** **Chorrahada aylanma harakatlanish tashkil qilingan. Siz yaqinlashib kelayotgan chorrahaning qatnov qismi ikkita harakat bo'lagiga ega. Chorrahaga kirishda burilish uchun Siz qaysi tasmani egallashingiz lozim?**

1. O'ng tasmani.
2. Chap tasmani.
3. O'ng yoki chap tasmani.

**5** **Qizil avtomobil:**

1. Ko'k avtomobilga nisbatan ustunlikka ega, chunki asosiy yo'ldan ketyapti.
2. Ko'k avtomobilga nisbatan ustunlikka ega, chunki aylanma harakatli yo'ldan ketyapti.
3. Chorrahaga o'ng tomondan yaqinlashib kelgan ko'k avtomobilga yo'l berishi kerak.



**6** **Qaysi yo'nalishda harakatlanish taqiqlanadi?**

1. O'ngga, birinchi yo'lga.
2. O'ngga, ikkinchi yo'lga.
3. O'ngga, birinchi va ikkinchi yo'llarga.



**7** **Qaysi javobda ruxsat berilgan harakat yo'nalishi to'g'ri ko'rsatilgan?**

1. Faqat orqaga burilish.
2. To'g'riga va orqaga burilish.
3. Faqat to'g'riga.



**8** **Qaysi belgi «To'siqni chapdan chetlab o'tish» deb ataladi?**




**9** **Sariq avtobusning haydovchisiga chorrahaga chiqish uchun ruxsat etiladimi?**

1. Ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.
3. Agar avtobus belgilangan yo'nalish bo'yicha yursa, ruxsat etiladi.



**10** **Ruxsat etilgan harakatlanish yo'nalishini ko'rsating:**

1. Faqat A.
2. Faqat B.
3. Faqat V.
4. A va B.
5. B va V.



# 5. AXBOROT-KO'RSATKICH BELGILARI

Axborot-ko'rsatkich belgilari harakatlanishga muayyan tartib kiritadi yoki uni bekor qiladi, shuningdek, aholi punktlari va manzillarning joylashuvi haqida axborot beradi.



**5.1. «Avtomagistral».**

Maxsus tartib (qoidalar) o'rnatilgan va transport vositalarining tez, xavfsiz harakatlanishini ta'minlaydigan – avtomagistral boshlanishiga ushbu belgi o'rnatiladi.

**5.2. «Avtomagistralning oxiri».**

Ushbu belgi o'rnatilgan joydan boshlab maxsus tartib talablari bekor qilinadi va «Avtomobillar uchun mo'ljallangan yo'l» tartibi kuchga kiradi.



5.1 5.2






**5.3. «Avtomobillar uchun mo'ljallangan yo'l».**



5.3

Faqat avtomobillar, avtobus hamda motosikllar, elektromototsikllar, mopedlar va skuterlarning harakatlanishi uchun mo'ljallangan yo'lni bildiradi.

**5.4. «Avtomobillar uchun mo'ljallangan yo'lning oxiri».**





5.4

Ushbu belgi o'rnatilgan joydan boshlab barcha turdagi transport vositalarining harakatlanishiga ruxsat etiladi.

**5.5. «Bir tomonlama harakatli yo'l».**



5.5

Tor ko'cha va yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida transport vositalarining harakatini yo'lning qatnov qismi bo'yicha bir tomonlama joriy etish uchun ushbu yo'l belgisidan foydalaniladi.

Bu belgi yo'l boshida o'rnatilib, harakat davomida orqaga qayrilishni taqiqlaydi. Aholi yashaydigan joylarda bir tomonlama harakatlanish joriy etilgan yo'llarning chap tarafida to'xtash va to'xtab turishga ruxsat etiladi. Bir tomonlama harakatlanish joriy etilgan yo'llarda hovli va yo'lga tutash boshqa hududlarga burilish taqiqlanmaydi.



**5.6. «Bir tomonlama harakatli yo'lning oxiri».**



5.6

Ushbu belgi transport vositalari bir tomonlama harakatlanadigan yo'lning tugaganligini bildiradi.

**5.7.1, 5.7.2. «Bir tomonlama harakatli yo'lga chiqish».**



5.7.1



5.7.2

Ushbu belgi chorraha oldida o'rnatilib, haydovchiga kesishadigan yo'lda belgi yo'nalishi bo'yicha bir tomonlama harakatlanish joriy etilganini ko'rsatadi.





**5.8.1. «Tasmalar bo'yicha harakat yo'nalishi».**



5.8.1

Ushbu belgi chorrahaga yaqin (chorrahada) ko'p tasmali keng yo'llarda harakatlanish tartibini belgilaydi. Haydovchilarga tushunish oson bo'lishi uchun bir belgida uchtagacha tasmadagi harakatlanishni ifodalash mumkin.



Tasmalar soni uchtadan ortiq bo'lsa, yana belgi kiritish lozim. Shuni ta'kidlash kerakki, chapga burilishga ruxsat etilgan joydan orqaga qayrilish ham mumkin.

Tasmalar soni har biri bo'yicha ruxsat etilgan harakatlanish yo'nalishi.

**5.8.2. «Tasma bo'yicha harakatlanish yo'nalishi».**



5.8.2

Ushbu belgi avvalgi 5.8.1 belgisining bir turi bo'lib, har bir tasmadagi harakatlanish tartibi alohida belgi bilan ko'rsatiladi.

Yo'lning chetki chap bo'lagidan chapga burilishga ruxsat beruvchi 5.8.1 va 5.8.2 belgilari shu tasmadan qayrilishga ham ruxsat beradi.



Chorrahadan oldin o'rnatilgan 5.8.1 va 5.8.2 belgilarining ta'siri, agar shu turkumdagi boshqa belgilar o'rnatilmagan bo'lsa, butun chorrahaga tatbiq etiladi.



**5.8.3. «Tasmaning boshlanishi».**

Yo'lning balandlikka ko'tariladigan qismlarida og'ir yuk avtomobillari va sekin yuradigan transportlar boshqa transport vositalariga xalaqit bermasligi uchun, ularga qo'shimcha tasma ajratilib, tasma boshlanish joyiga ushbu belgi o'rnatiladi, tasma oxiriga esa 5.8.5 – «Tasma oxiri» belgisi o'rnatiladi.



5.8.3



Agar qo'shimcha tasma oldiga 4.7 – «Eng kam tezlik» belgisi o'rnatilgan bo'lsa, ko'rsatilgan yoki undan kattaroq tezlikda harakatlana olmaydigan transport vositasining haydovchisi asosiy tasmadan qo'shimcha tasmaga qayta tizilishi kerak.



**5.8.4. «Tasmaning boshlanishi».**

Uch tasmali yo'llarda o'rta tasmadan foydalanishga ruxsat etiladigan qism oldida ushbu belgi o'rnatilib, bu tasma sekin yuradigan transport vositalaridan o'zib ketishga imkon beradi.



5.8.4

Uch tasmali yo'llarda harakatlanish uchun o'rta tasmaning boshlanishini bildiradi.



**5.8.5. «Tasma oxiri».**



5.8.5

Balandlikka ko'tarilish yoki to'xtash qismidagi qo'shimcha tasmaning oxiri.






**5.8.6. «Tasma oxiri».**



5.8.6

Uch tasmali yo'lning foydalanishga ruxsat etilgan o'rta tasma qismi tugashi oldida ushbu belgi o'rnatiladi.



**5.8.7, 5.8.8. «Tasmalar bo'yicha harakatlanish yo'nalishi».**



5.8.7



5.8.8

Ushbu belgilar chorraha oldida o'rnatilib, transport vositalarining ro'para qatnovlariga mo'ljallangan uch tasmali yo'llarda harakatlanish tartibini belgilaydi. Bu belgilar bo'lmasa, haydovchi o'rta tasmani ikkala tarafdan quvib o'tishga mo'ljallangan deb o'ylashi mumkin. Ba'zi hollarda transport oqimining tezligini oshirish uchun yuk avtomobillari-







ning o'rta tasma bo'yicha harakatlanishi taqiqlanadi. Yuk avtomobillari chekka (o'ng) tasmadan harakatlanadi.

Agar 5.8.7 belgisida biror transport vositasining harakatlanishini taqiqlovchi belgi tasvirlangan bo'lsa, unda bu transport vositasining tegishli tasmada harakatlanishi taqiqlanadi.

5.8.7 va 5.8.8 belgilari yo'nalishlar soniga ko'ra to'rt va undan ortiq tasmali yo'llarga ham tatbiq etilishi mumkin. Tasviri almashadigan 5.8.7 va 5.8.8 belgilari yordamida reversiv harakat tashkil etilishi mumkin.

**5.9. «Yo'nalishli transport vositalari uchun mo'ljallangan tasma».**



5.9

Ushbu belgi transport vositalarining oqimi bo'yicha yo'nalgan, yo'nalishli transport vositalari uchun mo'ljallangan tasmani belgilashda ishlatiladi. Ushbu tasma boshqalaridan sidirg'a chiziq bilan ajratilgan bo'lsa, u holda bu tasmaga boshqa transport vositalarining kirishi taqiqlanadi. Agar uzuq-uzuq chiziqchalar bilan chegara-



langan bo'lsa, u holda yo'lovchi tushirish yoki olish, o'ngga burilish uchun tasmaga kirish mumkin.

Belgi qaysi tasma ustida joylashgan bo'lsa, shu tasmaga tatbiq etiladi. Yo'lning o'ng tomoniga o'rnatilgan belgining ta'siri o'ng tasmaga tatbiq etiladi.

**5.10.1. «Yo'nalishli transport vositalari uchun alohida ajratilgan tasmasi bor yo'l».**



5.10.1

Ushbu belgi bir tomonlama harakatlanish yo'lining chetki chap tasmasi yo'nalishli transport vositalariga ajratilgani haqida axborot beradi. Tasma boshqalaridan (uzuq-uzuq bo'lmagan) sidirg'a chiziq bilan ajratilib, unga boshqa transport vositalarining kirishi taqiqlanadi.



**5.10.2, 5.10.3. «Yo'nalishli transport vositalari uchun alohida ajratilgan tasmasi bor yo'lga chiqish».**



5.10.2



5.10.3

Ushbu belgilar kesishadigan yo'lda bir tomonlama harakatlanish joriy qilinganligini bildirib, yo'lning bir tasmasi yo'nalishli transport vositalariga ajratilgan va uning boshqa transport vositalarining harakatlanishiga qarama-qarshi yo'nalishda ekanligidan axborot beradi.





**5.10.4. «Yo'nalishli transport vositalari uchun alohida ajratilgan tasmasi bor yo'lning oxiri».**



5.10.4

Ushbu belgi o'rnatilgan joydan boshlab barcha transport vositalari yo'l qatnov qismining barcha kengligi bo'yicha harakatlanishi, to'xtashi va to'xtab turishi mumkin.



**5.11.1. «Qayrilib olish joyi».**



5.11.1

Bu joyda chapga burilish taqiqlanadi.

**5.11.2. «Qayrilib olish oralig'i».**




5.11.2

Ushbu belgilar qayrilish joyi va uning oralig'ini belgilab, transport vositalarining chapga burilishini taqiqlaydi.






**5.12. «Avtobus va (yoki) trolleybus to‘xtash joyi».**


5.12



**5.13. «Tramvay to‘xtash joyi».**


5.13



**5.14. «Yo‘nalishsiz taksilar to‘xtab turish joyi».**



5.14

Ushbu belgilar o‘ziga xos transport vositalarining to‘xtash




va to‘xtab turish joylarini ko‘rsatib, belgi o‘rnatilgan joydan 15 metrgacha masofada boshqa transport vositalarining to‘xtashi va to‘xtab turishini taqiqlaydi.

**5.15. «To‘xtab turish joyi».**

Transport vositalarining qisqa va uzoq muddatga to‘xtab turish joyi.


5.15



**5.15.1. “Pullik to‘xtab turish joyi”.**


5.15.1



**5.15.2. «Yer usti avtomobil qo‘yish joyi».**


5.15.2



**5.15.3. «Yer osti avtomobil qo'yish joyi».**




5.15.3



**5.15.4. «Elektr quvvatlashli avtomobil qo'yish joyi».**




5.15.4



**5.16.1, 5.16.2. «Piyodalar o'tish joyi».**



5.16.1 5.16.2

Ushbu belgilar piyodalar o'tish joyini belgilab, «Zebra» shaklidagi yotiq chiziq bilan yoki ularsiz ishlatilishi mumkin. 5.16.1 belgisi yo'lning chap tarafiga o'rnatilib, piyodalar o'tish joyining old chegarasini bildiradi, 5.16.2 yo'l belgisi avvalgi belgining aksini ko'rsatadi va yo'lning o'ng tarafiga o'rnatilib, piyodalar o'tish joyining tutash chegarasini ko'rsatadi.



**5.17.1, 5.17.2. «Piyodalarning yer ostidan o'tish joyi».**



5.17.1 5.17.2

**5.17.3, 5.17.4. «Piyodalarning yer ustidan o'tish joyi».**



5.17.3 5.17.4

Ushbu belgilar yer ustidan (ko'pincha, temir yo'l to'shama ko'priklari ustidan) va yer ostidan (serqatnov ko'chalarning ostidan) o'tish joylarini ko'rsatadi.





**5.18. «Tavsiya etilgan tezlik».**




5.18

Ushbu belgi yo'lning shart-sharoitlari yoki ob-havo sharoitlariga qarab shu qism uchun ma'lum tezlikni (belgida ko'rsatil-



gan) tavsiya qiladi. Belgi birinchi chorrahagacha ta'sir qiladi. Agar bu belgi ogohlantiruvchi belgi bilan birga qo'llansa, uning ta'sir oralig'i xavfli qismning uzunligi bilan aniqlanadi.

**5.19.1, 5.19.2, 5.19.3. «Oxiri berk yo'l».**



5.19.1 5.19.2 5.19.3 5.19.4

Ushbu belgi yo'lning davomi yo'q, oxiri berk ekanligini ko'rsatib, harakatlanishni taqiqlamaydi (ko'chaga kirishni taqiqlamaydi).



**5.20.1, 5.20.2. «Yo'nalishlarning dastlabki ko'rsatkichi».**




5.20.1

Belgida ko'rsatilgan aholi punkti yoki manzilga avtomagistral orqali boriladigan bo'lsa – asosi yashil, oddiy yo'llarda – asosi havo rang, shahar yo'llarida – asosi oq belgilar bilan harakat yo'nalishi ko'rsatilgan bo'ladi. Belgida, belgi o'rnatilgan joydan chorrahagacha bo'lgan masofa yoki yo'nalishlar bo'yicha, 3.12–3.15 taqiqlovchi belgilardan biri o'rnatilgan qismni aylanib o'tish kerakligi ko'rsatiladi. Belgi shahar yo'llarida 50 — 100 metr, shahardan tashqarida 150 — 300 metr masofada, avtomagistrallarda 300 metr va undan ortiq masofalarda o'rnatiladi.







5.20.2

5.20.2. belgisining 5.20.1 belgisidan farqi shundaki, unda aholi yashaydigan joy va boshqa manzillarga borish yo'nalishi ko'rsatilgan Avtomagistral yo'nalishi yashil asosli belgi bilan, oddiy yo'llarning yo'nalishi esa asosi havo rang belgi bilan ko'rsatiladi.

Belgida aholi punktiga va boshqa manzillarga tomon harakatlanish yo'nalishi ko'rsatilgan. Belgida 5.29.1 belgisining hamda avtomagistral, aeroport va boshqa ramziy belgilar tasviri tushirilgan bo'lishi ham mumkin. 5.20.1 belgisi yo'lning 3.11–3.15 taqiqlovchi belgilaridan biri o'rnatilgan qismlarini aylanib o'tish kerakligini ko'rsatish uchun ham qo'llaniladi.

**5.20.3. «Harakatlanish chizmasi».**



5.20.3

Ushbu belgi biror yo'nalish bo'yicha harakatlanish taqiqlangan murakkab chorrahalarda harakatlanish tartibini ko'rsatadi. U chorraha oldida o'rnatilib, ayrim harakatlar taqiqlangan vaqtda harakatlanish yo'nalishi yoki serqatnov chorrahada ruxsat etilgan harakatlanish yo'nalishini ko'rsatadi.



**5.20.4. "Yo‘llarining bir sathda kesishmaydigan qismlarida burilish yoki qayrilib olish yo‘nalish ko‘rsatkichi".**

Avtomobil yo‘llarning bir sathda kesishmaydigan qismlarida yer ostidan yoki yer ustidan transport vositalarining burilish va qayrilib olish yo‘nalishini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi.



5.20.4

**5.20.5. «Xizmat ko‘rsatish maydoni».**




5.20.5

**5.21.1. «Yo‘nalish ko‘rsatkichi».**

Manzil tomon burilish joyida ushbu belgi o‘rnatilib, qancha kilometr masofa qolganini ko‘rsatadi.




5.21.1

**5.21.2. «Yo‘nalishlar ko‘rsatkichi».**

Ushbu belgi avvalgi belgining bir turi bo‘lib, bir necha manzil tomon harakatlanish yo‘nalishlarini ko‘rsatadi.




5.21.2

Belgida manzillar tomon harakatlanish yo‘nalishlari ko‘rsatilgan.

Belgilarda manzillargacha bo‘lgan masofa (km) ko‘rsatilishi, avtomagistrallar, aeroportlar va boshqa ramziy belgilar tasvirlangan bo‘lishi mumkin.



**5.22. «Aholi punktining boshlanishi».**




5.22

Asosi oq rangda, aholi punktining nomlanishi qora rangda yozilgan bunday belgilar yuqori tezlikni soatiga 70 km bilan chegaralab, tovush moslamalaridan foydalanishni taqiqlaydi. Qoidalarning aholi punktlarida harakatlanish tartibini belgilovchi talablariga amal qilinadigan joylarning nomi hamda uning boshlanishini bildiradi.




**5.23. «Aholi punktining oxiri».**



5.23

Ushbu belgi o‘rnatilgan joydan boshlab avvalgi belgi – 5.22 kiritgan chegaralar bekor qilinadi.

Qoidalarning aholi punktida harakatlanish tartibi talablari bekor qilingan joy.

**5.24. «Aholi punktining boshlanishi».**




5.24

Asosi havo rang, yozuvi oq rangda yozilgan bunday belgilar harakat tezligi va tovush moslamalaridan foydalanishni cheklamasdan, faqat belgida yozilgan geografik joy nomini bildiradi. Ushbu belgi o‘rnatilgan joyda aholi punktlaridagi yo‘llarda joriy etilgan tartib talab etilmaydi.

Qoidalarning aholi punktlarida harakatlanish tartibini belgilovchi talablariga amal qilinmaydigan joyning nomi hamda uning boshlanishini bildiradi.




**5.25. «Aholi punktining oxiri».**



5.25

Ushbu belgi avvalgi belgida ko'rsatilgan geografik joyning oxirini bildiradi.

5.24 belgisi bilan ko'rsatilgan aholi punktining boshlanishi.

**5.26. «Manzil nomi».**




5.26

Aholi punktidagi ko'chalar nomi, aholi punktlaridan tashqaridagi daryo, ko'l va boshqa xushmanzara joylarning nomi ushbu belgi bilan ko'rsatiladi.

**5.27. «Masofalar ko'rsatkichi».**




5.27

Ushbu belgi shaharlardan chiqib ketish joylariga o'rnatilib, yo'nalish bo'yicha joylashgan aholi yashaydigan manzilgacha bo'lgan masofani bildiradi. Harakatdagi haydovchi o'qib ulgurishi uchun bitta belgida uchtagacha manzil nomi yozilishi mumkin. Yo'nalish bo'yicha joylashgan aholi punktigacha bo'lgan masofa (km)ni bildiradi.



**5.28. «Kilometr belgisi».**




5.28

Ushbu belgi yo'l boshlanganidan boshlab, har bir kilometrda o'rnatiladi.

**5.29.1, 5.29.2. «Yo'l raqami».**




5.29.1 5.29.2

Ushbu belgilar yo'l raqami va yo'nalishini ko'rsatib, haydovchiga avtomobil yo'llari atlasi bo'yicha undan foydalanishni osonlashtiradi.

5.29.1 – yo'lga berilgan raqam, 5.29.2– yo'lning raqami va yo'nalishi.

**5.30.1, 5.30.2, 5.30.3. «Yuk avtomobillari uchun harakatlanish yo'nalishi».**



5.30.1 5.30.2 5.30.3

Ushbu belgilar chorraha oldida o'rnatilib, yuk avtomobillari haydovchilariga eng qulay yo'lni ko'rsatadi va shu yo'l bo'yicha harakatlanishni tavsiya etadi. Boshqa yo'llarga burilish taqiqlanmaydi, lekin tez orada yuk avtomobillari harakatlanishini taqiqlaydigan belgiga chiqishi mumkin.

Chorrahalarda yuk avtomobillari, traktorlar va o'ziyurar moslamalarga biror yo'nalishda harakatlanish taqiqlangan bo'lsa, bunday transport vositalariga tavsiya etilgan harakatlanish yo'nalishlarini ko'rsatadi.



### 5.31. «Aylanib o‘tish tasviri».

Asosi sariq rangda bo‘lgan ushbu belgi vaqtinchalik yopib qo‘yilgan yo‘l qismini aylanib o‘tish chizmasini ko‘rsatadi. Belgi aholi punktida 50–100 m, aholi punktidan tashqarida 150–300 m masofada, ba’zi hollarda aylanib o‘tiladigan yo‘lning oldida o‘rnatiladi.



5.31



### 5.32.1–5.32.3. «Chetlab o‘tish yo‘nalishi».

Asosi sariq rangda bo‘lgan ushbu belgi vaqtinchalik yopib qo‘yilgan yo‘l qismini chetlab o‘tish yo‘nalishini ko‘rsatadi. Bu belgi avvalgi belgiga o‘xshab aholi punktida 50–100 metr, aholi punktidan tashqarida 150–300 metr masofada, ba’zi hollarda aylanib o‘tiladigan yo‘lning oldida o‘rnatiladi.







### 5.33. «To‘xtash chizig‘i».

Ushbu belgi svetoforga 5–20 metr yetmasdan, ba’zi hollarda svetofor ostida o‘rnatilib, svetoforning faqatgina taqiqlovchi ishorasida transport vositalarining to‘xtash joyini ko‘rsatadi.



5.33




### 5.34.1, 5.34.2. «Boshqa qatnov qismiga qayta tizilishning boshlang‘ich ko‘rsatkichi».

Ushbu belgi ajratuvchi bo‘lakli yo‘llarda turli tadbirlar (xalq sayli, miting, sport yig‘ilishlari) sababli vaqtinchalik yopib qo‘yilgan yo‘l qismini aylanib o‘tish yo‘nalishini yoki boshqa qatnov qismiga o‘tish yo‘nalishini ko‘rsatadi.


5.34.1


5.34.2

Ajratuvchi bo‘lagi bo‘lgan yo‘lning harakatlanish uchun yopiq hududini aylanib o‘tish yoki o‘ng tomondagi qatnov qismiga qaytish uchun harakatlanish yo‘nalishini bildiradi.





### 5.35. «Reversiv harakatlanish».

Ushbu belgi yo‘lning boshida o‘rnatilib, bir yoki bir necha tasmalarda harakatlanish yo‘nalishining qarama-qarshi tomonga o‘zgarishi mumkinligi haqida axborot beradi.


5.35



**5.36. «Reversiv harakatlanishning oxiri».**



5.36

5.36 belgisi yo‘lning oxiriga o‘rnatilib, reversiv harakatlanishning oxirini ko‘rsatadi.



**5.37. «Reversiv harakatlanish yo‘liga chiqish».**



5.37

Ushbu belgi chorraha oldida o‘rnatilib, kesishadigan yo‘lning bir yoki bir necha tasmalarida harakatlanish yo‘nalishi qarama-qarshi tomonga o‘zgarishi mumkinligi haqida axborot beradi.



**5.38. «Turar joy dahasi».**



5.38

Turar joy dahalarida piyodalar trotuardan tashqari qatnov qismida ham harakatlanishlari mumkin. Bunda piyodalar imtiyozga ega bo‘ladilar. Haydovchiga dvigatelni ishlab turgan holda to‘xtab turish, mexanik transport vositasini boshqarishni o‘rgatish va to‘la vazni 3,5 tonnadan ortiq bo‘lgan avtomobillarning (maxsus maydon bo‘lmasa) to‘xtab turishi taqiqlanadi.




Yo‘l harakati qoidalarining turar joy dahalarida harakatlanish tartibi o‘rnatilgan yo‘lni bildiradi.



5.39

**5.39. «Turar joy dahasining oxiri».**

**5.40. «Falokatli holatlar uchun kirish yo‘li».**



5.40

Tog‘li yo‘llarda, dovonda tik nishabdan tushib kelayotgan transport vositalarining to‘xtatish tizimi ishlamay qolsa, to‘xtatish uchun ajratilgan yo‘lga kirishini ko‘rsatadi. Qoidalardagi 129-bandda ko‘rsatilgan hollarda foydalaniladigan yo‘lni bildiradi.




**5.41. «Foto va video qayd etish».**



5.41

Bu belgi yo‘lning qatnov qismidagi harakat ishtirokchilarini oldinda foto va video kameralari mavjudligi hamda ular harakatni qayd etib borayotganligidan xabardor qiladi.

**5.42. «Qizil chiroqda o‘ngga harakatlanish».**


5.42

Transport svetofori qizil chirog‘ining o‘ng yoniga 5.42 yo‘l belgisi o‘rnatilgan bo‘lsa, transport vositalarining haydovchilari svetoforning taqiqlovchi ishorasi yonib turganda, barcha xavfsizlik choralarini ko‘rgan holda o‘ngga burilishlari mumkin. Bunda ular harakat yo‘nalishi bo‘yicha va burilayotgan ko‘chani kesib o‘tayotgan piyodalarga hamda boshqa transport vositalariga yo‘l berishlari shart.

**5.43. «Radar».**



5.43

Yo‘llarda avtomobil haydovchilari belgilangan tezlikka rioya etishi radarlar yordamida nazorat qilinayotganligini bildiruvchi yo‘l belgisi.

Ushbu yo‘l belgisi belgilangan harakatlanish tezligi stasionar maxsus texnika vositalari yordamida nazoratga olingan joylarga o‘rnatiladi.

Shuningdek, viloyat, tuman, shaharlar boshlanadigan joylardagi ko‘cha va yo‘llarda harakatlanish tezligi mobil radarlar yordamida nazorat qilinayotganligi to‘g‘risida haydovchilarni ogohlantirish maqsadida o‘rnatilishi mumkin.



**5.44. «Velosipedchilar va individual harakatlanish vositalari uchun tasma».**


5.44

Yo‘l belgisi qaysi harakat bo‘lagi ustiga o‘rnatilgan bo‘lsa, o‘sha harakat bo‘lagiga ta’sir qiladi. Yo‘lning o‘ng tomoniga o‘rnatilgan yo‘l belgisi o‘ng tasmaga ta’sir qiladi.



**5.45. «Velosipedchilar va individual harakatlanish vositalari uchun tasmaning oxiri».**


5.45

**5.46 “Maktab”.** Maktab yoki maktabgacha ta’lim tashkilotlari oldida o‘rnatiladi.





5.46

**5.47. “Turizm obyektlari yo‘nalish ko‘rsatgichi”.**



5.47

Turizm obyektlari joylashgan manzillarga harakatlanish yo‘nalishlarini bildiradi. Belgilarda manzillargacha bo‘lgan masofa (km) ko‘rsatilishi, temir yo‘l vokzallari, aeroportlar va boshqa turizm obyektlari ramziy belgilari tasvirlangan bo‘lishi mumkin.

**5.47.1 “Turizm obyektlari”.**


5.47.1

**5.47.2 “Turizm axborot markazi”.**


5.47.2

Aholi punktlaridan tashqarida o‘rnatilgan 5.20.1, 5.20.2, 5.21.1 va 5.21.2 yo‘l belgila-

ridagi yashil yoki ko'k rang ko'rsatilgan aholi punktiga yoki obyektga avtomagistral yoxud boshqa yo'l orqali harakatlanish mumkinligini anglatadi.

Oq rang ko'rsatilgan obyekt ushbu aholi punktida joylashganini anglatadi.

Aholi punktida o'rnatilgan 5.20.1, 5.20.2, 5.21.1 va 5.21.2 yo'l belgilaridagi yashil, ko'k rang ko'rsatilgan aholi punktiga yoki obyektga ushbu aholi punktidan chiqqandan so'ng avtomagistral yoxud boshqa yo'l orqali harakatlanish mumkinligini anglatadi, oq rang esa ko'rsatilgan obyekt shu aholi punktida joylashganligini bildiradi.

## 5-mavzuga oid testlar

**1** **Bu yo'l belgisi:**
1. Faqat ko'rsatilgan yoki yuqori tezlikka ruxsat beradi.
2. Belgida ko'rsatilgandan ortiq tezlikdagi harakatni taqiqlaydi.
3. Yo'lning shu qismida tavsiya etilgan harakatlanish tezligini ko'rsatadi.




**2** **Qaysi belgi 50 km/soatdan kam tezlikda harakatlanishni taqiqlaydi?**




**3** **Haydovchi qaysi rasmda qoidalar talablarini buzmay turib manyovr qildi?**




**4** **Qaysi transport vositasining haydovchisi aylanma harakatli kesishmaga to'g'ri chiqadi?**
1. Har ikki haydovchi.
2. Faqat avtobusning haydovchisi.
3. Faqat yengil avtomobilning haydovchisi.



**5** **Avtomobilning qaysi yo'nalishda harakatlanishiga ruxsat etiladi?**
1. Chapga va o'ngga.
2. Faqat to'g'riga.
3. Barcha yo'nalishlarda.



**6** **Chorrahada harakatlanishning majburiy yo'nalishini qaysi belgi ko'rsatadi?**




**7** **Bu belgida harakatlanishga ruxsat etiladi:**
1. Faqat avtomobil haydovchisiga.
2. Faqat avtomobil va motosikl haydovchilariga.
3. Barcha transport vositalarining haydovchilariga.
4. Faqat avtomobil va avtobus haydovchilariga.



**8** **Belgilarning ta'siri qaysi transport vositalariga tatbiq etiladi?**
1. Faqat yengil avtomobillarga.
2. Yengil avtomobillarga va mototsikllarga.
3. Yengil avtomobillarga va ruxsat etilgan to'la vazni 3,5 t dan kam yoki teng bo'lgan yuk avtomobillariga.



**9** **Qaysi rasmda harakatlanishning to'g'ri yo'nalishi ko'rsatilgan?**

1. Birinchida.
2. Ikkinchida.
3. Ikkalasida.



**10** **Bu chorrahada chapga burilishga ruxsat etiladimi?**

1. Ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.



## 6. SERVIS BELGILARI

Servis belgilari transport vositalari, yo'lovchilar va haydovchilarga yo'l yoqasida joylashgan xizmat ko'rsatish joylari haqida ma'lumot beradi.

Ushbu belgilar xizmat ko'rsatish joylari oldida yoki ular tomonga boradigan yo'l boshida o'rnatiladi. Ikkinchi holatda belgi o'rnatilgan joydan xizmat ko'rsatish joyigacha bo'lgan masofa belgi ostida ko'rsatiladi.

### SERVIS BELGILARI




6.1 Tibbiy yordam ko'rsatish joyi; 6.2 Shifoxona; 6.3.1 Avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchasi; 6.3.2 Avtomobillarga ko'p tarmoqli yonilg'i quyish shoxobchasi; 6.3.3 Elektromobillarni quvvatlash shoxobchasi; 6.4 Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish joyi; 6.5 Avtomobillarni yuvish joyi




6.6 Telefon; 6.7 Oshxona; 6.8 Ichimlik suvi; 6.9 Mehmonxona yoki motel; 6.10 Kemping; 6.11 Dam olish joyi; 6.12 YPX maskani; 6.13 Avtotashuvchilarning nazorat punkti




6.14 Hojatxona; 6.15 Chiqindi tashlash joyi; 6.16 Cho'milish havzasi; 6.17 Ichki ishlar bo'limi; 6.18 Radio aloqasi; 6.19 Jome' masjidi; 6.20 Cherkov; 6.21 Ibodatxona




6.22 Temir yo'l vokzali; 6.23 Aeroport; 6.24 Bozor; 6.25 Turistik axborot markazi; 6.26 Qo'riqxona; 6.27 Manzarali joy; 6.28 Me'morchilik yodgorligi







# 7. QO'SHIMCHA AXBOROT BELGILARI

Qo'shimcha axborot belgilarining asosi oq rangda bo'lib, doimo boshqa belgilar bilan birga qo'llaniladi va ularning ta'sirini muayyanlashtiradi yoki cheklaydi.

**7.1.1. «Obyektgacha bo'lgan masofa».**




Ushbu belgi:



7.1.1

– ogohlantiruvchi belgilar bilan qo'llansa, xavfli joygacha bo'lgan masofani;

– imtiyoz belgilari bilan qo'llansa, belgining ta'siri qancha masofadan keyin imtiyoz yoki yo'l berish boshlanishini;

– taqiqlovchi belgilar bilan qo'llansa, qancha masofadan keyin yo'lning harakatlanish taqiqlangan qismi boshlanishini;

– axborot-ko'rsatkich belgilari bilan qo'llansa, chorrahadan manzilgacha bo'lgan masofani ko'rsatadi.




**7.1.2. «Obyektgacha bo'lgan masofa».** Chorraha yoki kesishma oldida 2.5– «To'xtamasdan o'tish taqiqlanadi» belgisi o'rnatilgan bo'lsa, 2.4 – «Yo'l bering» belgisi o'rnatilgan joydan chorraha yoki kesishmagacha bo'lgan masofani ko'rsatadi.




7.1.2




**7.1.3, 7.1.4. «Obyektgacha bo'lgan masofa».**

Ushbu belgilar chorrahadan, kesishmadan manzilgacha bo'lgan masofani ko'rsatadi.




7.1.3 7.1.4




**7.2.1. «Ta'sir oralig'i».**

Ushbu belgi:




7.2.1

– ogohlantiruvchi belgilar bilan qo'llansa, yo'lning xavfli qismi qanchagacha davom etishini;

– taqiqlovchi belgilar bilan qo'llansa, ularning ta'sir oralig'ini;

– axborot-ko'rsatkich belgilari bilan qo'llansa, 5.15, 5.18 belgilarining ta'sir oralig'ini ko'rsatadi.







**7.2.2 – 7.2.6. «Ta'sir oralig'i».**

Bu belgilar faqat taqiqlovchi 3.27 – 3.30 belgilari bilan qo'llaniladi.




7.2.2 7.2.3 7.2.4 7.2.5 7.2.6




7.2.2 – belgining ta'siri saqlangan oraliqni ko'rsatadi.

7.2.3 – belgi ta'sir oralig'i oxirini ko'rsatadi.



7.2.4 – haydovchilarga belgi ta'sirida ekanliklari haqida ma'lumot beradi.

7.2.5, 7.2.6 – maydon, binolar oldi va shunga o'xshash joylar chetida to'xtash va to'xtab turish taqiqlanganda belgining ta'sir oralig'i va yo'nalishini ko'rsatadi.

**7.3.1–7.3.3. «Ta'sir yo'nalishlari».**



7.3.1 7.3.2 7.3.3

Ushbu belgilar chorraha oldida o'rnatilgan taqiqlovchi, buyuruvchi va axborot-ko'rsatkich belgilari bilan qo'llanilib, ularning ta'sir yo'nalishini ko'rsatadi.





**7.4.1 – 7.4.10. «Transport vositasining turi».**

Ushbu belgilar asosiy belgilar bilan birga qo'llanilib, asosiy belgining ta'siri




7.4.1 7.4.2 7.4.3 7.4.4 7.4.5 7.4.6 7.4.7 7.4.8 7.4.9 7.4.10

qaysi turdagi transportga taalluqli ekanini tasvirdagi surat orqali ko'rsatadi. yengil avtomobil surati tasvirlangan 7.4.3 belgisi to'la vazni 3,5 tonnagacha bo'lgan yuk avtomobillariga ham taalluqli, yuk avtomobili surati tasvirlangan 7.4.1 belgisi to'la vazni 3,5 tonnadan yuqori bo'lgan avtomobillarga tegishli.

7.4.1 belgi bilan o'rnatilgan yo'l belgisining ta'siri yuk tashuvchi, shu jumladan, tirkamali, to'liq vazni 3,5 tonnadan ortiq bo'lgan transport vositalariga, 7.4.3 belgi bilan o'rnatilgan yo'l belgisining ta'siri yengil avtomobillarga, 7.4.9 elektromobillarga, 7.4.10 yo'nalishsiz taksilarga, shuningdek, to'liq vazni 3,5 tonnagacha bo'lgan yuk tashuvchi transport vositalariga tatbiq etiladi.






**7.5.1. «Shanba, yakshanba va bayram kunlari».**

**7.5.2. «Ish kunlari».**

**7.5.3. «Hafta kunlari».**




7.5.1 7.5.2 7.5.3

Asosiy belgilar ostiga o'rnatilgan ushbu belgilar asosiy belgi haftaning qaysi kuniga tegishli ekanligini ko'rsatadi.

Belgida haftaning qaysi kunlari amal qilinishi ko'rsatilgan.



**7.5.4. «Amal qilish vaqti».**

Asosiy belgi bilan qo'llanilgan ushbu belgi asosiy belgi kunning qaysi vaqtida amal qilishini ko'rsatadi.




7.5.4

**7.5.5.– 7.5.7. «Amal qilish vaqti».**




7.5.5 7.5.6 7.5.7

Asosiy belgilar bilan ko'rsatilgan ushbu belgilar asosiy belgi haftaning qaysi kuni va qaysi soatida amal qilishini ko'rsatadi.




**7.6.1 — 7.6.9. «Transport vositasini to'xtab turish joyiga qo'yish usuli».**



7.6.1 7.6.2 7.6.3 7.6.4



7.6.5 7.6.6 7.6.7 7.6.8 7.6.9

7.6.1 barcha turdagi transport vositalarini to'xtab turishi uchun yo'lning qatnov qismida, trotuar yoniga qo'yish usulini, 7.6.2 — 7.6.9 trotuar yonidagi to'xtab turish joyiga yengil avtomobillar, mototsikllar, mopedlar va skuterlarni qo'yish usulini bildiradi.

Ushbu belgilar «To'xtab turish joyi» belgisi bilan qo'llaniladi.

7.6.1 belgisi barcha turdagi transport vositalarining to'xtab turishi uchun yo'lning qatnov qismiga, piyodalar yo'lkasi yoniga qo'yish usulini bildiradi.







**7.7. «Dvigatelni ishlatmasdan to'xtab turish joyi».**

Kasalxonalar, sanatoriylar, dam olish uylari, aholi zich yashaydigan va shunga o'xshash joylarda ekologiyani buzmaslik maqsadida «To'xtab turish joyi» bilan birga 7.7 belgisi qo'llanilib, to'xtab turish joyida faqat dvigateli ishlamayotgan transport vositalarining to'xtab turishiga ruxsat etilganini bildiradi. 5.15 belgisi bilan birgalikda qo'llanganda to'xtab turish faqat dvigateli ishlamayotgan transport vositalarigagina ruxsat etilganini bildiradi.



7.7

**7.8. «Pullik xizmat ko'rsatish joyi».**




«To'xtab turish joyi» belgisi bilan qo'llangan ushbu belgi to'xtab turish joyi pullik ekanini ko'rsatadi.

**7.9. «To'xtab turish muddati cheklangan».**

Do'kon, bozor va shunga o'xshash joylarda xaridorlarning to'xtab turish joyidan foydalanish samaradorligini oshirish uchun «To'xtab tu-




7.8



rish joyi» bilan birga qo'llangan ushbu belgi to'xtab turish muddatini cheklaydi.

5.15 yoki 6.11 belgisi o'rnatilgan to'xtab turish joyida transport vositalari to'xtab turishining eng ko'p muddatini ko'rsatadi.



7.9

**7.10. «Avtomobillarni ko'rikdan o'tkazish joyi».**




To'xtab turish (5.15) yoki dam olish joyida (6.11) avtomobillarga mayda texnik xizmat ko'rsatish uchun estakada yoki ko'zdan kechirish chuqurchasi bor ekanini bildiradi.


7.10

**7.11. «Ruxsat etilgan to'la vazni cheklangan».**



Ushbu belgi ba'zi taqiqlovchi yoki buyuruvchi belgilar bilan qo'llanib, to'la vazni qo'shimcha axborot belgisida ko'rsatilgan miqdordan ortiq bo'lgan transport vositalariga tegishli ekanini ko'rsatadi.



7.11




**7.12. «Xavfli yo'l yoqasi».**

«Ta'mirlash ishlari» belgisi bilan qo'llangan ushbu belgi yo'l yoqasida yo'l ishlari olib borilayotganini, yo'ldan tashqariga chiqish xavfli ekanligini ko'rsatadi.


7.12



**7.13. «Asosiy yo'lning yo'nalishi».**


7.13

Ushbu belgi asosiy yo'l yo'nalishi o'zgarganda «Asosiy yo'l», «Yo'l bering», «To'xtamasdan harakatlanish taqiqlangan» belgilari bilan qo'llaniladi.



**7.14. «Harakatlanish tasmasi».**

Bu belgi asosiy belgilar yoki svetofor bilan birga qo'llanib, ularning ta'siri qo'shimcha axborot belgisi ko'rsatadigan tasmaga tegishli ekanligini bildiradi.


7.14



### 7.15. «Ko‘zi ojiz piyodalar».



7.15

Ushbu belgi 1.20, 5.16.1, 5.16.2 belgilari hamda svetofor bilan birga qo‘llanib, haydovchiga piyodalar o‘tish joyidan ko‘zi ojizlar o‘tishi mumkinligini bildiradi.




### 7.16. «Nam qoplama».



7.16

Yuqori tezlikning cheklanishi, eng kam oraliqning cheklanishi sabablarini ma’lum qilish uchun asosiy belgilar bilan birga 7.16 qo‘shimcha axborot belgisi qo‘llaniladi.

Belgi qatnov qismining qoplamasi nam bo‘lgan vaqtda ta’sir etishini ko‘rsatadi.




### 7.17. «Nogironligi bo‘lgan shaxs».



7.17

Asosiy belgilar bilan qo‘llanilgan ushbu belgi asosiy belgi faqat nogironlarga tegishli ekanini bildiradi. «To‘xtab turish joyi» belgisi 5.15 belgisi bilan qo‘llansa, to‘xtab turish joyi faqat nogironlarga tegishli avtomobil yoki motokajavaga taalluqli bo‘ladi. 5.15 belgisi bilan qo‘llaniladi. To‘xtab turish joyi (yoki uning bir qismi) Qoidalarning 176-bandiga muvofiq, «Nogironligi bo‘lgan shaxs» taniqlik belgisi o‘rnatilgan transport vositalari uchun ajratilganligini ko‘rsatadi.




### 7.18. «Nogironligi bo‘lgan shaxs mustasno».



7.18

Taqiqlovchi belgilar bilan o‘rnatilgan ushbu belgi taqiqlovchi belgining nogironlarga tegishli avtomobil yoki motokajavalarga taalluqli emasligini bildiradi.

Belgilarning ta’siri, Qoidalarning 176-bandiga muvofiq, «Nogironligi bo‘lgan shaxs» taniqlik belgisi o‘rnatilgan transport vositalariga va motokajavalarga joriy etilmaydi.



### 7.19. «Foto va video qayd etish».

Yo‘l harakati qatnashchilarining harakatlari maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilayotganligini bildiradi. Ogohlantiruvchi, imtiyoz, taqiqlovchi, buyuruvchi va axborot-ko‘rsatkich belgilari bilan birgalikda qo‘llaniladi.



7.19

### 7.20. «Xavfli yuk toifasi».



7.20

Xavfli yuk toifasining (toifalarining) raqamini ko‘rsatadi.

### 7.21. «Evakuator ishlamoqda».



7.21

3.27 — 3.30 yo‘l belgilari ta’sir oralig‘ida to‘xtagan transport vositalari majburiy evakuasiya qilinishini ko‘rsatadi.

**7.22.1, 7.22.2 va 7.22.3 «To'siq».** Haydovchilarga to'siqning uzoqdan ko'rinishini ta'minlash maqsadida o'rnatiladi. 4.2.1 — 4.2.3 yo'l belgilari bilan birgalikda o'rnatiladi»;



7.22.1 7.22.2 7.22.3

**7.23. "Navbat bilan o'tish".**



7.23

**7.24. "Transport vositasining davlat raqami".**




7.24

**7.25. "Faqat xizmat avtomobillari".**




7.25

**7.26 "Sun'iy notekislik".**



7.26

Qo'shimcha axborot belgilari qaysi belgi bilan birga joriy etilsa, bevosita shu belgi tagiga joylashtiriladi. 7.2.2 – 7.2.4, 7.13 qo'shimcha axborot belgilari qatnov qismining, yo'l yoqasining, trotuarning tepasiga o'rnatilgan belgilarining yoniga joylashtiriladi.

Vaqtincha (ko'chma tirgakdagi) va doimiy belgilar ma'no jihatidan bir-biriga zid kelgan hollarda haydovchilar vaqtincha o'rnatilgan belgilarga amal qilishlari kerak.




1.8, 1.15, 1.16, 1.31, 1.17, 1.18.1-1.18.3, 1.21, 1.30, 2.6, 2.7, 3.1, 3.2, 3.11-3.16, 3.18.1-3.25 yo'l belgilari vaqtincha yo'l belgilari sifatida belgilanishi mumkin. Vaqtincha yo'l belgilari sariq rangda bo'ladi.

# 6 – 7-mavzularga oid testlar

**1** **Qaysi belgi «Mehmonxona» yoki «Motel»ni bildiradi?**




**2** **Qaysi belgi «Dam olish joyi»ni bildiradi?**




**3** **Qaysi belgi bilan xavfli yo‘lning uzunligi ko‘rsatiladi?**




**4** **Bu belgilar bildiradi:**

1. «Nogiron» taniqlik belgisi bo'lgan avtomobillar uchun 30 m dan keyin to'xtab turish joyiga kelishini.
2. Motokajavalardan tashqari transport vositalari uchun 30 m li hududdagi to'xtab turish joyini.
3. «Nogiron» taniqlik belgisi bo'lgan motokajava va avtomobillar uchun 30 m li hududdagi to'xtab turish joyini.




**5** **Qaysi transport vositasining haydovchisi to‘xtab turish qoidasini buzdi?**

1. Yengil avtomobil haydovchisi.
2. Mototsikl haydovchisi.
3. Yuk avtomobili haydovchisi.
4. Barcha transport vositalarining haydovchilari.



**6** **Belgi ostidagi ko‘rsatkich nimani ko‘rsatadi?**

1. Yo'lning tor qismi uzunligini.
2. Belgidan yo'lning tor qismigacha bo'lgan masofani.
3. Tor qismini aylanib o'tish joyigacha masofani.




**7** **Transport vositalari chorrahani quyidagi tartibda kesib o‘tadi:**

1. Tramvaylar 1 va 2, ayni vaqtda yashil avtomobil bilan, qizil, ko‘k avtomobillar.
2. Tramvay 1, ayni vaqtda yashil avtomobil bilan qizil avtomobil, tramvay 2, ko‘k avtomobil.




**8** **Belgilarning ta’siri qaysi transport vositalariga tatbiq etiladi?**

1. Faqat yengil avtomobillarga.
2. Yengil avtomobillarga va mototsikllarga.
3. Yengil avtomobillarga va ruxsat etilgan to‘la vazni 3,5 t dan kam yoki teng bo‘lgan yuk avtomobillariga.



**9** **Qizil avtomobil chorrahani kesib o‘tadi:**

1. Birinchi bo‘lib.
2. Ikkinchi bo‘lib.



**10** **Qaysi qo‘shimcha axborot belgisi transport vositalarini to‘xtab turish joyiga qo‘yish usulini ko‘rsatadi?**



Yo'l chiziqlari harakatlanishni tashkil etishda haydovchining asosiy e'tibori yo'naltirilgan joylarga chiziladi. Yo'l chiziqlari yotiq yoki tik chiziq guruhlariga bo'linadi.

## 1. YOTIQ CHIZIQLAR

Yo'lning qatnov qismi yuzasidagi chiziqlar, yo'naltirgichlar, yozuvlar va boshqa belgilar harakatlanish tartibi va aniq rejimini belgilaydi.

Yo'l chiziqlari doimiy yoki vaqtincha bo'lishi mumkin.

Yo'l chiziqlarini ko'rish imkoniyati bo'lmasa (qor, loy va boshqalar) ushbu yo'l qismida mazkur chiziqlar ma'nosiga mos keladigan yo'l belgilari o'rnatilishi kerak.

Yotiq chiziqlar oq rangda bo'ladi (1.4, 1.10 va 1.17 chiziqlar sariq rangda bo'ladi), shuningdek, 1.24 chizig'i (2x2 metr o'lchamdagi ko'k asosda sariq rangda nogironligi bo'lgan shaxsning tasviri tushirilgan bo'ladi).

Piyodalar o'tish joyidagi chiziqlar oq va oq bilan birgalikda boshqa ranglar ko'rinishida qo'llanilishi mumkin.

**1.1** — qarama-qarshi yo'nalishlarda harakatlanayotgan transport oqimlarini ajratadi, yo'lning xavfli joylaridagi harakatlanish bo'lagi chegarasini va velosipedchilar uchun bo'lagining chegarasini bildiradi; yo'lning kirish taqiqlangan qismi chegarasini belgilaydi; transport vositalarining to'xtab turish joyi chegarasini hamda avtomagistral qatoriga kiritilmagan yo'lning qatnov qismi chegarasini bildiradi;







**1.2** (enli sidirg'a chiziq) — avtomagistrallarda qatnov qismi chetini bildiradi.




**1.3** — to'rt va undan ortiq harakatlanish bo'lagi bo'lgan yo'llarda qarama-qarshi yo'nalishdagi transport vositalari oqimini ajratadi;




**1.4** — to'xtash taqiqlangan joyni bildiradi. Yakka holda yoki 3.27 "To'xtash taqiqlangan" yo'l belgisi bilan qo'llaniladi hamda yo'lning qatnov qismi chetiga yoki yo'l chetidagi to'siq ustidan chiziladi (xizmat vazifasini bajarayotgan xodimga biriktirilgan ko'k yoki qizil yoxud ko'k va qizil rangli yaltiroq mayoqchasi bilan jihozlangan hamda maxsus rangli bo'yoq sxemalar va yozuvlar bilan belgilangan transport vositalari bundan mustasno).




**1.5** — ikki yoki uch tasmali yo'llarda qarama-qarshi yo'nalishlarda harakatlanayotgan transport vositalari oqimlarini ajratadi; bir yo'nalishda harakatlanish uchun mo'ljallangan ikki yoki undan ko'proq tasmali yo'llarda tasmalarning chegaralarini va bir yo'nalishdagi harakatlanish bo'lagi bilan velosiped bo'lagi chegarasini bildiradi;







**1.6** (yaqinlashish chizig'i — har bir chiziq uzunligi ular orasidagi masofadan uch barobar katta bo'lgan uzuq-uzuq chiziq) — qarama-qarshi yoki bir yo'nalishda harakatlanayotgan transport vositalari oqimlarini ajratuvchi 1.1 yoki 1.11 chizig'iga yaqinlashayotganlik haqida ogohlantiradi;




**1.7** (har bir chizig'i qisqa va oralari shu chiziqlar bo'yiga teng bo'lgan uzuq-uzuq chiziq) — chorrahadagi harakatlanish tasmalarini bildiradi;




**1.8** (enli uzuq-uzuq chiziq) — tezlashish yoki sekinlashish bo'lagi bilan yo'lning qatnov qismidagi asosiy bo'lagi o'rtasidagi chegarani bildiradi (chorrahalarda, yo'lning turli sathda kesishgan qismlarida, avtobuslar to'xtaydigan joylarda va boshqalar);




**1.9** — reversiv harakat tashkil etilgan bo'laklarning chegarasini belgilaydi; reversiv harakatlanish amalga oshirilgan yo'llarda (reversiv svetofori o'chirilgan holatda) qarama-qarshi yo'nalishdagi transport oqimini ajratadi;



**1.10** — to'xtab turish taqiqlangan joyni bildiradi; yakka holda yoki 3.28 yo'l belgisi bilan qo'llaniladi va yo'lning qatnov qismi chetiga yoki yo'l chetidagi to'siq ustidan chiziladi (xizmat vazifasini bajarayotgan xodimga biriktirilgan ko'k yoki qizil yoxud ko'k va qizil rangli yaltiroq mayoqchasi bilan jihozlangan hamda maxsus rangli bo'yoq sxemalar va yozuvlar bilan belgilangan transport vositalari bundan mustasno).




**1.11** — faqat bir tomondan qayta tizilishga ruxsat etilgan yo'l qismlarida, bir yo'nalishdagi yoki qarama-qarshi kelayotgan transport oqimlarini ajratadi; qayrilib olish, to'xtash maydonchalari va shunga o'xshashlarga kirish-chiqish joylarida harakatlanish faqat bir yo'nalishda ruxsat etilganligini ko'rsatadi;




**1.12** (to'xtash chizig'i) — 2.5 belgisi yoki svetoforning (tartibga soluvchining) taqiqlovchi ishorasida haydovchi to'xtash kerak bo'lgan joyni ko'rsatadi;




**1.13** — kesishayotgan yo'lda harakatlanayotgan transport vositasiga yo'l berish uchun to'xtash zarur bo'lganda, haydovchiga transport vositasini to'xtatish joyini ko'rsatadi;




**1.14.1** — (oq rangli "zebra") — piyodalarning o'tish joyini belgilaydi.




**1.14.2** — (oq-sariq rangli "zebra") — piyodalarning o'tish joyini belgilaydi;

**1.14.3** — yotiq chiziqning yo'naltirgichlari piyodalarning harakatlanish yo'nalishini ko'rsatadi;




**1.14.4** — oq-qizil rangli yo'l chizig'i maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari oldida piyodalarning o'tish joyini belgilaydi;

**1.15** — yo'lning velosiped yo'lkasi kesib o'tgan joyini bildiradi;




**1.16.1 — 1.16.3** — transport vositalari oqimi ajraladigan yoki qo'shiladigan joylardagi yo'naltiruvchi orolchalarni bildiradi;







**1.17** — yo'nalishli transport vositalarining bekatlari hamda taksilarning to'xtab turish joylarini bildiradi;




**1.18** — chorrahada tasmalar bo'laklar bo'yicha ruxsat etilgan harakatlanish yo'nalishlarini ko'rsatadi. Mustaqil yoki 5.8.1, 5.8.2 belgilari bilan birgalikda qo'llanilishi mumkin; oxiri berk yo'l tasvirlangan chiziq shu yo'nalishdagi yon tomonda joylashgan qatnov qismiga burilish taqiqlanganligini ko'rsatish uchun chiziladi; chetki chap tasmadan chapga burilishga ruxsat beruvchi yo'naltirgich shu tasmadan qayrilishga ham ruxsat beradi;




**1.19** — qatnov qismining toraygan (shu yo'nalishdagi harakatlanish tasmalarining soni kamaygan) joyiga yoki qarama-qarshi yo'nalishdan kelayotgan transport vositalari oqimlarini ajratuvchi 1.1 yoki 1.11 chizig'iga yaqinlashganlik haqida ogohlantiruvchi chiziq. Birinchi holda 1.18.1 — 1.18.3 belgilari bilan qo'llanilishi mumkin;




**1.20** — haydovchini 1.13 chizig'iga yaqinlashayotgani haqida ogohlantiradi;




**1.21** ("STOP" — To'xtang! yozuvi) — 2.5 belgisi bilan birga qo'llanilganda

haydovchini 1.12 chizig'iga yaqinlashayotganligi haqida ogohlantiradi;




**1.22** — yo'l (harakatlanish yo'nalishi) raqamini ko'rsatadi;




**1.23** — yo'lning faqat yo'nalishli transport vositalari uchun mo'ljallangan bo'lagini bildiradi.




**1.24** — nogironligi bo'lgan shaxslarning avtotransport vositalari uchun to'xtab turish joyi;

**1.25** — piyodalar yo'lkasini yoki piyodalar va velosipedchilar birgalikda harakatlanishi mo'ljallangan yo'lkaning piyodalar uchun mo'ljallangan qismini bildiradi;


1.24


1.25


1.26

**1.26** — velosiped yo'lkasini yoki velosiped harakatlanishi uchun mo'ljallangan tasmani bildiradi;

**1.27** — ogohlantiruvchi yo'l belgilarini takrorlovchi yo'l chizig'i;

**1.28** — taqiqlovchi yo'l belgilarini takrorlovchi yo'l chizig'i;

**1.29** -- sun'iy yo'l notekisligini bildiradi;


1.27



1.28


1.29

**1.30** – Maktablarga yaqin yo'lning qatnov qismidan maktab o'quvchilarning chiqib qolish ehtimolini inobatga olgan holda maktablar joylashgan hududlar oldida chiziladi;

**1.31** — Aholi punktlaridan tashqarida yo'llarning transport vositalari tez harakatlanadigan xavfli burilishlarida hamda aholi punktlarining piyodalar o'tish joylariga yaqinlashuvda haydovchilar hushyorligini oshirish maqsadida termoplast yordamida chiziladigan "Shovqin chiziqlari"dan foydalanilishi mumkin;

**1.32** — qatnov qismi kesishmasi hududiga yaqinlashayotganligini anglatib, oldinda tirbandlik yuzaga kelganligi tufayli majburiy to'xtab, ko'ndalang yo'nalishdagi transport vositalarining harakatlanishiga to'sqinlik tug'diradigan bo'lsa, chorrahaga kirish, agar to'xtash chizig'i yoki 5.33 yo'l belgisidan o'tib



1.30


1.31


1.32

bo'lgan haydovchiga esa qatnov qismlari kesishmasiga kirishni taqiqlanishini bildiradi;

**1.1** va **1.3** chiziqlarini bosib o'tish taqiqlanadi, qatnov qismining chetini bildirish uchun qo'llanilgan 1.1 chizig'i bundan mustasno.

**1.2, 1.5 — 1.8** chiziqlarini istalgan tomondan bosib o'tish mumkin.

Reversiv svetoforlar bo'lmaganda yoki ular o'chirib qo'yilganda, 1.9 chizig'ini faqat u haydovchining o'ng tomonida bo'lsa, bosib o'tishga ruxsat etiladi.

Reversiv svetofor yoqilgan paytda bir yo'nalishli tasmalarni ajratayotgan 1.9 chizig'ini istalgan tomondan bosib o'tishga ruxsat etiladi. Reversiv svetofor o'chirilganda, haydovchilar darhol 1.9 chizig'idan o'ngga qayta tizilishlari kerak.

Reversiv svetofor o'chirilgan bo'lsa, qarama-qarshi yo'nalishdagi transport oqimlarini ajratuvchi 1.9 chizig'ini bosib o'tish taqiqlanadi.

1.11 chizig'ini uzuq-uzuq chiziq tomonidan, sidirg'a chiziq tomonidan esa faqat quvib yoki aylanib o'tishni tugatayotganda bosib o'tishga ruxsat etiladi.

Yo'l belgilarining, shu jumladan, vaqtincha yo'l belgilarining va yotiq yo'l chiziqlarining ma'nolari bir-biriga zid kelgan hollarda yoki yo'l chiziqlarini yetarlicha farqlab bo'lmasa, haydovchilar yo'l belgilariga amal qilishlari kerak.

Vaqtincha yo'l chiziqlarining va doimiy yo'l chiziqlarining ma'nolari bir-biriga zid kelgan hollarda haydovchilar vaqtincha yo'l chiziqlariga amal qilishlari kerak.



## 2. TIK CHIZIQLAR

Tik chiziqlar yo'l inshootlari va jihozlari yuzalariga ketma-ket chizilgan yo'l-yo'l, oq-qora chiziqlar majmuasidan iborat bo'lib, ularning o'lchamlarini ko'rsatishda, ko'z bilan chamalash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Osmon bulut, kulrang bo'lganida, qorong'i vaqtlarda yo'lning yoritilmagan qismlarida yo'l yoqasidagi tik beton inshootlarning rangi osmon va yo'lning rangi bilan o'xshashib ketadi. Harakatdagi haydovchi ularni farqlay olmay, beton inshootlarni ko'rmay qoladi. Bu hol haydovchini beton to'siqlarga (inshootlarga) urilib ketishiga olib kelishi mumkin.

**2.1.** Chiziqlar ko'priklar, osma yo'llar ustunlari (va shu kabi beton inshootlar) yuzasiga chizilib, harakatlanayotgan transport vositasi haydovchisiga yo'ldagi (yo'l yoqasidagi) xavf soluvchi to'siqning rangini keskin ajratib, ko'rinishini osonlashtiradi.

Harakatlanayotgan transport vositalariga xavf tug'diradigan yo'l inshootlarining tik elementlari (ko'priklar, osma yo'llar, ustunlar va shu kabilar)ni bildiradi.

**2.2.** Tunnellar, osma yo'l va ko'priklarning pastki qirralariga chizilgan oq-qora rangli chizma haydovchiga inshootning pastki qismini farqlashni osonlashtiradi.

**2.3.** Chiziqlar ajratish tasmalaridagi yoki «xavfsizlik orolchalari»dagi dumaloq ustunlarni bildiradi.



**2.4.** Chiziqlar yo'naltiruvchi beton yoki temir-beton ustunlar, to'siq tirgaklar va qoziqlarni bildirib, qorong'i vaqtda, quyuq tumanda, hamma joy oppoq qor bilan qoplanganida yo'lning trayektoriyasini o'zining keskin farqlanadigan oq-qora rangi bilan aniq ko'rsatadi.

**2.5.** Chiziqlar yo'lning kichik radiusli burilishlari, tik nishabliklar va boshqa xavfli joylarda yo'l chetiga o'rnatilgan to'siqlarning yon yuzalarini bildiradi.

**2.6.** Chiziqlar boshqa joylardagi to'siqlarning yon yuzalarini bildiradi.

**2.7.** Chiziqlar yo'lning xavfli joylarida uning chetidagi to'siqni (bordyurni) va yo'l sathidan baland bo'lgan «xavfsizlik orolchalari» chetini bildiradi.



2.5



2.6



2.7


















# 2-ilovaga oid testlar

**1** **Yo'naltirgichlar bilan ko'rsatilgan yo'nalishlarning qaysi biridan harakat qilish mumkin?**

1. Faqat to'g'riga.
2. Chapga va orqaga.
3. To'g'riga, chapga va orqaga.



**2** **Rasmda ko'rsatilgan holatda yo'lovchilarni tushirish uchun to'xtashga ruxsat beriladimi?**

1. Ruxsat etiladi.
2. Taqiqlanadi.



**3** **Qatnov qismidagi bunday yo'naltirgichlar nimani bildiradi?**

1. Haydovchini yo'lning xavfli qismiga yaqinlashayotganligi haqida ogohlantiradi.
2. Qatnov qismining torayishiga yaqinlashayotganligi haqida ogohlantiradi.
3. Yo'lning xavfli burilish yo'nalishini ko'rsatadi.



**4** **Harakatda imtiyozga ega bo'ladi:**

1. Ko'k avtomobil, chunki qizil avtomobil harakatlanish bo'lagini chapga o'zgartiradi.
2. Qizil avtomobil, chunki o'zaro qayta tizilishda u o'ng tomonda bo'ladi.
3. Ko'k avtomobil, chunki o'zaro qayta saflanishda u chap tomonda bo'ladi.



**5** **Bu belgi avtomobilning harakatlanishiga ruxsat etadi:**

1. Barcha yo'nalishlarga.
2. B va V.
3. A va V.




**6** **Bu yotiq chiziqlardan qaysi biri belgilangan yo'nalishdagi transport vositalarining to'xtash joyini bildiradi?**

1. A.
2. B.
3. V.
4. A va B.
5. B va V.




**7** **Ko'rsatilgan vaziyatda yengil avtomobil haydovchisiga quvib o'tishga ruxsat etiladimi?**

1. Ruxsat etilgan.
2. Ruxsat etilgan, agar mototsiklchining tezligi 40 km/soatdan kam bo'lsa.
3. Taqiqlangan.



**8** **Reversiv harakatlanish amalga oshiriladigan harakat tasmalari chegaralarini belgilash uchun bu yotiq chiziqlarning qay biridan foydalaniladi?**

1. 1-chiziq.
2. 2-chiziq.
3. 3-chiziq.
4. 2- va 3-chiziqlar.
5. 3- va 4-chiziqlar.




**9** **Bu to'xtash yotiq chizig'i qaysi yo'l belgisi bilan qo'llaniladi?**

1. «Yo'l bering» belgisi bilan.
2. «To'xtamasdan harakatlanish taqiqlangan» belgisi bilan.
3. «Yo'l bering» belgisi bilan va «To'xtamasdan harakatlanish taqiqlangan» belgisi bilan.



**10** **Bu yotiq chiziq qaysi yo'l belgisi bilan qo'llaniladi?**

1. «Yo'l bering» belgisi bilan.
2. «To'xtamasdan harakatlanish taqiqlangan» belgisi bilan.
3. Ogohlantiruvchi «Teng ahamiyatli yo'llar kesishuvi» belgisi bilan.
4. Barcha sanab o'tilgan belgilar bilan.



*"Yo'l harakati qoidalari"ga*
*3-ILOVA*

# TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNI TAQIQLOVCHI SHARTLAR

## 1. Tormoz tizimlari

**1.1.** Tormoz tizimining konstruksiyasi o'zgartirilsa, ishlab chiqargan korxona talabiga mos kelmasa yoki transport vositasining shu turida ko'zda tutilmagan tormoz suyuqligi yoki boshqa qismlar qo'llanilsa.

**1.2.** Ishchi tormoz tizimining samaradorligi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 4-iyuldagi 191-son qarori bilan tasdiqlangan Avtotransport vositalari konstruksiyasining foydalanish shartlari bo'yicha xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentda belgilangan talablarga mos kelmasa.

**1.3.** Gidravlik tormoz yuritmasining zichligi (germetikligi) buzilgan bo'lsa.

**1.4.** Dvigatel ishlamay turganda pnevmatik yoki pnevmogidravlik tormoz yuritmasining zichligini buzilishi, boshqaruv qismlari ulanmaganda — 30 daqiqada, ulanganida — 15 daqiqada tizimdagi havo bosimini 0,05 MPa dan ko'pga pasayishiga sabab bo'lishi. G'ildiraklardagi tormoz kameralaridan siqilgan havo chiqishi.

**1.5.** Pnevmatik yoki pnevmogidravlik tormoz yuritmasining manometri ishlamasa.

**1.6.** To'xtab turish tormoz tizimi transport vositalarini quyidagi joylarda harakatsiz holatda ushlab tura olmasa:

to'liq jihozlangan holatdagi transport vositalarini — 16 foizdan kam bo'lmagan qiyalikda;

to'liq jihozlangan holatdagi yengil avtomobillarni va avtobuslarni — 25 foizdan kam bo'lmagan qiyalikda;

to'liq jihozlangan holatdagi yuk avtomobillarini va avtopoyezdlarni — 31 foizdan kam bo'lmagan qiyalikda;

*Izoh: To'xtab turish tormoz tizimi sinovdan o'tkazilayotganda dvigatel transmissiyadan ajratilgan bo'lishi kerak.*

## 2. Boshqaruv qurilmasi

**2.1.** Boshqaruv qurilmasining lyuft yig'indisi reglament (qat'iy belgilangan) sharoitlardagi sinovlarda quyi-

| Transport vositasining toifasi | Yo'l qo'yilgan lyuft ko'rsatgichi (gradusda) |
|---|---|
| M1 | 10° |
| M2, M3, N1 | 20° |
| N2, N3 | 25° |

dagi ko'rsatkichdan katta bo'lmasligi kerak:

**2.2.** Detal va bog'lamlarning konstruksiyasida ko'zda tutilmagan siljishlari bo'lsa. Rezbali birikmalar tegishli ravishda mahkamlanmagan yoki o'rnatilgan usulda qotirilmagan bo'lsa, rul kolonkasining qulflovchi moslamasi ishlamasa.

**2.3.** Boshqaruv qurilmasining konstruksiyasida ko'zda tutilgan kuchaytirgich yoki mototsikllarda tebranishni pasaytiruvchi moslama (dempfer) nosoz bo'lsa yoki umuman bo'lmasa.

**2.4.** Boshqaruv qurilmasida qoldiq deformatsiya izlari, darz ketgan joylari va boshqa nuqsonlari bo'lgan qismlar o'rnatilgan, shu transport vositasi turida ko'zda tutilmagan yoki ishlab chiqargan korxona talabiga mos kelmaydigan qismlar va suyuqliklar qo'llangan bo'lsa.

## 3. Tashqi yoritqichlar

**3.1.** Tashqi yoritgichlar soni, turi, joylashuvi va ishlash tartibi transport vositasining konstruksiyasi talabiga mos kelmasa.

Ishlab chiqarilishi to'xtatilgan yengil avtomobillarga boshqa turdagi va rusumdagi foydalanishda bo'lgan transport vositalarining tashqi yoritgichlarini o'rnatishga ruxsat etiladi. Har qanday tashqi yoritgichlar (burilishni ko'rsatadigan miltillovchi chiroq, avariya ishorasi chiroqlaridan tashqari) miltillamasligi kerak.

**3.2.** Yorituvchi chiroq nurining yo'nalishi buzilgan bo'lsa.

**3.3.** Agar tashqi yoritgichlar va nur qaytargichlar belgilangan tartibda ishlamayotgan yoki ifloslangan bo'lsa.

**3.4.** Yoritish asboblarida nur sochuvchisi bo'lmasa yoxud tegishli yorug'lik asboblari turiga mos bo'lmagan nur sochuvchi va ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan ko'zda tutilmagan lampalardan foydalanilgan bo'lsa.

**3.5.** Rangli yalt-yalt etuvchi mayoqchalarni o'rnatilishi, ularning mahkamlanishi va yorug'lik ishoraning ko'rinishi belgilangan talablarga javob bermasa.

**3.6.** Transport vositasida quyidagilar:

old qismida — oq yoki sariq rangdan boshqa rangli tumanga qarshi faralar, sariq yoki zarg'aldoq rangdan boshqa rangli burilishni ko'rsatadigan miltillovchi chiroq, oq rangdan boshqa rangli nur qaytargichlar o'rnatilgan bo'lsa;

orqa qismida — oq yoki sariq rangdan boshqa rangli orqaga harakatlanish, oq rangdan boshqa ro'yxatdan o'tkazish davlat raqam belgilarini yorituvchi chiroqlar, sariq yoki zarg'aldoq rangdan boshqa rangli burilishni ko'rsatadigan miltillovchi chiroq, qizil rangdan boshqa rangli tashqi yoritgichlar, qizil rangdan boshqa rangli nur qaytargichlar o'rnatilgan bo'lsa;

yon qismida — sariq yoki zarg'aldoq rangdan boshqa rangli yoritgichlar, sariq yoki zarg'aldoq rangdan boshqa rangli nur qaytargichlar o'rnatilgan bo'lsa;

velosipedning old tomoniga oq rangli nur qaytargich yoki chiroq, orqa tomoniga qizil rangli nur qaytargich yoki chiroq, yon tomonlariga esa, zarg'aldoq yoki qizil rangli nur qaytargich o'rnatilmagan bo'lsa;

Individual harakatlanish vositalari old tomonidan fara chiroqlari va orqa tomonida ogohlantirish chiroqlari yoki nur qaytargichlar bilan jihozlanmagan bo'lsa;

yuk avtomobillari va tirkamalarning yon tomoniga zarg'aldoq rangli va orqa tomoniga qizil rangli kuzovning gabarit parametrlarini belgilab turuvchi nur qaytargichlar o'rnatilmagan bo'lsa.

### 4. Oyna tozalagichlar va oyna yuvgichlar:

**4.1.** Oyna tozalagich belgilangan tartibda ishlamayotgan bo'lsa.

**4.2.** Transport vositasining konstruksiyasida ko'zda tutilgan oyna yuvgich ishlamayotgan bo'lsa.

### 5. G'ildiraklar va shinalar:

**5.1.** Shina protektori naqshlarining qoldiq balandligi N2, N3, O3, O4 toifadagi avtotransport vositalari uchun — 1,0 mm dan kam bo'lsa;

M1, N1, O1, O2 toifadagi avtotransport vositalari uchun — 1,6 mm dan, kam bo'lsa;

M2, M3 toifadagi avtotransport vositalari uchun — 2,0 mm dan kam bo'lsa;

Mototsikl, elektromototsikl, moped va skuterlar uchun — 0,8 mm dan kam bo'lsa.

*Izoh: tirkamalar shinasi naqshlarining qoldiq balandligi shatakchi transport vositasi shinalari uchun belgilangan me'yor kabidir.*

**5.2.** Shinalarda kordning ko'rinishiga olib kelgan tashqi nuqsonlar (teshilgan kesilgan, yorilgan) hamda karkas qatlamlari ajralgan, protektor va yon qismlari ko'chgan bo'lsa.

**5.3.** Qo'shaloq shinalar orasiga xavf-xatar tug'diruvchi begona jismlar qisilib, tiqilib qolgan bo'lsa.

**5.4.** Shina o'lchamlari yoki yo'l qo'yilgan og'irlik transport vositasining turiga mos kelmasa.

**5.5.** Transport vositasining bitta o'qiga har xil o'lchamli va konstruksiyali (dioganalli va radialli, kamerali va kamerasiz), har xil naqshli, sovuqqa chidamli va chidamsiz, yangi va qayta tiklangan, yangi va protektor naqshi chuqurlashtirilgan, turumlangan va turumlanmagan shinalar o'rnatilgan bo'lsa.

**5.6.** N2 va N3 toifadagi kapotsiz tuzilishli magistral tyagach (shatakchi) larning oldingi o'qiga va M3 toifani II va III klassdagi avtotransport vositalarini oldingi o'qiga qayta tiklangan shinalar, boshqa o'qiga esa ikkinchi ta'mirlash klassi bo'yicha qayta tiklangan shinalar o'rnatilgan bo'lsa.

**5.7.** M1, M2, M3 toifalarni I klassidagi avtotransport vositalarini oldingi o'qiga, M3 toifani II va III klassidagi avtotransport vositalarini o'rta va orqa o'qlariga ikkinchi ta'mirlash klassi bo'yicha qayta tiklangan shinalar o'rnatilgan bo'lsa.

**5.8.** G'ildirakni mahkamlovchi bolt (gayka) bo'lmasa, disk va g'ildirak obodlari darz ketgan bo'lsa yoki mahkamlash teshiklarining shakli va o'lchamlari ko'rinadigan darajada buzilgan bo'lsa.

### 6. Dvigatel

**6.1.** Ishlab chiqarilgan gazlar tarkibida zararli moddalar yoki tutash darajasi belgilangan me'yordan ortiq bo'lsa.

**6.2.** Yonilg'i uzatish tizimi zich bo'lmasa.

**6.3.** Ishlab chiqarilgan gazlarni chiqarib tashlash tizimi buzuq bo'lsa.

**6.4.** Karterni shamollatish tizimining zichligi buzilgan bo'lsa.

**6.5.** Aholi punktlarida transport vositalarining magnitofon va ovoz chiqaruvchi boshqa apparaturalarini hamda dvigatel shovqinini belgilangan me'yordan baland ovozda qilib foydalanish.

### 7. Transport vositasi konstruksiyasining boshqa tarkibiy qismlari.

**7.1.** Orqa tomonni ko'rsatuvchi ko'zgular soni, joylashuvi va turi belgilangan talablarga mos kelmasa, transport vositasining konstruksiyasida ko'zda tutilgan oynalari bo'lmasa.

**7.2.** Tovushli ishora ishlamasa.

**7.3.** Haydovchining joyidan tevarak-atrof ko'rinishini cheklaydigan qo'shimcha narsalar o'rnatilgan va qoplamalar tushirilgan bo'lsa.

Transport vositasi salonidagi va ikki yonidagi orqa tomonni ko'rish ko'zgusiga ko'rinishini cheklaydigan buyum, narsa yoki jihozlar taqilgan bo'lsa.

**7.4.** Barcha transport vositasining old, yon oynalarining yorug'lik o'tkazuvchanligi 70 foizdan kam bo'lsa, avtomobil tomidagi lyuk oynasi, shuningdek, ruxsatnoma asosida tusi o'zgartirilgan (qoraytirilgan) avtotransport vositalarining oynalari bundan mustasno.

*Izoh. III klass M3 toifadagi avtotransport vositalarining orqa va yon oynalariga pardalar, ikki yonga orqa tomonni ko'rish uchun tashqi ko'zgusi mavjud bo'lgan barcha toifadagi avtotransport vositalari orqa oynalarining tusini yorug'lik o'tkazuvchanligi cheklanmagan darajada o'zgartirishga (qoraytirishga), shuningdek, ushbu orqa oynalarga parda (chiy parda, darparda) o'rnatishga ruxsat beriladi.*

**7.5.** Konstruksiyasida ko'zda tutilgan yukxona yoki kabina eshiklarining qulflari, yuk platformasi bortlarining yopqichlari, sisternalar og'zining qulflari va yonilg'i idishining qopqoqlari, haydovchi o'rindig'i holatini sozlovchi qurilma, avtobusda falokat yuz

bergan vaqtida eshiklarni ochish moslamasi va to'xtatish talabi ishorasi, avtobus salonini yoritish asboblari, falokat yuz bergan vaqtda chiqish joylari va ularni harakatga keltiruvchi moslamalari, eshiklarni ochish va yopish qurilmalari, spidometr, taxograf, oynalarni isituvchi va shamollatuvchi moslamalari va haydab olib qochishga qarshi moslamalari ishlamaydi.

**7.6.** Spidometr qurilmasi nosoz va tamg'alanmagan (shaxsiy transport vositalari, mototsikl, elektromototsikl, skuter va mopedlardan tashqari) bo'lsa.

**7.7.** Transport vositasi konstruksiyasida ko'zda tutilgan orqa himoya vositasi, loy to'sgichlar bo'lmasa.

**7.8.** Ishlab chiqargan korxona tomonidan ko'zda tutilmagan antenna, sirena, ratsiya, tovush chiqarish moslamalari, yoritgichlar, konstruksiyasida ko'zda tutilmagan nostandart yukxonalar va boshqalar belgilanmagan joyda va tegishli ruxsatsiz o'rnatilsa.

**7.9.** Tirkama bo'g'imining tortish-tirkash yoki tayanch-tirkash moslamasi nosoz hamda konstruksiyasida ko'zda tutilgan ehtiyot po'lat arqon (zanjir) yo'q yoki nosoz bo'lsa. Mototsikl yoki elektromototsikl ramasi bilan yon tirkama ramasi mahkamlangan joyda lyuft bo'lsa.

**7.10.** Transport vositalari quyidagilar bilan jihozlanmagan bo'lsa:

M2, M3 toifadagi — favqulodda holatlarda oynani sindirish uchun foydalaniladigan bolg'acha, tibbiyot qutichasi, 2 ta o't o'chirgich (bittasi haydovchining kabinasida, ikkinchisi — yo'lovchilar salonida), majburiy to'xtaganini bildiruvchi belgi (yoki miltillovchi qizil chiroq) va nur qaytargichli kamzul (jilet);

M1, N1, N2, N3 toifadagi, mikroavtobus va g'ildirakli traktorlarda tibbiyot qutichasi, o't o'chirgich, majburiy to'xtaganligini bildiruvchi belgi (yoki miltillovchi qizil chiroq) va nur qaytargichli kamzul (jilet);

M3, N2, N3 toifadagi — o'zi yurib ketishidan saqlovchi, g'ildirak diametriga muvofiq (kamida ikkita) tirgak;

O toifadagi, traktorlar, aravalar va boshqa o'ziyurar mashinalarda — tashqi nur qaytargichlar;

kajavali mototsikllar va elektromototsikllarda — tibbiyot qutichasi, majburiy to'xtaganligini bildiruvchi belgi.

**7.11.** Mototsikl va elektromototsiklarda konstruksiyasida ko'zda tutilgan xavfsizlik yoyi (duga) bo'lmasa.

**7.12.** Mototsikl, elektromototsikl, moped va skuterlarda konstruksiyasida ko'zda tutilgan oyoq tiragich, egarida yo'lovchi uchun ko'ndalang tutqich bo'lmasa.

**7.13.** Konstruksiyasida ko'zda tutilgan xavfsizlik kamarlari va o'rindiqlarning bosh suyanchiqlari bo'lmasa.

**7.14.** Xavfsizlik kamarlari ishga yaroqsiz yoki tasmasida ko'rinadigan yirtiqliklar mavjud bo'lsa.

**7.15.** Transport vositasining ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari yoki ularni o'rnatish usuli belgilangan talablarga javob bermasa.

Transport vositasida ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarini ko'rinishini cheklaydigan, to'g'ri aniqlanishiga xalaqit beradigan har xil buyumlar o'rnatilgan va qoplamalar bilan qoplangan bo'lsa.

**7.16.** Yarim tirkamada tayanch moslamasi, tayanchlarni transport holatida qulflovchi moslama, tayanchlarni ko'tarish va tushirish moslamasi yo'q yoki nosoz.

**7.17.** Ehtiyot (zaxira) g'ildirakni ushlab turgich, lebyodka va ehtiyot g'ildirakni ko'tarish — tushirish qurilmasi ishlamasa. Lebyodkaning xrapli qurilmasi barabanni mahkamlash kanati bilan qulflanmayotgan bo'lsa.

**7.18.** Dvigatel, uzatmalar qutisi, reduktorlar, orqa ko'prik, ilashish

(sseplеniye) mexanizmi, akkumulyator batareyasi, sovitish va konditsioner tizimlari va transport vositasiga qo'shimcha o'rnatiladigan gidravlik qurilmalarning (moslamalarning) birikmalari va zichlagichlarining zichligi buzilgan bo'lsa.

**7.19.** Gazli ta'minlash tizimi bilan jihozlangan avtobus va avtomobil gaz ballonlarining tashqi tomonida ko'rsatilgan texnik ko'rsatgichlar texnik pasportdagi ma'lumotlarga mos kelmasa, oxirgi va rejalashtirilayotgan tekshiruvlarning sanasi bo'lmasa.

**7.20.** Transport vositalarining tashqi yuzasiga qonunchilik hujjatlariga mos kelmaydigan, harakat xavfsizligiga salbiy ta'sir etuvchi turli xil tasvirlar tushirilgan, oynalariga (lyukdan tashqari) reklama chizilgan (qoplangan) bo'lsa.

Ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan ko'zda tutilmagan hollarda kuzov (kabina) bir necha xil rangga bo'yalgan, plyonka yopishtirilgan yoki rangi, tusi o'zgartirilgan bo'lsa (maxsus transport vositalari bundan mustasno).

**7.21.** Transport vositalari o'zboshimchalik bilan yalt-yalt etuvchi mayoqcha va (yoki) maxsus tovushli ishoralar bilan jihozlangan bo'lsa, yoxud transport vositasining tashqi yuzasida belgilangan talablarga mos kelmaydigan maxsus rangli bo'yoq sxemalar, yozuvlar va belgilar bo'lsa.

**7.22.** DYXXX organlarining ruxsatisiz transport vositalarining konstruksiyasiga o'zgartirishlar kiritilgan bo'lsa.

Transport vositalariga boshqa turdagi moldinglar, g'ildirak qopqoqlari o'rnatilishiga, shuningdek, ishlab chiqarilishi to'xtatilgan avtomobillarga boshqa turdagi va rusumdagi transport vositalarining buferlarini o'rnatishga ruxsat etiladi.

Ushbu ilovada Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 4-iyuldagi 191-son qarori bilan tasdiqlangan Avtotransport vositalari konstruksiyasining foydalanish shartlari bo'yicha xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentda belgilangan avtotransport vositalarini tasnifi (klassifikatsiyasi) keltirilgan:

M toifasi — kamida to'rt g'ildirakka ega bo'lgan va yo'lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan mexanik transport vositalari, shu jumladan:

M1 toifasi — yo'lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan va haydovchining o'rindig'idan tashqari o'rindiqlar soni 8 tadan oshmaydigan avtotransport vositalari.

M2 toifasi — yo'lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan, haydovchining o'rindig'idan tashqari o'rindiqlar soni 8 tadan ortiq va eng katta vazni 5 t gacha bo'lgan avtotransport vositalari.

M3 toifasi — yo'lovchilarni tashish uchun foydalaniladigan, haydovchining o'rindig'idan tashqari o'rindiqlar soni 8 tadan ortiq va eng katta vazni 5 t dan ko'p bo'lgan avtotransport vositalari.

M2 va M3 toifalardagi avtotransport vositalari quyidagi klasslarga mansub:

a) uch klassdan (I, II, III) bittasiga yoki bir nechtasiga;

b) ikki klassdan (A, V) bittasiga.

I klass — yo'lovchilar salonda bemalol yurishi maqsadida konstruksiyasida turib ketadigan yo'lovchilar uchun joylar ko'zda tutilgan avtotransport vositalari.

II klass — konstruksiyasi asosan o'tirib ketadigan yo'lovchilar uchun mo'ljallangan va qatorlar orasida va (yoki) ikkita birlashgan o'rindiq uchun ajratilgan joy chegarasidan chiqmasdan joylashib, turib ketadigan yo'lovchilarni ham tashish ko'zda tutilgan avtotransport vositalari.

III klass — konstruksiyasi faqat o'tirib ketadigan yo'lovchilar uchun mo'ljallangan avtotransport vositalari.

A klass — turib ketadigan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan avtotrans-

port vositalari; bu klassdagi transport vositalari o‘rindiqlar bilan jihozlangan va ularda turib ketadigan yo‘lovchilarni tashish ko‘zda tutilgan.

V klass — turib ketadigan yo‘lovchilarni tashish uchun mo‘ljallanmagan avtotransport vositalari.

Mikroavtobuslar yo‘lovchilar tashish uchun mo‘ljallangan, haydovchidan tashqari 16 tagacha o‘tiradigan yo‘lovchi uchun joy bo‘lgan V klassdagi avtotransport vositasi.

N1 toifasi — yuk tashish uchun mo‘ljallangan, eng katta vazni 3,5 t dan oshmaydigan avtotransport vositalari.

N2 toifasi — yuk tashish uchun mo‘ljallangan, eng katta vazni 3,5 t dan ortiq, lekin 12 t dan oshmaydigan avtotransport vositalari.

N3 toifasi — yuk tashish uchun mo‘ljallangan, eng katta vazni 12 t dan ortiq bo‘lgan avtotransport vositalari.

O toifasi — tirkamalar (yarim tirkamalar ham).

O1 toifasi — eng katta vazni 0,75 t dan oshmaydigan tirkamalar.

O2 toifasi — eng katta vazni 0,75 t dan ortiq, lekin 3,5 t dan oshmaydigan tirkamalar.

O3 toifasi — eng katta vazni 3,5 t dan ortiq, lekin 10 t dan oshmaydigan tirkamalar.

O4 toifasi — eng katta vazni 10 t dan ortiq bo‘lgan tirkamalar.

L toifasi — mototransport vositalari.

L1 toifasi — maksimal konstruktiv tezligi soatiga 50 kilometrdan oshmaydigan, ichki yonuv dvigatelining ish hajmi 50 cm³ gacha bo‘lgan yoki elektrodvigatelining nominal maksimal quvvati 4 kilovattdan oshmaydigan ikki g‘ildirakli transport vositasi;

L2 toifali — maksimal konstruktiv tezligi soatiga 50 kilometrdan oshmaydigan, ichki yonuv dvigatelining ish hajmi 50 cm³ gacha bo‘lgan yoki elektrodvigatelining nominal maksimal quvvati 4 kilovattdan oshmaydigan uch g‘ildirakli transport vositasi;

L3 toifali — ichki yonuv dvigatelining ish hajmi 50 cm³ va undan oshadigan, konstruktiv tezligi (har qanday dvigatelli) soatiga 50 kilometr va undan oshadigan ikki g‘ildirakli transport vositasi;

L4 toifali — ichki yonuv dvigatelining ish hajmi 50 cm³ va undan oshadigan yoki konstruktiv tezligi (har qanday dvigatelli) soatiga 50 kilometr va undan oshadigan, o‘rtacha uzunlama tekislikka nisbatan asimmetrik kajavali uch g‘ildirakli transport vositasi;

L5 toifali — ichki yonuv dvigatelining ish hajmi 50 cm³ va undan oshadigan, konstruktiv tezligi (har qanday dvigatelli) soatiga 50 kilometr va undan oshadigan yoki transport vositasining o‘rtacha uzunlama tekisligiga nisbatan simmetrik kajavali uch g‘ildirakli transport vositasi;

L6 toifali — akkumulyatorlarini hisobga olmaganda (elektr transport vositalari uchun) vazni 350 kilogrammdan oshmaydigan maksimal konstruktiv tezligi soatiga 50 kilometrdan oshmaydigan yoki ichki yonuv dvigatelining ish hajmi 50 cm³ gacha yoxud elektrodvigatelining nominal maksimal quvvati 4 kilovattdan oshmaydigan to‘rt g‘ildirakli transport vositasi;

L7 toifali — L6 toifadagi transport vositalaridan farqli o‘laroq akkumulyatorlarini hisobga olmaganda (elektr transport vositalari uchun) to‘liq vazni 400 kilogrammdan (yuk tashish uchun mo‘ljallangan transport vositalari uchun 550 kilogrammdan) oshmaydigan va elektrodvigatelining nominal maksimal quvvati 15 kilovattdan oshmaydigan to‘rt g‘ildirakli transport vositasi.

# AVTOTRANSPORT VOSITALARINING TASNIFI













## KLASS - I





## KLASS - II





## KLASS - III





## KLASS - A





## KLASS - B





N-1



N-2



N-3



## TIRKAMALAR (yarim tirkamalar ham)

O-1



O-2



O-3



O-4



# MOTOTRANSPORT VOSITALARI
























*Yo'l harakati qoidalariga*
*4-ILOVA*

# XAVFLILIK BELGILARI

1


Portlovchi moddalar va 1.1, 1.2 va 1.3 kichik klasslar buyumlari

2


Portlovchi moddalar va 1.4 kichik klass buyumlari

3


Portlovchi moddalar va 1.5 kichik klass buyumlari

4


Portlovchi moddalar va 1.6 kichik klass buyumlari

5


Alangalanmaydigan, notoksik gazlar

6


Tez alangalanadigan gazlar va suyuqliklar

7


Tez alangalanadigan qattiq moddalar, o'zi reaktiv moddalar va desensibilashgan portlovchi moddalar

8


O'z-o'zidan yonuvchi moddalar Suv tekkanda tez alangalanadigan gaz ajratuvchi moddalar

9


Suv tekkanda tez alangalanadigan gaz ajratuvchi moddalar

10


Oksidlovchi moddalar

11


Organik peroksidlar

12


Toksik moddalar

13


Infeksiyali moddalar

14


I toifali radioaktiv materiallar

15


II toifali radioaktiv materiallar

16


III toifali radioaktiv materiallar

17


Korroziyalanuvchi moddalar

18


Boshqa xavfli moddalar va buyumlar

# AVTOTRANSPORT VOSITALARINING BELGILARI

| | |
|---|---|
| ** | * |
| | *** |

| | |
|---|---|
| 1 | QURUQ MODDALAR QO'LLANSIN, SUV QO'LLANMASIN! |
| 2 | KICHIK SUV OQIMLARI QO'LLANSIN! |
| 3 | SOCHMA SUV YOKI INGICHKA OQIM QO'LLANSIN! |
| 4 | KO'PIK QO'LLANSIN! |
| 5 | OQOVA SUVGA MODDALAR TUSHISHINING OLDI OLINSIN! |
| N | NAFAS OLISH APPARATI VA HIMOYALOVCHI QO'LQOPLAR QO'LLANSIN! |
| Yo | FAQAT YONG'IN CHIQQANDA NAFAS OLISH APPARATI VA HIMOYALOVCHI QO'LQOPLAR QO'LLANSIN! |
| K | HIMOYALOVCHI KIYIM-BOSHLARNING TO'LIQ TO'PLAMI VA NAFAS OLISH APPARATI QO'LLANSIN! |
| E | ODAMLAR EVAKUATSIYA QILINISHI ZARUR! |

* Yong'in yoki modda sizib chiqqandagi shoshilinch choralar kodi.
** Xavflilik belgisi.
*** BMT tartib raqami.

# 3-ilovara oid testlar

**1** **Sanab o'tilgan sharoitlardan qay birida avtomobillar va avtopoyezdlardan foydalanish taqiqlanadi?**

1. Gidravlik tormoz tizimining zichligi buzilganda.
2. To'xtab turish tormoz tizimi harakatsiz holatda to'la vazndagi transport vositalarini 16%dan kam bo'lgan qiyalikda ushlab tura olganda.
3. To'xtatib turish tormoz tizimining richagini tutib turuvchi moslama ushlab turganda.

**2** **Agar pnevmatik uzatmaning zichligi buzilib, kompressor ishlamay turganda boshqaruv asboblarining erkin holatida havo bosimining 30 daqiqada qancha kg/cm pasayishiga sabab bo'lsa, tormoz tizimi nosoz hisoblanadi?**

1. 0,2.
2. 0,4.
3. 0,5.
4. 0,75.
5. 1,0.

**3** **Avtomobil yurib ketayotganda kutilmaganda shinasi yorilib ketsa, haydovchi nima qilishi zarur?**

1. Ishchi tormoz bilan to'la to'xtaguncha keskin tormozlash.
2. Avtomobilni to'xtab turish tormozi yordamida to'xtatish.
3. Boshqaruv chambaragini ushlab turish, to'g'ri chiziqli harakatni saqlash, tezlikni kamaytirish va to'xtatish.

**4** **«Ruxsat etilgan to'la vazn» nima?**

1. Transport vositasining yuk ko'tarishi.
2. Transport vositasining haqiqiy vazni.
3. Ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan belgilangan, aslahalangan transport vositasining haydovchi, yo'lovchi, yuk bilan birga ruxsat etilgan eng yuqori vazni (miqdori).
4. Transport vositasida tashiladigan yukning ishlab chiqargan korxona yo'l qo'ygan texnik tavsifnomasi sifatida belgilanadigan vazni.

**5** **O'ng va chap g'ildiraklarining shinalari turlicha yopilgan avtomobilga tormoz berish qanday xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin?**

1. Tormoz barabanlarining qizib ketishiga.
2. Naqsh izlarining ko'chib ketishiga.
3. Avtomobilning ag'darilib ketishi mumkin darajada sirpanib ketishiga.

**6** **Yo'lovchi tashishga mo'ljallanmagan yuk avtomobilida yukni kuzatib boruvchi yoki qabul qilib oluvchi shaxslarning tashilishiga ruxsat beriladimi?**

1. Agar bort balandligidan pastda joylash-gan qulay o'rindiq bo'lsa, ruxsat beriladi.
2. Taqiqlanadi.

**7** **Qanday sharoitlarda transport vositalaridan foydalanish taqiqlanadi?**

1. Faralar nosoz bo'lsa.
2. Tashqi yoritish asboblari va yorug'lik qaytargichlar ifloslanganda.
3. Yoritish asboblari o'rnida mazkur yoritish asboblarining turiga mos kelmaydigan lampalardan foydalanilganda.
4. Barcha sanab o'tilgan sharoitlarda.

**8** **Qanday nosozlik bo'lganda transport vositalarining harakatlanishni davom ettirishi taqiqlanadi?**

1. Transport vositalarining tuzilishida ko'zda tutilgan oyna yuvgichlari ishlamaydi.
2. Tashqi yoritish asboblari va yorug'lik qaytargichlar belgilangan tartibda ishlamaydi yoki ifloslangan.
3. Yomg'ir yoki qor yog'ayotgan vaqtda haydovchi tomonidagi oyna tozalagich ishlamaydi.
4. Barcha sanab o'tilgan sharoitlarda.

**9** **Tormoz tizimi ishlamayotgan transport vositasini shatakka olish mumkinmi?**

1. Agar shatakka olgan transport vositasining haqiqiy vazni shatakka olinuvchi transport vaznidan ikki barobar ortiq bo'lsa, qattiq ulagich bilan.
2. Faqat qattiq ulagichda.
3. Agar shatakka olingan transport vositasida haydovchi bo'lsa har qanday usul bilan.
4. Faqat unga qisman ortish usuli bilan.

**10** **Mexanik transport vositalaridan foydalanish qanday sharoitlarda taqiqlanadi?**

1. Yurgizgich ishida nuqson bo'lganda.
2. Uzatish qutisida shovqin bo'lganda.
3. Davlat davriy texnik ko'rigidan belgilangan tartibda o'tmaganda.

# AVTOHALOKATLARDA SHOSHILINCH BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISH QOIDALARI VA TALABLARI

*O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2011 yil 22 iyundagi 178-son buyrug'iga ilova*

**Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish uchun transport vositasining salonida bo'lishi shart qilingan zarur tibbiy ashyolar RO'YXATI**

| T/r | Tibbiy ashyolar nomi | Chiqarilish shakli (o'lchami) | Miqdori, avtoransport toifasiga ko'ra | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | B (M1) | C (N1, N2, N3) | D (M2, M3) |
| | **I. TASHQI QON KETISHINI VAQTINCHALIK TO'XTATISH VA JAROHATLARGA BOG'LAM QO'YISH UCHUN** | | | | |
| 1. | Qon to'xtatuvchi jgut | | 1 dona | 1 dona | 3 dona |
| 2. | Nosteril tibbiy dokali bint | 5 m x 5 cm | 2 dona | 2 dona | 5 dona |
| 3. | Nosteril tibbiy dokali bint | 5 m x 10 cm | 2 dona | 2 dona | 5 dona |
| 4. | Nosteril tibbiy dokali bint | 7 m x 14 cm | 1 dona | 1 dona | 3 dona |
| 5. | Nosteril tibbiy dokali bint | 5 m x 7 cm | 2 dona | 2 dona | 5 dona |
| 6. | Steril tibbiy dokali bint | 5 m x 10 cm | 2 dona | 2 dona | 5 dona |
| 7. | Steril tibbiy dokali bint | 7 m x 14 cm | 1 dona | 1 dona | 5 dona |
| 8. | Steril bog'lam uchun paket | | 1 dona | 1 dona | 5 dona |
| 9. | Steril tibbiy dokali salfetkalar | 16 cm x 14 cm dan kam bo'lmagan, N 10 | 1 quti | 1 quti | 3 quti |
| 10. | Bakteritsid leykoplastir | 4 cm x 10 cm dan kam bo'lmagan | 2 dona | 2 dona | 5 dona |
| 11. | Bakteritsid leykoplastir | 1,9 cm x 7,2 cm dan kam bo'lmagan | 2 dona | 5 dona | 15 dona |
| 12. | Rulonli leykoplastir | 1 cm x 250 cm dan kam bo'lmagan | 1 dona | 1 dona | 3 dona |
| | **II. YURAK-O'PKA REANIMATSIYASI VOSITALARI** | | | | |
| 1. | Og'iz vositasi og'iz usulida sun'iy nafas o'tkazish uchun to'siq vositasi | | 1 dona | 1 dona | 2 dona |
| | **III. BOSHQA VOSITALAR** | | | | |
| 1. | Ammiak eritmasi – 10% (nashatir spirti) | Flakon | 1 dona | 1 dona | 2 dona |
| 2. | Qaychi | | 1 dona | 1 dona | 2 dona |
| 3. | Tibbiy qo'lqoplar | O'lchami "M" dan kam bo'lmagan | 1 juft | 1 juft | 5 juft |
| 4. | Tibbiyot qutichasi | | 1 dona | 1 dona | 1 dona |

**Izoh:**

*1. Yaroqlilik muddati o'tgan va o'ramiga zarar yetgan dori vositalari hamda tibbiy ashyolarning qo'llanilishi taqiqlanadi.*

*2. Tibbiyot qutichasi transport vositalarini ishlab chiqargan tashkilot tomonidan belgilangan joyga mustahkam o'rnatiladi. Agar transport vositasining konstruksiyasida bunday joy ko'zda tutilmagan bo'lsa, tibbiyot qutichasi oson olinadigan joyda bo'lishi lozim.*

*3. Ushbu ro'yxat O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan kelishilgan.*

## JAROHATLANGANLARNI AVTOMOBIL ICHIDAN YOKI TAGIDAN CHIQARIB OLISH QOIDALARI:

- Avtomobil eshiklari ochilmaydigan bo'lib qolishi, kuzovi qattiq deformatsiyaga uchragani sababli shikastlanganlarni avtomobildan chiqarib olishning iloji bo'lmay qoladi, jarohatlanganlarni avtomobildan ajratib olayotganda kuch ishlatib tortmasdan, surib, ko'tarib, halaqit berayotgan avtomobil qismlarini sindirib bo'lsa ham bemorni asta-sekin ikki yoki uch kishi yordamida ajratish kerak;
- bemorning ahvolini og'irlashtirmaslik uchun uni avtomobil ichida qanday paytda ko'rgan bo'lsa, shu holatda chiqarib olish lozim;
- agar bemorni bir kishi ajratib olayotgan bo'lsa, o'z-o'zidan ma'lumki, holatini o'zgartirishga to'g'ri keladi, shunday holatda ham bosh va bo'ynini qimirlatmaslik kerak;
- avtomobil haydovchisi turli to'qnashuvlarda kuchli siljishi natijasida ko'krak qismi bilan rul chambaragiga urilib ketadi. Shunda ikki tomonlama bir yoki ko'plab qovurg'alar sinishi mumkin. Shuni nazarda tutib, bemorni ajratib olayotgan vaqtda ko'krak qafasini ezib yubormaslik kerak, aks holda singan qovurg'alar siljishi natijasida og'riq, qon ketishi, ichki a'zolar zararlanishi kuzatilishi mumkin. Agar shikastlangan kishida qovurg'a singanligiga shubha tug'ilsa, uni qo'ltiq qismidan ushlash kerak, shunda qovurg'alar himoyalangan hisoblanib, jarohati og'irlashmaydi;
- avtohalokatlarda, agar tez tibbiy yordam mashinasi bir necha daqiqa ichida kelmasa, avtomobil ichidagi bemor es-hushida bo'lib, hech qaysi joyi ezilmagan bo'lsa, reanimasiya choralariga muhtoj bo'lmasa, uni chiqarib olish zarur;
- agar mashinadan yonayotgan elektr simlari yoki benzin hidi kelayotgan bo'lsa, zudlik bilan jarohatlanuvchini chiqarib olish lozim. Shu bilan birga haydovchini ham, yo'lovchilarni ham uzoqroq masofaga olib borish zarurdir.







## TIBBIY SARALASHNI QANDAY QILIB MUKAMMAL O'TKAZISH MUMKIN?

• Shikastlanuvchida hayot uchun xavfli jarohati bor yoki yo'qligi aniqlanadi;

• agar shikastlangan behush holda bo'lsa, saralash ***«o'likmi-tirikmi»*** degan gumon bilan boshlanadi;



• fojia yuz bergan joyda o'lim kuzatilsa, u holda ko'proq bosh miya va ko'krak qafasi jarohati to'g'risida o'ylash kerak;

• ko'krak qafasining og'ir shikastlanishida ko'krak qafasi deformasiyasini ba'zida ko'z bilan ko'rish yoki har holda qo'l bilan ushlab, qovurg'alarning qimirlayotganini suyaklar g'ichirlashi borligidan bilish mumkin;

• bosh chanog'ining og'ir jarohatlarida quloq va burun teshigidan qon ketishi, ko'krak qafasi og'ir shikastlanganda qon burundan va og'izdan oqishi mumkin;

• teri qoplamalari rangi oqargan yoki ko'kargan, qorachiqlar kengaygan bo'lib, yorug'likda o'zgarmasa, qon tomirlar urishi qo'lda ham, bo'yinda ham aniqlanmasa, yurak urishi sezilmasa, nafas to'liq to'xtaganligi yoki to'xtamaganligini bemorning og'ziga yaqinlashtirilgan oyna bo'lakchasining terlagan yoki terlamaganligidan bilish mumkin.

## BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISH KETMA-KETLIGI

• Bemorda nafas olish jarayoni buzilgan taqdirda og'iz bo'shlig'ini ko'rish kerak, yopiq bo'lsa, qo'l bilan salfetka yoki ro'molcha yordamida tozalash lozim;

• agar arterial qon ketish hollari kuzatilsa, o'sha tomirning yuqori qismidan bosib turish yo'li bilan qonni to'xtatib, keyin jgut kabi qon to'xtatuvchi vositalardan foydalanish mumkin.

• bemorda suyak sinishlari to'liq inkor etilmaguncha yurishga ruxsat berish kerak emas;

• qo'shimcha jarohatlardan xoli bo'lish uchun bemorning kiyimlariga tegish mumkin emas, faqatgina nafas qisilishi kabi holatlarda yoqasini va belini bo'shatish, zarur holatda kiyimini yirtish zarur yoki qisman yechiladi;

• bemor tekis joyga yotqizilgach, yana bir marta nafas yo'llarining o'tkazuvchanligi tekshirilib, tili orqaga tushib qolgan bo'lsa, uni salfetka bilan ushlab tortiladi;

• agar umurtqaning bo'yin qismi sinmagan bo'lsa, bemorni yonboshlatish mumkin;



• nafas olish qayta to'xtab qolmasligi uchun bemor yonboshlatib yotqiziladi;

• nafas olish tiklanmasa, sun'iy nafas beriladi. Buning uchun bemorning boshi orqaga bukilsa, nafas yo'llaridan havo o'tishi osonlashadi;

• ko'krak qafasining ochiq jarohati bo'lsa va u orqali havo kirayotgan

bo‘lsa, darhol uni steril salfetka yoki tozaroq mato, agar hech narsa bo‘lmasa, kaft bilan yopish lozim;

• jarohatlanuvchida hayot uchun xavfli tashqi venoz qon (to‘q qizil rangda) ketsa, uni darhol to‘xtatish kerak. Buning uchun, ko‘pincha, dastlab steril, so‘ng bosuvchi bog‘lam qo‘yiladi.

• arterial qon ketishda (och qizil pushti rangda) jgut yoki tomirni bosuvchi boshqa usullar qo‘llaniladi.

## QON KETISHDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO‘RSATISH

Qon tomirlar shikastlanganda arterial, venoz va parenximatoz qon oqishi mumkin. Agar qon jarohatdan tashqariga oqayotgan bo‘lsa, buni tashqi qon oqish deb ataladi, agar qon jarohatlangan tomirdan to‘qimaga, ichki organlarga – ko‘krak yoki qorin bo‘shlig‘iga oqayotgan bo‘lsa, u holda buni ichki qon oqish deyiladi.

• arterial qon oqishini to‘xtatish hammaning qo‘lidan keladigan eng oson va tezkor usul bo‘lib, jarohatlangan joy teparog‘idan arteriyani barmoq bilan bosib turishdir. Arteriya suyak yoniga yaqin joydan yoki uning ustidan o‘tgan bo‘lsa, uni bosib turish oson bo‘ladi;







• arteriyalarni barmoq bilan bosish ko‘p kuch talab etadi va uni hatto jismonan kuchli va chiniqqan kishi ham 15 – 20 daqiqadan ortiq bajara olmaydi;

• jgut qo‘l va oyoqning yirik arterial tomirlari shikastlanganda qon oqishini vaqtincha to‘xtatishning asosiy usulidir. Jgut son, yelkaga qo‘yiladi.

• jgut qon oqayotgan joydan 15 cm yuqoridan jarohat yaqinidagi terini siqib qo‘ymaslik uchun kiyim yoki yumshoq bint ustidan bog‘lanadi;

• jgut bog‘langandan so‘ng biriktirilgan qog‘ozga kuni, soati va daqiqasi yoziladi, qog‘oz jgut ostiga ko‘rinib turadigan qilib qistirib qo‘yiladi;

• jgut qish mavsumida 1 soatga, yozda esa 1,5 – 2 soatga qo‘yiladi. Jgut qo‘yilgandan so‘ng 2 soat o‘tgan hollarda arteriyani barmoq bilan bosish, jgutni asta-sekin pulsni hisoblab turib 5 –10 daqiqaga bo‘shatish va uni avvalgi joyining yuqorirog‘idan yana qo‘yish lozim.

• jgut bo'lmaganda arteriyadan qon oqishini buragich qo'yish yoki qo'l-oyoqni maksimal bukish va shu vaziyatda bog'lash yo'li bilan to'xtatish mumkin.

• venadan qon oqishi steril bog'lov qo'yish va gavdaning shikastlangan qismini baland ko'tarish orqali to'xtatiladi.

## NAFAS VA YURAK TO'XTAGANDA SHOSHILINCH TIBBIY YORDAM KO'RSATISH CHORA-TADBIRLARI:

• bemor chalqancha yotqiziladi va shu bilan til asosini nafas olish yo'llaridan chetlatishga erishiladi;

• havoning burun orqali tashqariga chiqib ketmasligining oldini olish maqsadida bemorning burnini qisib, og'zidan havo yuboriladi;



• yuborilayotgan nafas o'rtasidagi vaqt 5 soniyani tashkil etadi, ya'ni 1 daqiqada 12 martani tashkil etadi. Yuqorida qayd etilgan qoidaga rioya qilinishi shart, chunki qilinayotgan muolajalar tabiiy nafas ko'nikmasini hosil qilishdan iboratdir;



• nafas oldirish vaqtidagi yuzaga keladigan me'da usti sohasidagi shishning paydo bo'lishi yuborilayotgan havoning me'daga ketayotganligidan dalolat beradi;

• yurak massaji, bemorning istalgan tomonidan ko'krak to'sh suyagini 5-qovurg'a birikadigan joyidan kaftlarini bir-biriga qo'yib, bosim orqali bajariladi;

• bosim vaqtidagi ko'krak qafasining egilishi 4 – 5 sm ni tashkil qilishi kerak, ammo bosim ta'siri 0,5 soniyani, bosimlar oralig'idagi vaqt esa 0,5 – 1 soniyani tashkil qiladi;



• qilinayotgan muolajalarning to'g'ri bajarilayotganligi uyqu arteriyasida to'lqinsimon pulsning paydo bo'lishi bilan ifodalanadi.

**DIQQAT!!!**

**• Agarda jonlantirishni 1 kishi bajarayotgan bo'lsa, 2 ta nafasdan so'ng 15 marotabagacha bosim muolajalarini qilishi kerak.**

**• Agar jonlantirish muolajalarini 2 kishi bajarayotgan bo'lsa, o'pka ventilyasiyasi va massaj muolajalarining bir-biriga solishtirmasi 1:5 nisbatida bajariladi.**

**• Uyqu arteriyasida aniq tomir urishi tiklangandan so'ng yurak massaji to'xtatilib, nafas olish to'liq tiklanmaguncha sun'iy nafas oldirish davom etilishi shart.**

**Yuqorida qayd etilgan tashqi yurak massaji sun'iy nafas muolajalari bilan birgalikda olib borilmasa, befoyda hisoblanadi.**

**YODDA TUTING!!!**

**JAROHATLANGAN SHAXSGA O'Z VAQTIDA TO'G'RI VA SIFATLI KO'RSATILGAN SHOSHILINCH BIRINCHI TIBBIY YORDAM BEMOR HAYOTINI SAQLAB QOLADI!**

## «Avtohalokatlarda birinchi tibbiy yordam» mavzusiga oid testlar

**1** **Umurtqasining ko'krak qismi shikastlangan kishi transportda qanday tashiladi?**
1. Qattiq taxtada orqasi bilan yotgan holda.
2. Yumshoq to'shamada orqasi bilan yotgan holda.
3. Qattiq taxtada yoni bilan yotgan holda.

**2** **Qo'l jarohatlanganda kiyim qanday tartibda kiygiziladi?**
1. Kiyim avval jarohatlangan qo'lga, so'ngra sog'iga kiydiriladi.
2. Kiyim ikkala qo'lga baravar kiydiriladi.
3. Kiyim avval sog' qo'liga, so'ngra jarohatlangan qo'lga kiydiriladi.

**3** **Suyak singanda qaysi matodan qotirib bog'lash uchun shina sifatida foydalanish eng qulay?**
1. Bint.
2. Gazmol.
3. Taxta bo'lagi.

**4** **Shikastlangan kishining o'mrov suyagi singanda nima qilish zarur?**
1. Singan joyga sovuq kompress qo'yish, bint bilan tarangroq bog'lash.
2. Qo'ltiq sohasiga taxtakach qo'yish va to'g'rilab qo'yilgan qo'lini gavdasiga qo'shib bint bilan bog'lash.
3. Paxta yoki bint o'ramasini qo'ltiq sohasiga qo'yib tirsagidan bukilgan qo'lini gavdasiga qo'shib bint bilan bog'lash.

**5** **Sonning yumshoq to'qimalari lat yeganda birinchi tibbiy yordam qanday ko'rsatiladi?**
1. Lat yegan joyni qattiq bog'lash, 15–20 daqiqaga muz solingan xalta qo'yish. Oyoqni yuqori ko'tarish, tinch qo'yish.
2. Butun oyoqni tarang qilib (pastdan yuqoriga) bog'lash, singandagi kabi shina qo'yish. Bir stakanga yarim choy qoshig'ida ichimlik soda solib ichirish, kasalxonaga jo'natish.
3. Oyoqni yumshoq predmetga qo'yish.

**6** **Son suyagining pastki uchdan bir qismi singanda jarohatlangan odamni transportda tashish uchun taxtakach qanday qo'yiladi?**
1. Taxtakachni sonning butun uzunligicha tos-son tizza bo'g'inigacha qo'yib, singan joy bint bilan qattiq bog'lab qo'yiladi.
2. Ikkita taxtakach oyoqning ichki va tashqi tomonidan qo'yiladi. Bittasini oyoq to'pig'idan qo'ltiqosti chuqurigacha, ikkinchisini to'pikdan chovgacha.
3. Ikkita taxtakach oyoqning ikki tomonidan to'piqdan sonning yuqorigi uchdan bir qismigacha (singan joydan 15–20 sm yuqorigacha) qo'yiladi.

**7** **Tos suyaklari singanda birinchi yordam qanday ko'rsatiladi?**
1. Zararlangan joyni qattiq bog'lash, shikastlanganni yarim o'tirgan holatga keltirish.
2. Shikastlanganni qattiq yuzaga orqasi bilan yotqizish, zararlangan joylarga qaynoq isitgich qo'yish.
3. Shikastlanganni qattiq tekis yuzaga yotqizish, bukilgan va ikki tomonga kerilgan tizzalarining bo'g'inlari ostiga g'o'la shaklida o'ram qo'yish.

**8** **Qon oqishini to'xtatuvchi jgut qo'l-oyoqlarga qanday bog'lanadi?**
1. Yaradan 10 –15 cm pastga.
2. Yaradan 10 –15 cm yuqoriga.
3. Bevosita yaraning o'ziga.

**9** **Ko'krak qafasining ko'p qismi jarohatlanganda uni qayerdan boshlab bint bilan bog'lash kerak?**
1. Ko'krak qafasining o'rtasidan.
2. Ko'krak qafasining quyi qismidan.
3. Qo'ltiq ostidan.

**10** **Avtomobilda tibbiyot qutichasini qayerda saqlash lozim?**
1. Yengil avtomobilning yukxonasida.
2. Tayyorlovchi korxona tomonidan belgilangan joylarda, berk holatda.
3. Avtomobilning kuzovida ko'rinadigan joyda.

## Testlarga javoblar:

| Savol № / Bob | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1-bob | 1 | 1 | 1 | 3 | 3 | 1 | 1 | 1 | 3 | 1 |
| 2-6 boblar | 2 | 2 | 1 | 3 | 1 | 2 | 4 | 4 | 3 | 2 |
| 7-bob | 1 | 2 | 3 | 1 | 2 | 2 | 3 | 2 | 4 | 4 |
| 8-bob | 4 | 2 | 2 | 1 | 4 | 1 | 2 | 2 | 2 | 1 |
| 9-bob | 3 | 2 | 3 | 3 | 1 | 1 | 2 | 4 | 4 | 1 |
| 10-bob | 4 | 2 | 3 | 1 | 3 | 1 | 1 | 2 | 3 | 2 |
| 11-bob | 2 | 3 | 2 | 5 | 1 | 3 | 4 | 1 | 3 | 3 |
| 12-bob | 2 | 1 | 2 | 2 | 3 | 2 | 1 | 3 | 3 | 2 |
| 13-bob | 4 | 2 | 2 | 3 | 4 | 1 | 4 | 2 | 2 | 2 |
| 14-16 boblar | 3 | 3 | 1 | 2 | 2 | 1 | 2 | 3 | 3 | 1 |
| 17-bob | 1 | 1 | 2 | 3 | 3 | 1 | 2 | 2 | 1 | 1 |
| 18-bob | 1 | 2 | 3 | 2 | 2 | 3 | 4 | 2 | 2 | 3 |
| 19-bob | 5 | 3 | 3 | 2 | 4 | 3 | 4 | 1 | 2 | 2 |
| 20-bob | 3 | 2 | 1 | 1 | | | | | | |
| 21-bob | 3 | 2 | 1 | 1 | | | | | | |
| 22-bob | 3 | 3 | 2 | 1 | 1 | 3 | 3 | 1 | 1 | 4 |
| 23-bob | 2 | 2 | 2 | 1 | 2 | 1 | 3 | 3 | 3 | 2 |
| 24-bob | 1 | 3 | 4 | 2 | 2 | 1 | 1 | 1 | 1 | 5 |
| 25-bob | 1 | 2 | 4 | 3 | 3 | 3 | 2 | 1 | 3 | 1 |
| 26-bob | 3 | 1 | 4 | 2 | 2 | 2 | 3 | 2 | | |
| 27-bob | 2 | 3 | 2 | 3 | 1 | 3 | 3 | 1 | | |
| 28-bob | 2 | 3 | 1 | 2 | 2 | 1 | | | | |
| 29-bob | 4 | 2 | 3 | 3 | 2 | 3 | 3 | 2 | 3 | 1 |

### 1-ilova

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1-mavzu | 2 | 2 | 3 | 2 | 5 | 2 | 1 | 1 | 3 | 3 |
| 2-mavzu | 2 | 1 | 1 | 1 | 3 | 1 | 2 | 3 | 3 | 3 |
| 3-mavzu | 3 | 2 | 3 | 4 | 3 | 2 | 4 | 3 | 4 | 4 |
| 4-mavzu | 4 | 3 | 2 | 3 | 1 | 2 | 3 | 3 | 2 | 4 |
| 5-mavzu | 1 | 3 | 1 | 1 | 3 | 4 | 3 | 3 | 2 | 1 |
| 6-7 mavzular | 1 | 5 | 4 | 3 | 3 | 2 | 2 | 3 | 1 | 3 |
| 2-ilova | 1 | 1 | 2 | 2 | 3 | 2 | 3 | 2 | 2 | 1 |
| 3-ilova | 1 | 3 | 3 | 3 | 3 | 1 | 4 | 3 | 1 | 3 |
| Tibbiyot | 1 | 1 | 3 | 3 | 1 | 2 | 3 | 2 | 2 | 2 |

# YO'L HARAKATI QOIDALARINI BUZGANLIK UCHUN MA'MURIY JAVOBGARLIK



***2024 yil 13 avgust, PF-108-son***
***Bazaviy hisoblash miqdori***
***(BHM) – 375.000 so'm***

| *O'zR. MJtK modda* | Qisqacha mazmuni | Ko'riladigan choralar, BHM miqdorida | So'mda miqdori |
|---|---|---|---|
| *125* | Haydovchilarning transport vositalarini boshqarish va yo'lovchilar tashishda **xavfsizlik kamari**dan foydalanish qoidalariga, xuddi shuningdek mototsikl va mopedlar haydovchilarining motoshlemlardan foydalanish qoidalariga rioya etmasligi | 0,5 | **187.500** |
| *125, 2 qism* | Haydovchilarning belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilmagan yoki majburiy **texnik ko'rik**dan o'tkazilmagan yoxud foydalanish man etiladigan darajada nosozligi bo'lgan yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda favqulodda vaziyatda oynani sindirish uchun foydalaniladigan bolg'acha bilan jihozlanmagan, **o't o'chirgich, tibbiyot qutichasi**, avariya holatida to'xtaganligini bildiruvchi belgi va nur qaytargichli **kamzul** bilan butlanmagan, xuddi shuningdek ishlayotganida tashqariga chiqarayotgan ifloslantiruvchi moddalarning miqdori, shuningdek shovqin darajasi belgilangan normalardan ortiq bo'lgan transport vositalarini boshqarishi | 0,5 | **187.500** |
| *125, 3 qism* | Haydovchilarning tormoz tizimida, rul boshqaruvida yoki ulovchi qurilmada nosozligi bo'lgan yoxud tegishli ruxsatnomasiz **qayta jihozlangan** transport vositalarini boshqarishi | 1 | **375.000**  |
| *125, 4 qism* | Haydovchilarning shaharlararo va xalqaro yo'lovchi tashishni amalga oshiradigan avtobuslarni **nazorat asboblarisiz (taxograflarsiz)** yoki taxograflarni o'chirgan holda boshqarishi | 3 | **1.125.000** |

| | | | |
|---|---|---|---|
| *125, 5 qism* | Foydalanish belgilangan tartibda man etilgan transport vositalarini, xuddi shuningdek **davlat raqam belgisi** o'zboshimchalik bilan yechib olingan transport vositalarini boshqarish | 5 | **1.875.000**  |
| *125, 6 qism* | **Davlat raqam belgisi** yasama yoki o'zga usullarda o'zgartirilgan transport vositalarini, xuddi shuningdek davlat raqam belgisi ayni shu transport vositasiga tegishli bo'lmagan transport vositasini boshqarish | 10 | **3 750 000**  |
| *125, 7 qism* | Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga qarashli transport vositalarini ishdan tashqari vaqtda ulardan foydalanish shartlariga muvofiq keladigan tarzda **maxsus jihozlanmagan joyda saqlash** | Fuqarolarga 1.<br>Mansabdor shaxslarga 2 | **375.000**<br>**750.000** |
| *$125^{1}$, 1 qism* | **Yuk tashish** qoidalarini, xuddi shuningdek **shatakka olish** qoidalarini buzish | 5 | **1.875.000** |
| *$125^{1}$, 2 qism* | Tegishli ruxsatnomasiz og'ir vaznli, **yirik gabaritli, xavfli yuklarni** tashish va yuk bilan yoki yuksiz holdagi gabarit o'lchamlari, shuningdek umumiy haqiqiy vazni, o'qqa tushuvchi og'irligi belgilangan normalardan ortiq bo'lgan transport vositalarida yo'lga chiqish, xuddi shuningdek ruxsatnomada ko'rsatilgan harakat yo'nalishidan chetga chiqish | Fuqarolarga 10 yoki 6 oygacha boshqarish huquqidan mahrum etiladi.<br>Mansabdor shaxslarga 15 | **3.750.000** <br>**5.625.000** |
| *126* | Texnik reglamentga muvofiq bo'lmagan ko'zgusimon va (yoki) tusi o'zgartirilgan **(qoraytirilgan) oynali** transport vositalaridan, xuddi shuningdek haydovchining o'rnidan tevarak-atrofni ko'rishni cheklaydigan qo'shimcha narsalar o'rnatilgan yoki qoplamalar surtilgan transport vositalaridan foydalanish, bundan oynalar tusini o'zgartirish (qoraytirish) uchun tegishli ruxsatnoma berilgan transport vositalari mustasno | 25 | **9.375.000**  |
| *126, 2 qism* | Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa | 40 | **15.000.000** |
| *127, 1 qism* | **Tovush signali**ni sababsiz berish, transport vositalariga uni ishlab chiqargan korxona nazarda tutmagan tovush chiqaruvchi va yorituvchi qurilmalarni o'rnatish, xuddi shuningdek ularni o'zgartirib o'rnatish | 1 | **375.000** |

| | | | |
|---|---|---|---|
| *127, 2 qism* | Tegishli ruxsat olmay turib transport vositalariga **tovush chiqaruvchi** va yorituvchi maxsus qurilmalarni o'rnatish, xuddi shuningdek davlat raqam belgilarini ko'rish imkoniyatini cheklaydigan, ularni anglashga to'sqinlik qiladigan turli ashyolar o'rnatish va qoplama surtish | Shu quril-malarni musodara qilib, fuqa-rolarga 1-3. Mansabdor shaxslarga 3-5 | **375.000-1.125.000**  **1.125.000-1.875.000** |
| *128* | Haydovchilarning transport vositalarini **piyodalar yo'lkalaridan yurgizishi**, yo'l belgilari yoki yo'lning qatnov qismidagi chiziqlar bilan belgilab qo'yilgan talablarga rioya etmasligi, odam tashish, transport vositalarini quvib o'tish, yo'nalishli transport vositalari to'xtaydigan bekatlardan yoki piyodalar o'tish joylaridan yurish, tashqi yoritish asboblaridan foydalanish qoidalarini buzishi, xuddi shuningdek yo'lovchilarga loyqa sachratishi | 0,5 | **187.500** |
| *128, 2 qism* | Xuddi shunday huquqbuzarlikni ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish | 1 | **375.000** |
| *128, 3 qism* | Xuddi shunday huquqbuzarlikni ikki marta ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish | 3 | **1.125.000** |
| *128, 4 qism* | Xuddi shunday huquqbuzarlikni uch marta va undan ortiq ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish | 4 yoki 6 oygacha boshqarish huquqidan mahrum etiladi. | **1.500.000** |
| *$128^1$, 1 qism* | Transport vositasini boshqarish vaqtida haydovchilarning **telefondan foydalanishi** (bundan telefondan quloqchinlar orqali va qo'llarni ishlatmasdan turib so'zlashuvlar olib borish imkoniyatini beradigan boshqa uskunalar orqali foydalanish mustasno) | 3 | **1.125.000** |
| *$128^1$, 2 qism* | Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa | 4 yoki 6 oygacha boshqarish huquqidan mahrum etiladi. | **1.500.000** |

| | | | |
|---|---|---|---|
| *128², 1 qism* | Transport vositasini boshqarish vaqtida tele-, videodasturlami tomosha qilish maqsadida transport vositasi salonining old qismiga o'rnatilgan **monitordan** (displeydan) foydalanish | 1 | **375.000** |
| *128², 2 qism* | Transport vositasi salonining old qismiga o'zboshimchalik bilan **monitor** (displey) o'rnatish | 2 | **750.000** |
| *128², 3 qism* | Birinchi yoki ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa | 3-5 yoki 6 oydan 1 yilgacha boshqarish huquqidan mahrum etiladi. | **1.125.000-1.875.000** |
| *128³, 1 qism* | Transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini soatiga **20 kilometrdan** ko'p bo'lmagan kattalikda oshirib yuborishi | 1 | **375.000** |
| *128³, 2 qism* | Transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini soatiga **20 kilometrdan ortiq, lekin 40 kilometrdan** ko'p bo'lmagan kattalikda oshirib yuborishi yoki transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini soatiga 20 kilometrdan ko'p bo'lmagan kattalikda xuddi shunday huquqbuzarlik uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror oshirib yuborishi | 5 | **1.875.000** |
| *128³, 3 qism* | Transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini soatiga **40 kilometrdan** ortiq kattalikda oshirib yuborishi | 9 | **3.375.000** |
| *128³, 4 qism* | Transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini soatiga **20 kilometrdan ortiq, lekin 40 kilometrdan** ko'p bo'lmagan kattalikda xuddi shunday huquqbuzarlik uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror oshirib yuborishi yoxud transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini soatiga 20 kilometrdan ko'p bo'lmagan kattalikda xuddi shunday huquqbuzarlik uchun ikki marta ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror oshirib yuborishi | 15 yoki 1 yil boshqarish huquqidan mahrum etiladi. | **5.625.000** |

| | | | |
|---|---|---|---|
| *128³, 5 qism* | Transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini soatiga **40 kilometrdan** ortiq kattalikda xuddi shunday huquqbuzarlik uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror oshirib yuborishi yoki transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini soatiga **20 kilometrdan ortiq, lekin 40 kilometrdan** ko'p bo'lmagan kattalikda xuddi shunday huquqbuzarlik uchun ikki marta ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror oshirib yuborishi yoxud transport vositalari haydovchilarining belgilangan harakat tezligini soatiga **20 kilometrdan** ko'p bo'lmagan kattalikda xuddi shunday huquqbuzarlik uchun uch marta ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror oshirib yuborishi | 25 va 2 yil boshqarish huquqidan mahrum etiladi. | **9.375.000** |
| *128³, 6 qism* | Moddaning birinchi — beshinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar sodir etilganda tezlikni o'lchaydigan maxsus uskunalar va transport vositalari spidometrlari ko'rsatkichlaridagi yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan jami xatolar hisobga olinib, ular qayd etgan tezlikdan soatiga 5 kilometr chegirib tashlangan holda, ma'muriy jazo chorasi qo'llaniladi. | | |
| *128⁴, 1 qism* | **Svetoforning taqiqlovchi** signalida yoki yo'l harakatini tartibga soluvchining taqiqlovchi ishorasida yo'lning qatnov qismidagi yo'l chiziqlari yoki yo'l belgilari bilan belgilangan to'xtash chizig'ini bosib kirish | 0,5 | **187.500** |
| *128⁴, 2 qism* | Transport vositalari haydovchilarining svetoforning taqiqlovchi signaliga yoki yo'l harakatini tartibga soluvchining taqiqlovchi ishorasiga bo'ysunmasdan o'tishi | 2 | **750.000** |
| *128⁴, 3 qism* | Xuddi shunday huquqbuzarlikni ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa | 5 | **1.875.000** |
| *128⁴, 4 qism* | Xuddi shunday huquqbuzarlikni ma'muriy jazo ikki marta qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa | 1 yil boshqarish huquqidan mahrum etiladi. | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| *$128^5$, 1 qism* | Tezkor va maxsus xizmatlarning ko'k yoki qizil yoxud ko'k va qizil rangli yaltiroq mayoqchani yoqqan holda hamda maxsus tovushli signal bilan yaqinlashib kelayotgan transport vositalari to'siqsiz o'tib ketishi uchun transport vositalari haydovchilari tomonidan **xalaqit berish** | 5 | **1.875.000** |
| *$128^5$, 2 qism* | Transport vositalari haydovchilarining **yo'lning qarama-qarshi harakatlanish** uchun mo'ljallangan tomoniga yoki bo'lagiga yo'l harakati qoidalarini buzgan holda chiqishi, xuddi shuningdek avariya holati yuzaga kelishiga sabab bo'lgan, ya'ni yo'l harakatining boshqa qatnashchilarini tezlikni, harakat yo'nalishini keskin o'zgartirishga yoki o'z xavfsizligini yoxud boshqa fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash uchun o'zga choralarni ko'rishga majbur qiluvchi huquqbuzarlikni sodir etishi | 10 | **3.750.000** |
| *$128^5$, 3 qism* | Huquqbuzarliklarni ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish | 25 yoki 1 yil boshqarish huquqidan mahrum etiladi. | **9.375.000** |
| *$128^6$, 1 qism* | Transport vositalari haydovchilarining **to'xtash yoki to'xtab turish** qoidalarini buzishi | 2 | **750.000** |
| *129, 1 qism* | **Motosikllar** va boshqa transport vositalari haydovchilarining yo'llarda yo'l harakati xavfsizligiga tahdid soluvchi yoki avariya holatini keltirib chiqaruvchi guruh bo'lib harakat qilishda qatnashishi | 3 | **1.125.000**  |
| *129, 2 qism* | Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa | 5 yoki 6 oydan 1 yilgacha boshqarish huquqidan mahrum etiladi. | **1.875.000** |

| | | | |
|---|---|---|---|
| *130, 1 qism* | Transport vositalari haydovchilarining **temir yo'lning o'tish** joylaridan o'tish qoidalarini buzishi | 3 | 1.125.000 |
| *130, 2 qism* | Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa | 5 yoki 6 oydan 1 yilgacha boshqarish huquqidan mahrum etiladi. | 1.875.000 |
| *131, 1 qism* | Haydovchilarning transport vositalarini **alkogolli ichimlikdan**, giyohvand modda ta'siridan yoki o'zgacha tarzda mast holda boshqarishi | 25 va 1 yilu 6 oydan 3 yilgacha boshqarish huquqidan mahrum etiladi. | 9.375.000  |
| *131, 2 qism* | Xuddi shunday huquqbuzarlik transport vositalarini boshqarish huquqi bo'lmagan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa | 40 yoki 15 sutka muddatga ma'muriy qamoq. | 15.000.000  |
| *131, 3 qism* | Alkogolli ichimlikdan, giyohvand modda ta'siridan yoki o'zgacha tarzda mast shaxsga transport vositasini boshqarishni topshirish | 25 va 2 yildan 3 yilgacha boshqarish huquqidan mahrum etiladi. | 9.375.000  |
| *133* | Transport vositalari haydovchilarining yo'l harakati qoidalarini buzishi jabrlanuvchiga yengil **tan jarohati** yoki **ancha miqdorda*** moddiy zarar yetkazilishiga olib kelsa | 5-7 yoki 1 yildan 3 yilgacha boshqarish huquqidan mahrum etiladi. | 1.875.000-2.625.000 |
| *134* | Transport vositalari haydovchilarining yo'l harakati qoidalarini buzishi transport vositalari, yo'l harakatini tartibga soluvchi vositalar yoki boshqa mol-mulk shikastlanishiga olib kelsa, lekin ancha miqdorda moddiy zarar yetkazmasa | 2-4 yoki 6 oydan 1 yilgacha boshqarish huquqidan mahrum etiladi. | 750.000-1.500.000 |

*Ancha miqdordagi moddiy zarar deganda, bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari (1.500.000 so'm) miqdoridan oshib ketgan zarar tushuniladi.

| | | | |
|---|---|---|---|
| *135, 1 qism* | Transport vositalarini **boshqarish huquqini beruvchi hujjatlari,** transport vositasini ro'yxatdan o'tkazganlik to'g'risidagi, shuningdek transport vositasiga egalik qilish, egasi yo'qligida undan foydalanish yoki uni tasarruf etish huquqini tasdiqlovchi hujjatlari, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisi ($135^1$-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan hol bundan mustasno), qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa litsenziya kartochkasi yoki yo'l varaqasi, yuridik shaxslarning transport vositalari haydovchilarining, shu jumladan yo'lovchi yoki yuk tashish faoliyatini amalga oshiruvchi haydovchilarning malaka oshirishdan o'tganligi to'g'risidagi sertifikati (transport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi guvohnomani almashtirish yoki yo'qolgan guvohnoma o'rniga boshqasini berish hollarini istisno qilgan holda, guvohnoma olingan paytdan e'tiboran ikki yillik davr bundan mustasno) yonida bo'lmagan haydovchilarning transport vositalarini boshqarishi, xuddi shuningdek ishonchnomalarni, transport vositalarini boshqa shaxsga o'tkazish va ijaraga berish shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazmasdan (hisobga qo'ymasdan) transport vositalarini boshqarish | 1 | **375.000**  |
| *135, 2 qism* | Transport vositalarini boshqarish huquqi bo'lmagan shaxslarning shu vositalarni boshqarishi, xuddi shuningdek boshqarish huquqi bo'lmagan shaxsga transport vositalarini boshqarishning topshirilishi | 5 | **1.875.000**  |
| *135, 3 qism* | Transport vositalarini **boshqarish huquqidan mahrum etilgan** shaxslarning bunday vositalarni boshqarishi | 10 | **3.750.000**  |
| *135, 4 qism* | Haydovchining yonida O'zbekiston Respublikasining ichki ishlar organlari yoxud konsullik muassasalari tomonidan berilgan biometrik pasport yoki identifikasiyalovchi ID-kartasi mavjud bo'lgan taqdirda, uning transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi hujjatni, transport vositasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi, shuningdek transport vositasiga egalik qilish, egasi yo'qligida undan foydalanish yoki uni tasarruf etish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisini o'z yonida olib yurishi talab etilmaydi | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| *$135^{1}$, 1 qism* | Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy **sug'urta** qilish bo'yicha sug'urta polislarida nazarda tutilmagan foydalanish davrida transport vositalarini boshqarish, xuddi shuningdek faqat mazkur sug'urta polislarida ko'rsatilgan haydovchilar ayni shu transport vositalarini boshqarishi to'g'risida mazkur sug'urta polislarida nazarda tutilgan shartlarni buzgan holda transport vositalarini boshqarish | 0,5 | **187.500** |
| *$135^{1}$, 2 qism* | Fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha qonunda belgilangan majburiyatning transport vositalari egalari tomonidan bajarilmasligi, xuddi shuningdek, agar bunday majburiy sug'urta qilinmaganligi oldindan ayon bo'lsa, transport vositalarini boshqarish | Fuqarolarga 0,5.<br><br>Mansabdor shaxslarga 2 | **187.500**<br><br>**750.000** |
| *136, 1 qism* | Transport vositalari haydovchilarining alkogolli ichimlikdan, giyohvand modda ta'siridan yoki o'zgacha tarzda mastligi yoki mast emasligini belgilangan tartibda aniqlash uchun tekshiruvdan o'tishdan bo'yin tovlashi | 15 va 1 yilu 6 oydan - 3 yilgacha boshqarish huquqidan mahrum etiladi. | **5.625.000**  |
| *136, 2 qism* | Xuddi shunday huquqbuzarlik transport vositalarini boshqarish huquqi bo'lmagan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa | 30 yoki 15 sutka muddatga ma'muriy qamoq. | **11.250.000**  |
| *136, 3 qism* | Huquqbuzarlikning moped, velosiped haydovchi, ulovli aravani boshqarib boruvchi shaxs tomonidan sodir etilishi | 3 | **1.125.000** |
| *137* | Yo'l-transport hodisasi qatnashchilarining belgilangan qoidalarni buzgan holda hodisa yuz bergan joydan ketib qolishi | 30 yoki 2 yil boshqarish huquqidan mahrum etiladi yoxud 15 sutka muddatga ma'muriy qamoq. | **11.250.000**  |

| | | | |
|---|---|---|---|
| *138, 1 qism* | **Piyodalarning** yo'l harakatini tartibga soluvchi signallarga bo'ysunmasligi, ularning yo'lning harakat qismini belgilanmagan joylardan kesib o'tishi, piyodalar yo'lning qatnov qismida, shu jumladan piyodalar o'tish joyida harakatlanayotganda telefondan foydalanishi, kitoblarni yoki davriy nashrlarni o'qishi, videomateriallarni tomosha qilishi hamda audiomateriallarni eshitishi, shuningdek e'tiborni chalg'itadigan boshqa elektron vositalardan foydalanishi, shuningdek moped va velosiped haydovchilarining, ulovli aravani boshqarib boruvchi va yo'ldan foydalanuvchi boshqa shaxslarning yo'l harakatini tartibga soluvchi signallarga bo'ysunmasligi, ustunlik beruvchi, taqiqlovchi yoki ko'rsatma beruvchi yo'l belgilari talablariga rioya etmasligi | 0,3 | **125.000** |
| *138, 2 qism* | Haydovchilarga har xil xizmat ko'rsatish maqsadida yo'lning qatnov qismida fuqarolarning turishi, yo'llarga ajratilgan mintaqa tegrasida mol boqish | 0,5 | **187.500** |
| *138, 3 qism* | Birinchi yoki ikkinchi qismida ko'rsatilgan shaxslarning yo'l harakati qoidalarini buzishi avariya holatini vujudga keltirsa | 1 | **375.000** |
| *138, 4 qism* | Transport vositasi harakatlanayotgan vaqtda yo'lovchi tomonidan **tana qismlarini** (qo'ldan tashqari) salondan chiqarish | 1 | **375.000** |
| *138, 5 qism* | **Moped, velosiped** haydovchining, ulovli aravani boshqarib boruvchi shaxsning alkogolli ichimlikdan, giyohvand modda ta'siridan yoki o'zgacha tarzda mast bo'lgan holda yo'l harakati qoidalarini buzishi | 3 | **1.125.000** |
| *139, 1 qism* | Belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilmagan yoki majburiy **texnik ko'rik**dan o'tkazilmagan transport vositalarini yo'lga chiqarish | Mansabdor shaxslarga 3 | **1.125.000** |
| *139, 2 qism* | **Nosozligi** bo'lgan yoki muayyan shartlar tufayli transport vositasidan foydalanish taqiqlangan yoki tegishli ruxsatnomasiz qayta jihozlangan transport vositalarini yo'lga chiqarish | Mansabdor shaxslarga 5 | **1.875.000** |

| | | | |
|---|---|---|---|
| *140* | **Alkogolli ichimlikdan,** giyohvand modda ta'siridan yoki o'zgacha tarzda mast bo'lgan haydovchilarning yoki transport vositalarini boshqarish huquqi bo'lmagan shaxslarning transport vositalarini boshqarishiga yo'l qo'yish | Mansabdor shaxslarga 15 | **5.625.000** |

| | | | |
|---|---|---|---|
| *141* | Haydovchilarning korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga qarashli transport vositalaridan **shaxsiy boylik** orttirish maqsadida foydalanishi | 2-5 | **750.000-1.875.000** |
| *147, 1 qism* | Yo'llarga, temir yo'ldan o'tish joylariga, yo'l harakatini tartibga soluvchi boshqa inshootlar yoki texnik vositalarga **shikast yetkazish,** shuningdek yo'l harakatiga qasddan, shu jumladan yo'l qoplamasini ifloslantirish yo'li bilan xalal berish, xuddi shuningdek avtomobil yo'llarini o'zboshimchalik bilan qazish, ularda sun'iy notekisliklar va to'siqlar yaratish, avtomobil yo'lida ishlarni amalga oshirish uchun berilgan ruxsatnoma talablarini bajarmaslik, shuningdek yo'llarni saqlash qoidalarini buzish | Fuqaro-larga 1-3.<br><br>Mansabdor shaxslarga 10. | **375.000-1.125.000**<br><br>**3.750.000** |
| *147, 2 qism* | Yo'l belgilarini o'rnatish, yo'llarni, temir yo'ldan o'tish joylari va boshqa yo'l inshootlarini harakat uchun xavfsiz holda saqlash qoidalarini buzish yoki yo'lning ayrim qismlaridan foydalanish harakat xavfsizligiga tahdid etadigan paytda ularda harakatni o'z vaqtida taqiqlash yoki cheklash choralarini ko'rmaslik | Mansabdor shaxslarga 15. | **5.625.000** |
| *176*[3] | Avtomobil transportida yo'lovchilar tashish faoliyati bilan litsenziyasiz shug'ullanish | Fuqaro-larga 7.<br><br>Mansabdor shaxslarga 30. | **2.625.000**<br><br>**11.250.000** |
| *194, 1 qism* | Ichki ishlar organlari xodimining huquqbuzarlikni to'xtatish, hujjatlarni tekshirish uchun taqdim etish, ichki ishlar organlariga borish yoki ko'rsatilgan muddatda ichki ishlar organlarida bo'lish to'g'risidagi qonuniy talablarini uzrli sabablarsiz bajarmaslik, transport vositasini to'xtatish, jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish haqidagi qonuniy talablarini bajarmaslik yoxud ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablariga boshqacha tarzda bo'ysunmaslik, xuddi shuningdek jamoat tartibini saqlash hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash vazifalarini amalga oshirayotgan boshqa shaxslarning **qonuniy talablarini bajarmaslik** | 0,5- 2 | **187.500-750.000**<br> |
| *194, 2 qism* | Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa | 2-3 yoki 15 sutka muddatga ma'muriy qamoq. | **750.000-1.125.000**<br> |

*O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirining 2011 yil 23 noyabrdagi 174-sonli buyrug'iga ILOVA*

Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarini va qat'iy hisobdagi blankalarni berishda, avtomototransport vositalari, ularning tirkamalari (yarim tirkamalari)ni ro'yxatdan o'tkazishda, qayta ro'yxatdan o'tkazishda, majburiy texnik ko'rikdan o'tkazishda, shuningdek imtihonlarni olishda undiriladigan
TO'LOVLAR STAVKALARI

## I. Ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarini berish, yaroqsiz holga kelgan, shikastlangan yoki buzilganlari o'rniga yangi ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarini berish

| | | |
|---|---|---|
| 1. Avtotransport vositalariga ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari (keyingi o'rinlarda RO'DRB deb yuritiladi) uchun | 3,5 baravari miqdorida | **1.312.500** |
| 2. Mototransport vositalari, motorollerlar va tirkamalarga (yarim tirkamalar) RO'DRB uchun | 1,75 baravari miqdorida | **656.250** |
| 3. Tranzit RO'DRB uchun | 25 % | **93.750** |
| 4. Yaroqsiz holga kelgan, buzilgan yoki shikastlangan bir juft RO'DRB o'rniga yangi RO'DRB berish uchun | 3,5 baravari miqdorida | **1.312.500** |
| 5. Yaroqsiz holga kelgan, buzilgan yoki shikastlangan bir dona RO'DRB o'rniga yangi RO'DRB berish uchun | 50 % miqdorida | **187.500** |

*Izoh:*

*– yo'qotilgan bir dona yoki bir juft RO'DRB o'rniga yangi bir juft RO'DRB berish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 3,5 baravari miqdorida undiriladi;*

*– yo'qotilgan bir dona RO'DRB (mototransport vositalari, motorollerlar va tirkamalar (yarim tirkamalar) uchun) o'rniga yangi bir dona RO'DRB berish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 1,75 baravari miqdorida undiriladi;*

*– RO'DRBni o'n ikki oy muddatdan so'ng yana bir yil muddatga saqlaganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida undiriladi;*

*– O'zbekiston Respublikasi mehnat organlari tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarga imtiyozli shartlarda berilgan transport vositasiga RO'DRBlarini berish uchun to'lov undirilmaydi.*

## II. Avtomototransport vositalarni va ularning tirkamalari (yarim tirkamalari)ni sotish uchun ma'lumotnoma-schyot berish

| | | |
|---|---|---|
| 6. Bir dona ma'lumotnoma-schyot uchun | 10 % | **37.500** |

## III. Avtomototransport vositalarni va ularning tirkamalari (yarim tirkamalar)ni ro'yxatdan o'tkazish va qayta ro'yxatdan o'tkazish

| | | |
|---|---|---|
| 7. Elektromobillar, mototransport vositalari va avtotransport vositalari tirkamalarini ro'yxatdan o'tkazish uchun | 1,5 baravari miqdorida | **1.312.500** |

*Izoh:*
*– notariuslar tomonidan boshqa shaxsga berish shartnomalari tasdiqlangunga qadar avtomototransport vositalari va ularning tirkamalari (yarim tirkamalari) ro‘yxatga olingan joydagi yoki bitim sodir etilgan (sotib oluvchining tanloviga ko‘ra) joydagi Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining organlarida raqamli agregatlarning texnik hujjatlarga muvofiqligi yuzasidan ko‘rikdan o‘tkazilishi shart. Ko‘rikdan o‘tkazish uchun to‘lov undirilmaydi.*

| | | |
|---|---|---|
| 7[1]. Elektromobillar, mototransport vositalari va avtotransport vositalari tirkamalaridan boshqa barcha avtotransport vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun | 6,84 baravari miqdorida | **2.565.500** |

| | | |
|---|---|---|
| 7[2]. Avtortansport vositalari, elektromobillar, mototransport vositalari va avtotransport vositalari tirkamalarini qayta ro‘yxatdan o‘tkazish uchun | 10% miqdorida | **37.500** |
| 8. Avtomototransport vositasi ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnomani berish uchun | 70 % | **262.500** |

*Izoh:*
*– yaroqsiz holga kelgan, shikastlangan yoki o‘g‘irlangan avtomototransport vositasi ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma dublikatini berish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 70 foizi miqdorida to‘lov undiriladi;*
*– yo‘qotilgan avtomototransport vositasi ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma dublikatini berish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida to‘lov undiriladi;*
*– yo‘qotilgan avtomototransport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish haqida vaqtinchalik guvohnoma dublikatini berish uchun belgilangan to‘lov stavkasining 5 baravari miqdorida to‘lov undiriladi;*
*– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 22 oktyabrdagi PQ-4871-son «Favqulodda vaziyatlardan jabr ko‘rgan fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishning qo‘shimcha choralari to‘g‘risida»gi qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlar hududida tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar, shu jumladan maishiy tusdagi ofatlar (turar, noturar-joyning yong‘ini yoki qulashi, transport vositasining yong‘ini) yuz berganligi oqibatida jismoniy shaxslarning aybisiz yo‘qotilgan yoki yaroqsiz holga kelgan avtomototransport vositasining ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnomaning, shu jumladan vaqtinchalik guvohnomaning dublikatini berish uchun to‘lov undirilmaydi.*

| | | |
|---|---|---|
| 8[1]. Avtomototransport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish haqida vaqtinchalik guvohnomani berish uchun | 20 % | **75.000** |

## IV. Majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish

| | | |
|---|---|---|
| **9. Yuridik shaxslarga tegishli:** | | |
| Yuk va maxsus avtotransport vositalari uchun | 40 % | **150.000** |
| avtobuslar (mikroavtobuslar) uchun | 20 % | **75.000** |
| yengil avtotransport vositalari uchun | 10 % | **37.500** |
| mototransport vositalari va tirkamalar (yarim tirkamalar) uchun | 10 % | **37.500** |

| 10. Jismoniy shaxslarga tegishli: | | |
|---|---|---|
| Yuk va maxsus avtotransport vositalari uchun | 20 % | 75.000 |
| avtobuslar (mikroavtobuslar) uchun | 20 % | 75.000 |
| mototransport vositalari va tirkamalar (yarim tirkamalar) uchun | 5 % miqdorida | 18.750 |

*Izoh:*
*– Avtomototransport vositalarini va ularning tirkamalari (yarim tirkamalari)ni navbatdagi texnik ko'rikdan o'tkazishning ilgari o'rnatilgan muddatlaridan qat'i nazar, ular Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati organlarida ro'yxatdan o'tkazish (qayta ro'yxatdan o'tkazish) vaqtida texnik ko'rikdan o'tkaziladi (birinchi marta ro'yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno) va belgilangan miqdorda to'lov undiriladi.*

## V. Imtihonlarni olish va haydovchilik guvohnomasini berish

| | | |
|---|---|---|
| 11. Nazariy imtihon topshirish uchun | 10 % miqdorida | 37.500 |
| 12. Har bir qayta nazariy imtihon topshirish uchun | 15 % miqdorida | 56.250 |
| 13. Avtomototransport vositalarini, shu jumladan transport vositalari tarkibini amaliy boshqarishda imtihon topshirish uchun | 10 % miqdorida | 37.500 |
| 14. Har bir qayta amaliy boshqarishda imtihon topshirish uchun | 15 % miqdorida | 56.250 |
| 15. Haydovchilik guvohnomasini berish uchun | 70 % miqdorida | 262.500 |
| 16. Yo'qotilgan haydovchilik guvohnomasi o'rniga vaqtinchalik ruxsatnoma berish uchun | 10 % miqdorida | 37.500 |
| 17. Chet davlat fuqarosi, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga va diplomatik xizmat xodimlariga haydovchilik guvohnomalarni berish uchun | 3 baravari miqdorida | 1.125.000 |

*Izoh:*
*– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 22 oktyabrdagi PQ-4871-son «Favqulodda vaziyatlardan jabr ko'rgan fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishning qo'shimcha choralari to'g'risida»gi qaroriga asosan, O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlar hududida tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar, shu jumladan maishiy tusdagi ofatlar (turar, noturar-joyning yong'ini yoki qulashi, transport vositasining yong'ini) yuz berganligi oqibatida fuqaroning aybisiz yo'qotilgan yoki yaroqsiz holga kelgan haydovchilik guvohnomasining dublikatini berish uchun to'lov undirilmaydi.*

18. Mazkur to'lovlar stavkalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan.

# «TONIROVKA»

2022 yil 1 iyuldan orqa yon oynalarni qoraytirish bepul boʻldi, shuningdek, old va orqa yon oynalarni toʻliq qoraytirish toʻlovlari arzonlashtirildi.

| Oynalar tusini qoraytirishga ruxsatnoma berish uchun toʻlov miqdori BHM baravarida | |
|---|---|
| **orqa va old yon oynalar uchun** | **orqa yon oynalar uchun** |
| **8 – 2.640.000 soʻm** | **Bepul** |

# OMMABOP SAVOLLARGA JAVOBLAR

## Kameralar qoidabuzarliklarni qanday aniqlaydi va qoidabuzarlikni qanday qilib sodir etmaslik kerak?

Kameralar orqali aniqlangan jarimalar pochta orqali 3 KUN ichida yuboriladi.

Hozirgi vaqtda kameralar **3 turdagi** YHX qoidabuzarliklarni aniqlaydi – svetoforning qizil chirogʻiga oʻtish, tezlikni oshirish va “STOP” chizigʻining bosilishi. Yodda tu'tish lozim: «qizil chiroqda» toʻxtash-chiziqni kesib oʻtish, svetoforning qizil chirogʻiga oʻtish kabi hisoblanadi va tegishli tarzda jazolanadi.

Agarda Siz «yashil chiroqda» chorrahaga kirgan boʻlsangiz – svetoforning taqiqlovchi belgisini yongan taqdirda ham, harakatni davom ettirishingiz lozim.

Agarda Sizning avtomobilingiz toʻxtash-chiziqni «qizil» yongan paytda kesib oʻtgan boʻlsa – bu qoidabuzarlik hisoblanadi, favqulodda tormozni bosgan taqdiringizda ham. Shuning uchun svetoforning yashil chirogʻi oʻchib yonganida, yoki sariq chiroq yonganda – shoshilmang, toʻxtash-chiziqqacha toʻxtang.

**Agar jarima xato bilan belgilangan boʻlsa, DYHXga 71-254-22-16 telefon orqali murojaat qilishingiz mumkin**

Chapga burilishda shu qoidalar amalda – svetoforning yashil chirogʻida Siz toʻxtash-chiziqni kesib oʻtishingiz va burilishga tayyorlanishingiz mumkin. Agarda Siz qarama-qarshi yoʻnalishdagi avtomobillarga yoki piyodalar harakatiga toʻsiq xosil qilgan boʻlsangiz, manyovrni oxiriga yetkazishingiz kerak. Agarda chorraha chegarasigacha uzoq boʻlsa va avtomobilingiz piyodalar harakatini toʻsmagan boʻlsa, svetoforning ruxsat etuvchi chirogʻini kutib harakatni davom ettirishingiz mumkin.

Agarda toʻxtash-chiziq koʻrinmasa, piyodalar harakatiga toʻsqinlik qilmasdan chorrahaga yetmasdan toʻxtash lozim. Toʻxtash chizigʻi koʻrinmaydigan chorrahalarda, kameralar toʻxtash-chizigʻini kesib oʻtish bilan bogʻliq boʻlgan qoidabuzarliklarni aniqlamasligi kerak. Agarda toʻxtash chizigʻi ikkita boʻlsa eng yangisini oldida toʻxtash lozim, yangi qaysiligi tushunarsiz boʻlsa – svetofordan eng uzoqdagisi oldida.

Ruxsat etilgan tezlik rejimini oshirish borasida qoʻyidagilarni yodda tutish lozim. YHX qoidabuzarliklarni aniqlash tizimida 5 km/soat hatolik kiritilgan. Masalan: belgilangan yoʻl qismida ruxsat etilgan

tezlik 50 km/soat bo'lsa, kameralar qoidabuzarlikni tezlik 55 km/soat dan oshganda aniqlaydi.

Chorrahadagi harakatni tartibga soluvchi xodim boshqargan taqdirda va svetoforning «qizil chiroq»da harakat qilishni ko'rsatsa – tartibga soluvchi ko'rsatmalariga bo'ysinish lozim.

## Jismoniy shaxslar qanday tartibda jarimalarni to'lashi mumkin?

Agarda Siz Qarorni olgan bo'lsangiz, u holda Siz jarimani bir nechta usulda to'lashingiz mumkin:

Siz O'zbekiston Respublikasida istalgan bankning (bank filialining) kassasi yoki to'lovlarni qabul qilish shohobchasiga tashrif buyurib, jarima to'lovi to'g'risidagi Qarorni ko'rsatishingiz va qarorda ko'rsatilgan jarima summasini Sizga qulay usulda (naqd yoki bank plastik kartochkasi) orqali to'lashingiz mumkin.

*880# (CLICK) USSD-komanda orqali, CLICK Uzbekistan yoki Payme mobil ilovalari, hamda www.click.uz, www.payme.uz servis saytlari orqali, hamda ROAD24 nomli mobil ilovasida.

## Yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun jarima haqida ma'lumotni qanday olish mumkin?

Elektron www.my2.gov.uz portali hukumat orqali bepul tekshiruvdan tashqari, yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun jarimaning mavjudligini SMS orqali yoki O'zbekiston DYHX maxsus sayti https://dyhxx.uz orqali tekshirish imkoniyati ham mavjud.

SMS orqali jarimalar haqidagi ma'lumotni tekshirish uchun 8860 qisqa raqamiga (avtomobil davlat raqami) bo'sh joy (avtomobilning texnik pasport seriyasi va raqami (birgalikda, bo'sh joylarsiz) shaklida SMS yuborish kerak.

Har bir kiruvchi xabar narxi – 210 so'm.

Xizmat faqat Beeline, Ucell, UMC va Uzmobile abonentlari uchun amal qiladi.

Shu bilan birga, YPX inspektorlari tomonidan rasmiylashtirilgan yo'l harakati qoidalarini buzilishi haqidagi bayonnoma interaktiv tizimga kiritilmagan bo'lsa, ularning mavjudligini tuman DYHX bo'limlarida tekshirib, to'lashingiz mumkin.

Jarimalarni to'lash muddati:

Agar sizning huzuringizda YPX inspektori sizni jarimaga tortsa – **30 kun**;

Agar jarima avtomatik kamera tizimi tomonidan chiqarilgan bo'lsa – **60 kun**.

## Yuridik shaxslar qanday tartibda jarimalarni to'lashi mumkin?

Yuridik shaxs nomiga rasmiylashtirilgan avtomobil vositasi bo'yicha YHX qoidabuzarligi asosida o'rnatilgan jarima Qarorini olgandan so'ng, jarimani to'lash jismoniy shaxs kabi amalga oshirilishi mumkin.

Bundan tashqari, xohishiga ko'ra yuridik shaxs bankdagi hisob raqamidan pul ko'chirish yo'li orqali, hisobchi yoki boshqa vakolatli shaxs, to'lov topshiriqnomasini Qarorda ko'rsatilgan summaga tayyorlashi mumkin, to'lov maqsadida Qaror raqamini ko'rsatish shart, bu o'z navbatida pul mablag'larining to'g'ri qabul qilinishining unikal identifikatori hisoblanadi.

Ushbu shartlar «bank-mijoz» tizimi orqali to'lovlarni o'tkazadigan tashkilotlarga ham taalluqlidir, to'lov maqsadida qaror raqamini ko'rsatish shart.

### Www.Dyhxx.Uz saytiga avtomobilni qo'shmoqchi bo'lganimda, «bunday raqamli va texpasportli avtomobil YPX tizimida topilmadi» degan xatolik chiqyapti

Texpasport ma'lumotlarini kiritganda ularning to'g'riligiga e'tibor bering, agar Siz barcha ma'lumotlarni to'g'ri kiritgan bo'lsangiz, u holda mazkur muammoni yechish uchun Siz YPX ga murojaat qilishingiz zarur, YPX tizimiga ma'lumotlar xato kiritilgan bo'lishi mumkin.

***JARIMA SUMMASINING 50%INI 15 KUN IChIDA TO'LAGAN HOLDA QOLGAN 50%INI TO'LAMASA BO'LADI!***

**Quyidagi hollarda soddalashtirilgan tartib qo'llanilmaydi (MJTK 332[1] modda):**

* ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun sud tomonidan jarima solinganda;

* jarima solish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilinganda yoki protest bildirilganda;

* xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilganda.

### Haydovchilik guvohnomasini almashtirish uchun qanday hujjatlar kerak?

Eski namunadagi haydovchilik guvohnomasini almashish uchun imtihon varaqasini taqdim etishning hojati yo'q, siz **«yagona darcha»** davlat xizmatlari markazlarida guvohnomangizni yangilashingiz mumkin.

### Plastik karta orqali emas, naqd pul to'lash orqali to'lovni amalga oshirsa bo'ladimi?

Hozirda jismoniy shaxslarning barcha to'lovlari plastik karta orqali amalga oshiriladi. Siz istalgan bank muassasasiga murojaat qilgan holda, o'z nomingizga plastik karta ochtirishingiz mumkin va SMS-axborot xizmatini faollashtirishingiz ham zarur bo'ladi. Plastik kartalarning afzallik tomonlari shundaki, Siz osonlik bilan to'lovlarni amalga oshirishingiz va pul mablag'laringizni nazorat qilib borishingiz mumkin, har safar birjaga mablag'ni bank hisobiga qaytarish bo'yicha murojaat qilishga hojat qolmaydi.

### Sotib olingan raqamga pul mablag'i qaysi usulda to'lanadi, savdolar jarayonida zakalat summasi va birja vositachilik yig'imi bormi?

Jismoniy shaxslar uchun to'lov shaxsiy kabinetdan ro'yxatdan o'tib bo'lingach, faollashtirilgan plastik kartochka orqali (SPK) amalga oshiriladi. Yuridik shaxslar esa, ro'yxatdan o'tish sahifasida havola qilingan Ofertada ko'rsatilgan hisob raqamga pul o'tkazish yo'li orqali to'lovni amalga oshiradilar. Savdolarda ishtirok etishdan avval kerakli bo'lgan pul mablag'i miqdori: zakalat summasi 10% (raqamning boshlang'ich narxidan) va Birja vositachilik yig'imi 5% (shartnoma summasidan).

### Qarindoshlar ishonchnomasiz avtomobilni boshqarishi mumkinmi?

Avtomobil egasining yaqin qarindoshlariga bo'lgan talablarni tartibga solib, avtomobilni ishonchnomasiz boshqarishi mumkin. Notarial tasdiqlangan ishonchnomasiz yaqin qarindoshlarning avtomobilni boshqarish uchun ularning nomlari (ixtiyoriy va qarindoshlik darajasi) sug'urta polisida ko'rsatilishi kerak.

**Shaxsiy transport vositalariga ishonchnoma kerak emas:**

*** xotini (eri)**
*** ota-onalariga**
*** farzandlar;**
*** egasining aka-uka va opa-singillari.**

**YPX qarindoshlikni tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish huquqiga ega emas**

### Sug'urtaga doir huquqbuzarlik uchun avtomobil ushlab turilmaydi

Ichki ishlar organlari tomonidan transport vositalarini ushlab turish va ko'zdan kechirish o'tkaziladigan huquqbuzarliklar ro'yxatiga tuzatish kiritildi. Undan haydovchilarning yonida sug'urta polisi bo'lmasligi (MJTK 135-m.) va transport vositalari egalari tomonidan fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini buzilgan boshqa holatlar (MJTK 135¹-m.) chiqarib tashlandi. Quyidagilarni unutmaslik kerak: endi ushbu huquqbuzarliklar avtomobilni ushlab turish va ko'zdan kechirish uchun asos hisoblanmaydi, biroq ular bo'yicha ma'muriy javobgarlik bekor qilinmagan. MJTKning 135 va 135¹-moddalarida nazarda tutilgan jarimalar amal qilishda davom etadi va avvalgidek, huquqbuzarlardan undiriladi.

### Qanday holatlar Haydovchining mastligini tekshirishga asos bo'ladi?

**– haydovchining og'iz bo'shlig'idan alkogol hidi kelishi;**
**– haydovchi bir holatda to'g'ri tura olmasligi (chayqalib turishi);**
**– haydovchi nutqining buzilganligi;**
**– haydovchi qo'l barmoqlarining qaltirashi;**
**– haydovchi yuz terisi rangining sezilarli o'zgarganligi.**

### Haydovchi alkotesterga tegishli xujjatlarni talab qilishga haqlimi?

Tekshiruv oldidan DYHXX xodimi transport vositasi haydovchisini texnik vositaning ishlash tartibi bilan tanishtiradi, zarur hollarda haydovchining talabiga asosan texnik vositaga tegishli hujjatlarni ko'rsatadi.

## Haydovchining mastligi qanday aniqlanadi?

O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan sertifikatlangan transport vositasi haydovchisi tomonidan havoga chiqarilgan etanol bug‘larini aniqlovchi va tekshiruv natijalarini qog‘ozda aks ettiruvchi maxsus texnik vosita — alkotester yordamida amalga oshiriladi.

## Haydovchining mastligini aniqlash kim tomonidan o‘tkaziladi?

«Body camera»si bor DYHXX xodimi tomonidan yoki ular ishtirokida tuman va shahar davolash-profilaktika muassasalarining mas'ul xodimlari tomonidan o‘tkaziladi.

## Mastlik darajasining ko‘rsatkichi bormi?

Transport vositasi haydovchisi tomonidan chiqarilgan havodagi etanol bug‘lari konsentrasiyasi ko‘rsatkichi 0,135 milligramm va undan yuqori bo‘lgan hollarda DYHXX xodimi haydovchiga nisbatan alkogolli ichimlik iste'mol qilganligi fakti yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 131-moddasiga muvofiq ma'muriy bayonnoma rasmiylashtiradi.

## Haydovchi mastligini tekshiruvidan bosh tortsa, nima bo‘ladi?

Transport vositasi haydovchisi texnik vosita yordamida tekshiruvdan o‘tishdan bosh tortgan yoxud unda texnik vosita orqali tekshiruv natijalariga e'tiroz mavjud bo‘lgan hollarda DYHXX xodimi transport vositasini boshqarayotgan shaxsning mast holatda ekanligini aniqlash maqsadida tibbiy tekshiruvdan o‘tkazish uchun tuman va shahar davolash-profilaktika muassasalariga olib boradi.

Transport vositasi haydovchisi tekshiruvdan o‘tishdan bo‘yin tovlagan taqdirda DYHXX xodimi unga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 136-moddasiga muvofiq ma'muriy bayonnoma rasmiylashtiradi.

## Tez tibbiy yordam avtomobilini o'tkazib yuborish uchun qoida buzildi, jarima solinadimi?



O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 271-moddasiga muvofiq: shaxs harakatni zaruriy mudofaa holatida yoki oxirgi zarurat holatida qilgan bo'lsa, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishni boshlash mumkin emas, boshlangan ish esa tugatilishi lozim.

Shunday qilib, agar tez tibbiy yordam avtomobilini zaruriy holatda o'tkazib yuborganlik aniqlansa, qoida buzilishining qayd etilgani haqidagi bayonnoma bekor qilinadi.

## Nima uchun haydovchilar taqiqlovchi belgi ostida aynan «majburiy to'xtash»ni amalga oshirganday, «avariyka»ni yoqib to'xtayveradilar?

YHQning 1 bandida **«majburiy to'xtash»** termini quyidagicha ifodalangan **«majburiy to'xtash — texnik nuqson, tashilayotgan yuk, haydovchi va yo'lovchining holati, yo'ldagi biror to'siq tufayli xavf yuzaga kelganda yoxud ob-havo sharoitiga bog'liq holda transport vositasi harakatini to'xtatish».**

Xullas, agar avtomobilning shinasi yorilib yoki teshilib qolsa, kuzovdan tutun chiqib ketsa, haydovchining sog'lig'i yomonlashsa, yo'lovchi o'zini g'ayriodatiy tutsa, haydovchiga nisbatan turli xatti-harakatlar qilsa, yo'lning qatnov qismiga daraxt yoki biron katta jism qulasa va uni aylanib o'tishning iloji bo'lmasagina, haydovchi YHQning yuqoridagi bandi talabini bajarmay «avariyka»ni yoqib, to'xtash taqiqlangan joyda avtomobilini to'xtatishi, tegishli belgini yo'lga qo'yishi mumkin. Bu holatlar ro'yxatiga «juda zarur bo'lib qoldi» yoki «rahbarim talab qildi» degan sabablar kirmagan, albatta.

## Agar, taqiqlangan joyda to'xtagan avtomobilni video yoki foto kamera suratga olgan bo'lsachi?

Unda uyingizga «baxt xati» kelishi aniq. Chunki avtomatik tizim avtomobilingizni nima sababdan to'xtatganingizni bilmaydi. Bunday holatda o'zingizni aybsiz ekanligingizni isbotlashingiz kerak. Buning uchun esa, sizni to'xtashga majbur qilgan sabablarni suratga tushirib olgan bo'lishingiz zarur. Albatta, «avariyka» chirog'ini yoqqaningiz hamda majburiy to'xtaganligini bildiruvchi belgi yo'lga o'rnatganingizni suratga olish ham yodingizdan chiqmasin. Evakuator xizmatining chiptasini saqlab qo'yish ham foydadan xoli bo'lmaydi.

Oq yo'l!

**Agar to'xtash sababi jiddiy bo'lsa, YPX xodimi albatta holatni to'g'ri talqin qiladi va haydovchiga yordam beradi.**

# QIZIL CHIROQDA O'TISH MUMKINMI?



**Dunyoning rivojlangan mamlakatlari yo'llarida svetoforning qizil chirog'ida piyodalarni va boshqa transport vositalarini o'tkazib yuborib, o'ngga burilish tajribasi ijobiy natijalarga olib kelganligi hamda yo'llardagi tirbandliklar muammosini hal etilishida muhim o'rin tutishi e'tirof etilgan.**




GOST 23457-86 davlat standartiga binoan, Qoidalarning 31-bandiga zid bo'lmagan holda talabdan asoslangan holda chetga chiqib, chorrahada yo'l harakatini tashkil qilish mumkin.

Ko'cha-yo'l tarmoqlaridagi transport vositalarining tirbandligi asosan chorrahalar oldida hosil bo'lib, uni bartaraf etishning optimal usullaridan biri – xavfsizlikni ta'minlagan holda transport oqimining o'ngga burilishida uzluksizlikni ta'minlash ya'ni, svetoforning taqiqlovchi ishoralarida ham o'ngga burilishga ruxsat berish hisoblanadi.

1



2



*QIZIL ChIROQDA O'NGGA BURILISh RUXSAT ETILGAN HOLDA:*
*1. Transport oqimlarining yo'nalishlari kesishib o'tadigan holat;*
*2. Transport oqimlarining yo'nalishlari kesishmaydigan holat.*

Agar siz chorraxadan to'g'riga yurmoqchi bo'lsangiz, lekin yo'lning o'ng tasmasida svetoforning qizil chirog'ida to'xtab qolsangiz, (5.42 yo'l belgisi o'rnatilgan tasmada) orqadagi o'ngga burilmoqchi bo'lgan transport vositalariga yo'l berishingiz shart bo'lmaydi. To'g'riga harakatlanish uchun svetoforning yashil chirog'i yonishini kutib, keyin harakatni davom ettirishingiz mumkin.

# "TO'XTASH TAQIQLANGAN" BELGISI OSTIDA AVARIYA YORUG'LIK ISHORASINI YOQIB TO'XTASH MUMKINMI?




**Ko'pchilik haydovchilarga bu holat tanish. Do'konga kirish yoki yo'lovchini tushirish kerak bo'lsa, ular ishbilarmonlik bilan «avariyka»ni yoqib qo'yib, taqiqlovchi belgining yonginasida avtomobilni to'xtatib turishadi.**

Xo'sh, to'xtab turish taqiqlangan bo'lsa-yu, to'xtash juda zarur bo'lib qolsa, qanday yo'l tutish kerak?

Gapni eng avval, yo'l harakati qoidalaridagi **«To'xtash»** iborasining mazmunidan boshlasak. **YHQ 1. «To'xtash — transport vositasi harakatini 10 daqiqagacha bo'lgan muddatga to'xtatish (harakatsiz holatga keltirish).»** Avtomobilni nafaqat 3.27 belgisi ta'sir doirasida, balki YHQning 91 bandida ko'rsatilgan bir nechta hollarda ham to'xtatish mumkin emas.

Ko'pchilik haydovchilar **«To'xtash taqiqlangan»** belgisining ta'siri doirasida yo'lovchilarni tushirish uchun to'xtaydilar. Lekin bu yo'l harakati qoidalariga zid. Ushbu holat uchun faqat birgina istisno mavjud: yo'nalishli transport vositalariga halaqit bermasdan ular to'xtaydigan bekatiga yaqin joyda, ya'ni bekatga 15 metrdan yaqin bo'lmagan masofada yo'lovchilarni chiqarish yoki tushirish uchun to'xtash mumkin (YHQ 91 bandi).

3.27 belgisining ta'sir doirasi u o'rnatilgan joydan keyingi eng yaqin chorrahagacha, chorrahasi bo'lmagan aholi punktlarida aholi yashaydigan hududning oxirigacha davom etadi. Bundan tashqari belgining ta'sir doirasi qo'shimcha ravishda vaqtni, yo'nalishni belgilovchi ko'rsatkichlar yoki **3.31. «Barcha cheklovlarning oxiri»** belgisi bilan chegaralanishi mumkin.

Shunday qilib, qizil xoshiyalar tushirilgan ko'k rangli belgi ostida to'xtash mumkin emasligini bilib oldik. Bu qoidabuzarlik uchun O'zR MJtK $128^6$-1 moddasiga asosan bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravari miqdorida jarima belgilangan.









# ID-KARTA – BU QULAY!




2021 yil 30 noyabr, O‘RQ-734-sonli Qonuniga asosan 1 martdan, identifikasiya ID-kartaga ega fuqarolarga tegishli transport vositasi haydovchisidan quyidagilarni talab qilish amaliyoti bekor qilinadi:

— yangi namunadagi haydovchilik guvohnomasi;

— transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazganlik to‘g‘risidagi, transportga egalik qilish, egasi yo‘qligida undan foydalanish yoki uni tasarruf etish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar;

— transport egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta polisi.

«Ichki ishlar organlari faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi hukumat qarori qabul qilindi.

Qarorga ko‘ra, 2022 yil 1 martdan quyidagi xizmatlar YaIDXP orqali elektron shaklda ko‘rsatiladi:

O‘zbekistonga chet davlat fuqarosini taklif qilish;

- chet davlatda O‘zbekiston fuqaroligini tasdiqlash bo‘yicha tegishli hujjatlar va ma'lumotnomalar olish;
- sudlanganlik (sudlanmaganlik) haqidagi ma'lumotlar olish;
- avtotransport vositalarida taqiq mavjudligini tekshirish;
- jazoni ijro etish muassasalari va manzil koloniyalarida saqlanayotganlarni ularning yaqin qarindoshlari bilan uchrashuv vaqtini belgilash.



Transport vositasini boshqarish vaqtida haydovchilarning telefondan foydalanishi taqiqlangan, lekin bundan telefondan quloqchinlar orqali va qo‘llarni ishlatmasdan turib so‘zlashuvlar olib borish imkoniyatini beradigan boshqa uskunalar orqali foydalanish mumkin.

## FAOL FUQARO

Ichki ishlar vazirligi “Yo‘l harakati qoidalari”ni buzilishi haqida videolarni qabul qiladigan saytni ishga tushirdi. Har bir rasmiylashtirilgan YHQning buzilishi uchun yuborilgan video muallifi BRVning 5% (18.500 so‘m)ni oladi.

“Yo‘l harakati qoidalari”ni buzganligi haqidagi videoni yuborishingiz mumkin bo‘lgan sayt **https://dyhxx.ejarima.uz**

**Video yozuvlar quyidagi shartlar va talablarga javob berishi kerak:**

- ***Video faylining o‘lchamlari 720 × 480 pikseldan kam bo‘lmasligi kerak;***
- ***Videoyozuvlar YHQ buzilishi qayd etilgan kundan boshlab 3 kundan kechiktirmay qabul qilinadi;***
- ***Video yozuvlar videoregistrator va uyali telefondan qabul qilinadi;***
- ***Video yozuvlar davomiyligi 120 soniyadan ko‘p bo‘lmasligi kerak;***
- ***Video yozuvlarda sana va vaqt aks ettirilishi kerak.***

Yuborilgan videolarga ko‘ra, YPX inspektorlari bayonnomani tuzadilar. Mukofot huquqbuzar tomonidan jarima to‘langandan so‘ng beriladi.

# AUKSION

## ORQALI BERILADIGAN AVTOMOBIL RAQAM BELGILARI RO'YXATI

*Vazirlar Mahkamasining*
*2017 yil 31 avgustdagi 683-sonli*
*Qaroriga Ilova*




avtoraqam.uzex.uz

| Toifa nomi | RO'DRB-ning seriyada-gi soni | RO'DRBning raqamlar kombinasiyasi | RO'DRBning boshlang'ich narxi (BHMda) | |
|---|---|---|---|---|
| | | | RO'DRBga har xil kombinasiyadagi harflar bilan | RO'DRBga bir xil kombinasiyadagi harflar bilan |
| **Toshkent shahri** | | | | |
| 1-toifa | 9 juft | 001, 007, 100, 111, 222, 555, 700, 777, 888 | 37.500.000 so'm 100 BHM | 48.750.000 so'm 130 BHM |
| 2-toifa | 21 juft | 002, 005, 010, 020, 050, 070, 077, 080, 101, 200, 202, 300, 333, 444, 500, 505, 666, 707, 800, 808, 999 | 11.250.000 so'm 30 BHM | 15.000.000 so'm 40 BHM |
| 3-toifa | 27 juft | 003, 004, 006, 008, 009, 011, 022, 030, 033, 040, 044, 055, 088, 090, 110, 303, 400, 404, 550, 600, 701, 717, 757, 770, 900, 909 | 3.750.000 so'm 10 BHM | 5.625.000 so'm 15 BHM |
| 4-toifa | 36 juft | 033, 044, 060, 066, 099, 220, 330, 440, 606, 660, 702, 703, 704, 705, 706, 708, 709, 710, 711, 712, 721, 722, 727, 737, 747, 767, 771, 772, 773, 774, 775, 776, 778, 779, 787, 797, 880, 990 | 3.000.000 so'm 8 BHM | 3.750.000 so'm 10 BHM |
| 5-toifa | 75 juft | 121, 131, 141, 151, 161, 171, 177, 181, 191, 212, 232, 242, 252, 262, 272, 277, 282, 292, 313, 323, 343, 353, 363, 373, 383, 393, 414, 424, 434, 454, 464, 474, 484, 494, 515, 525, 535, 545, 565, 570, 571, 575, 577, 585, 595, 616, 626, 636, 646, 656, 676, 686, 696, 733, 744, 755, 766, 788, 799, 818, 828, 838, 848, 858, 868, 878, 898, 919, 929, 939, 949, 959, 969, 979, 989 | 2.625.000 so'm 7 BHM | 3.625.000 so'm 8 BHM |
| 6-toifa | 160 juft | 012, 017, 071, 107, 112, 113, 114, 115, 116, 117, 118, 119, 122, 123, 133, 144, 155, 166, 170, 188, 199, 201, 207, 210, 211, 221, 223, 224, 225, 226, 227, 228, 229, 233, 234, 244, 255, 266, 288, 299, 301, 307, 311, 322, 331, 332, 334, 335, 336, 337, 338, 339, 344, 345, 355, 366, 377, 388, 399, 401, 407, 411, 422, 433, 441, 442, 443, 445, 446, 447, 448, 449, 455, 456, 466, 477, 488, 499, 501, 507, 510, 511, 522, 533, 544, 551. 552, 553, 554, 556, 557, 558, 559, 566, 567, 588, 599, 601, 607, 611, 622, 633, 644, 655, 661, 662, 663, 664, 665, 667, 668, 669, 677, 678, 688, 699, 720, 730, 740, 750, 760, 780, 789, 790, 801, 807, 811, 822, 833, 844, 855, 866, 877, 881, 882, 883, 884, 885, 886, 887, 889, 899, 901, 907, 911, 922, 933, 944, 955, 966, 977, 988, 991, 992, 993, 994, 995, 996, 997, 998 | 2.250.000 so'm 6 BHM | 2.625.000 so'm 7 BHM |

| Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 1-toifa | 9 juft | 001, 007, 100, 111, 222, 555, 700, 777, 888 | 9.375.000 so'm 25 BHM | 11.250.000 so'm 30 BHM |
| 2-toifa | 21 juft | 002, 005, 010, 020, 050, 070, 077, 080, 101, 200, 202, 300, 333, 444, 500, 505, 666, 707, 800, 808, 999 | 3.750.000 so'm 10 BHM | 5.625.000 so'm 15 BHM |
| 3-toifa | 27 juft | 003, 004, 006, 008, 009, 011, 022, 030, 033, 040, 044, 055, 088, 090, 110, 303, 400, 404, 550, 600, 701, 717, 757, 770, 900, 909 | 3.000.000 so'm 8 BHM | 3.375.000 so'm 9 BHM |
| 4-toifa | 36 juft | 033, 044, 060, 066, 099, 220, 330, 440, 606, 660, 702, 703, 704, 705, 706, 708, 709, 710, 711, 712, 721, 722, 727, 737, 747, 767, 771, 772, 773, 774, 775, 776, 778, 779, 787, 797, 880, 990 | 2.625.000 so'm 7 BHM | 3.000.000 so'm 8 BHM |
| 5-toifa | 75 juft | 121, 131, 141, 151, 161, 171, 177, 181, 191, 212, 232, 242, 252, 262, 272, 277, 282, 292, 313, 323, 343, 353, 363, 373, 383, 393, 414, 424, 434, 454, 464, 474, 484, 494, 515, 525, 535, 545, 565, 570, 571, 575, 577, 585, 595, 616, 626, 636, 646, 656, 676, 686, 696, 733, 744, 755, 766, 788, 799, 818, 828, 838, 848, 858, 868, 878, 898, 919, 929, 939, 949, 959, 969, 979, 989 | 2.250.000 so'm 6 BHM | 2.625.000 so'm 7 BHM |
| 6-toifa | 160 juft | 012, 017, 071, 107, 112, 113, 114, 115, 116, 117, 118, 119, 122, 123, 133, 144, 155, 166, 170, 188, 199, 201, 207, 210, 211, 221, 223, 224, 225, 226, 227, 228, 229, 233, 234, 244, 255, 266, 288, 299, 301, 307, 311, 322, 331, 332, 334, 335, 336, 337, 338, 339, 344, 345, 355, 366, 377, 388, 399, 401, 407, 411, 422, 433, 441, 442, 443, 445, 446, 447, 448, 449, 455, 456, 466, 477, 488, 499, 501, 507, 510, 511, 522, 533, 544, 551, 552, 553, 554, 556, 557, 558, 559, 566, 567, 588, 599, 601, 607, 611, 622, 633, 644, 655, 661, 662, 663, 664, 665, 667, 668, 669, 677, 678, 688, 699, 720, 730, 740, 750, 760, 780, 789, 790, 801, 807, 811, 822, 833, 844, 855, 866, 877, 881, 882, 883, 884, 885, 886, 887, 889, 899, 901, 907, 911, 922, 933, 944, 955, 966, 977, 988, 991, 992, 993, 994, 995, 996, 997, 998 | 1.875.000 so'm 5 BHM | 2.250.000 so'm 6 BHM |

**Savdolarda qanday ishtirok etiladi, shartnomani qayerdan olib ketiladi, broker orqali ishtirok etish kerakmi, savdolar qachon va qayerda bo'lib o'tadi?**

Birja bilan shartnoma oferta qabul qilingach, ro'yxatdan o'tish jarayonida elektron tarzda tuziladi. Avtoraqam.uzex.uz saytida RO'DRB sotib olish savdolari onlayn tartibda bo'lib o'tadi, mijozlarning o'zlari internet orqali kirib ishtirok etiladi, broker xizmatlaridan foydalanilmaydi va Birja idorasiga kelish talab etilmaydi.

Bosh sahifada KIRISh tugmasi bosiladi, RO'YXATDAN O'TISh ni tanlab, mijoz (jismoniy yoki yuridik shaxs) pasport ma'lumotlari va STIR raqami ma'lumotlari kiritilib, ro'yxatdan o'tiladi. So'ng elektron pochtaga kelgan havola bosilib, shaxsiy kabinet faollashtiriladi.



# QUYIDAGI ASOSLARGA KO'RA YPX XODIMI TOMONIDAN TRANSPORT VOSITALARI TO'XTATILISHI MUMKIN:



haydovchi tomonidan yo'l harakati qoidalarining buzilishi vizual kuzatuvda aniqlanganda yoki maxsus moslama yordamida qayd qilinganda;



transport vositasi, haydovchi yoki yo'lovchi qidiruvda ekanligi, yo'l transport hodisasi yoki boshqa huquqbuzarlikka aloqador ekanligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lganda;



yo'l transport hodisasi, huquqbuzarlik sodir etilganini ko'rgan haydovchi yoki yo'lovchidan hodisa tafsilotiga oydinlik kiritish zarurati yuzaga kelganda;




**vakolatli davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning harakatni cheklash yoki taqiqlash bo'yicha ko'rsatmalarini bajarish jarayonida;**



**transport vositasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda foydalanish zarurati yuzaga kelganda (chet davlatlarning diplomatik, konsullik vakolatxonalariga va boshqa vakolatxonalariga, xalqaro tashkilotlarga tegishli bo'lgan transport vositalari hamda maxsus mo'ljallangan transport vositalari bundan mustasno);**



**maxsus tadbirlarni o'tkazish jarayonida;**



**transport vositasidan foydalanish va boshqarish huquqini beruvchi, shuningdek, transport vositasi va olib ketilayotgan yuklarga oid hujjatlar mavjudligini tekshirish uchun (maxsus va harbiy yuklar, bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilib, bojxona xizmat tomonidan plombalangan yuklar bundan mustasno).**

# AVTOMOBILNI JARIMA MAYDONIGA QO'YISH ASOSLARI:





- Tormoz tizimida, rul boshqaruvida yoki ulovchi qurilmada nosozligi bo'lgan;
- Foydalanish belgilangan tartibda man etilgan transport vositalarini, davlat raqam belgisi (DRB) o'zboshimchalik bilan yechib olingan;
- Davlat raqam belgisi yasama yoki o'zga usullarda o'zgartirilgan;
- Tegishli ruxsatnomasiz og'ir vaznli, yirik gabaritli, xavfli yuklarni tashish;
- Ruxsatnomasiz qoraytirilgan oynalar;
- Tovush chiqaruvchi va yorituvchi maxsus qurilmalarni o'rnatish, DRBni anglashga to'sqinlik qiladigan turli ashyolar o'rnatish va qoplama surtish;
- To'xtash yoki to'xtab turish qoidalarini buzish;
- Alkogolli ichimlikdan, mast holda boshqarishi;
- Avtomobilni boshqarish huquqini beruvchi hujjatlari yonida bo'lmagani;

- Alkogolli ichimlikdan, mast holni aniqlash uchun tekshiruvdan o‘tishdan bo‘yin tovlashi;
- Yo‘l-transport hodisasi joyidan ketib qolishi;
- Avtomobil transportida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan litsenziyasiz shug‘ullanish;
- YPX xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik.

## MA'MURIY JAVOBGARLIKKA TORTILAYOTGAN SHAXSNING HUQUQLARI:

MJtK 294 modda

- ish materiallari bilan tanishib chiqishga;
- izohlar berishga;
- dalillar keltirishga;
- ishni ko‘rib chiqish vaqtida advokatning yuridik yordamidan foydalanishga;
- o‘z ona tilida so‘zlashga va tarjimonning xizmatlaridan foydalanishga;
- ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat berishga;
- o‘z iltimosini bayon etishga.




# KO'CHMA FOTORADAR VA MOBIL KOMPLEKSLARDAN FOYDALANISH TARTIBI

Transport vositalarining oqimi va yo'l sharoitini hisobga olgan holda, ko'chma fotoradar va mobil komplekslar biriktirilgan YPX xodimlari tomonidan ularning kunlik dislokasiyasi belgilangan va maxsus moslamalardan tegishli tartibda foydalanish choralari ko'rilgan bo'lishi lozim.

Ko'chma fotoradar va mobil komplekslardan foydalanilganda, yo'l harakati qoidalarining buzilganligini qayd etish mazkur Nizomning 37-bandida ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

YPX xodimlarining patrul avtomobillarida foydalanish belgilab qo'yilgan tezlikni o'lchash moslamalarini o'zboshimchalik bilan yechib olishi va xizmatga aloqasi bo'lmagan boshqa shaxslarning (jismoniy yoki yuridik) transport vositalariga o'rnatishi hamda xizmatni o'tashga aloqador bo'lmagan fuqarolarni jalb qilishi qat'iyan taqiqlanadi.

Mazkur talabga rioya etilmagan holda qabul qilingan jarima solish to'g'risidagi qarorlar yuridik kuchga ega bo'lmaydi va huquqiy oqibatlar keltirib chiqarmaydi.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlashning avtomatlashtirilgan (kompyuterlashtirilgan) boshqaruv tizimi (keyingi o'rinlarda — ABT deb ataladi) tarkibidagi yo'l harakatini nazorat qilish hamda video kuzatish texnik vositalarining joylashuvi va ish tartibi Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vaziri, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari hamda viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari boshliqlari tomonidan tasdiqlanadigan dislokasiya bilan belgilanadi.

Ko'chma fotoradar va mobil komplekslarni qo'llash joyi va vaqti DYHXX saf bo'limi (bo'linmasi) boshlig'i tomonidan tasdiqlangan dislokasiyaga muvofiq belgilanadi.

Dislokasiyaga asosan tezlikni o'lchash vositasi bilan xizmatga jalb etilgan YPX xodimi hududiy yo'l harakati xavfsizligi bo'limlari mas'ul xodimidan tezlikni o'lchash vositasini (mobil komplekslar bundan mustasno) va unga tegishli sertifikatni (yoki uning nusxasini) qabul qilib oladi va uning butligi, sozligi, belgilangan tartibda ishlatilishiga mas'ul hisoblanadi.

YPX xodimi dislokasiyaga asosan biriktirilgan hududga yetib borib, xizmatni boshlashidan oldin tezlik o'lchash moslamasini foydalanish uchun tayyorlaydi, moslama xotirasiga uning o'rnatilgan joyi, harakat yo'nalishi to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritib, xizmatga kirishadi.

# TRANSPORT VOSITALARI HAYDOVCHILARINING ALKOGOLLI ICHIMLIKLAR, GIYOHVANDLIK VOSITALARI YOKI PSIXOTROP MODDALAR ISTE'MOL QILGANLIGINI ANIQLASH UCHUN MAXSUS MOSLAMALARDAN FOYDALANISH TARTIBI

Transport vositalari haydovchilarining alkogolli ichimliklar ta'siridan mast holda ekanligini va giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar iste'mol qilganligini aniqlash YPX xodimi tomonidan maxsus moslama (alkotester, narkotester) yordamida qoidabuzarlik yuz bergan joyning o'zida amalga oshirilishi mumkin.

Tekshiruv oldidan YPX xodimi transport vositasi haydovchisini maxsus moslama (alkotester, narkotester)ning ishlash tartibi bilan tanishtiradi, uning talabiga asosan moslamaning sertifikati (nusxasi) ni ko'rsatadi.

Tekshiruv kamida ikki nafar xolis ishtirokida amalga oshiriladi, YPX xodimi tomonidan kuzatuv kamerasi (body camera)dan foydalangan holda amalga oshiriladigan tekshiruvlar bundan mustasno. Kuzatuv kamerasi (body camera)dan foydalangan holda amalga oshirilgan tekshiruv jarayoni aks etgan videotasvir ish materiallariga ilova qilinishi lozim.

Tekshiruv jarayonida YPX xodimi sanitariya-gigiyena qoidalariga qat'i rioya etishi lozim.

Tekshiruv YPX xodimi tomonidan maxsus moslama (alkotester, narkotester) yordamida belgilangan tartibda transport vositasi haydovchisining og'iz bo'shlig'idan chiqarilgan havodagi etanol bug'lar konsentrasiyasi miqdorini yoxud biologik suyuqlik (so'lak)da giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar borligini aniqlash orqali o'tkaziladi.

Transport vositasi haydovchisining og'iz bo'shlig'idan chiqarilgan havodagi etanol bug'lar konsentrasiyasi ko'rsatkichi 0,135 milligramm va undan yuqori bo'lgan hollarda, YPX xodimi haydovchiga nisbatan alkogolli ichimlik iste'mol qilganligi holati yuzasidan MJTKning 131-moddasiga muvofiq ma'muriy bayonnoma rasmiylashtiradi.

Transport vositasi haydovchisi maxsus moslama (alkotester, narkotester) yordamida tekshiruvdan o'tishdan bosh tortgan yoxud unda tekshiruv natijalariga e'tiroz mavjud bo'lgan hollarda, shuningdek, transport vositasi haydovchisining og'iz bo'shlig'idan chiqarilgan biologik suyuqlik (so'lak) narkotester yordamida tekshirilganda uning giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar iste'mol qilganligi aniqlangan taqdirda, YPX xodimi transport vositasi haydovchisini alkogolli ichimliklar, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar ta'siridan mast holda ekanligini aniqlash maqsadida tibbiy tekshiruvdan o'tkazish uchun tuman (shahar) davolash-profilaktika muassasasiga olib boradi.

Transport vositasi haydovchisi tekshiruvdan o'tishdan bo'yin tovlagan taqdirda, YPX xodimi unga nisbatan MJTKning 136-moddasiga muvofiq ma'muriy bayonnoma rasmiylashtiradi.

# YPX XODIMI O'Z XIZMAT VAZIFALARINI BAJARISHDA QUYIDAGI HUQUQLARGA EGA:



Transport vositasini to'xtatish, undan foydalanish va boshqarish huquqini beruvchi hujjatlarni, transport vositasiga, shuningdek, tashilayotgan yuklarga oid hujjatlarni tekshirish;



Haydovchi yoki yukni kuzatib borayotgan shaxs bilan birgalikda transport vositasini va yuklarni tashqi ko'zdan kechirish;



Yo'l harakati qatnashchilarining hujjatlarini tekshirish maqsadida elektron ma'lumotlar bazasidan foydalanish;



Yo'l transport hodisasi va boshqa huquqbuzarlik sodir etilganligining guvohi bo'lgan yo'l harakati qatnashchilarini aniqlash;



Tashkilotlar va fuqarolarning transport vositalaridan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda foydalanish (chet davlatlarning diplomatik, konsullik vakolatxonalariga va boshqa vakolatxonalarga, xalqaro tashkilotlarga tegishli bo'lgan transport vositalari hamda maxsus mo'ljallangan transport vositalari bundan mustasno);



Transport vositasining dvigatel va agregat qismlarining raqamlarini ro‘yxatlash hujjatlarida yozilgan raqamlar bilan haydovchining bevosita ishtirokida solishtirish (haydovchining ishtirokini ta'minlash imkoni bo‘lmagan holatlar bundan mustasno);



Transport vositasini ta'qib qilish yoki kuzatish;



Jinoyat sodir etganligi uchun ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilingan hamda qidiruvda bo‘lgan shaxslarni ushlab turish;
( MJtK 291 moddasi birinchi qismining “a” bandi)



Jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslarni, transport vositasida huquqbuzarlik sodir etib hodisa joyidan yashiringan, YPX xodimining qonuniy talabiga bo‘ysunmagan, nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etganda transport vositalarini ushlab turish;



Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lganda, jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni va o‘qotar qurolni qo‘llash.

# O‘L HARAKATI QATNASHCHILARI YPX XODIMLARI BILAN O‘ZARO MUNOSABATLARDA QUYIDAGI HUQUQLARGA EGA:




- YPX xodimi tomonidan to‘xtatish asoslarini, qoidalarning qaysi bandi (bandlari)ni buzganligi to‘g‘risida tushuntirish berilishini talab qilish;
- transport vositasini to‘xtatgan YPX xodimidan o‘zini tanishtirishini, xizmat guvohnomasini ko‘rsatishini va ko‘krak nishon belgisini ma'lum qilishini talab qilish;
- xizmatni mobil videokamerasiz olib borayotgan YPX xodimiga hujjatlarni taqdim etmaslik;
- YPX xodimi bilan o‘zaro munosabatini o‘ziga tegishli audio, foto va video qurilmaga qayd qilish (YPX xodimi tomonidan foto va video tasvirga olish taqiqlangan belgi mavjud hududlarda xizmat olib borish holatlari bundan mustasno);
- Nizomning 13-bandida nazarda tutilgan hollardan tashqari transport vositasi kabinasidan chiqmasdan, YPX xodimi bilan o‘zaro munosabatga kirishish;
- sodir etgan qoidabuzarligi qayd etilgan maxsus moslama natijalari bilan tanishish;
- huquqbuzarlik holatini aniqlashda foydalanilgan maxsus vositalarning qiyoslash sertifikatlarini ko‘rsatishni talab qilish;
- huquqbuzarlik holati yuzasidan tushuntirishlar berish;

- asossiz to‘xtatib turilmasligini talab qilish;
- YPX xodimi tomonidan transport vositasini yoki undagi yukni tashqi ko‘zdan kechirish jarayonida ishtirok etish;
- huquqbuzarlik to‘g‘risida ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilganidan so‘ng YPX xodimining dislokasiyasi saqlanayotgan saf bo‘limi (bo‘linmasi) boshlig‘idan dislokasiya haqida yozma ma'lumot berishni talab qilish;
- o‘ziga nisbatan rasmiylashtirilgan ma'muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnoma, ma'muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish hujjatlari bilan tanishish, ulardan o‘z hisobidan nusxa ko‘chirish yoki ularni fotosuratga olish;
- YPX xodimining harakatlari yoki harakatsizligi, rasmiylashtirilgan huquqbuzarlik to‘g‘risida ma'muriy bayonnoma hamda chiqarilgan qaror ustidan yuqori turuvchi organ (mansabdor shaxs)ga yoki sudga shikoyat qilish;
- o‘zi guvohi bo‘lgan hodisa haqida YPX xodimiga haqqoniy ma'lumotni bayon qilish.

## YPX XODIMLARI BILAN QANDAY MULOQOT QILISH KERAK?



Agar Siz, YHQni buzgan bo‘lsangiz, o‘zingizni yo‘l qondasini buzganingizni tan oling. Inspektor bilan muloqot qilganingizda xushmuomala buling. Yo‘l harakati qoidalarini buzishga Sizni nima majbur qilganligini tushuntirishga harakat qiling.

Agar Siz YTXni buzmaganligingizga qat'iy ishonsangiz va inspektorning harakatlarini huquqiy emas deb hisoblasangiz, o‘zingizning aybdor emasligingizni hurmatli shaklda, hushmuomalik, vazminlik bilan tushuntirishga harakat qiling. Ko‘pgina hollarda bunga erishish mumkin. Faqatgina alohida hushmuomalalik bilan bo‘lgan muloqotda nizoni bartaraf etish mumkin.

**Diplomat bo‘ling!**

## TRANSPORT VOSITALARI OYNALARINING YORUG'LIK O'TKAZUVCHANLIGINI O'LCHOVCHI MOSLAMADAN FOYDALANISH TARTIBI

Transport vositalarining tusi o'zgartirilgan (qoraytirilgan) oynalari belgilangan me'yorlarga javob berishiga aniqlik kiritish uchun transport vositalari oynalarining yorug'lik o'tkazuvchanligini o'lchovchi moslama (taumetr)dan foydalaniladi.

Transport vositalari oynalarining yorug'lik o'tkazuvchanligini aniqlash RShX xodimi tomonidan maxsus moslama (taumetr) yordamida qoidabuzarlik sodir bo'lgan joyning o'zida amalga oshiriladi.

Tekshiruv oldidan YPX xodimi transport vositasi haydovchisini maxsus moslama (taumetr)ning ishlash tartibi bilan tanishtiradi va uning talabi asosida moslamaning sertifikati (nusxasi)ni ko'rsatadi.

Yorug'lik o'tkazuvchanligi tekshirilayotgan transport vositasining oynasi belgilangan standartlarga mos, toza va quruq bo'lishi lozim.

Yorug'lik o'tkazuvchanligi belgilangan me'yorlarga muvofiq bo'lmagan avtotransport vositasi haydovchisiga nisbatan MJTKning 126-moddasiga muvofiq ma'muriy bayonnoma rasmiylashtiriladi.

## Yo'l harakati qatnashchilari YPX xodimlari bilan o'zaro munosabatlarda quyidagilarga majbur:

1. YPX xodimining qonuniy talablariga bo'ysunishi va ularni bajarish;

2. Transport vositasini boshqarishda belgilangan hujjatlarni (transport vositasini qayd etish guvohnomasi, haydovchilik guvohnomasi, sug'urta polisi, yuk hujjatlari), shaxsini tasdiqlovchi (haydovchi transport vositasini haydovchilik guvohnomasisiz boshqargan hollarda) hujjatlarni YPX xodimlari talab qilganda tekshirish uchun taqdim etish;

3. YPX xodimiga sovg'a, moddiy qimmatliklar taklif qilmaslik yoki boshqa shaklda manfaatdor etishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirmaslik;

4. Mansab vakolatini suiiste'mol qilgan holda xizmat guvohnomasini ko'rsatmaslik (qonun hujjatlarida sodir etgan qoidabuzarligi uchun ma'muriy javobgarlikning alohida tartibi belgilangan shaxslar bundan mustasno);

5. Yo'l harakatining boshqa qatnashchisi hamda YPX xodimi o'rtasidagi o'zaro munosabatga xalaqit bermasligi shart.

6. YPX xodimi qoidalarni buzgan yo'l harakati qatnashchisiga nisbatan huquqbuzarlik to'g'risida ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirish chog'ida shaxsiy adovati tufayli shaxsning ahvolini og'irlashtiruvchi tomonga o'zgartirishga harakat qilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Sodir etilgan huquqbuzarlikni yengillashtirish hisobiga boshqa huquqbuzarlikni rasmiylashtirish taqiqlanadi.

**QUYIDAGI HOLLARDA YPX XODIMI HAYDOVCHI YOKI YO'LOVCHILARDAN TRANSPORT VOSITASI KABINASIDAN CHIQISHINI TALAB QILISHGA HAQLI:**

- Transport vositasidagi texnik nosozlikni va yuk tashish qoidasi buzilganligini bartaraf etish maqsadida;
- Transport vositasiga tegishli hujjatlar yoki unda olib ketilayotgan yuk hujjatlari mavjudligini tekshirish zarurati yuzaga kelganda;
- Boshqa yo'l harakati ishtirokchilariga yordam ko'rsatish maqsadida;
- Haydovchi transport vositasini mast holda boshqarayotgan deb hisoblashga yetarli asoslar mavjud bo'lganda;
- Transport vositasining dvigatel va agregat qismlari raqamlarini ro'yxatlash hujjatlari bilan solishtirish maqsadida;
- Haydovchi yoki yo'lovchi jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotganda;
- Haydovchining transport vositasi kabinasida bo'lishi yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga tahdid solishi mumkin bo'lgan hollarda;

## YPX XODIMI O'Z XIZMAT VAZIFALARINI BAJARISHDA QUYIDAGILARGA MAJBUR

- Yo'l harakati qatnashchilari bilan vazmin, xushmuomalada bo'lish hamda «Siz» deb murojaat qilish, ular bilan o'zaro munosabatlarda muomala madaniyati va qonuniylikka rioya qilish;
- Yo'l harakati qatnashchilariga ularni to'xtatish sababini, sodir etilgan huquqbuzarlik yuzasidan aniq, lo'nda tushuntirish berish;
- Belgilangan tartibda berilgan ko'rsatmaga asosan yo'l harakati qatnashchilarining harakatini cheklash yoki taqiqlash;
- Haydovchiga nisbatan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma rasmiylashtirish chog'ida unga huquq va majburiyatlarini tushuntirish;
- Mobil videokameradan foydalanayotganini ma'lum qilish va kelgusida noqonuniy xatti-harakatlar sodir etsa, aybini isbotlash uchun video yozuvdan foydalanishi haqida ogohlantirish;
- Vizual kuzatuv hamda maxsus moslamalardan foydalangan holda qoidalar buzilganligini aniqlash;
- Haydovchi yoniga borish, o'zini tanishtirish, uning talabiga ko'ra ko'krak nishon belgisini ma'lum qilish va xizmat guvohnomasini ochiq holda ko'rsatish;
- Xizmat vazifalarini mobil videokameradan foydalangan holda oshkora olib borish;

# YPX XODIMI O'Z XIZMAT VAZIFALARINI BAJARISHDA QUYIDAGILARGA MAJBUR

1. Huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq o'z vaqtida tegishli choralarni ko'rish;

   O'ziga xizmat yuzasidan biriktirilgan transport vositasi, ko'krak nishon belgisi, aloqa vositasi va maxsus moslamalarni yaroqli holatda saqlashi, ulardan faqat xizmat faoliyatida maqsadli foydalanish;

2. Huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish choralarini ko'rish;

   Ruxsat etilmagan, sertifikatga ega bo'lmagan, yoki belgilangan tartibda IIOlari hisobida mavjud bo'lmagan maxsus moslamalardan foydalanmaslik;

3. YTX sodir bo'lgan joy holatini o'zgartirish, dalillar yo'qotilishining oldini olish maqsadida hodisa joyini o'rab olish choralarini ko'rish;

   Tezligini oshirib, qoidalarni buzgan haydovchini moslamaning ko'rsatkichlari bilan tanishtirish, uning talabiga ko'ra moslamaning qiyoslash sertifikatini ko'rsatish;

4. Huquqbuzarlikdan yoki baxtsiz hodisalardan jabrlanganlarga, hayoti xavf ostida qolgan, tibbiy yordamga muhtoj bo'lgan shaxslarga hamda YTX oqibatida shikastlangan transport vositalarini belgilangan joyga olib borishda fuqarolarga yordam ko'rsatish;

   Jismoniy kuch ishlatilgani va maxsus vositalar qo'llangani natijasida o'zining bevosita boshlig'i hamda nazorat qiluvchi prokurorga darhol xabar berish; yo'l harakati qatnashchilariga yuqori turuvchi organ yoki sudga shikoyat qilish huquqini tushuntirish.

# TOSHKENT VA O‘ZBEKISTON BO‘YLAB HAYDOVCHILAR UCHUN ISHONCH TELEFONLARI

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining yagona qisqa ishonch telefoni:

**11-02**

Ushbu telefon orqali fuqarolar huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari haqida xabar berishlari mumkin. Ishonch telefoniga qo‘ng‘iroq bepul, raqam butun O‘zbekiston bo‘ylab ishlaydi.

Toshkent shahar IIBB ishonch telefoni:

**+ 998 (71) 232-03-30;**

Toshkent shahar IIBB YHX boshqarmasi:

**+998 (71) 233-39-39; +998 (71) 255-93-57, +998 (71) 271-70-08, +998 (71) 271-70-06;**

Kamera va foto radarlardan jarimalar bo‘yicha:

**+998 71 254-22-16.**

Yo‘llar, yo‘l belgilari va belgilar holati va ishlamaydigan svetoforlarning shikoyatlari bo‘yicha:

**+998-71-281-52-58, +998-71-281-52-88**

O‘zbekiston Respublikasi avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasining ishonch telefoni:

**+998 71 237-26-23**

Notariusning harakatlariga shikoyat qilish Adliya vazirligining ishonch telefoni **10-08**

Viloyatlarlar IIB va Qoraqalpog‘iston Respublikasi ichki ishlar vazirligining ishonch telefonlari:

Andijon viloyati IIB **(8-374)-224-87-50**
Buxoro viloyati IIB **(8-365)-224-64-86**
Jizzax viloyati IIB **(8-372)-226-03-02**
Qashqadaryo viloyati IIB **(8-375)-221-82-45**
Navoiy viloyati IIB **(8-436)-223-06-71**
Namangan viloyati IIB **(8-369)-226-60-55**
Samarqand viloyati IIB **(8-366)-233-00-00**
Surxondaryo viloyati IIB **(8-376)-227-25-51**
Sirdaryo viloyati IIB **(8-367)-225-33-30**
Toshkent viloyati IIB **71-264-18-32 /71-266-67-22**
Farg‘ona viloyati IIB **(8-373)-224-29-08**
Xorazm viloyati IIB **(8-362)-226-37-10**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV **(8-361) 222-56-76.**

## MUNDARIJA


Kirish so'zi 3
1-bob. Umumiy qoidalar 4
2-bob. Haydovchilarning umumiy vazifalari 12
3-bob. Yo'l-transport hodisasi sodir bo'lganda haydovchining majburiyatlari 21
4-bob. Piyodalarning majburiyatlari 25
5-bob. Yo'lovchilarning majburiyatlari 29
6-bob. Maxsus transport vositalarining imtiyozlari 30
7-bob. Svetofor va tartibga soluvchining ishoralari 34
8-bob. Ogohlantiruvchi va avariya (xavf-xatar) ishoralari 40
9-bob. Harakatlanishni boshlash, manyovr qilish 43
10-bob. Yo'lning qatnov qismida transport vositalarining joylashuvi 48
11-bob. Harakatlanish tezligi 53
Transport vositalarining harakatlanish tezligi 55
12-bob. Quvib o'tish 58
13-bob. To'xtash va to'xtab turish 61
14-bob. Chorrahalarda harakatlanish 67
15-bob. Tartibga solingan chorrahalar 68
16-bob. Tartibga solinmagan chorrahalar 69
17-bob. Piyodalarning o'tish joylari va yo'nalishli transport vositalarining bekatlari 72
18-bob. Temir yo'l kesishmalari orqali harakatlanish 74
19-bob. Avtomagistrallarda harakatlanish 77
20-bob. Turar joy dahalarida harakatlanish 79
21-bob. Tik balandlik va nishabliklarda harakatlanish 79
22-bob. Yo'nalishli transport vositalarining imtiyozlari 81
23-bob. Tashqi yoritish asboblaridan foydalanish 83
24-bob. Mexanik transport vositalarini shatakka olish 86
25-bob. Transport vositalarini boshqarishni o'rgatish 89
26-bob. Odam tashish 91
27-bob. Yuk tashish 93
28-bob. Velosiped, moped va aravalar harakatlanishiga, shuningdek, hayvonlarni haydab o'tishga doir qo'shimcha talablar 96
29-bob. Mansabdor shaxslarning va fuqarolarning yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, transport vositalarini yo'lga chiqarish, raqam va taniqlik belgilarini o'rnatish bo'yicha majburiyatlari 98

Transport vositalarining raqam va taniqlik belgilari 105
YO'L BELGILARI 122
1-Ilova. Yo'l belgilari 122
Ogohlantiruvchi belgilar 122
Imtiyoz belgilari 131
Taqiqlovchi belgilar 134
Buyuruvchi belgilar 144
Axborot-ko'rsatkich belgilar 149
Servis belgilari 163
Qo'shimcha axborot belgilari 164

60 000


2-Ilova. Yotiq chiziqlari ........ 172

Tik chiziqlari ........ 177

3-Ilova. Transport vositalaridan foydalanishni taqiqlovchi shartlar ........ 180

Avtotransport vositalarining tasnifi ........ 186

4-Ilova. Xavflilik belgilari ........ 189

Avtohalokatlarda shoshilinch birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish qoidalari va talablari ........ 191

Testlarga javoblar ........ 197

Yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik ........ 198

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2011 yil 23 noyabrdagi 174-sonli buyrug‘iga ilova ........ 209

Tonirovka. Ommabop savollarga javoblar ........ 212

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 1 dekabrdagi 975-sonli qaroriga ilova ........ 225



Akmal Akbarovich Akilov,
1995 -2010 yillarda
Shvetsariyadagi Xalqaro Yo'l
Harakati tashkilotida O'zR IIV
muxtor vakili, O'zR IIV
Akademiyasi "Yo'l-transport
harakati xavfsizligini tashkil
etish" kafedrasi boshlig'i,
polkovnik



Shuhrat Shoirovich
Rizayev
O'zR IIV Akademiyasi
"Yo'l-transport harakati
xavfsizligini tashkil etish"
kafedrasi o'qituvchisi,
podpolkovnik

ISBN 978-9943-4591-3-7

9 789943 459137

*САВДО БЎЛИМИ:*
*+998 99-865-54-50*

AVTO HAMROH NASHRIYOTI